

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
MA'NAViyAT VA DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH  
MASALALARI DEPARTAMENTI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MUXITDINOVA XADICHA SOBIROVNA

# O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISH METODIKASI

*(O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligi Muvofiqlashtiruvchi kengashi qarori  
bilan tavsiya etilgan)*

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2023

**UO‘K 37.02:811.512.133**

**KBK 74.26 81.2 O‘zb**

**M 96**

*Taqrizchilar:*

**Muhamedova S. X.** – filologiya fanlari doktori, professor  
Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU

**Niyozmetova R. H.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU

**Muxitdinova, Xadicha.**

O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi [Matn]: o‘quv  
qo‘llanma / X. Muxitdinova. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashri-  
yot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 312 b.

**UO‘K 37.02:811.512.133**

**KBK 74.26 81.2 O‘zb**

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.*

**ISBN 978-9943-8835-3-6**

© G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-  
matbaa ijodiy uyi, 2023

## 1-MAVZU. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

### REJA:

1. O‘zbek tilini o‘qitishning maqsad va vazifalari.
2. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish xususiyatlari.
3. O‘zbek tili ta’limini takomillashtirish masalalari.

**Tayanch tushunchalar:** ona tili ta’limi, chet tili ta’limi, tilni ikkinchi til sifatida o‘qitish, til muhiti, davlat tili ta’limi, o‘zbek tilining nufuzi va mavqeini oshirish, me’yoriy hujjatlar, umumta’lim maktablari, ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar, davlat ta’lim standartlari talablarini takomillashtirish.

“Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun va istiqloq tufayli o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi ona tilimizning keyingi rivoji uchun keng ufqlarni ochdi. Ona tilimiz respublikamizning asosiy muomala, aloqa vositasiga aylandi, ilmiy, badiiy, rasmiy til sifatida keng miqyosda qo‘llana boshladi. O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Davlat tili haqida”gi Qonuni tomonidan belgilangan davlat tili sifatidagi maqomi ona tilimizning ijtimoiy vazifalari va rasmiy-idoraviy muloqot yuritishdagi mavqeini yanada kengaytirishning mustahkam asosi bo‘lib, yoshlarga milliy istiqloq g‘oyalari, vatanparvarlik, elimizga sadoqat tuyg‘ularini singdirishda, ularning barkamol avlod bo‘lib yetishishlari va ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning barcha jabhalarida keng faoliyat olib borib, yurtimizning ravnaqi uchun xizmat qilishlarida davlat tili ta’limining ahamiyati nihoyatda kattadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-oktyabr-dagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 5850-sonli Farmoni ta’lim muassasalarida davlat tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilganligi bilan o‘zbek tilining taraqqiyotida yangi sahifalarni ochdi. Farmonda o‘zbek tilining mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar va elatlar tomonidan o‘rganilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, uning ijrosini ta’minlash uchun o‘zbek tilidan tuzilgan dasturlarni

yanada takomillashtirish, darsliklarni mazmunan va metodik tomondan tubdan yaxshilash taqozo etiladi.

O‘zbekistonda yashovchi barcha fuqarolar respublikamizning davlat tilida erkin muloqot yurita olishlari, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma bayon qila olishlari respublikamiz aholisining bahamjihatlik va do‘stlikda yashashlari, birgalikda mehnat qilib vatanimiz iqtisodini yanada yuksaltirishlarining muhim omillaridan biridir. Hozirgi kunda respublikamizda yashovchi turli millatlarga mansub fuqarolar o‘zbek tilini faqat so‘zlashuv – og‘zaki muloqot vositasi sifatidagina bilishning kifoya qilmasligini, davlat tilida to‘g‘ri gapirish va to‘g‘ri yoza olishlari, turli mavzularda va ayniqsa o‘z mutaxassisligi doirasida o‘z fikrini erkin bayon eta olishlari hamda davlat tilida yozma rasmiy ish yuritish malakalariga ega bo‘lishlari zarurligini e‘tirof etmoqdalar. O‘zbek xalqining madaniyati va urf-odatlarini bilish, milliy-ma‘naviy qadriyatlarimizni e‘zozlash mamlakatimizda yashovchi boshqa millatlarning ma‘naviy burchi va hayotiy ehtiyojiga aylanmoqda.

Ma‘lumki, respublikamizda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida ta‘lim 7 tilda: o‘zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman tillarida olib boriladi. O‘zbek tilining respublikamizdagi ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan umumta‘lim maktablarida va uzluksiz ta‘lim tizimining keyingi bosqichlarida esa ta‘lim rus va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan guruhlarda davlat tili sifatida o‘qitilishidan ko‘zlangan **asosiy maqsad** mamlakatimizda yashovchi turli millatlar farzandlarining o‘zbek tilini kundalik turmushda va ijtimoiy faoliyati jarayonida turli insonlar o‘rtasidagi og‘zaki va yozma muloqot yuritish ko‘nikmalarini tarkib topdirishdan iborat.

Ta‘lim jarayonida bilimlar, ko‘nikma va malakalarni kimga berish, ya‘ni kimlar ta‘lim subyekti ekanligi nihoyatda muhim bo‘lib, shundan kelib chiqqan holda til ta‘limida tilni ona tili sifatida o‘qitish va chet tili (yoki ikkinchi til) sifatida o‘qitish farqlanadi. Til o‘qitishda bu juda muhim bo‘lib, ta‘lim mazmuniga ham, ta‘lim metodlariga ta‘sir qilmay qolmaydi. Tilni ona tili sifatida o‘qitishda til o‘z egalariga, shu tilda so‘zlashuvchilarga o‘qitiladi, ya‘ni ta‘lim subyektlari shu tilda nutqqa ega bo‘lgan insonlar hisoblanadi. Psixolog olim L.S.Vigotskiy ona tili va ikkinchi til ta‘limining pedagogik-psixologik usullari bir-biriga qarama-qarshi ekanligi haqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: *“Ona tilini*

*o'rganish pastdan yuqoriga, xorijiy tilni egallash esa yuqoridan pastga yo'nalishida amalga oshiriladi*"<sup>1</sup>. Bunda pastdan yuqoriga yo'nalishda so'zlovchida mavjud amaliy nutq ko'nikmalarini taxrir qilish, yuqoridan pastga yo'nalishda esa tilga oid nutq ko'nikmalarini shakllantirish tushuniladi. Shu bois ma'lumotlar, qoidalarning mazmuni, berilish shakli va o'rni tilning qaysi jihatdan o'rganilayotganiga ko'ra tanlanishi va shunga mos tartibda taqsimlanishi kerak bo'ladi. Til chet tili yoki ikkinchi til sifatida o'qitilganda bilimlarni lingvistik aspektdagi kabi chuqur va keng emas, balki kommunikativ tarzda, ya'ni muayyan muloqotni ta'minlaydigan leksik va grammatik minimumlar doirasida berib borilishi taqozo etiladi. Til ona tili sifatida o'rganilayotganda tilning grammatik tuzilishi haqidagi ma'lumotlarni tizimli ravishda, izchillikda o'rgatish maqsadga muvofiq bo'lsa, chet tili sifatida o'rganilayotganda grammatik bilimlarni sof amaliy, ya'ni nutqiy faoliyatni rivojlantirish maqsadiga yo'naltirilgan holda berilishi kerak bo'ladi. Muayyan bir tilda erkin so'zlashish imkoniyatiga ega bo'lish uchun 2000 ga yaqin so'zni bilish, yaxshi o'qish va tushunish uchun 4000–5000 atrofidagi lug'aviy birlikni egallashi lozimligi mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan. Ayrimlar bunday minimumni katta hajmdagi matnlarni mustaqil o'qish orqali ajratish va retseptiv idrok qilish mumkin deb hisoblasalar-da, olib borilgan maxsus tekshiruvlar bu fikrni tasdiqlamaydi. Jumladan, psixolingvist G.I.Bogin o'z tajribasida aniqlashicha, filolog-talabalari 100 o'quv haftasi davomida har haftada 30 sahifadan asar o'qib, matnni qariyb yod olishi mumkin. Biroq bu leksik va grammatik materialni to'liq o'zlashtirishda unchalik katta natija bermaydi, chunki o'qib chiqilgan 3000 sahifada barcha lug'aviy va grammatik birliklar uchramaydi yoki qayta takrorlanmaydi<sup>2</sup>.

Tilni chet tili yoki ikkinchi til sifatida o'qitishda asosiy e'tibor tilning nutqqa bog'liq tomonlariga qaratilgani uchun muammoli masalalar anchagina bo'lib, bu bilan metodistlar ham, psixolog olimlar ham shug'ullanib keladilar. Psixologlarning ta'kidlashicha, o'quvchilarda ikkilamchi til malakasining hosil bo'lish yo'li birlamchi – ona tili malakasi va ko'nikmasi orqali yuz beradi.

<sup>1</sup> Выготский Л. С. Мышление и речь // Избранные психологические исследования. – Москва: Педагогика, 1956. – С. 291.

<sup>2</sup> Богин Г. И. Роль чтения в профессиональной подготовке учителя и иностранного языка // Иностранные языки в высшей школе. – Москва: 1974. – № 8. – С. 21–24.

Demak, ikkinchi bir tilda soʻzlash malakasining hosil boʻlishi, avvalo, ushbu tilda fikr ifodalashga yordam beruvchi til vositalarini qoʻllash koʻnikmalarini shakllantirish va nutqiy muloqot jarayonida ulardan erkin va mujassam holda foydalanish qobiliyatiga bogʻliq boʻlib, bunday qobiliyat esa insonda ona tili malakalari asosiga qurilgan nutqiy koʻnikmalar asosida shakllanadi.

Tilni chet tili yoki ikkinchi til sifatida oʻqitilishida yana 2 muhim jihatga: tilni til muhiti boʻlmagan joyda oʻrgatish va tilni til muhitida oʻrgatishga ham eʼtibor qaratish lozim. Birinchi holat xorijiy tillarni oʻrganish va oʻrgatishga taalluqli boʻlsa, ikkinchi holatda biror mamlakatda yashovchi turli tillar vakillariga shu mamlakatning davlat tilini oʻrgatish nazarda tutiladi. Jumladan, Oʻzbekistonda yashovchi turli millatlar vakillariga oʻzbek tilini oʻrgatish yoki Rossiya, Hindiston kabi koʻp millatli mamlakatlarda yashovchi turli millatlar vakillariga rus tilini, hindu tilini oʻrgatish kabi holatlar aynan shunga misol boʻla oladi.

Maʼlumki, har bir tilning davlat miqyosidagi maqomi uning mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy oʻrni, jugʻrofiy-siyosiy holati kabi qator omillardan kelib chiqadi. Jumladan, Oʻzbekistonda umumiy oʻrta taʼlim 7 tilda olib borilishi, bular orasida qozoq, qirgʻiz, turkman, qoraqalpoq tillari bir oilaga mansub qardosh tillar ekanligi eʼtiborga olinsa, ularga nisbatan oʻzbek tilini xorijiy til sifatida oʻqitish atamasini qoʻllash nojoiz boʻladi. Ayni paytda, taʼlim rus tilida olib boriladigan guruhlarda turkiy millatlar vakillari, hatto oʻzbeklar ham taʼlim olayotgani va, eng asosiysi, ushbu turli millatlar vakillarining Oʻzbekistonda tugʻilib, respublikamizda muqim yashayotganligi ham nazarda tutilsa, oʻzbek tilini ikkinchi til yoki xorijiy til sifatida emas, aynan davlat tili sifatida oʻqitish maqsadga muvofiqligi yaqqol koʻrinadi.

Respublikamizda ona tilimizning davlat tili sifatidagi nufuzini yanada koʻtarish va oʻzbek tilini uzluksiz taʼlim bosqichlarida oʻqitilishi sifatini yaxshilashga jiddiy eʼtibor qaratilmoqda. Keyingi yillarda bu masala boʻyicha qator Farmon va qarorlar eʼlon qilindi. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat tilini rivojlantirish departamenti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etildi. Oʻzbek tilining 2020–2030 yillarda rivojlantirish konsepsiyasida taʼlim bosqichlarida davlat tilini oʻqitishning zamonaviy metodikasini yaratish, oʻzbek tilini turli millatlar vakillariga, shu-

ningdek, chet mamlakatlarda ham o'rganilishining o'quv-uslubiy ta'minotini ishlab chiqish vazifalari belgilangan.

Ma'lumki, islohotdan avval o'qishlar rus tilida olib boriladigan umumta'lim maktablarida, shuningdek, oliy o'quv yurtlarining rus guruhlarida ham o'zbek tili darslari ona tili metodikasi asosida o'qitilar, ya'ni milliy guruhlardagi ona tili fani kabi o'zbek tilining barcha bo'limlari: fonetika, leksika, morfologiya, sintaksisdan biroz qisqartirilgan ma'lumotlar berilar, bunda asosiy farq grammatik qoidalarning qisqa va asosan rus tilida yoki ayrim hollarda o'zbek va rus tillarida berilishida bo'lar edi. Mashqlarda ham odatda sof grammatik topshiriqlar berish, terma gaplarni rus tiliga yoki o'zbek tiliga tarjima qildirish bilan cheklanilar edi. O'qitishning bu usuli, ayniqsa, qoidalarning rus tilida ham berilishi natijasida rusiyzabon o'quvchilar grammatik qoidalarni quruq yod olish bilan cheklanib, **o'zbek tilini tushunadigan, ammo o'zbek tilida gapira olmaydigan** bo'lib qoldilar. Ushbu darsliklarda o'quvchilarni nutqiy muloqotga undaydigan, o'quvchilarda o'zbek tilida so'zlashish ehtiyojini yuzaga keltiradigan, so'zlardan so'z birikmalari, so'z birikmalaridan gaplar, gaplardan matnlar tuzishga yo'naltiradigan mashqlar va topshiriqlar tizimi deyarli yo'q edi.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda va o'zga tilli guruhlarida o'zbek tilini o'qitishdan asosiy maqsad o'quvchilarga o'zbek tili grammatikasini o'rgatish emas, balki ularda o'zbekcha nutqiy ko'nikmalarni hosil qildirishdir. Buning uchun turli gap qurilmalarini o'rgatish, zarur bo'lgan grammatik bilimlarni, so'z va so'z birikmalarining bog'lanish qoidalarini esa nutqiy ehtiyoj, fikr ifodalash maqsadidan kelib chiqqan holda o'rgatish talab qilinadi. Ko'rinadiki, tilni ona tili sifatida o'qitish bilan ikkinchi til sifatida o'qitish bir-biridan farqli bo'lib, o'ziga xosliklarga ega.

Respublikamiz ta'lim bosqichlarida o'zbek tilini o'qitishni takomillashtirish, buning uchun o'zbek tili ta'limi mazmunini til ta'limining xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish, o'zbek tilini o'qitishning ilmiy asoslangan yangi konseptual tamoyillarini belgilash, ta'lim jarayoniga o'zbek tilini o'qitishning o'ziga xos jihatlardan kelib chiqadigan samarali usullarini tatbiq etish zarur bo'ladi. Ushbu maqsadga erishish uchun:

– ta'limning barcha bosqichlarida (maktabgacha ta'lim, umumta'lim, litsey va kollejlar, bakalavriat va magistratura) o'zbek tilini uzviylik va uzluksizlik asosida o'qitishni tashkil etish;

– o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishning samarali metodikasini yaratish, o‘ziga xos mashqlar va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va ta’lim jarayonida qo‘llashga erishish;

– o‘zbek tili ta’limi jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot kommunikativ texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo‘llashga jiddiy e’tibor qaratish;

– o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishga yo‘naltirilgan kompyuter o‘quv dasturlari, multimedia ishlanmalari, elektron darsliklar yaratish hamda ularni ta’lim tizimiga faol tatbiq etish kabi vazifalarni hal qilish zarur.

Demak, ona tilimizning respublikamiz hududida millatlararo asosiy muloqot vositasiga aylanib borishi ko‘p jihatdan umumta’lim maktablari, akademik litseylar, kollejlari hamda oliy ta’lim tizimida o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tilining o‘qitilishi, ularda amal qilinayotgan o‘quv dasturlari va darsliklar mazmuniga bog‘liq. Ushbu vazifalarni amalga oshirish “O‘zbek tili” fanidan har bir ta’lim bosqichi uchun davlat ta’lim standartlari talablari va o‘quv dasturlari mazmunini quyidagilarga amal qilgan holda takomillashtirish kerak bo‘ladi:

– o‘zbek tilidan davlat ta’lim standartlari talablarini til ta’limining xalqaro standartlari darajalariga muvofiqlashtirish, ya’ni respublikamiz uluksiz ta’lim tizimi bosqichlari bitiruvchilari uchun belgilangan talablarni xalqaro standartlarning A<sub>1</sub>, A<sub>2</sub>, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, C<sub>1</sub>, C<sub>2</sub> darajalariga mos holda takomillashtirish;

– o‘zbek tili ta’limi mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida isloh qilish, ya’ni o‘quvchilar mazkur fan orqali egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish layoqatini shakllantirishga yo‘naltirish;

– ta’lim bosqichlariaro uzluksizlikka amal qilish, ya’ni umumiy o‘rta sinflar uchun rejalashtirilgan o‘quv dasturi boshlang‘ich sinflar uchun o‘zbek tilidan o‘quv dasturining tadrjijiy davomi va ayni paytda o‘rta maxsus ta’lim bosqichi akademik litseylari va kasb-hunar kollejlari uchun asos bo‘lishiga erishish;

– davlat ta’lim standartlarida belgilangan talablar asosida har bir ta’lim bosqichi uchun o‘zbek tilidan beriladigan faol va nafaol leksik-grammatik minimumni aniqlash hamda ularni bosqichdan bosqichga rivojlantirib borilishiga erishish.



– mavzulararo izchillik va uzviylik tamoyiliga rioya qilish, yaʼni nutqiy mavzular, grammatik mavzular hamda adabiy oʻqish materiallarining muayyan izchillikda va oʻzaro uzviy bogʻliqlikda berilishiga, oʻquvchilarning yosh xususiyatlariga mos boʻlishiga, ularning osondan qiyinga, oddiydan murakkabga tomon tadrijiy oʻstirib borilishini taʼminlashga erishish;

– adabiy oʻqish materiallari orqali boshqa millatlar farzandlarini oʻzbek adabiyotining nodir va mashhur namunalari bilan tanishtirish, ularda oʻzbek adabiyotiga qiziqish uygʻotish, ularning adabiy tildagi soʻz boyligini oshirib borish.

Ushbu vazifalarning barchasi taʼlim oluvchilarda oʻzbek tili-dan egallangan bilimlar asosida amaliy nutqiy koʻnikmalarni shakllantirish, ularni bosqichma-bosqich nutqiy malakaga aylantirib borish hamda ushbu bilim, koʻnikma va malakalarni turli muloqot vaziyatlarida erkin qoʻllash layoqatini, yaʼni nutqiy kompetensiyani tarkib topdirishga qaratiladi. Buning uchun har bir dars jarayonida til faoliyatining barcha turlari: tinglab tushunish, gapirish, oʻqish, yozish amallari boʻyicha bir yoʻla ish olib borilishi kerak.

Tillarni oʻrganishda til taʼlimining eng samarali intensiv metodlarini ishlab chiqish masalalariga hamisha katta eʼtibor qaratib kelingan, til oʻqitish metodlari muntazam takomillashtirib borilgan. Oʻqitish metodlari taʼlim jarayonida oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyatining qanday kechishi, oʻqitish jarayonini qanday tashkil etish, qay tarzda olib borish kerakligini belgilab beradi. Bugungi kun oʻqituvchisi har bir mashgʻulotga kirar ekan, har doim uning oldida darsni qanday tashkil etish kerak, qaysi didaktik materialdan qay tarzda foydalanish kerak, ushbu mavzuni oʻtishda qaysi metodlardan foydalanish samarali boʻladi, degan savol turadi. Darsda koʻzda tutilgan taʼlimiy-tarbiyaviy maqsadlarga erishishda oʻqituvchining oʻz mutaxassisligi doirasidagi chuqur bilimi, intellektual salohiyatining oʻzi etarli emas. Bugungi kun oʻqituvchisi oʻz fani boʻyicha belgilangan davlat standartlari talablarini, ushbu talablarini bajarishda natijaviylikni taʼminlashning samarali metodlarini va taʼlim oluvchilarning kompetentlik darajasini baholash mezonlarini yaxshi bilishi kerak boʻladi.

Keyingi yillarda Oʻzbekiston Respublikasi “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonunining sifat bosqichi talablari asosida umumtaʼlim maktablari uchun yaratiladigan barcha darsliklar uslubiy-metodik qoʻllanmalari bilan birgalikda yaratildi va natijada bir qa-

tor o‘quv-metodik qo‘llanmalar chop etildi. Biroq ushbu metodik qo‘llanmalarda “O‘zbek tili” fanini muayyan sinflarda o‘quv-taqvimiylar asosida o‘qitish usuliyoti berilgan bo‘lib, (ushbu qo‘llanmalarining nomlanishi ham buni isbotlaydi), o‘zbek tilini o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari va tamoyillari, ona tili va xorijiy tillarni o‘qitishdan farqli jihatlari, boshqa millat vakillarining o‘zbek tilidan og‘zaki va yozma nutqini shakllantirish va rivojlantirishni intensivlashtirish masalalari yoritilmagan. B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva va T.Ziyodovalar hammuallifligida yozilgan “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” ona tilini o‘qitish masalalariga, metodist olim R.A.Yo‘ldoshevning bevosita rus guruhlarida o‘zbek tilini o‘qitishga bag‘ishlangan “O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini ularni ko‘p gapirtirish orqali o‘stirish metodikasi” va “Ta‘lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” qo‘llanmalari esa ta‘lim rus tilida olib boriladigan maktablar o‘quvchilarining og‘zaki nutqini o‘stirishga qaratilgan.

Istiqloq yillarida ta‘lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablar uchun o‘zbek tilidan o‘quv dasturlari va shu asosda darsliklar mazmuni ham bir necha bor isloh qilindi, davlat ta‘lim standartlari talablari xalqaro talablar asosida takomillashtirildi. Biroq o‘qituvchilarni o‘zbek tili ta‘limining yangi yondashuvlari va tamoyillari bilan tanishtirish, modernizatsiyalashgan darsliklar asosida ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlarda dars berish metodikasini o‘rgatishga bag‘ishlangan metodik qo‘llanma yaratilmagani esa ushbu muammolar hali ham dolzarbligicha qolayotganidan dalolat beradi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. O‘zbek tilini o‘zga tili guruhlarda o‘qitishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni moddalari mazmunini sharhlang.
3. O‘zbek tilini o‘qitishni takomillashtirish va xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish uchun qanday vazifalarni amalga oshirish talab etiladi?
4. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘zlab bering.
5. Respublikamizda o‘zbek tilining nufuzi va mavqeini oshirish uchun qanday me‘yoriy hujjatlar qabul qilingan?

6. O'qitish metodlari nimalarni belgilab beradi?
7. Bugungi kun o'qituvchisi belgilangan davlat standartlari talablarini bajarishda natijaviylikni ta'minlash uchun nimalarni bilishi kerak?
8. Respublikamizda davlat tili ta'limini yaxshilash borasida qanday me'yoriy hujjatlar qabul qilingan?
9. Keyingi yillarda respublikamizda davlat tili amaliyotini va ta'limini yaxshilash borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Выготский Л.С. Мышление и речь // Избранные психологические исследования. – Москва: Педагогика, 1956. – С. 291.
2. Богин Г. И. Роль чтения в профессиональной подготовке учителя и иностранного языка // Иностранные языки в высшей школе. – Москва: 1974. – № 8. – С. 21–24.
3. Пассов Е. И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному говорению. – Москва: Просвещение, 1989. – С. 277.
4. То'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. – O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2006.
5. Yo'ldoshev R.A. O'zbek tili darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqini ularni ko'p gapirtirish orqali o'stirish metodikasi. – T.: Fan va texnologiyalar. – 2012.
6. Yo'ldoshev R.A. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'zPFTI, 2015.
7. Muxitdinova X.S. O'zbek tilini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari (monografiya). – Toshkent, Vneshinvestprom, 2021.

## **2-MAVZU. O'ZBEK TILINI O'QITISH METODIKASINING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI**

### **REJA:**

1. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishning asosiy tamoyillari.
2. O'zbek tilini o'qitishning zamonaviy yondashuvlari.
3. O'zbek tili ta'limiga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish.

**Tayanch tushunchalar:** ona tili, o'zbek tili, davlat tili atamallari, tilni ikkinchi til sifatida o'qitish tamoyillari: aspektlar, struktura, aspektli struktura, transformatsiyalash, ideografik grammatika, funksional tuzilish, ingvistik yoki an'anaviy tizimli tamoyillar; kommunikativ, funksional-semantik, kompetensiyaviy yondashuvlar; nutqiy modellar, nutqiy qurilmalar, tayanch va fanga oid kompetensiyalar; nutqiy, lingvistik, ijtimoiy-madaniy, pragmatik kompetensiyalar.

## 2.1. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishning asosiy tamoyillari

Jamiyatda tilning amaliy ahamiyati nihoyatda katta, shu bois har bir mamlakatda tillarni o‘qitish, o‘rganish masalalariga jiddiy e‘tibor qaratiladi. Til ta’limida tilni ona tili sifatida, ikkinchi til yoki xorijiy til sifatida o‘qitilishi o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Bu o‘quv fanlarining nomlanishida ham aks etadi. Tub aholi tilining boshqa millat vakillari tomonidan o‘rganilishi turli tillarda turlicha nomlanishi ham kuzatiladi. Jumladan, Tatariston Respublikasida davlat tilini o‘qitish bo‘yicha qabul qilingan konsepsiyada tatar tilini tatarlarga ona tili sifatida, tatar bo‘lmaganlarga xorijiy til sifatida o‘qitish qayd etilgan. Rus tilini o‘qitish masalalari bo‘yicha olib borilgan metodik tadqiqotlarda ham “rus tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish (обучение русскому языку как второму или как неродному)” atamasi qo‘llanib kelingan.

Shundan kelib chiqib, ta’lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o‘zbek tilini o‘qitishda ham “o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish” atamasi ishlatilib kelindi. Keyingi yillarda esa umumiy o‘rta ta’lim bosqichi o‘quv dasturlarida milliy maktablarda o‘zbek tilini o‘qitishga nisbatan **ona tili** atamasi, ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda esa **o‘zbek tili** atamasi qo‘llana boshlandi. Shunga mos holda ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun chop etilayotgan darsliklar ham “O‘zbek tili” deb, o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tilini o‘qitish “**davlat tili ta’limi**” deb nomlanmoqda.

O‘zbek tili ta’limi tarixiga nazar tashlansa, o‘zbek tilini boshqa millatlar vakillariga o‘qitish 1906-yildan, o‘zbek tili ta’limi yuzasidan olib borilgan ilk tadqiqot ishlari esa 30-yillardan boshlanganligini ko‘rish mumkin. O‘zbek tilini boshqa millat vakillariga o‘rgatish Turkiston o‘lkasida rus-tuzem maktablarining tashkil qilinishi bilan bog‘liq bo‘lib, Turkiston hududida yashovchi boshqa millat vakillariga o‘zbek tilini o‘rgatishga bag‘ishlangan dastlabki o‘quv qo‘llanmalarining paydo bo‘lishi aynan shu maktablarning faoliyati bilan bog‘liqdir.

O‘zbek tilining o‘quv rejalariga asosiy fanlardan biri sifatida kiritilishi esa 1933-yildan boshlangan bo‘lib, bu davrga kelib o‘zbek tili maktablardagina emas, balki oliy o‘quv yurtlarida ham o‘qitila boshlangan edi. Xususan, Turkiston Sharq institutida

rus guruhlari uchun maxsus o'zbek tili kafedrasining tashkil etilishi va hatto maxsus dastur asosida davlat muassasalarida ham o'zbek tilini o'rganishning tashkil qilinishi o'zbek tilining boshqa millatlar vakillariga o'qitilishida sezilarli siljishlar bo'lishiga olib keldi. O'zbek tilidan dastlabki o'quv dasturlari, lug'atlar rus metodist olimlari tomonidan tuzilgan edi. 1940-yillardan keyin aynan o'zbek tilini o'qitish metodikasiga va til ta'limining ayrim muammoli masalalariga bag'ishlangan bir qator qo'llanmalar yuzaga keldi, biroq ularda o'zbek tilini milliy maktablarda ona tili sifatida o'qitish masalalari yoritilgan bo'lib, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish mutlaqo e'tiborga olinmagan. O'zbek tili ta'limining keyingi rivojida o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari asosan umumta'lim bosqichida o'quvchilarning lug'at boyligini o'stirish va nofilologik oliy o'quv yurtlarida talabalar nutqini ixtisosiy leksika bilan boyitish masalalariga, ayrim olimlar esa o'zbek tili ta'limi bilan bog'liq ilmiy-metodik faoliyatlarini darsliklar, o'quv qo'llanmalar, lug'atlar yaratishga bag'ishlaganliklarini ko'rish mumkin.

Ma'lumki, islohotdan avval o'qishlar rus tilida olib boriladigan umumta'lim maktablarida, shuningdek, oliy o'quv yurtlarining rus guruhlarida ham o'zbek tili darslari ona tili metodikasi asosida o'qitilar, ya'ni milliy guruhlardagi ona tili fani kabi o'zbek tilining barcha bo'limlari: fonetika, leksika, morfologiya, sintaksisdan biroz qisqartirilgan ma'lumotlar berilar, bunda asosiy farq grammatik qoidalarning qisqa va asosan rus tilida yoki ayrim hollarda o'zbek va rus tillarida berilishida bo'lar edi. Mashqlarda ham odatda sof grammatik topshiriqlar berish, terma gaplarni rus tiliga yoki o'zbek tiliga tarjima qildirish bilan cheklanilar edi. O'qitishning bu usuli, ayniqsa, qoidalarning rus tilida ham berilishi natijasida rusiyzabon o'quvchilar grammatik qoidalarni quruq yod olish bilan cheklanib, yuqorida aytganimizdek, o'zbek tilini tushunadigan, ammo o'zbek tilida gapira olmaydigan bo'lib qoldilar. Ushbu darsliklarda o'quvchilarni nutqiy muloqotga undaydigan, o'quvchilarda o'zbek tilida so'zlashish ehtiyojini yuzaga keltiradigan, so'zlardan so'z birikmalari, so'z birikmalaridan gaplar, gaplardan matnlar tuzishga yo'naltiradigan mashqlar va topshiriqlar tizimi deyarli yo'q edi.

Aslida ta'lim o'zga tillarda olib boriladigan maktablar va guruhlarda o'zbek tilini o'qitishdan asosiy maqsad o'quvchilarga

o‘zbek tilining izchil grammatikasini o‘rgatish emas, balki ular-da o‘zbekcha nutqiy malakalarni shakllantirishdir. Buning uchun o‘zbek tilidagi faol nutqiy qurilmalarini o‘rgatish, grammatik bilimlar, so‘z va so‘z birikmalarining bog‘lanish qoidalarini esa nutqiy ehtiyoj, fikr ifodalash maqsadidan kelib chiqqan holda o‘rgatish talab qilinadi. Ko‘rinadiki, tilni ona tili sifatida o‘qitish bilan ikkinchi til sifatida o‘qitish o‘zaro qat’iy farqlanadi va alohida tamoyillarga tayanadi. Ikkinchi tilga o‘rgatishda asosiy e‘tibor tilning nutqqa bog‘liq tomonlariga qaratilgani va bu nafaqat lingvistik, balki fiziologiya, psixologiya, sotsiologiya fanlari bilan ham bevosita bog‘liq bo‘lgani uchun muammoli masalalar juda ko‘p bo‘lib, ular bilan metodist-olimlar ham, psixolog olimlar ham shug‘ullanib keladilar.

Til o‘rganishda asosan nutq, muloqot yuritish, kommunikatsiya masalalari yetakchi o‘rinda turgani uchun til ta’limi tamoyillarini belgilashda ko‘proq shu jihatga ustuvor ahamiyat beriladi. Jumladan, til ta’limida muloqot yuritishga o‘rgatishda qo‘llanib kelayotgan eng faol tamoyillar sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi<sup>3</sup>:

**1. Aspektlar tamoyili.** Ushbu tamoyilda tilni uning tuzilishdan kelib chiqqan holda 3 aspektda: fonetik, leksik va grammatik aspektda o‘rganish tavsiya etiladi. Bu tilni ona tili sifatida o‘rganish yo‘nalishida bo‘lib, nutqni o‘stirish uchun kerakli samarali natijalarni bermaydi.

**2. Struktura tamoyili.** Ushbu tamoyil amerika strukturalizmining yorqin namoyandalaridan biri Ch.Friz tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, uning asosiy g‘oyasi tillarni tuzilishiga ko‘ra qiyoslab o‘rganish va har ikki tilda o‘zaro farq qiluvchi modellarni ishlab chiqish, so‘ngra ushbu modellar asosida ikkinchi tilda gaplashish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat edi. Ammo bu tilni mexanik modellarga aylantirishga olib keldi va jonli nutqiy ko‘nikmalar hosil qilish borasida samarali natijalar bermadi.

**3. Aspektli struktura tamoyili.** Ushbu tamoyil “yangicha aspekt” deb ham ataladi. Uning asoschilaridan biri bo‘lgan I.V. Raxmanov til va nutq birligidan kelib chiqib, 4 ta nutq birligini ajratadi (sodda gaplar, kirish gapli sodda gaplar, qo‘shma gaplar

---

<sup>3</sup> Пассов Е. И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному говорению. – Москва: Просвещение, 1989. – С. 84–92; Пассов Е. И. Основы методики обучения иностранным языкам. – Москва: Русский язык, 1977.

va savol-javob tarzidagi gaplar) hamda ularning qo‘llanishi bilan bog‘liq nutqiy modellarni ishlab chiqqan. Biroq nutqdagi barcha gaplarni ham modellashtirib bo‘lmaydi.

**4. Transformatsiyalash tamoyili.** Amerika tilshunos olimlari Z.Xarris, F.French, N.Xomskiyalar ushbu tamoyil orqali har bir til-da mavjud bo‘ladigan bazis qoliplarni tanlab olish va ularni transformatsiyalash asosida fikr ifodalashga o‘rganishni ilgari suradilar. Xususan, ular ingliz tilini o‘rganish bo‘yicha F.French tomonidan tavsiya etilgan 7 ta bazis modelini kengaytirish, ixchamlashtirish, bir-biriga qo‘shish, ya’ni transformatsiyalash asosida o‘quvchilarni nutqiy muloqot yuritishga olib chiqish tavsiya etiladi.

**5. Funktsional tuzilish tamoyili.** Ushbu tamoyil asosida mazmundan uning ifoda shakllariga o‘tish g‘oyasi yotgan bo‘lib, muayyan vaziyatdagi fikrni ifodalashning turli shakllarini ko‘rsatish uchun nutqiy modellarni o‘rganish zarurligi ilgari suriladi. Ushbu tamoyilning asoschilaridan bo‘lgan I.L.Bim nutqiy modellarni nutqiy-kommunikativ maqsadlardan kelib chiqib umumlashtirishni va tilning amaliy qo‘llanishini namunaviy tarzda ko‘rsatib borishni taklif etadi.

**6. Ideografik grammatika yo‘nalishi.** Rus tilshunosligida 80-yillarda yuzaga kelgan ushbu yo‘nalishda rus tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda ham nazariya, ham amaliyot uchun zarur bo‘lgan leksika bilan grammatika o‘rtasidagi aloqani kuchaytirish uchun grammatikani semantizatsiyalashtirish g‘oyasi beriladi. Bunda til o‘rganuvchining kommunikativ maqsadlardan kelib chiqqan holda o‘z fikrini ifodalash uchun zaruriy ifoda vositalari (belgilar)ni o‘zi topishi, ya’ni mazmundan shaklga tomon borish, buni hatto ona tili metodikasida ham qo‘llash ilgari suriladi<sup>4</sup>.

**7. Kommunikativ tamoyil.** Ushbu tamoyil tarafdorlari (Ye.I.Passov, N.I.Jinkin va boshqalar) ikkinchi tilga o‘rgatishda nutqni asos qilib olish, tilning grammatik tuzilishi bilan bog‘liq bilimlarni muayyan nutqiy vaziyatga bog‘lab borish, grammatik ko‘nikmalarni shakllantirishda ham shartli nutqiy mashqlardan foydalanishni tavsiya etadilar<sup>5</sup>.

<sup>4</sup> Золотова Г. А. Некоторые вопросы синтаксической теории и обучение к русскому языку // Проблемы учебника русского языка как иностранного. Синтаксис. – Москва: Русский язык, 1995. – С. 3–10.;

<sup>5</sup> Пассов Е. И. Коммуникативные упражнения (пособие для преподавателей). – Москва–Ленинград: Просвещение, 1967. – С. 84–91.

Til tizimi nihoyatda murakkab va serqirra, muayyan tilni o‘rganish esa nutq, nutqiy ko‘nikmalar hosil qilish, nutqiy vaziyatdan kelib chiqish kabi bir qator muhim jihatlar bilan ham bog‘liq bo‘lgani uchun yanada murakkab. Aytish joizki, hatto tadqiqot ishlarida o‘rganilayotgan til bilan ona tilining farqli xususiyatlari, o‘rganilayotgan tilning mazkur jamiyatdagi o‘rni, nufuzi kabi ob‘yektiv holatlarni ham e‘tiborga olish zarurligi ta’kidlanadi. Shu nuqtai nazardan keyingi vaqtlarda til ta’limida aynan til va jamiyat, til va madaniyat munosabatlari, tilni muayyan jamiyatda yashovchi insonlarning milliy-madaniy qarashlari, tilning jamiyatdagi o‘rni, qo‘llanishi bilan bog‘liq jihatlar, til unsurlarini aynan jamiyatda, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda qo‘llanish xususiyatlariga ko‘ra o‘rganish va o‘rgatish masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu esa til ta’limida turli zamonaviy yondashuvlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

## 2.2. O‘zbek tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar

Til nafaqat insonni, balki kishilik jamiyatini ham barpo etgan, uning taraqqiyotiga sabab bo‘lgan va hozirgi kunda ham turli mamlakatlarni bir-biriga bog‘lab turgan buyuk ne‘mat, qudratli kuchdir. Shuning uchun tillarni o‘rganish, til ta’limining eng samarali intensiv metodlarini ishlab chiqish masalalariga hamisha katta e‘tibor qaratib kelingan, til o‘qitish metodlari muntazam takomillashtirib borilgan.

**Yondashuv, tamoyil, metod** tushunchalari amaliyotda ko‘pincha metod va usullar tushunchalari bilan almashtirib qo‘llanadi, ya’ni o‘qitishning prinsipial yo‘nalishini belgilash uchun ham, dars berish metodi ma’nosida ham ishlatiladi. Til ta’limida o‘qitishning prinsipial yo‘nalishi **tamoyil yoki yondashuv**, metod esa **usul, uslub** tarzida talqin qilinadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”-da ushbu tushunchalar quyidagicha izohlanadi:

“**Metod** (yunoncha methods – tadqiqot usuli, yo‘li) 1. Tabiat va jamiyat hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. 2. Usul, uslub”;

“**Metodika** (yunoncha methodika) 1. Biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig‘indisi. 2. O‘qitish usullari haqidagi ta’limot.” Metodik so‘zi esa metod va metodikaga xos, usuliy ma’nolarini bildiradi<sup>6</sup>.

<sup>6</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2-jild. – T.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 582 b.



Respublikamizdagi umumta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim bosqichlarida o'zbek tilidan amal qilayotgan o'quv dasturlari, darsliklar va qo'llanmalarni tahlil qilib chiqish hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda o'zbek tilini o'qitishda asosan quyidagi tamoyillardan foydalanilayotganini ko'rsatdi:

**1. Lingvistik yoki an'anaviy tizimli tamoyil.** Ushbu tamoyil xorijiy tillarni o'rganishning aspektli tamoyili yo'nalishida bo'lib, asosan filologik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarida amal qilmoqda. Ushbu guruhlarining ko'pchiligida o'zbek tili fani milliy guruhlardagi ona tili fani kabi tilshunoslikning izchil kursi asosida o'qitiladi. Bu tamoyil o'zbek tilini nazariy jihatdan ham chuqur o'rganish, uni o'quvchi-talabalarga o'z ona tili yoki o'zi o'rganayotgan tillar bilan qiyoslay olish imkonini beradi. Lingvistik aspektda o'qitish talabalarni o'zbek tilidan rus tiliga yoki xorijiy tillarga yoki, aksincha, tarjima qilish nazariyasi va amaliyoti bo'yicha ham bilim va malakalar egallashlariga, o'zbek tilining leksik-semantik va grammatik imkoniyatlari bilan to'liq tanishishlariga imkon yaratadi. Shu bois filologik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarida ushbu tamoyildan foydalanish maqsadga muvofiq. Biroq tilga o'rgatishning boshlang'ich bosqichlari – umumta'lim, o'rta maxsus ta'lim bosqichlarida va oliy ta'limning nofilologik muassasalarida ushbu tamoyildan foydalanish samarali natijalar bermaydi. Bu o'rinda ushbu tamoyilda yozilgan ko'pchilik darsliklar o'zbek tilining tizimli grammatikasi, ya'ni fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis bo'limlari milliy guruhlardagi ona tili fani kabi izchillikda hamda grammatik qoidalar rus tilida bayon etilgan holda berib borilganligi bilan islohotdan avvalgi "O'zbek tili" darsliklariga yaqin bo'lib qolganligini ham qayd qilish kerak. Aytish joizki, ushbu aspektda o'qitishni ta'limning yuqori bosqichlaridagina muayyan nutqiy muloqot malakasiga ega bo'lgan talabalarga qo'llanilishi samarali natija berishi mumkin.

**3. O'zbek tilini matn tahlili asosida o'qitish tamoyili.** O'tgan asrning 80-yillarida G'arb lingvodidaktikasida "*ma'lum maqsad uchun qo'llaniladigan til*" tushunchasi paydo bo'ldi. Ushbu tushuncha zaminida inson faoliyatining ma'lum bir sohasida qo'llaniladigan til birliklarining ixtisoslikka oid leksik-grammatik va boshqa o'ziga xos belgilari yotadi. Bunda til ta'limi u yoki bu ixtisoslik doirasida nutqiy muloqot qanday tuziladi, ma'lum tur-

dagi axborotni yetkazish uchun muloqot qaysi shaklda olib boriladi kabi qator xususiyatlarni aks ettiradi.

Demak, bu o'rinda *nimani o'rgatish* lozimligini aniqlashdan oldin *ta'lim oluvchining kimligini bilish* ta'lim mazmunini belgilash uchun o'ta muhim sanaladi. Shu bois ushbu tamoyilda turli kasb-hunarga oid matnlar ustida ishlash, kasbiy atamalarning nutqda qo'llanishini o'rgatish, kasb-hunarga oid suhbat matnlari vositasida o'quvchi-talabalar kasbiy, ixtisosiy nutqqa o'rgatiladi, ixtisoslik bo'yicha matnlarni tahlil qildirish jarayonida talabalarining kasbiy nutqqa oid lug'at boyligi o'stirib boriladi. Ayni paytda ayrim grammatik qoidalarni o'zlashtirib borish ham nazarda tutiladi. Shuni qayd etish joizki, tibbiyot, texnika, iqtisod, qishloq xo'jaligi kabi nofilologik ixtisosliklar yo'nalishlaridagi oliy ta'lim muassasalarida, shuningdek, o'rta maxsus o'quv yurtlarida (avvalgi bilim yurtlari, texnikumlar, ta'lim islohotidan keyingi tashkil bo'lgan o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari) avvaldan matn tahlili asosida yozilgan o'quv qo'llanmalaridan foydalanib kelingan. Bugungi kunda ushbu o'quv qo'llanmalar, darsliklarni yangilash, ulardagi matnlar va berilgan topshiriqlarni hozirgi talablarga muvofiqlashtirish, ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirish, milliy istiqloq g'oyalarini, milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni e'zozlashga o'rgatuvchi, istiqloqimizni tarannum etuvchi, vatanga sadoqat, xalqqa hurmat-e'tibor tuyg'ularini singdirishga xizmat qiluvchi matnlar bilan boyitish yuzasidan faol ishlar olib borilmoqda. Biroq o'zbek tilini matn tahlili asosida o'qitishda o'quvchi-talabalarni tayyor matnlar topshiriqlari ustida ishlatishning o'zi yetarli emas, ularni, avvalo, so'zlardan so'z birikmalari, so'z birikmalaridan gaplar tuza olishga o'rgatish kerak bo'ladi.

**3. Funktsional-kommunikativ yondashuv.** Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'qitish jarayonida keng qo'llanayotgan mazkur yondashuvda tilni amaliy maqsadda o'qitish, ya'ni o'quvchilarni biron-bir mavzuda fikr almashish va fikr bayon qilishga o'rgatish maqsad qilib qo'yiladi. O'quvchilarda, avvalo, nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ushbu tamoyilni **funksional aspektida o'qitish** deb ham ataydilar. Mazkur tamoyil bundan 40 yil avval Yevropada gollandiyalik Van Eyk tomonidan yaratilgan bo'lib, u o'zbek tili ta'limida ilk marta 1990-yilda M.Qodirov tomonidan dorilfununlar fakultetlarining rus guruhlari uchun tuzilgan "O'zbek tilidan programma"si orqali oliy o'quv yurtlarida,

1998–1999-yillardan boshlab esa R.Tolipova va boshqalar tomondan tuzilgan o‘quv dasturi orqali umumiy o‘rta ta‘lim bosqichining ta‘lim rus tilida olib boriladigan maktablarida tatbiq etila boshlandi<sup>7</sup>. Ushbu o‘quv dasturlarida kundalik muloqot ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan nutqiy mavzular va nutqiy modellar vositasida o‘quvchilarda o‘zbek tilida o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda erkin ifodalash, mustaqil so‘zlashish ko‘nikmalarini hosil qilish asosiy maqsad qilib olingan.

Bunda o‘quvchi-talabalarga grammatik mavzularni emas, balki muayyan fikrni ifodalash uchun zarur bo‘ladigan nutqiy qurilmalar asosida biron-bir nutqiy mavzuda so‘zlashishga o‘rgatish ko‘zda tutiladi, grammatik qoidalar esa faqat nutqiy ehtiyojdan kelib chiqib beriladi. Shuning uchun har bir mavzu bo‘yicha beriladigan fonetik, leksik, grammatik (morfologik va sintaktik) bilimlar til sathlari bo‘yicha emas, balki kompleks holda berilib, o‘quvchilarni 4ta asosiy amal: tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish va yozish asosida nutqiy faoliyat yuritishga o‘rgatish ko‘zda tutiladi. Shundan kelib chiqib, o‘zbek tilini kommunikativ yondashuvning mavzuviylik yoki funksional-semantik yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, birinchisida “O‘zbek tili” dasturi va darsliklari nutqiy mavzularga bo‘lingan holda tuziladi va shu mavzu doirasida faol qo‘llanadigan grammatik vositalarni o‘rgatib borish rejalashtiriladi. Biroq nutqiy mavzularning yetakchilik qilishi grammatik bilimlarni tarqoq holda berilishiga, mustahkamlanib borilmasligiga, mavzularning taqvimga mos tarzda takrorlanib kelishi (ya‘ni qishda qish, kuzda kuz mavzulari, bayramlarning har yili qaytarilishi) oqibatida qaytariqlar yuz berishiga, natijada, o‘zbek tilining o‘qitilishda uzviylik va uzluksizlikning ta‘minlanmasligiga olib keldi.

Haqiqatan ham, mavzuviylik leksikani bir mavzu doirasida jamlab borishda qulaylik tug‘dirsa-da, lekin bir mavzudan ikkinchi mavzuga o‘tganda, oldingi o‘rganilgan leksikadan keyingi mavzularda deyarli foydalanilmasligi faol leksik minimumni puxta o‘zlashtirmaslikka olib kelmoqda. Mavzuviylik tamoyili so‘zlarni guruhlab o‘rganish uchun muayyan qulaylik yaratsa-da, so‘zlarning takroriy ishlatilish chastotasini ta‘minlashda mutlaqo noqulay, grammatik vositalarni izchil rejalashtirish masalasida esa

<sup>7</sup> Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Ўзбек тили (таълим бошқа тилларда олиб бориладиган мактаблар учун) // Таълим тараққиёти. ЎзР Халқ таълими вазири раислигининг ахборотномаси, 1-махсус сон. – Тошкент: Шарк, 1999. – 262–302-б.

uning qulaylik tomoni yo‘q darajada. Ushbu prinsip asosida tanlangan o‘quv materiallari bilimlarni umumlashtirish, ularni izchil tizimga solish, mazkur bilim va tushunchalarning tarkibini, mohiyatini anglashga imkon bermaydi. Bunday sharoitda o‘quvchilar nima asosiy, qaysi tushuncha ikkinchi darajali, muayyan holatning sababi va oqibati nimadan iborat, qaysi xususiyat muhim, qaysisi esa uning tarkibiy qismiga kiradi, xatolar, noaniqliklarning uzviyiligi qayerda ko‘rinadi, degan savollarga aniq javob topa olmaydilar. Ular egallagan bilimlar dinamik xarakter kasb etmaydi. O‘quvchi taqdim etilgan bilimlar iyerarxiyasi (pog‘onaviyiligi) va uzviyiligi aniq his etsa, ularning o‘zaro aloqadorligi va bir-biriga ta‘sirini anglasagina, bu bilimlar muayyan ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarga aylanadi.

Ikkinchi til ta‘limida **nutqiy modellar, nutqiy qurilmalardan** foydalanish qator uslubiy qulaylik va ustunliklarga ega. Muayyan fikrni ifodalashda, ya‘ni ma‘lum bir grammatik mavzu bo‘yicha eng ko‘p qo‘llanadigan nutqiy qurilmalarning o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish uchun ajratib berilishi mavzuning nisbatan tezroq o‘zlashtirilishiga, mazkur nutqiy modellarning o‘quvchilar xotirasida uzoq saqlanib qolishi va nutqda faolroq qo‘llanishiga olib keladi. Nutqiy modellar, albatta, nutqiy qurilmalarni qo‘llashni jadallashtirishga, sintagmatik gap tuzish malakasini shakllantirishga katta yordam beradi. Ammo til o‘zlashtirishda nutqiy modellardan foydalanishni yagona vosita sifatida talqin qilish va boshqa turdagi metodik usullarni nazardan chetda qoldirish samarali natijalarga olib kelmaydi. Faqat nutqiy qurilmalarni, ularning qo‘llanishini ajratib ko‘rsatib berishning o‘zi tilni mustahkam o‘zlashtirish uchun yetarli bo‘la olmaydi, shu bois, tilga o‘rgatishda faqat nutqiy qurilmalarning o‘zi bilangina cheklanib qolish maqsadga muvofiq emas. Ye.I. Passov modellashtirishni quyidagicha ta‘riflagan: *“Nutq tizimini modellashtirish – bu asliyatdan bir muncha kamroq darajada bo‘lsa-da, nutqning muayyan ko‘rinishlarini ifodalay oladigan va o‘rni kelganda muayyan vaziyatlarda butun til tizimini almashtira oladigan o‘xshash tizimni yaratishdir. Buning uchun esa nutqiy faoliyatning uch tomoni o‘zaro muvofiqlashishi kerak. Biroq bunda shuni unutmaslik kerakki, ushbu uchlikda gapirish jarayonida nutqning grammatik tomoni birinchi o‘rinda turadi”*<sup>8</sup>.

<sup>8</sup> Пассов Е. И.. О‘sha manba. – 95-b.

Haqiqatan ham, o‘zlashtirilgan nutqiy qoliplarni turli vaziyatlarda qo‘llay olish uchun o‘quvchi qoidalarni ham bilishi kerak bo‘ladi. Ikkinchi – funksional-semantik yo‘nalishida (funksiya – vazifa, semantika – ma‘no) fikr bayon qilishda ma‘noga mos til vositalarini tanlash yo‘lidan boriladi, ya‘ni grammatik vositalarni semantik prinsip asosida saralab, tanlab, guruhlab ishlatish (masalan, belgini ifodalash, qarashlilikni ifodalash, makonni, vaqtni, maqsad, sababni ifodalash kabi) va muayyan fikrni ifodalash uchun leksik, morfologik, semantik vositalardan kompleks tarzda foydalana olishga o‘rgatish ko‘zda tutiladi. O‘zbek tili ta‘limiga mazkur yo‘nalishni olib kirgan R.Tolipovning fikricha, *“ushbu metodika o‘quvchida qiziqish (motivatsiya), faollik, ijodiylik va mustaqillikni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchi grammatik vositalarni tushunib qo‘llaydi, tanlab ishlatadi”*<sup>9</sup>. Funksional-semantik tamoyilda mazmun (semantika) asosiy maqsad sifatida birinchi o‘ringa chiqadi, shakl, ya‘ni grammatikadan lingvistik vosita sifatida foydalaniladi. R.Yo‘ldoshev fikricha, *“Funksional-semantik yondashuvga amal qilinadigan uzluksiz til ta‘limida til birliklarining ikki tomoni baravar taqdim etiladi: 1) so‘z va so‘z shakllarining gapdagi vazifasi (funksiyasi), 2) so‘z va so‘z shakllarining ham lug‘aviy, ham grammatik ma‘nosi (semantikasi). Tilni egallash uchun funksiya bilan semantika baqamti bo‘lishi kerakligi bois bunday ta‘lim mazmuni va usuli jahon andozalariga tenglashtiriladi, eng ilg‘or metodik yo‘nalish sifatida e‘tirof qilinadi. Aslida ham shunday. Ikkinchi tilni o‘rganayotgan kishi so‘zning lug‘aviy ma‘nosini bilsa, uni grammatik jihatdan shakllantirish asnosida grammatik ma‘noni zohir etsa, grammatik ma‘no orqali bir so‘z shaklini boshqasi bilan birlashtirishning uddasidan chiqsa, pirovardida gapdagi vazifasini – funksiyasini ifoda etsa, gapni kommunikativ niyatdan kelib chiqib tegishli ohangda suhbatdoshiga aytsa, u shu tilda muloqotga kirisha oladi, ya‘ni shu tildan muloqotda foydalanish darajasini egallaydi”*<sup>10</sup>.

80-yillardan boshlab rus tilshunosligida qo‘llana boshlagan va grammatikani semantizatsiyalashtirish g‘oyasi ilgari surilgan ideo-

<sup>9</sup> Толіпова Р. XXI асрда тил ўқитиш истиқболлари ҳақида // XXI асрда ўзбек тили таълими масалалари: Ўзбек тили доимий 9-анжумани материаллари. – Тошкент: 2007. – 192–193-б.

<sup>10</sup> Йўлдошев Р. Узлуksиз ўзбек тили таълимида функционал-семантик ёндашувнинг таъбиқига доир // Узлуksиз таълим. – Тошкент: 2008. – 5-сон. – 20–24-б.

grafik grammatika yoʻnalishida ham tilni amaliy qoʻllashni oʻrgatish uchun, avvalo, grammatika va leksika oʻrtasida uzviy aloqa oʻrnatish kerakligi, bu nafaqat ikkinchi tilga oʻrgatishda, hatto ona tilini oʻrgatishda ham muhimligi taʼkidlanadi. Jumladan, N. Mahmudov ushbu yoʻnalishni qoʻllab-quvvatlab: *“til taʼlim maqsadi bilan tavsiflanar ekan, unga semasiologik (shakldan mazmuniga) emas, balki onomasiologik (mazmundan shaklga) yondashuv muhimdir. Til oʻrganuvchi berilgan tildagi shaklning mazmunini izlagandan koʻra oʻziga maʼlum boʻlgan mazmunning maqsadga muvofiq ifoda shaklini tanlash yoʻlidan borgani maʼqul. Shuning uchun ham keyingi paytlarda tilshunoslikda, ayniqsa, amaliy tilshunoslikda muayyan mazmunning eng maqbul tarzidagi ifodalinishi imkoniyatlarini tavsiflovchi, yaʼni “mazmundan shaklga” tamoyiliga asoslangan “funktional grammatika”, “ideografik grammatika” yaratishga alohida eʼtibor qilinmoqda. Bunda til oʻqitishning bosh maqsadi oʻz fikrini mutlaqo aniq va vaziyatga muvofiq tarzda ifodalashga oʻrgatishdan iborat”, degan fikrni bildiradi<sup>11</sup>. Koʻrinadiki, bunda oʻquvchilar tayyor matnlarni qismlarga boʻlgan holda tahlil qilish va takrorlab gapirishni emas, matndan ot, sifat, sonni topishni emas, balki “til tokchalaridan oʻziga zarur vositalarni topib”, yaʼni vaziyatga mos fikrni turli usullar vositasida aniq ifodalashga oʻrganib borishlari maqsad qilinadi.*

Metodist olim J. Jalolov ham xorijiy tillarni oʻqitish boʻyicha koʻp yillik tajribalari asosida quyidagi fikrlarni bildiradi: *“Nutqiy paradigmatic variantlar soʻz shakllarining paradigmatic qatori hamda bir xil mazmuni ifoda qiluvchi barcha boshqa turdagi til birliklarining sinonimik qatori aloqadorligida yuzaga keluvchi hodisadir. Ushbu psixofiziologik hodisani shakllantirishda va uning vositasida grammatikani oʻzlashtirishda “mazmundan shaklga” tamoyili samarali natija beradi”<sup>12</sup>.*

Funktional-semantik yondashuvda aynan shu maqsadni amalga oshirish maqsad qilib qoʻyilgan boʻlib, shundan kelib chiqqan holda hatto mavzularni ham sof grammatik tarzda emas, balki semantik (maʼnoviy) nuqtai nazardan nomlash, yaʼni mavzularni

<sup>11</sup> Mahmudov N.. Til taʼlimi va stilistika // J. Til va adabiyot taʼlimi.–T., 2009.– 1-son. – 3–9-b.

<sup>12</sup> Жалолов Ж. Лингводидактик адаптация хусусида // Замонавий тилшунослик ва хорижий тилларга ўргатиш методлари. – Самарқанд, 1999. – 43–47-б.

“Sifat”, “Sifatning ma’no turlari” yoki “Sifat darajalari” deb emas, balki “Insonning tashqi qiyofasini yoki xususiyatlarini tavsiflash”, “Narsa-buyumlarni tasvirlash” yoki “Vaqtни ifodalash”, “Sababni ifodalash” kabi nomlash rejalashtirilib, bunda sifatlarning o’zini emas, muayyan fikrni ifodalashdagi amaliy qo’llanishini o’rgatish ko’zda tutiladi.

Ko’rinadiki, mazkur yondashuvda grammatik mavzularning ham muayyan bir izchillik asosida o’qitilishi nazarda tutiladi, ammo bu izchillik o’zbek tilining tizimli grammatikasi asosida emas, balki funksional-semantik nuqtai nazardan, ya’ni muayyan ma’noga bog’liq fikrni ifodalash yo’llari, usullaridan kelib chiqib belgilanadi. Til o’rganuvchilarga muayyan fikrni ifodalash uchun zarur bo’ladigan leksikani o’z ichiga olgan nutqiy birliklar berilib, bunda o’quvchilarning so’zlarni alohida leksik birliklar sifatida mexanik ravishda yod olish yo’li bilan emas, balki muayyan grammatik shakllarda, ajratib ko’rsatilgan nutqiy qurilmalar tarkibida o’zlashtirib borishlari, ularda ushbu qurilmalarni nutqiy vaziyatga mos ravishda qo’llash ko’nikmalarini shakllantirib borish ko’zda tutiladi.

Shu bois hozirgi kunda kommunikativ yondashuvning mazkur yo’nalishi jahonda xorijiy tillarga o’rgatish metodikasining eng so’nggi yutuqlari va ijobiy tarjibasini o’zida mujassamlantirgan tamoyillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Funksional-semantik yondashuvda mazmun (semantika) asosiy maqsad sifatida birinchi o’ringa chiqadi, shakl, ya’ni grammatikadan (so’z yasash, morfologiya, sintaksis va imlo qoidalaridan) lingvistik vosita sifatida foydalaniladi. Biroq metodist R. Yo’ldoshev ham G.I.Volodina-ni shu prinsip asosida yozilgan rus tilini xorijliklarga o’qitish bo’yicha qo’llanmasi necha o’n yillardan amal qilib kelayotganini ta’kidlagan holda, ayni vaqtda mazkur tamoyilda jiddiy kamchiliklar mavjudligini ham qayd qilib o’tadi. R. Yo’ldoshevning fikricha, *“... semantik prinsip affiksial til bo’lmish o’zbek tilining tabiatini dasturda to’liq aks ettirish imkonini bermaydi. O’zbek tilida so’z morfologik jihatdan murakkablashib boradi, ya’ni unga bir, ikki, uch va undan ortiq qo’shimcha qo’shiladi va bunday o’zgarish o’quvchilar tomonidan yangi grammatik mavzu sifatida qabul qilinadi. Birgina egalik qo’shimchalarini qaralmish vazifasidagi harakat nomida, sifat doshda boshqa grammatik vositalar bilan birgalikda qo’llanishi (o’rganganlarimizni, gapirishingizni*



*kabi) 2-sinf dan 9-sinf gacha oddiydan murakkabga qarab izchil o'rganiladigan, har gal o'quvchilarni bilim – ko'nikma – malaka sxemasida mashq qilishga undaydigan holatlarni qamrab oladi”.*

### 2.3. O'zbek tili ta'limiga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda asosiy maqsad o'zbek tilida so'zlashishga o'rgatish, til o'rganuvchida o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda mustaqil bayon eta olish ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilishi, O'zbekistonda yashovchi barcha millat vakillari o'qish va ishlash jarayonida mahalliy millat vakillari bilan teng munosabatda bo'lishlari, barcha sohalarda erkin fikr almashishlari uchun o'zbek tili ta'limi xalqaro standart talablariga javob berishi, ularning turli nutqiy vaziyatlarga mos ravishda erkin mulohazaga kirisha olish kompetensiyalarini, layoqatlarini shakllantirish kerak bo'ladi.

Bu borada jahonning yetakchi mamlakatlarida amal qilib kelayotgan va samarali natijalar berayotgan kompetensiyaviy yondashuvni til ta'limiga tatbiq etish borasida chet tillarini o'qitish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar, xususan, davlat ta'lim standartlari talablarining xalqaro standartlarga muvofiq lashtirilishi ta'lim sohasida katta islohotlar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Til ta'limiga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish o'quv dasturlari mazmunini uzluksizlik va uzviylik asosida qayta ko'rib chiqish va DTS talablarini takomillashtirishga ham olib keldi.

**“Kompetensiya”, “kompetentlilik”** tushunchalari tilshunoslikda ilk bor XX asr o'rtalarida N.Xomskiy tomonidan qo'llangan bo'lib, ta'lim sohasida **“kompetensiyaviy yondashuv”** talqin etilgan va ta'limda natijaviylikni ko'rsatuvchi omillar sifatida qayd etilgan. Aytish joizki, lug'atlarda ushbu so'zlarning ma'nolari turlicha izohlanadi. Chunonchi, “O'zbek tilining izohli lug'ati”da kompetensiya so'zi quyidagicha izohlangan:

**“Kompetensiya** – (lot. *sompetere* – layoqatli, munosib bo'lmog). 1) Muayyan tashkilot yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi; vakolat. 2) Shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi”<sup>13</sup>.

<sup>13</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati, 3-jild. – 396-bet.



Ruscha-o‘zbekcha tarjima lug‘atlarida esa bu so‘z quyidagicha sharhlanadi:

“**Kompetensiya** – 1. Biror kishi yaxshi xabardor, omilkor bo‘lgan soha; 2. *yur.* huquq (vazifa, ish) doirasi.”;

“**Kompetensiya** – 1. Biror kishi yaxshi xabardor bo‘lgan soha yoki masala; 2. Vakolat, huquq ixtiyor; **Kompetentn/ыу, -ауа, -оуе, -ten, -tna** – yetarli ma‘lumotga ega bo‘lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, bilimdon, xabardor, omilkor; 2) asosli, e‘tiborli, mo‘tabar; 3) kompetensiyaga, ya‘ni huquqqa ega bo‘lgan; vakolatli; **Kompetentnost** – chuqur bilimga egalik; chuqur bilimga asoslanganlik, asoslilik; xabardorlik, omilkorlik”<sup>14</sup>.

Berilgan izohlar ta‘lim sohasida kompetensiya so‘zini layoqat, kompetentlikni esa layoqatlilik deb, **ta‘limga kompetensiyaviy yondashuvni** egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim yo‘nalishi, deb tushunish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Til ta‘limida kompetensiyaviy yondashuv ta‘lim oluvchilarning o‘rganayotgan tili materiallaridan va olingan axborotlardan o‘z hayotiy faoliyatida oqilona foydalana olish, shu tilda o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda mustaqil ifodalash va nutqiy vaziyatlarga mos ravishda qo‘llay olish ko‘nikma-malakalarini tarkib toptirish, ya‘ni tilni amaliy qo‘llay olish layoqatini shakllantirishdan iborat.

**Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘lim** – egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish layoqatini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim bo‘lib, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qiladi.

Kompetensiyalar 2 asosiy turga: tayanch va xususiy kompetensiyalarga bo‘linadi. **Tayanch kompetensiyalar** ta‘lim oluvchilarda shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirisha olish, jamiyatda o‘z o‘rnini egallay olish, duch keladigan muammolarning yechimini hal eta olish, eng muhimi, o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘la olish ko‘nikma-malakalarini tarkib

<sup>14</sup> Русча-ўзбекча лугат, 1-том. – Тошкент, 1983. – 45-б.

toptirishga qaratiladi. Shundan kelib chiqqan holda tayanch kompetensiyalar:

**1) kommunikativ kompetensiya:**

– jamiyatda o‘zaro muloqotga kirishish uchun ona tilini (yoki boshqa bir tilni) mukammal o‘zlashtirish va muloqotda samarali foydalana olish;

– o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish;

– ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

– muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish va suhbatdoshini ishonтира bilish;

– turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda konstruktiv qarorlarni qabul qila olish.

**2) axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

– mavjud axborot manbalaridan, if media vositalardan foydalana olish;

– ma’lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;

– kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish.

**3) shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi:**

– o‘zini shaxs sifatida muntazam rivojlantirib borish;

– hayoti davomida o‘qib-o‘rganish, bilimi, tajribasini mustaqil ravishda oshirib borish;

– o‘z xatti-harakatini adekvat baholash, o‘zini nazorat qilish;

– o‘qib-o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

**4) ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

– jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish;

– o‘z fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish;

– fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo‘lish;

– kasb mavqeining o‘shishiga intilishi, jamiyat manfaatlari uchun xizmat qilish.

**5) umummadaniy kompetensiyalar:**

– Vataniga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish;

- badiiy va sanʼat asarlarini tushunish, taʼsirlana olish;
- kiyinish, yurish-turish va muomala-muloqot yuritishda madaniy meʼyorlarga va sogʻlom turmush tarziga amal qilish;
- umumbashariy ahamiyatga ega boʻlgan qadriyatlarni bilish va eʼzozlash;
- oʻzgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, oʻzgalarning dunyoqarashi, diniy eʼtiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, anʼana va marosimlarini hurmat qilish;
- xalqining tarixiy, maʼnaviy va madaniy merosini asrab-avaylash, jamiyatda oʻrnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

#### **6) matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

- aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish;
- shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish;
- kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni oʻqiy olish va foydalanish;
- inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan yangiliklaridan xabardor boʻlish hamda foydalana olishni qamrab oladi.

Bundan tashqari, taʼlimda har bir oʻquv fanini oʻzlashtirish jarayonida oʻquvchilarda, shu fanning oʻziga xosligi, mazmunidan kelib chiqadigan **fanga oid kompetensiyalar** ham shakllantiriladi. Ushbu kompetensiyalarning **nutqiy, lingvistik, ijtimoiy-madaniy, pragmatik kompetensiyalar** turlari mavjud. Uzluksiz taʼlim bosqichlarida oʻzbek tilini oʻqitishda oʻquvchi-talabalarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalardan iborat fanga oid kompetensiyalarni egallashlari talab etiladi.

**Nutqiy kompetensiya** til taʼlimining 4 amali: tinglab tushunish, gapirish, oʻqish, yozish boʻyicha koʻnikma-malakalarini shakllantirishni koʻzda tutadi.

**Lingvistik kompetensiya** oʻzbek tilining soʻz yasalishi vositalarini bilish lugʻat boyligini oshirib borishdan iborat boʻlib, bularning barchasi oʻzbek tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi boʻyicha nazariy bilimlarni muayyan izchillikda egallash vositasida amalga oshiriladi.

Shuningdek, nutqiy va lingvistik kompetensiyalar yordamida oʻquvchilarda ijtimoiy-madaniy va pragmatik kompetensiyalar

ham shakllantirib borilishi koʻzda tutiladi. **Ijtimoiy-madaniy kompetensiyada** eshutilgan nutqni shu xalqning milliy xususiyatlarini bilgan va oʻz ona tili va milliy anʼanalari bilan taqqoslagan holda muayyan nutqiy vaziyatga mos lingvistik shakl, ifoda usulida taqdim eta olish qobiliyati shakllantiriladi. Ushbu layoqat oʻquvchi-talabalarni oʻz xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini va ularni oʻzida aks ettirgan boy adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishish, oʻzbek adabiyoti namunalarini, jahon milliy madaniyatiga hissa qoʻshgan oʻzbek xalqi vakillarining ijodiy merosini oʻqib-oʻrganish orqali shakllantiriladi.

Qayd etilgan kompetensiyalar taʼlim oluvchilarda shaxsiy, maʼnaviy, ijtimoiy, kasbiy koʻnikma-malakalarini tarkib toptirishga va egallagan bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil qoʻllashga qaratilgan layoqatlari – **kompetensiyalarni** tarkib topdirishga olib keladi. Til taʼlimida kompetensiyaviy yondashuv taʼlim oluvchilarning oʻrganayotgan til materiallaridan va olingan axborotlardan oʻz hayotiy faoliyatidan oqilona foydalana olish, shu tilda oʻz fikrini ogʻzaki va yozma tarzda mustaqil ifodalash va nutqiy vaziyatlarga mos ravishda qoʻllay olish koʻnikma-malakalarini tarkib toptirish, yaʼni tilni maqsadli ravishda amaliy qoʻllay olish layoqatini shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq koʻzda tutilgan natijaga erishish uchun har bir taʼlim bosqichi bitiruvchilari uchun belgilangan kompetensiyalarning meʼyoriy darajasi talablarini bajarilishini taʼminlash kerak boʻladi.

Istiqloq yillarida oʻzbek tilining qoʻllanish doirasi nihoyatda kengaygani, uning respublikamizning rasmiy davlat tili sifatida xalqaro miqyosda ham faol muloqot vositasiga aylanib borayotgani eʼtiborlidir. Biroq oʻzbek tilidan yozma nutq savodxonligining susayib borayotganligi, adabiy tilning qoʻllanishi, nutq madaniyati masalalarida ham kamchiliklar talayligi taʼlim muassasalarimizda ona tili taʼlimining mukammal emasligini, ona tilidan davlat taʼlim standartlari talablari va oʻquv dasturlari mazmunini takomillashtirish zarurligini koʻrsatmoqda. Xususan, taʼlim rus va boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda oʻzbek tilini oʻqitish mazmuni ham, metod va usullari ham hali toʻliq shakllanmaganligi bu sohada jiddiy kamchiliklar borligini koʻrsatadi.

Demak, respublikamiz taʼlim bosqichlarida oʻzbek tilini oʻqitishning ilmiy jihatdan asoslangan yangi konseptual tamoyillarini

belgilash, ona tili va o‘zbek tili ta’limi samaradorligini oshirish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardir.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. O‘zbek tili ta’limining tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. O‘zbek tili ta’limi yuzasidan olib borilgan ilk tadqiqot ishlari qaysi yillardan boshlangan?
3. O‘zbek tilining islohotdan avval va hozirgi kunda o‘qitilishidagi farq va tafovutlar nimalarda ko‘rinadi?
4. Metod, metodika, tamoyil, yondashuv tushunchalarini izohlang.
5. Til ta’limidagi asosiy yondashuvlar qaysilar?
6. Til o‘rganishda yetakchi o‘rinlarda turgan ta’lim tamoyillari qaysilar?
7. Kommunikativ va lingvistik tamoyillarning asosiy farqlari nimada?
8. Funksional semantik yondashuvning mohiyatini tushuntiring.
9. Qaysi ta’lim yo‘nalishlarida o‘zbek tilini matn tahlili asosida o‘qitish tamoyili qo‘llanadi?
10. Kompetensiya va kompetensiyaviy yondashuv haqida ma’lumot bering.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. Выготский Л. С. Мышление и речь // Избранные психологические исследования. – Москва: Педагогика, 1956. – С. 291.
2. Богин Г. И. Роль чтения в профессиональной подготовке учителя и иностранного языка // Иностранные языки в высшей школе. – Москва: 1974. – № 8. – С. 21–24.
3. Пассов Е. И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному говорению. – Москва: Просвещение, 1989. – С. 84–92.
4. Идеографические аспекты русской грамматики / Под ред. И.Г. Белошапковой и И.Г. Милославского – Москва: МГУ, 1988.
5. Золотова Г. А. Некоторые вопросы синтаксической теории и обучение к русскому языку // Проблемы учебника русского языка как иностранного. Синтаксис. – Москва: Русский язык, 1995. – С. 3–10.
6. Жалолов Ж. Лингводидактик адаптация хусусида // Замонавий тилшунослик ва хорижий тилларга ўргатиш методикаси. – Самарқанд, 1999. – 43–47-б.
7. Джусупов М. Лингвотипологические, социолингвистические и лингводидактические проблемы обучения неродному языку // Филология масалалари. –Тошкент, 2002. – № 1–2. – С. 214.
8. Общеввропейские компетенции владения иностранным языком: изучение, обучение, оценка. – М.: Изд-во МГЛУ (русская версия), 2003. – С. 256.

9. Mahmudov N.. Til ta'limi va stilistika // J. Til va adabiyot ta'limi. – T., 2009. – 1-son. – 3–9-b.
10. Muxitdinova X.S. O'zbek tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar (MOF masofaviy ta'limi uchun elektron qo'llanma). – T., 2018.

### 3-MAVZU. O'ZBEK TILI TA'LIMIDA UZLUKSIZLIK VA UZVIYLIKNI TA'MINLASH

#### REJA:

1. O'zbek tilini uzluksiz ta'lim bosqichlarida o'qitish.
2. O'zbek tili ta'limida til materiallari va nutq ko'nikmalari uzviyligini ta'minlash.
3. O'zbek tilini o'qitishda nutq mavzulari va grammatik bilimlar uzviyligini ta'minlash.

**Tayanch tushunchalar:** uzviylik va uzluksizlik, uzluksiz ta'lim bosqichlari, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; bilim, ko'nikma, malaka, nutqiy ko'nikmalar, nutq faoliyatining 4 asosiy turi: o'qish, tinglab tushunish, gapirish va yozish; nutq qurilmalari, grammatik qoidalar, mavzuviylik va leksik, morfologik, sintaktik bilimlar uyg'unligi.

#### 3.1. O'zbek tilini uzluksiz ta'lim bosqichlarida o'qitish

Ma'lumki, mamlakatimizda “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy modeli” asosida ta'lim sohasida o'tkazilgan jiddiy islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'lim turlarini o'z ichiga olgan va majburiy umumiy o'rta ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bosqichlariga, ulardan esa oliy ta'lim bosqichlariga bosqichma-bosqich o'tilishini ta'minlovchi uzluksiz ta'lim tizimi yaratildi. Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, uning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

\* ta'limning ustuvorligi – uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi;

\* ta'limning demokratlashuvi – ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishi;

\* ta'limning insonparvarlashuvi – inson qobiliyatining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiylarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatining uyg'unlashuvi;

\* ta'limning ijtimoiylashuvi – ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashini hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijtimoiy fikrlashni shakllantirish;

\* ta'limning milliy yo'naltirilganligi – ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'lim milliy taraqqiyotining o'rta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;

\* ta'lim va tarbiyaning uzviyligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;

\* iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

\* uzluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan intergratsiyalashtirishning mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish.

Uzluksiz ta'lim tizimi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalaridagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.

**1. Maktabgacha ta'lim** ushbu ta'lim tizimining eng quyi bosqichi bo'lib, bugungi kunda bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tobora kengroq jalb qilish, ularni maktabga tayyorlash vazifasini bajaradi.

**2. Umumiy o'rta ta'lim bosqichi** ta'lim tizimining eng asosiy bo'g'ini bo'lib, u:

- 1–4-sinflarni qamrab olgan boshlang'ich ta'lim;

- 5–11-sinflardan tashkil topgan va fan asoslarini berishga xizmat qiladigan umumiy o‘rta ta’lim bosqichlaridan tashkil topgan.

**3. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi** quyidagi 2 yo‘nalish:

- **akademik litseylar** – bu bosqichda o‘quvchilar o‘zlari tanlagan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha (ijtimoiy, texnik, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o‘rganishga qaratilgan va ushbu ko‘nikmalarni muayyan oliy ta’lim muassasalarida o‘qish orqali davom ettirishga qaratilgan;
- **kasb-hunar kollejlari** - tanlagan kasb-hunar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallash imkonini beradigan o‘rta maxsus ta’lim bosqichlaridan iborat.

**4. Oliy ta’lim** bakalavrlar va magistrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi ikki bosqichli tizimdan iborat bo‘lib, mutaxassisligiga ko‘ra filologik va nofilologik yo‘nalishlarga bo‘linadigan oliy ta’lim muassasalaridan iborat.

**5. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim** – aspirantura, doktorantura bosqichlari;

**6. Kadrlar malakasini oshirish** va ularni qayta tayyorlash ta’lim turlaridan iborat.

Ushbu ta’lim turlari orasida umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim bosqichlari ko‘pchilikni qamrab oladigan asosiy majburiy va ixtiyoriy ta’lim bosqichlari bo‘lib, bunda ushbu ta’lim turlari uchun davlat ta’lim standartlari asosida tuzilgan o‘quv dasturi mazmuni umumiy o‘rta ta’limdan o‘rta maxsus ta’limga, undan keyin esa oliy ta’lim dasturlariga uzviylik va uzluksizlik asosida mantiqiy bog‘liqlik bilan o‘tishni ta’minlashi ko‘zda tutiladi.

Bugungi kunda o‘zbek tili respublikamizning davlat tili sifatida mazkur 3ta ta’lim bosqichlarida uzluksizlik tamoyili asosida o‘qitilmoqda:

*1. Umumiy o‘rta ta’lim bosqichida:*

- boshlang‘ich 2–4-sinflarida;
- o‘rta 5–9 sinflarida;
- yuqori 10–11-sinflarida davlat tili sifatida o‘qitish.

*2. O‘rta maxsus ta’lim bosqichida o‘zbek tilini:*

– akademik litseylarning ta’lim rus va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan guruhlarida;



– kasb-hunar kollejlarning ta’lim rus va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan guruhlarida davlat tili sifatida o’qitish.

### 3. Oliy ta’lim bosqichida o’zbek tilini:

– filologik oliy ta’lim muassasalarining ta’lim rus va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan guruhlarida;

– nofilologik ta’lim muassasalarining ta’lim rus va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan guruhlarida davlat tili sifatida o’qitish.

Uzluksizlik va uzviylik atamaları lug’atlarda quyidagicha izohlanadi:

“Uzluksiz – 1. Birin-ketin, ketma-ket, paydar-pay. 2. To’xtamasdan, tinimsiz, izchil ravishda.” (267-b.)

“Uzluksiz ta’lim – o’zaro mantiqiy izchillik asosida bog’langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit tizim.”

Uzviylik – chambarchas holdagi, o’zaro bog’langan, ajralmas”<sup>15</sup>. Ushbu atamalarni til ta’limiga tatbiqan quyidagicha tushuntirish mumkin:

**Uzluksizlik** til materiallarini vertikal yo’nalishda, ya’ni pastdan yuqoriga bosqichma bosqich rivojlantirib borilishi bo’lib, bunda maktabgacha ta’limdan boshlab to oliy ta’limdan keyingi bosqichgacha bo’lgan ta’lim bosqichlarida til materiallarini soddadan murakkabga qarab rivojlantirib borish, bu jarayonda takror va qaytariqlarga yo’l qo’ymaslik tushuniladi.

**Uzviylik** esa gorizontal yo’nalishda amal qilib, aynan shu vertikal yo’nalishning har bir bosqichida beriladigan bilim, ko’nikma va malakalarni til tizimini o’qitishda va boshqa fanlar bilan aloqadorlikda o’zaro mazmunan bog’liqlikda berilishidir. Jumladan, o’zga tilli guruhlarda o’zbek tilini o’qitishda har bir sinf, bosqich kesimida *nutqiy mavzu – grammatik ma’lumot – adabiy o’qish* materiallarini o’zaro uzviy aloqadorlikda va ayni vaqtda o’quvchi-talabalarining ona tili, ular o’rganayotgan chet tili, o’rni kelganda boshqa ijtimoiy-tabiiy fanlar, kasbiy mutaxassislik fanlari bilan bog’liqlikda taqdim qilinishidir. Demak, respublikamizda joriy etilgan 6 bosqichli ta’lim turlarining soddadan murakkabga qarab rivojlantirib borilishi uzluksizlik, ta’lim dasturlarining o’zaro mazmuniy bog’liqlikda berilishi uzviylik demakdir.

<sup>15</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4–жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 266–267-б.

Ma'lumki, til ta'limida har bir ta'lim bosqichida ma'lum bir hajmdagi **bilimlarni** o'zlashtirish ko'zda tutiladi. O'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlar asosini esa o'quv dasturida ko'rsatilgan fonetik, leksik, grammatik ma'lumotlardan iborat **til materiallari** tashkil qiladi va ular davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq holda har bir ta'lim bosqichi uchun alohida taqsimlanadi. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarda ushbu bilimlar asosida **nutqiy ko'nikmalar** hosil qildirib boriladi. Ushbu bilimlar bosqichlar o'rtasida to'g'ri taqsimlanmasa, ta'lim mazmunining uzviyligi va uzluksizligiga erishib bo'lmaydi.

Nutqiy ko'nikmalar nutq faoliyatining 4 asosiy turi: **o'qish, tinglab tushunish, gapirish va yozish** ko'nikmalari orqali yuzaga keladi va o'quvchilarning olgan bilimlarini amaliy nutqiy faoliyatda sobitqadamlik bilan mustaqil ravishda qo'llay olish qobiliyatini – nutqiy malakani hosil qilishga yordam beradi. Haqiqatan ham, so'zlashish, muloqot yuritish jarayoni fikrni leksik, grammatik va fonetik jihatdan rasmiylashtirishning eng samarali darajasini – yuqori darajada avtomatlashgan nutqiy ko'nikmalarni, ya'ni nutqiy malaka hosil qilinishini talab etadi. Nutqiy muloqotda nutqiy malakaning hosil qilinishi kommunikativ maqsadning asosini tashkil etadi, chunki aynan tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish ko'nikma-malakalari orqali ikkinchi bir tilda o'zaro axborot almashish, og'zaki va yozma muloqot yurita olish malakasi vujudga keltiriladi.

Demak, nutqiy jarayon bir-biriga bog'liq bo'lgan va o'zaro ta'sir qilib turadigan quyidagi 3ta omil: til birliklari va ularning o'zaro bog'lanishini o'rgatuvchi grammatik **bilimlar**, ushbu birliklar va qoidalarni amaliy qo'llash **ko'nikmalari** hamda o'z fikrlarini yangi vaziyatda erkin ifodalash uchun o'rganilgan bilimlardan foydalana olish **malakalaridan** tashkil topadi. Shu uch omil birgalikda amal qilgandagina nutqiy faoliyatni yuzaga keltiradi. Aynan shu omillarni bosqichma-bosqich rivojlantirib borish tilga o'rgatishning asosi hisoblanadi. Bunda ularning tizimli ravishda berilishi, til birliklarining o'zaro sintagmatik va paradigmatic aloqadorlikda, bog'liqlikda bo'lishi ayniqsa muhimdir.

Nutqiy muloqot jarayonida inson ana shu bog'liqliklarni kompleks holda, ya'ni **tinglash, o'qish, yozish** va ma'nolarini **tushunish** birligida qabul qiladi. Nutqiy faoliyatning ushbu turlari bir-biriga bog'liq holda bosqichdan bosqichga o'zaro uz-

viy bog‘liq holda o‘zlashtirib borilishi uzviylik va uzluksizlikni ta‘minlaydi. Haqiqatan ham, til birliklarini nutqiy muloqotda qo‘llash darajasini hisobga olgan holda ma‘lum toifalarga taqsimlash va shu taqsimot asosida ularni o‘quv materialini tarkibiga kiritish ta‘limda takrorlar, qaytariqlar bo‘lmazligiga, til ta‘limining uzviylikni ta‘minlash orqali ta‘limni bosqichlararo uzluksizlik asosida tashkil qilinishiga va ta‘lim samaradorligiga erishishga olib keladi.

Haqiqatan ham, ikkinchi til ta‘limida yo‘riqnoma sifatidagi qisqa, aniq ko‘rsatmalardan iborat qoidalarni tavsiya qilish o‘rinli bo‘lib, ularda nutqda ko‘p uchraydigan (tipik), nutqiy faoliyat uchun ahamiyatga molik grammatik ma‘lumotlar muayyan qismlarga bo‘lingan holda berib borilishi maqsadga muvofiq. Ikkinchi tilni o‘qitishda grammatik bilimlarni shu tarzda *“muayyan dozalar bilan kvantlarga bo‘lib berish”* nazariyasi ham 70-yillarda E.I.Passov tomonidan ilgari surilgan edi. Ammo bu grammatik bilimlarni qismlarga bo‘lib tashlanishiga olib kelmasligi, grammatik hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, mazmuniy uzviylik saqlanishi kerak.

### **3.2. O‘zbek tili ta‘limida til materiallari va nutq ko‘nikmalari uzviylikni ta‘minlash**

Ta‘lim islohotidan so‘ng o‘zbek tili ta‘limida kommunikativ tamoyilga asoslangan yangi konsepsiyaning joriy qilinishi natijasida o‘zbek tilidan o‘quv dasturlari va darsliklari nutqiy mavzular asosida bo‘limlarga ajratilib berila boshlandi. Grammatik ma‘lumotlar va vositalar esa nutqiy mavzular bo‘yicha berilgan matnlarda faol qo‘llanilgan grammatik shakllardan kelib chiqib tanlandi. Bu o‘zbek tili darsliklarida nutqiy mavzularning yetakchilik qilishiga, grammatik ma‘lumotlarning esa yordamchi vosita sifatida berilishiga olib keldi. Biroq nutqiy mavzularning yetakchi o‘rinda berilishi masalasida metodist olimlarning fikrlari har xil bo‘lib, ayrimlar o‘zbek tili ta‘limida o‘quvchilarning o‘zbekcha nutqini o‘stirishda asosan mavzuviylik tamoyilini va nutqiy mavzularni uzviylik asosida rivojlantirib borishnigina ahamiyatli deb hisoblab, grammatik ma‘lumotlarni berishda uzviylik va uzluksizlikka yetarli e‘tibor qaratmaydilar<sup>16</sup>.

<sup>16</sup> Мисирова Ў. Ўлкашунослик материалларини ўрганишда ўзвийлик ва узлуksизлик // Тил ва адабиёт таълимида янги педагогик технологиялар. 2-қисм. –Тошкент, 2006. – 59–61-б.

Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kungacha ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun "O'zbek tili" darsliklari turli tamoyillarda yaratib kelindi. Jumladan, R.Tolipova bosh muallifligida funksional-semantik tamoyil asosida yaratilgan, muayyan ma'noni ifodalovchi (masalan, makon, zamon, vaqt, belgi, harakat-holat) til birliklarini ifodalashga o'rgatish maqsad qilib qo'yilgan "O'zbek tili" darsliklarida nutq qoliplari namunalari ko'rsatilib, muayyan izchillikdagi mashq va topshiriqlar vositasida o'quvchilarni shu tipdagi nutqiy konstruksiyalarni tuzishga o'rgatish ko'zda tutilgan edi.

Mashq va topshiriqlarni tizimlashtirib berish til o'rgatishda yaxshi natijalar berishga xizmat qilsa-da, darsliklarda o'rganilayotgan til xususiyatlarini anglab yetishga qaratilgan nazariy bilimlar, qoidalarning berilmasligi til materiallarni o'zlashtirishda katta qiyinchiliklar yuzaga kelishiga olib keldi. O'zbek tili tuzilishiga oid bilimlarni grammatik qoidalarsiz, faqat nutqiy qurilmalarning o'zi va muayyan ko'nikmalarni hosil qilish vositasi bilangina amalga oshirish tamoyili muayyan metodik qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi, chunki faqat nutqiy qurilmalarning o'zi grammatik vositalarni umumlashtirish va qoidalashtirishga imkon bermaydi. Shu bois ushbu metod ko'plab e'tirozlarga sabab bo'ldi. Ingliz tili ta'limi masalalari bo'yicha tadqiqot ishi olib borgan H. Mustafoyeva ta'kidicha, grammatik ta'limni muayyan andozalar – nutqiy qoliplar, modellar (so'z birikmalari, muayyan tuzilishdagi gaplar) vositasida o'zlashtirish til o'rganishda faqat ilk samarani berishi mumkin, xolos. O'zlashtirilgan nutqiy qoliplarni turli vaziyatlarda qo'llay olish uchun o'quvchi nazariy ma'lumot va tilga oid qoidalarni ham bilishi kerak bo'ladi.

Ta'lim islohotidan so'ng o'zbek tili ta'limida kommunikativ tamoyilga asoslangan yangi konsepsiyaning joriy qilinishi natijasida "O'zbek tili" o'quv dasturlari va darsliklari mavzuviylik tamoyili asosida nutqiy mavzular bo'yicha bo'limlarga ajratilib berila boshlandi. Biroq "O'zbek tili" darsliklarida nutqiy mavzularning yetakchilik qilishiga ustuvor o'rin berish, grammatik ma'lumotlarning esa yordamchi vosita sifatida berilishi quyidagi salbiy oqibatlariga olib keldi: *"...Bir mavzudan boshqa mavzuga o'tish sakrashlar tarzida sodir bo'layotgani uchun o'quvchilar navbatdagi mavzuni katta zo'riqishlar bilan egallash qiyinchili-*

*giga duch kelmoqdalar... Leksik va grammatik jihatdan birinchisi ikkinchisiga, ikkinchisi uchinchisiga va hokazo yaqin keladigan, bir-birini rivojlantiradigan mavzulargina rusiyzabon o'quvchilarning o'zbekcha nutqini o'stirishga yordam beradi... Dasturlarda mavzular izchilligiga, osondan murakkabga qarab o'rganilayotgan leksik va grammatik vositalarning murakkablashib borishiga, bir-biriga yaqin mavzularning ketma-ket kelishiga yetarlicha e'tibor berilmagan. Darsliklarda ham bu masalada ayrim islohotlarni amalga oshirish taqozo etiladi"*<sup>17</sup>.

Ko'rinadiki, mavzuviylik leksikani bir mavzu doirasida jamlab borishda muayyan darajada qulaylik tug'dirsa-da, lekin bir mavzudan ikkinchi mavzuga o'tganda, oldingi o'rganilgan leksikadan keyingi mavzularda deyarli foydalanilmasligi faol leksik minimumni puxta o'zlashtirmaslikka olib keladi. Xususan, faqat nutqiy mavzular uzviyligi ko'zda tutilgan A.Rafiyev muallifligida yaratilgan "O'zbek tili" darsliklarida grammatik materiallarning berilishida izchillik va uzviylikka mutlaqo rioya qilinmaganligi tufayli o'quvchilarga taqdim etilayotgan o'quv materiallari, bilimlarni umumlashtirish, ushbu tushunchalarning tarkibini anglash va tizimlashtirish uchun imkon bermadi. Ushbu tamoyil o'quvchi yo'l qo'yayotgan xatolarining sababi nimadaligi, berilgan vositani tushirib qoldirish qanday holatni yuzaga keltirishi, uni qachon qaysi vosita bilan almashtirib qo'llash mumkinligi haqida bilimko'nikmaga ega bo'lmasliklariga olib keldi, o'quvchilarning egalagan bilimlari stixiyali xarakter kasb etadi.

Darhaqiqat, mavzuviylik leksikani bir mavzu doirasida jamlab borishda qulaylik tug'diradi, lekin bir mavzudan ikkinchi mavzuga o'tganda, oldingi o'rganilgan leksikadan keyingi mavzularda deyarli foydalanilmasligi faol leksik minimumni puxta o'zlashtirmaslikka olib keladi. Buni yuqorida qayd etilgan "O'zbek tili" darsliklari misolida ko'rish mumkin. Ushbu darsliklarda nutqiy mavzularda matnlar ko'p berilishiga qaramay, so'zlar va grammatik shakllarning faollashmay qolayotganini kuzatish mumkin.

Keyingi yillarda o'zbek tilini o'qitishda nutq qurilmalari-ga ham keng e'tibor qaratila boshlandi. Nutq qurilmalari dastlab

---

<sup>17</sup> Раупхўжаева М. Ўзбек тили ўқув фанидан ЎММ яратишда нутқ ўстириш мавзуларидаги узвийлик // Узлуксиз таълим жараёнини ўқув методик мажмуалар билан таъминлаш муаммолари: Респ. илм.-амал. конф. мат-ллари. –Тошкент, 2001. – 228–230-б.

R.Tolipova rahbarligidagi mualliflar guruhi tomonidan ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun tuzilgan o'quv dasturida qo'llangan edi. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun o'zbek tilidan o'quv dasturi va darsliklarda o'quvchilarning muayyan mavzuda *nimalar haqida*, ya'ni *qaysi bilimlar haqida ma'lumot berilishi*, o'quvchilar *nimani o'rganishlari*, ya'ni *qanday malakalarni egallashlari kerakligini* aynan nutq qurilmalari orqali bilib olishlari ko'zda tutilgan. Buning uchun o'zbek tilida muayyan fikrni ifodalashda faol qo'llanadigan nutq qurilmalari (modellar, qoliplar) ko'rsatmali tarzda berilib, so'ngra mashqlar, ularni qo'llash orqali matnlar tarkibida o'quvchilarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirib borish nazarda tutilgan. Ikkinchi tilni o'rganish o'quvchilarning muayyan turdagi gap qurilmalarini, modellarni o'zlashtirishi tariqasida amalga oshadi, degan fikrni ko'pgina metodist olimlarning ishlarida uchratish mumkin.

Haqiqatan ham, ikkinchi til ta'limida nutq modellari, nutq qurilmalaridan foydalanish qator uslubiy qulaylik va ustunliklarga ega. Muayyan fikrni ifodalashda, ya'ni ma'lum bir grammatik mavzu bo'yicha eng ko'p qo'llanadigan nutq qurilmalarining o'quvchilarning diqqatini jalb qilish uchun ajratib berilishi mavzuning nisbatan tezroq o'zlashtirilishiga, mazkur nutq modellarning o'quvchilar xotirasida uzoq saqlanib qolishi va nutqda faolroq qo'llanishiga olib keladi. Nutq modellari, albatta, nutq qurilmalarini qo'llashni jadallashtirishga, sintagmatik gap tuzish malakasini shakllantirishga katta yordam beradi. Ammo til o'zlashtirishda nutqiy modellardan foydalanishni yagona vosita sifatida talqin qilish va boshqa turdagi metodik usullarni nazardan chetda qoldirish samarali natijalarga olib kelmaydi. Faqat nutq qurilmalarini, ularning qo'llanishini ajratib ko'rsatib berishning o'zi tilni mustahkam o'zlashtirish uchun yetarli bo'la olmaydi, shu bois, tilga o'rgatishda faqat nutq qurilmalarining o'zi bilangina cheklanib qolish maqsadga muvofiq emas.

Ye.I. Passov o'z vaqtida modellashtirishga quyidagicha ta'rif bergan edi: *“Nutq tizimini modellashtirish – bu aslyatdan birmuncha kamroq darajada bo'lsa-da, nutqning muayyan ko'rinishlarini ifodalay oladigan va o'rni kelganda muayyan vaziyatlarda butun til tizimini almashtira oladigan o'xshash tizimni yaratishdir. Buning uchun esa nutqiy faoliyatning uch tomoni o'zaro mu-*

vofiqlashishi kerak. Biroq bunda shuni unutmaslik kerakki, ushbu uchlikda gapirish jarayonida nutqning grammatik tomoni birinchi o‘rinda turadi”<sup>18</sup>.

Biroq “O‘zbek tili” darsliklarida ushbu maqsadni grammatik qoidalarsiz, faqat nutq qurilmalarining o‘zi bilan amalga oshirishning ko‘zda tutilishi muayyan metodik qiyinchiliklar hosil qiladi, chunki ko‘pchilik o‘quvchilar faqat nutqiy qurilmalarning o‘zi bilanlangina fikrni ifodalash vositalarini umumlashtirib, qoidalashtirib bera olmaydilar. H.Mustafoyevaning ta’kidlashicha, grammatik ta’limni ma’lum andozalari – nutq qoliplari, modellari (so‘z birikmalari, muayyan tuzilishdagi gaplar) vositasida o‘zlashtirish til o‘rganishda faqat ilk samarani berishi mumkin, xolos. O‘zlashtirilgan nutq qoliplarini turli vaziyatlarda qo‘llay olish uchun o‘quvchi qoida va ta’riflarni ham bilishi kerak bo‘ladi. Demak, nutq faoliyati, muayyan nutq tuzilmalarini yodda saqlab qolish va qayta qo‘llashdangina emas, balki ularni ma’lum model-qoliplar asosida tuzish hamda nutq vaziyatiga moslashtirib ishlatishdan ham iborat. Ye.I. Passovning yozishicha, “*ushbu faoliyat quyidagi jarayonlardan tashkil topadi: 1) muayyan vaziyatda so‘zlovchining o‘ylagan fikriga mos nutqiy qurilma – model tanlash; 2) tanlangan modelni to‘ldirish uchun til va vaqt me‘yorlariga mos nutq birliklarini tuzilishini ta‘minlash*”. Binobarin, tilni sistema sifatidagina emas, balki funksional jihatdan ham o‘rganilishi, ya’ni so‘zlarni va so‘z birikmalarini yodlatish yo‘lidan emas, balki ularni turli nutq vaziyatlarida qo‘llash malakalarini hosil qildirish yo‘lidan borish kerak.

Ma’lumki, har bir tildagi leksik birliklar xilma-xil aloqalari bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq, chunki ular biror mavzu yoki vaziyat doirasida muloqot yuritishga xizmat qiladi. Ammo so‘zlar minimal kontekstda – so‘z birikmalari ichida taqdim etilgani uchun o‘ziga xos sintaktik funksiyalari bilan tavsiflanadi. Bu funksiyalar grammatik modellar, nutq qurilmalari orqali namoyon bo‘ladi. Ye.I. Passov fikricha, “*Model insonning xotirasida saqlanib qoladigan va shu kabi birliklarning tug‘ilishiga asos bo‘ladigan bir turdagi nutqiy birliklarni umumiy tavsiflovchi tuzilma qobig‘idir*”. Biroq o‘quvchiga barcha nazariy bilimlarning yig‘indisini to‘liq yetkazishning iloji bo‘lmaganidek, unga barcha

<sup>18</sup> Пассов Е. И. Коммуникативные упражнения (пособие для преподавателей). – Москва–Ленинград: Просвещение, 1967. – С. 99.



turdagi nutq tuzilmalarining aniq ko‘rinishlarini o‘rgatish ham qiyin. Bu borada V.G. Admonining quyidagi fikrlari o‘rinli deb o‘ylaymiz: *“Tilning grammatik qurilishi inson ongida o‘zaro tobeklik munosabatlari asosida tizimlashgan modellar, qoliplar ko‘rinishida o‘z aksini topadi. Ushbu qoliplarning har biri nutqiy faoliyatda ma‘lum mantiqiy fikrni shakllantirish hamda ifoda qilish uchun xizmat qilsa-da, ular bir-birlaridan alohida shakliy tuzilishi va boshqa grammatik hodisalar bilan bo‘lgan aloqalari jihatidan farq qiladi”*.

Shunday bo‘lsa-da, har qanday nutq qurilmasi zaminida biron-bir grammatik model – namuna yotishini unutmazlik lozim. Ma‘lum bir nutq qurilmasini hosil qilish uchun grammatik qoidalarni, sintaktik shakllar, gap tuzishning modellarini o‘zlashtirish kerak bo‘ladi. Bu o‘rinda grammatika va leksikaning uzviy aloqasi to‘liq namoyon bo‘ladi, ya‘ni grammatika so‘zlarni uyushtirib beradi va o‘zi so‘zlar, so‘z birikmalari orqali namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida o‘zbek va rus tillarini o‘rgatish yuzasidan tadqiqot ishi olib borgan F.Qodirovaning quyidagi fikri ham buni tasdiqlaydi: *“Nutqiy faoliyat, avvalo, o‘zi xohlagan fikrni ifodalash uchun so‘z tanlashga qaratilgan ayrim jarayonlardan tashkil topadi. Har bir tildagi so‘zlar minglab birikmalarga qo‘shilishi mumkin va so‘zlovchi o‘z fikrini ifodalashga xizmat qiluvchi so‘zlar, vositalarni, fikrning ifoda shaklini, gap tuzish uchun kerak bo‘ladigan grammatik unsurlar (qo‘shimchalar, ko‘makchilar, bog‘lovchilar)ni topishi zarur bo‘ladi. Ta‘kidlash lozimki, birinchidan, o‘zbek tilida so‘zlovchilarning xotirasida nechta gap konstruksiyasi andoza shaklida saqlab qolinishi hech kimga ma‘lum emas. Ikkinchidan, har kim o‘z nutqiga e‘tibor bersa, shunga iqrar bo‘ladiki, kishi gapirayotgan paytda muayyan gap qurilmalarini xotirasidan qidirib o‘tirmaydi, u fikr bayon qilish chog‘ida so‘zlarni bir zanjirga tizgan holda gap tuzish harakatini boshlaydi, o‘z tuyg‘ularini, munosabatlarini turli ohanglar vositasida hali konstruksiyasi noaniq gapda aks ettiradi”*<sup>19</sup>. Demak, nutqiy tuzilmalarni hosil qilish uchun til birliklarini, sintaktik shakllar, so‘z birikmalari, gap yasash modellari ham bilish kerak.

<sup>19</sup> Кадырова Ф. Р. Лингводидактические основы обучения детей дошкольного возраста второму языку (на материале русского и узбекского языков): Дис. ... док. пед. наук. –Ташкент: 2006. – С. 95.



Haqiqatan ham, nutq tuzuvchi tildagi bu modellardan o‘z kommunikativ maqsadiga uyg‘unini tanlaydi va uni turli variantlarda kengaytiradi, berilgan model asosida kerakli jumlaning tuzadi. Olimlarning fikricha, gapning bunday namunaviy modellari har bir tilda o‘ziga xos va miqdor jihatidan chegaralangan, taxminan 40–50ta jumlaning nari-berisida bo‘ladi. Jumladan, N.Mahmudov fransuz professori Murtazo Mamudyan tomonidan aniqlangan quyidagi fakti keltiradi: *“Ko‘pgina tilshunoslar nutqdagi jumlar (120 dan ortiq bo‘lmagan so‘zdan tarkib topgan) miqdori 10.30 dan 10.86 gacha bo‘lgan son bilan o‘lchanadi deb hisoblaydilar. Bir asr 3 x 10.9 soniyadan iboratligi e‘tiborga olinsa va bir odam bir asr davomida har soniyada bittadan jumlaning o‘rganadi deb taxmin qilinsa, inson butun umri davomida ham mazkur miqdordagi jumalarning juda oz qismini o‘zlashtira olishi ma‘lum bo‘ladi. M.Mamudyan tilni o‘zlashtirish va undan foydalanish jarayonlari mohiyatan benihoya tejamkor tamoyilda voqe bo‘lishini, bu tejamkorlik til strukturasi bilan ta‘minlanishini ta‘kidlaydi. Til o‘rganuvchilar ana shu bo‘laklarga suyangan holda sanoqsiz individual jumlar tuzadilar”*<sup>20</sup>.

### 3.3. O‘zbek tilini o‘qitishda nutq mavzulari va grammatik qoidalar uzviylikini ta‘minlash

Muloqot til birliklarining o‘zaro birikishi asosida yuzaga kelar ekan, til birliklarini o‘zaro biriktirib nutqiy tuzilmalar hosil qilish uchun esa grammatik qoidalarni ham bilish kerak bo‘ladi. Ushbu qoidalar majmuasini o‘zlashtirmasdan turib to‘g‘ridan to‘g‘ri gap tuzish va nutqiy ko‘nikma hosil qilish mumkin emas. Muayyan nutq qurilmalarining tuzilishini o‘rgatish uchun esa nafaqat so‘z birliklarining tuzilishini, balki so‘zlarning o‘zaro bog‘lanish xususiyatlarini ham o‘rgatib borish kerak bo‘ladi. Kelib chiqadiki, har qanday nutqiy mashq qaysidir til materialini o‘zlashtirishga qaratiladi, u esa, o‘z navbatida, muloqotni rivojlantirishga olib keladi. Ko‘rinadiki, nutq faoliyati bir-biri bilan uzviy bog‘langan aspektlarni qamrab olgan bo‘lib, ushbu rivojlanuvchi, davomli jarayon biri ikkinchisining davomi bo‘lgan uzluksiz mashqlar turlarini bajarishni talab qiladi. Ko‘rinib turibdiki, psixolingvistik

<sup>20</sup> Махмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 69–70-б.

nazariyotda nutqiy faoliyat ko'nikmalarini egallashda grammatik bilimlar inkor qilinmaydi, aksincha, grammatik bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish va qo'llash, *“tilga o'rgatishda o'quvchilarning qaysi shakl yoki vositalar qanday mazmunni ifoda qilishga qodir ekanligini anglab olishi o'ta muhim”* omil ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Demak, har qanday tilda amalga oshiriladigan muloqotlarni grammatik shaklsiz va grammatik qoidalar amaliyotisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu barchaga ayon bo'lsa-da, ikkinchi tilni o'zlashtirishda grammatik qoidalarning ahamiyatini pasaytirish harakatlari ham yo'q emas. Bunday qarashlar darsliklarda grammatik materiallarning berilishi va qoidalar bayonida biryoqlamalilik va tarqoqlikka, berilayotgan bilimlarning mustahkamlanmay qolishiga olib keladi. Jumladan, sof nutq yo'nalishida yozilgan *“O'zbek tili”* darsliklarida grammatik ma'lumotlarning noizchillik bilan berilishi, ushbu hodisalar o'rtasida o'zaro bog'liqlik, aloqadorlik mavjudligini, ularning biri ikkinchisini taqozo etuvchi yaxlit bir tizim ekanligini tushunib yetmaslik natijasida fikrni noto'g'ri ifodalash hollari kuzatiladi. Bu holat *“O'zbek tili”* darsliklarida nafaqat nutqiy mavzularning, balki grammatik ma'lumotlarning ham uzviyligi va izchilligini ta'minlashga erishish zaruratini keltirib chiqardi. Bu o'rinda S.Nazarovanning o'z tajribalari asosida *“Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili darslarida o'tilgan mavzularni sistemalashtirib turishning amaliy ahamiyati shundaki, aynan shu metod o'quvchilarga o'z xatolarini anglab olish imkoniyatini yaratadi”* degan xulosasi o'sha vaqtda-yoq e'tiborga sazovor bo'lganini qayd etish mumkin.

Darhaqiqat, nutqning to'g'ri tuzilishi, nutqiy faoliyatni yuritish ko'nikmalari haqidagi ma'lumotni faqat grammatik bilimlarni o'zlashtirish asosidagina bilish mumkin. Ulug' allomamiz Abu Nasr Forobiyning to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor, chiroyli nutq tizimida leksikologiya, grammatika va mantiqning ahamiyati nihoyatda kattaligi haqida aytib o'tgan quyidagi fikrlarini unutmaslik kerak: *“Qanday qilib ta'lim berish, ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berishga kelganimizda, bu borada bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman”*.

Demak, grammatikaning til o'zlashtirishda tutgan o'rni, uning muloqot birliklarining tuzilishida o'ynaydigan yetakchi vazifasini inkor qilish aslo mumkin emas, chunki grammatik qoidalarsiz nutqni to'g'ri tuzib bo'lmaydi. Akademik L.V.Shcherba ta'kidlab aytganidek, *"tilimizni chegaralangan miqdordagi turg'unlashib qolgan nutqiy birikmalar to'plamiga tenglashtirish noto'g'ri, biz har vaqt ilgari uchratmagan nutqiy tuzilmalarni eshitamiz yoki o'zimiz shunday tuzilmalarni ijod qilamiz. Demak, qadimdan ma'lum bo'lgan, lekin keyinchalik anchagina kinoyalarga sabab bo'lgan "grammatika so'zlashga o'rgatadi", degan shior haqiqiy voqelikni aks ettiradi"*<sup>21</sup>.

I.A. Zimnaya ham ikkinchi tilda nutqiy ko'nikmalar hosil qilish jarayoni haqida to'xtalar ekan, bu borada metodist olim N.I. Jinning axborotni to'liq ifoda etish uchun sintaktik, semantik va mantiqiy qoidalarni bilish va ijodiy qo'llash zarurligi haqidagi fikrlariga qo'shilishini bildirib, quyidagilarni yozadi: *"Bunda, albatta, shu 3 turdagi qoidani to'g'ri tanlash jarayoni katta rol o'ynaydi. Birinchi, ya'ni sintaktik qoidalarni bilmaslik quyidagi kabi xato qo'llanishlarga olib keladi: "Xoroshaya malchik budet poyexal na yuge." Ikkinchi – semantik qoidalar esa so'zlarning ma'no jihatidan o'zaro bog'lanishini ko'rsatadi. So'zlarning ma'noviy bog'lanishi sintaktik aloqalar bilan belgilanmaydi. Buni L.V. Shcherbaning sintaktik jihatdan to'g'ri, ammo ma'nosiz so'zlarning o'zaro bog'lanishi ifodalangan mashhur jumlasini misolida ham ko'rsatish mumkin: "Glokaya kuzdra ugeglo budlanula kudrenka". Uchinchi guruh qoidalari N.I. Jinning haqiqat va yolg'on omilini tartibga solib turuvchi mantiqiy qoidalarni kiritadi. Jumladan, sintaktik va semantik jihatdan to'g'ri tuzilgan "Рыбы летают высоко" gapida aynan ana shu qoida buzilganligini qayd qilish mumkin"*<sup>22</sup>.

Til hodisalariga tizimli sistem butunlik sifatida qarash grammatik ta'limning ilmiy asoslarini yaratishda muhim o'rin tutadi. O'rganilayotgan obyekt tahliliy tomondan qanchalik ilmiy asoslangan bo'lsa, uni o'quvchi ongiga yetkazish shunchalik osonla-

---

<sup>21</sup> Щерба Л.В. Преподавание иностранных языков в средней школе // Общие вопросы методики / Под ред. Рахманова И.В. Изд. 2-е. – Москва: 1974. – С. 38.

<sup>22</sup> Зимняя И.А. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке. – Москва: МГУ, 1998. – С. 144–145.

shadi. Biroq ikkinchi til ta'limida o'rganilayotgan til grammatikasi tom ma'noda amaliy bo'lishi, u o'qituvchi tomonidan ko'rsatmalar berishni osonlashtirishi bilan bir qatorda o'quvchini mustaqil fikrlashga, o'zlashtirilayotgan materialni idrok qilib borish, ongli ravishda qabul qilish imkoniyatini yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak. S.Nazarovanning uqtirishicha: *"O'qishlar rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili o'qitilishining onglilik prinsipi o'qituvchi tomonidan bayon etilgan o'quv materialining dars jarayonida o'quvchilar tomonidan tushunib qabul qilinishini, shu materiallar vositasida o'quvchilarning fikr ifodalay olish ko'nikmasiga ega bo'lishini ko'zda tutadi. O'quvchilar tomonidan o'quv materialini ongli ravishda o'zlashtirish darajasi ularning o'quv materiali bilan qiziqishiga, shu materialdan manfaatdor ekanligini anglashiga, uni o'zlashtirib olishdagi faol harakatiga bog'liq. Demak, faollik metodik usulgina bo'lib qolmay, ayni paytda, bayon etilgan o'quv materialini bilish va o'zlashtirish jarayonida o'quvchilar tomonidan mustaqil bajariladigan ish turlari mazmuni ifodasi hamdir. O'quv jarayonida bunday faollikdan foydalanish o'quvchilarda mustaqillikni tarbiyalaydi"*.

Biz nutq mavzularini N.Mahmudov va B.To'xliyevlarning o'zbek tilini o'rganishni ilk boshlayotganlar uchun tuzilgan o'quv qo'llanmasidagi kabi umumlashtirib berish maqsadga muvofiqroq deb o'ylaymiz. Qo'llanma *"Odam"*, *"Oila"*, *"Kiyim-kechak"*, *"Tabiat"*, *"O'simliklar olamida"*, *"Hayvonot olamida"*, *"Vaqt"*, *"Bizning hovli"*, *"Oshxonada"*, *"Maktab"*, *"San'at olamida"* bo'limlaridan iborat<sup>23</sup>. Mazkur o'quv qo'llanmada so'zlar ham umumiy mavzular bo'yicha, ham grammatik jihatdan muayyan guruhlarga ajratib berilgan, zarur o'rinlarda rasmlar vositasida ushbu tushunchalarni ko'z oldiga keltirish va eslab qolishga qaratilgan topshiriqlar ham berib borilgan. Shuningdek, qo'llanma dialogik suhbat matnlari va ayrim mashqlar vositasida eng faol qo'llanuvchi so'z birikmalarini va gap qurilmalarini nutqqa olib kirish, zarur hollarda ularning sinonimlari, ko'p qo'llanadigan ifodalarning berib borilishi bilan ham o'ziga xosdir. Har bir bo'limda quyidagi ish turlari orqali til o'rganuvchilarni o'zbek tilida muloqotga olib chiqishga harakat qilingan:

<sup>23</sup> Махмудов Н., Тўхлиев Б. Ўзбек тилини ўрганамиз. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991.

– har bir mavzu bo‘yicha tematik rasmiy lug‘at asosida yangi so‘zlarni o‘zlashtirish;

– mavzuga doir so‘zlar ishtirokida tuzilgan kichik matn ustida ishlash;

– matnda ishtirok etgan fe‘llarning tarjimai bilan tanishish;

– mavzu asosida suhbat-dialog matnlarini o‘qish;

– tayanch so‘zlarning uslubiy bo‘yoqlari, sinonim, antonimlari haqida rus tilida berilgan qisqa sharhlar bilan tanishish;

– mavzu bo‘yicha ko‘p qo‘llanadigan ifodalar va ularning variantlarini amaliy qo‘llashga o‘rganish;

– o‘zini sinab ko‘rish mashqlari orqali o‘tilganlarni mustahkamlash;

– bog‘lanishli matn ustida ishlash, notanish so‘zlar ma‘nosini lug‘atdan izlab topish;

– milliy realiyalarni ifodalovchi so‘zlar, o‘zbek maqollari sharhini rus tilidagi interpretatsiyasi yordamida o‘zlashtirish.

Ta‘kidlash kerakki, topshiriqlarning shu tarzda berilishi grammatik bilimlarni muayyan izchillikda, ayni paytda, nutqiy mavzuga aloqadorlikda o‘zlashtirish va ularni mustahkamlab borish uchun shart-sharoit yaratadi. Bu o‘rinda xorijiy tillarni o‘qitish tajribasidagi 3 xil yondashuv haqida eslab o‘tishni o‘rinli deb hisoblaymiz:

1. *Birinchi yondashuvda* til o‘rganish jarayonida inson ongida tilning grammatik va leksik tizimini shakllantirish va tilni o‘zlashtirishga qaratilgan qoidalar majmuasini bilish;

2. *Ikkinchi yondashuvda* tilni o‘zlashtirishda oddiy takrorlash va mustahkamlash vositasida ixtiyorsiz ko‘nikma-malakalar hosil qilish;

3. *Uchinchi yondashuvda* faol va ijodiy harakat natijasida o‘quvchi ongida grammatik ko‘nikmalarning shakllanishi nazarda tutiladi.

Aytilganlardan dastlabkisi til ta‘limida idrokli o‘zlashtirishning ustunligini ta‘kidlaydi hamda o‘quv materialida, dars jarayonida grammatikaga asosiy o‘rinni ajratishni talab qiladi. Ikkinchisi, o‘zga tilni o‘rganish jarayonida grammatikani siqib chiqarishni, faqatgina takrorlash yo‘li bilan o‘zlashtirilishi nazarda tutiladigan nutq modellariga ahamiyat berishni talab etadi. Lingvodidaktik jihatdan eng mahsuldor yondashuv uchinchi yondashuv bo‘lib, unda grammatik bilimlar inkor qilinmaydi, balki uni qam-

rab olgan holda nutq ko'nikmalarini shakllantirish kerakligi nutq samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida e'tirof qilindi. Buning uchun esa grammatik materiallarni o'zaro uzviylikda va ta'lim bosqichlararo uzluksizlik asosida taqsimlash tartibini aniqlash kerak bo'ladi.

Grammatik mavzular va nutq mavzularini tarqoq berilishdan saqlanish o'zbek tilini faqat og'zaki muloqot uchungina emas, balki davlat tili sifatida puxta o'rganilishiga ham olib keladi. Bu o'rinda metodist M.Djusupovning quyidagi fikrlariga to'liq qo'shilish mumkin: *“O'zga tilni kommunikativ asosda o'rganish hozirgi zamon lingvodidaktikasi va metodikasining asosiy yo'nalishidir. Biroq ikkinchi til ta'limidagi barcha qiyinchiliklarni faqat kommunikativ ta'lim orqaligina yengish mumkin deb o'ylasak, xato qilgan bo'lamiz. Kommunikativ ta'lim mustahkam nazariy asoslarga ega bo'lgandagina va uni takomillashtirishda boshqa metodlardan ham o'rinli foydalanilgandagina ikkinchi til ta'limida sifat samaradorligiga erishish mumkin. Bunda, ayniqsa, ikkinchi til ta'limida borgan sari ko'proq va kengroq tarmoq otayotgan nutqni til aspektlariga yetarli darajada tayanmay shakllantirish metodidan voz kechish kerak”*<sup>24</sup>.

Ushbu fikr respublikamizda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va amaliy vazifalariga nisbatan tatbiq etilsa, respublikamizda o'zga tilli fuqarolarga o'zbek tilini o'qitishni mutlaqo o'ziga xos tarzda tashkil etish, “O'zbek tili” darsliklariga oddiy so'zlashgich sifatida emas, muhim bir fan darsligi sifatida qarash zarurligi ayon bo'ladi. Zero, rusiyzabon fuqarolar o'zbek tilida nafaqat og'zaki muloqot yurita olishlari, balki davlat ta'lim standartlarida belgilab qo'yilganidek, *“yozma savodxonlikka ham ega bo'lishlari, o'z ixtisosliklari doirasida va ma'muriy-boshqaruv tizimida bemalol rasmiy ish yurita oladigan bo'lishlari zarur”*.

Ma'lumki, nutq faoliyati ko'nikmalari 3 xil: grammatik, leksik va talaffuz ko'nikmalariga asoslanadi. Ularning barchasi nutq ko'nikmasida bir butun holda namoyon bo'ladi. Bunda, ayniqsa, leksik va grammatik ko'nikmalar o'zaro uzviy aloqada bo'ladi. Grammatik ko'nikmalar nutq birliklarning morfologik-sintaktik jihatdan to'g'ri rasmiylashtirilishini ta'minlaydigan avtomatlashgan

---

<sup>24</sup> Джусупов М. Лингвотипологические, социолингвистические и лингводидактические проблемы обучения неродному языку // Филология ма-саладари. – Тошкент, 2002. – № 1–2. – С.78.

nutq faoliyatini yuzaga keltirish qobiliyatidir. Nutqda grammatik shakllarning yetarli darajada tezkorlik bilan to'g'ri qo'llanishi, Ye.I. Passov qayd etganidek, leksik ko'nikmalarning qanchalik shakllanganiga, ya'ni so'zlovchining o'ziga kerakli so'zlarni qanchalik tez tanlay bilishi va o'zaro birliktirib nutqda ulardan foydalana olishiga bog'liqdir.

Ayni paytda har qanday til birligining nutqda qo'llanishi nutqiy tuzilmaning uslubiy xususiyatlari va ushbu uslubga xos me'yoriy talablardan kelib chiqadi. Bundan tashqari, tilda aynan bir fikrni turli sintaktik tuzilmalar vositasida turlicha ifoda qilish imkoniyati ham mavjud, ya'ni yagona bir grammatik struktura turli ma'noni ifoda qilishi mumkin. Jumladan, Yu.N.Vlasova xorijiy tillarni o'rganishda sintaktik omonimlar va sinonimlarni farqlashda shakliy va mazmuniy tahlilning ahamiyatli ekanligini alohida qayd qilgan ekan, bunda shakl va mazmun uyg'unligi yoki farqidan tashqari, ularning uslubiy xususiyatlariga ham ahamiyat berish kerakligini ta'kidlab o'tadi. Bu o'rinda N.Mahmudovning quyidagi fikrlari ayniqsa diqqatga sazovor: *“Har qanday til ta'limida tilning uslublari haqidagi bilimlarni chetlab o'tish mumkin emas. Tilni o'zlashtirishda til qurilishini bilish shart, bu boradagi bilimlar asosdir. Ammo ayni qurilish birliklaridan qanday foydalanish, ularni nutqda bevosita qanday qo'llash malakasi shakllanmagan bo'lsa, tilni bilishni tugal deyish mushkul”*.

Ko'rinadiki, tilni o'zlashtirish leksik, morfologik, sintaktik bilimlarni uyg'unlashtirgan holda qo'llashni taqozo etadi. Shu bois o'zbek tilidan amaliy mashg'ulotlarda til materiallarini taqsimlashda *til tizimi sathlarining o'zaro aloqadorligi bosh xususiyat* ekanligini unutmaslik kerak. Morfologiya hamda sintaksisning o'zaro bog'liqligi, grammatik qonuniyatlar bayonida lug'aviy hodisalarga murojaat qilinishi buning isbotidir. Til o'rganayotgan shaxs muloqotga kirishishi uchun bir paytning o'zida ma'lum miqdordagi leksik, morfologik, sintaktik materiallarni kompleks holda o'zlashtirishi va muayyan nutq vaziyatlariga muvofiq holda qo'llay olishi talab qilinadi.

O'zbek tilini o'zga tilli maktablar va guruhlarda o'qitish yuqorida qayd etilgan lingvodidaktik xususiyatlarga va ikkinchi tilni o'qitishning zamonaviy tamoyillariga tayanilgan holda amalga oshirish ta'lim sifati samaradorligini ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi. Har bir ta'lim bosqichi uchun belgilanadigan



ta'lim mazmuni va bitiruvchilarga qo'yiladigan talablar ham shulardan kelib chiqib belgilanishi zarur.

### Savol va topshiriqlar:

1. "Uzviylik" va "uzluksizlik" tushunchalarining ma'nolarini izohlang.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy modeli" asosida ta'lim sohasidagi islohotlar haqida so'zlab bering.
3. Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim uzviyligi va uzluksizligi qanday ta'minlanishini tushuntiring.
4. O'zbek tilini uzluksiz o'qitish bosqichlari haqida so'zlab bering.
5. Ikkinchi til ta'limida mavzuga oid tayyor nutq qurilmalarining o'rni qanday?
6. Nutqiy faoliyatning turlari bir-biriga bog'liq holda bosqichdan bosqichga rivojlantirib borilishi nimani ta'minlaydi?
7. O'zbek tilini o'qitishni grammatik qoidalarsiz, faqat nutq qurilmalarining o'zi bilangina amalga oshirish mumkinmi?
8. *Nutq mavzulari – grammatik ma'lumotlar – adabiy o'qish* materiallari uzviyligini qanday tushunasiz?
9. Grammatik materiallarni o'zaro uzviylikda va ta'lim bosqichlari-aro uzluksizlik asosida taqsimlash qanday yondashuv orqali amalga oshiriladi?

### Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Щерба Л. В. Преподавание иностранных языков в средней школе // Общие вопросы методики. / Под ред. Рахманова И.В. Изд. 2-е. – Москва: 1974. – 38-б.
2. Зимняя И. А. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке. –Москва: МГУ, 1998. –144–145.
3. Раупхўжаева М. Ўзбек тили ўқув фанидан ЎММ яратишда нутқ ўстириш мавзуларидаги узвийлик // Узлуksиз таълим жараёнини ўқув методик мажмуалар билан таъминлаш муаммолари: Респ. илм.-амал. конф.мат.-аллари. –Тошкент, 2001. – Б. 228–230.
4. Джусупов М. Лингвотипологические, социолингвистические и лингводидактические проблемы обучения неродному языку // Филология масалалари. –Тошкент, 2002. – № 1–2. – С.78.
5. Rafiyev A. O'zbek tili (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlar uchun uzviylashtirilgan dastur). – Toshkent: RTM, 2004.
6. Кадырова Ф.Р. Лингводидактические основы обучения детей дошкольного возраста второму языку (на материале русского и узбекского языков): Дис. ... док. пед. наук. –Ташкент: 2006. – С. 95.
7. Мисирова Ў. Ўлкашунослик материалларини ўрганишда узвийлик ва узлуksизлик // Тил ва адабиёт таълимида янги педагогик технологиялар. 2-қисм. – Тошкент, 2006. – 59–61-б.



8. Ниёзметова Р.Н. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий ва методик асослари. – Тошкент, 2007.
9. Мухитдинова Х.С. Ўзбек тилини ўқитишда узлуксизликни таъминлашнинг илмий-методик асослари. – Тошкент; Фан ва технология, 2008.
10. Muxitdinova X.S. O‘zbek tili ta’limida til materiallarini uzviylik asosida taqsimlash masalasi / Ж. “Til va adabiyot ta’limi”. – Toshkent, 2014.– 1- son. – 5–6-b.
11. Muxitdinova X.S. O‘zbek tili ta’limi standartlari talablari va ularni takomillashtirishga doir mulohazalar / Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2016. – 46–51-b.

## 4-MAVZU. O‘ZBEK TILI FANINING O‘QUV-USLUBIY TA‘MINOTI

### REJA:

1. Davlat ta’lim standartlari talablari va o‘zbek tilidan belgilangan DTS darajalari.
2. Tayanch o‘quv reja va o‘quv dasturi, uning tarkibiy qismlari va mazmuni.
3. O‘zbek tilidan bosma va elektron adabiyotlar va o‘quv qo‘llanmalarga qo‘yiladigan talablar.

**Tayanch tushunchalar:** standart, ta’lim standarti, davlat ta’lim standartlari talablari, tayanch o‘quv reja, DTS darajalari, o‘quv dasturi, namunaviy va ishchi o‘quv dasturi, o‘quv adabiyotlari, darslik, o‘quv qo‘llanma, metodik qo‘llanma, uslubiy ko‘rsatma, lug‘at, ma’lumotnoma, ma’ruzalar matnlari to‘plami, elektron darslik, elektron ishlanmalar, elektron platforma.

### 4.1. Davlat ta’lim standartlari talablari va o‘zbek tilidan belgilangan DTS darajalari

Har qanday o‘quv fanining asosini davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja va o‘quv dasturi tashkil etadi. Bular davlat tomonidan qabul qilingan me’yoriy hujjatlar – farmonlar, qarorlar, buyruqlar asosida ishlab chiqiladi, tegishli idoralar va mas’ul mutaxassislar tomonidan ko‘rib chiqilib, hukumat tasdig‘idan o‘tkaziladi, shu bois ular har bir fan o‘quv-uslubiy ta’minotining asosi hisoblanadi.

Ma’lumki, davlat ta’lim standartlari har bir fan bo‘yicha ta’lim mazmuni, shakllari, usullari, baholash tartibini belgilab beradi

va ta'lim mazmunining asosi hisoblanadi. U o'quvchilar va talabalarning tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan minimal daraja ko'rsatkichlaridir. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasida "Davlat ta'lim standartlari umumiy, o'rta maxsus va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yilgan talablarni belgilaydi" deb ko'rsatilgan. Ushbu talablar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy talablardan kelib chiqadi.

Davlat ta'lim standartlari (**DTS**) – davlat ta'lim standartlari ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarlicha darajasini hamda muayyan ta'lim muassasalari bitiruvchilariga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarini, o'quv yuklamasining zaruriy hajmini, ta'lim muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibi va mexanizmini belgilab beruvchi me'yoriy hujjat bo'lib, ta'lim mazmuni, shakllari, usullari, baholash tartibini belgilab beradi va ta'lim mazmunining asosi hisoblanadi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da standart so'ziga quyidagi izohlar berilgan:

"Standart I (ingl. standart – me'yor, namuna, o'lcham) – 1. O'ziga o'xshash boshqa ob'ektlarni taqqoslash uchun asos qilib olingan namuna, andoza, etalon. 2. Standartlashtirilayotgan ob'ektga nisbatan qo'llanadigan me'yorlar, qoidalar, talablar majmuini belgilovchi rasmiy me'yoriy-texnik hujjat.

Standart II – 1. Standartga muvofiq, mos bo'lgan, standart talablariga javob beradigan. 2. ko'chma Bir qolipdagi, shablon."

Shuningdek, mazkur lug'atda standart so'zi bilan bog'liq quyidagi tushunchalarga ham muayyan izohlar berib o'tilgan:

"Standartlamoq – bir standartga keltirmoq, standartga muvofiq, bir xilda, bir qolipda ishlamoq, yasamoq, hozirlamoq. Standartlash – fan, texnika va amaliy tajribalarning umumlashtirilgan yutuqlariga tayangan holda standartlar belgilash va ularni tarmoqlarda qo'llash jarayoni. Standartsiz – standartga mos kelmaydigan, standart talablariga javob bermaydigan, standartdan tashqari; no-standard."<sup>25</sup>

Ushbu lug'atda ta'lim so'ziga esa quyidagi izohlar berilgan: "Ta'lim – 2. Ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo'yicha egallanadigan, olinadigan ma'lumot va ko'nikmalar majmui; bilim. 4. Ko'rsatma, yo'l-yo'riq, o'rgatuv."<sup>26</sup>

<sup>25</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati, 3-jild – 568-b.

<sup>26</sup> Shu manba, 4-jild. – 28-b.

Demak, standart bu muayyan soha bo'yicha asos qilib olingan namuna, andoza, etalon yoki namunaga mos me'yorlar, qoidalar, talablar majmuidir. "Ta'lim standarti" esa aynan ta'lim sohasiga bog'liq, muayyan fan, kasbiy soha bo'yicha beriladigan ta'lim darajalari, me'yorlarini belgilab beruvchi rasmiy me'yoriy hujjat bo'lib, u davlat buyurtmasi asosida qabul qilingani uchun "davlat ta'lim standarti" deb nomlanadi.

Davlat ta'lim standarti har bir ta'lim bosqichi uchun alohida tuziladi va shu ta'lim bosqichi uchun o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, umumiy o'rta ta'limning DTS quyidagi tamoyillarga tayangan holda ishlab chiqiladi:

– umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;

– pedagogik tafakkurda qaror topgan an'anaviy qarashlar bilan "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qonunlarda ifodalangan zamonaviy talablar uzviyligi;

– ilg'or demokratik xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribalaridan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Hozirgi kunda respublikamizda o'zbek tili ta'limi oldiga qo'yilgan ijtimoiy-siyosiy vazifa o'qituvchi shaxsini fikrlashga, shu fikr mahsulini og'zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olish, o'zgaralar bilan turli nutqiy vaziyatlarda muloqot yurita olish, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishdan iborat. O'zbek tili ta'limida o'quvchi-talabalar egallagan bilim, ko'nikma va malakalar ana shu maqsadlardan kelib chiqib, nutq faoliyatining tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalari asosida tekshiriladi.

Ko'rsatib o'tilgan mezonlar asosida har bir ta'lim bosqichida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal darajasi quyidagilardan iborat:

### **I. Umumta'lim bosqichida.**

*Boshlang'ich ta'lim bo'yicha (2–4-sinflar)*

Ta'lim o'zbek tilidan boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 2–4-sinflarida davlat tili ta'limidan o'quvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

– o'zbek tilining nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish;

– o'zbek alifbosidagi harflarning bosh va kichik shakllarini husnixat me'yorlari asosida yozishni bilish;

- o‘zbek tilida kamida 700 ta so‘zni o‘z nutqida qo‘llay olish;
- yozma va og‘zaki nutq malakalariga ega bo‘lish;
- fikr bayon qilish uchun zarur bo‘lgan ayrim grammatik vositalarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish;
- bog‘lanishli nutq elementlaridan to‘g‘ri foydalangan holda sodda matn tuza olish;
- xalq og‘zaki ijodi hamda bolalar adabiyoti namunalaridan olingan parchalarni o‘qib tushuna olish.

*Umumiy o‘rta ta‘lim bo‘yicha (5-11-sinflar)*

Ta‘lim o‘zbek tilidan boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda davlat tili ta‘limidan o‘quvchilar quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari shart:

- morfologiya va sintaksisga doir asosiy tushunchalarni hamda ular bilan bog‘liq ravishda grammatik me‘yorlarni bilish;
- so‘zlarning yozilishi, grammatik vositalarning so‘zlarga qo‘shilishi bilan bog‘liq imlo qoidalarini bilish va amaliy qo‘llash;
- gaplarni, murakkab sintaktik butunliklarni mustaqil ravishda o‘zaro to‘g‘ri bog‘lay olish;
- o‘rganilgan mavzu doirasida va rasmlarga qarab o‘z fikrini 20–25 gap bilan izchil va bog‘lanishli monologik nutq shaklida bayon qila olish;
- ayrim matnlar mazmunini o‘z so‘zi bilan (asosiy mazmuni qamrab olgan holda) qayta hikoya qila olish;
- matnni (badiiy asar, hikoya, ilmiy maqola, xabar) to‘g‘ri, ravon, tushunib, bir daqiqada 130 so‘z tezligida o‘qiy olish;
- badiiy asar (yoki undan olingan parcha)ni, she‘rni ifodali o‘qiy olish;
- o‘zbek mumtoz adabiyotining hamda zamonaviy o‘zbek adabiyoti namoyandalarini bilish, ularning asarlaridan namunalarni o‘qiy olish;

- 100–110 so‘zdan iborat matn asosida diktant yozish;
- 140–150 so‘zli matn asosida bayon yoza bilish;
- 10–14 gapdan iborat bo‘lgan matn tuza olish;
- ish qog‘ozlari (ariza, tarjimai hol, xat, e‘lon, maqola, tushuntirish xati, ishonch qog‘oz)ni yoza olish.

**II. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi bosqichida.**

*Akademik litseylar bo‘yicha*

Akademik litseylarda ta‘lim mazmuni bevosita umumta‘lim maktablari ta‘lim mazmunining davomi hisoblanadi va ular ne-

gizida davom ettiriladi. Akademik litsey bitiruvchilariga umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumini "Umumta'lim fanlari" davlat ta'lim standarti belgilab beradi. Maxsus fanlarni tanlash akademik litsey tayyorlov yo'nalishidan, jamiyat va mehnat bozori talablaridan, ilmiy texnika taraqqiyotidan hamda o'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda akademik litseyning ilmiy pedagogik kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Akademik litseylarning asosiy, qo'shimcha chuqurlashtirilgan va mutaxassislikka yo'naltiruvchi fanlardan ta'lim mazmunining zarur va yetarli hajmiga erishish barcha o'quvchilar uchun majburiydir.

#### *Kasb-hunar kollejlari bo'yicha*

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarning o'zbek tilidan yozma va og'zaki nutqini boyitish, ularda mustaqil ravishda matn tuzish, uni o'zlashtirish ko'nikmalari shakllantiriladi, mutaxassislikka oid rasmiy-idoraviy hujjatlarni, ish qog'ozlarini yozish, tahrir qilish malakasi hosil qildiriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun o'quvchilarning umumta'lim maktablarida o'zbek tilidan olgan bilimlari rivojlantiriladi va so'ngra tanlangan kasb doirasida bu bilimlarni til amaliyoti, nutq madaniyati va mahorati sirlari bilan to'ldiriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida o'quvchilarning o'zi tanlangan kasb-hunar doirasidagi leksik ma'nosi, nutqdagi vazifasi va imkoniyatlari, uslubiy qo'llanish xususiyatlari nutqai nazaridan tahlil etib, uni to'g'ri tanlash va yozma, og'zaki nutqda o'rinli ishlatish ko'nikmalari o'stiriladi. Uchinchidan, talabning bo'lg'usi ish faoliyati doirasidagi xizmatida davlat tilida mustaqil yurita olish qobiliyatlari shakllantiriladi.

Davlat ta'lim standartlari har bir fan bo'yicha o'quvchilar va talabalarning tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan minimal daraja ko'rsatkichlari bo'lib, u har bir ta'lim turi uchun alohida tuziladi va o'quv reja, dasturlar, darsliklar, qo'llanmalarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim sohasidagi har qanday jiddiy o'zgarishlar, islohotlar, avvalo, davlat ta'lim standartlari talablarini belgilashdan boshlangani bois uzluksiz ta'lim tizimi bo'yicha dastlabki qabul qilingan qarorlardan biri davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risidagi qaror hisoblanadi.

Mazkur tizimda rivojlantiruvchi tamoyil asosida har bir ta'lim turidagi ta'lim dasturlari mazmunining uzviyligi hamda ta'lim

bosqichlariaro soddadan murakkabga tomon uzluksizlikda o‘tib borishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, bugungi kunda har bir ta‘lim bosqichi o‘qituvchisi o‘zi dars berayotgan fan bo‘yicha davlat ta‘lim standartlari talablarini bilishi va ularni bajarish uchun yetarli malakaga ega bo‘lishi shart.

Ushbu maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv asosida “O‘zbek tili” fani bo‘yicha amaldagi davlat ta‘lim standartlari talablarida uzluksiz ta‘lim bosqichlari uchun quyidagi darajalar belgilangan:

### Uzluksiz ta‘lim bosqichlari uchun “O‘zbek tili” fanidan belgilangan DTS darajalari

Ta‘lim bosqichi	Bitiruvchilar	DTS darajasi	Daraja nomlanishi
Boshlang‘ich sinflar	Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining boshlang‘ich 4-sinf bitiruvchilari	A1	O‘zbek tilini o‘rganishning boshlang‘ich darajasi
	Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining o‘zbek tili fani chuqur o‘rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 4-sinfi bitiruvchilari	A1+	O‘zbek tilini o‘rganishning kuchaytirilgan boshlang‘ich darajasi
Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5–9-sinflari	Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	A2	O‘zbek tilini o‘rganishning tayanch darajasi
	Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining o‘zbek tili fani chuqur o‘rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 9-sinfi bitiruvchilari	A2+	O‘zbek tilini o‘rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining yuqori sinflari va o‘rta maxsus ta‘lim	Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 11-sinfi, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari	B1	O‘zbek tilini o‘rganishning asosiy darajasi
	Umumta‘lim maktablarining o‘zbek tili fani chuqur o‘rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 11-sinfi, filologik yo‘nalishdagi akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari	B1+	O‘zbek tilini o‘rganishning kuchaytirilgan asosiy darajasi

Oliy ta'lim bosqichi	Nofilologik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari	B2	O'zbek tilini o'rganishning yuqori darajasi
	Filologik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari	B2+	O'zbek tilini o'rganishning kuchaytirilgan Yuqori darajasi

“O‘zbek tili” fani bo‘yicha mazkur davlat ta‘lim standartlari talablarida respublikamiz uzluksiz ta‘lim bosqichlarining har bir asosiy bo‘g‘ini bitiruvchilari egallashlari zarur bo‘lgan kompetensiyaviy darajalar ko‘rsatilgan bo‘lib, ushbu talablar har bir ta‘lim turi va bosqichlari uchun tuziladigan o‘quv dasturi mazmunida aks ettiriladi va darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar asosida amalga oshiriladi.

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirilgan davlat ta'lim standartlari talablarida barcha fanlar bo'yicha boshlang'ich ta'lim bosqichining 4-sinfni tugatayotgan o'quvchilari uchun jahon ta'lim standartlarining A1 darajasi, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinflari bitiruvchilari uchun A2 darajasi, yuqori 10–11-sinflar va o'rta maxsus ta'lim bitiruvchilari uchun B1 darajasi me'yor sifatida belgilangan<sup>27</sup>.

Oliy ta'limda o'zbek tili respublikamizning davlat tili sifatida filologik va nofilologik yo'nalishlarning barchasida o'qitiladi. Bunda filologik yo'nalishlar uchun C1 daraja, nofilologik yo'nalishlar uchun B2 daraja talablari belgilangan. Respublikamizning har bir fuqarosi ijtimiy-iqtisodiy sohalarida, ma'muriy boshqaruv tizimida davlat tilida erkin muloqot yurita olishi, davlat tilida me'yoriy hujjatlarni yurita olishi, buning uchun esa ilmiy va rasmiy uslubga xos xususiyatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lishi talab etiladi. Demak, oliy ta'lim bosqichi bitiruvchilari uchun kamida C1 darajasidagi talablar belgilanishi va o'quv dasturi mazmuni ham shunga mos bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarish, avvalo, har bir ta'lim bosqichi bo'yicha belgilangan kompetensiyalar darajalarini

<sup>27</sup> O'zbek tili fani bo'yicha uzluksiz majburiy ta'lim tizimida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar / O'zbekiston Respublikasi uzluksiz majburiy ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari, 2017-yil 10-aprel.

hamda ta'lim oluvchilarda ushbu layoqatlarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini bilishni taqozo etadi. Boshqacha aytganda, bugungi kunda fan o'qituvchilaridan o'quvchilar muayyan ta'lim bosqichini tugatayotganda, qanday malakalarga ega bo'lishi kerakligi, o'quvchida ushbu malakalar qanday bilimlar asosida shakllantirilishi zarurligini yaxshi bilish va o'quvchilarda ushbu malakalarni qo'llashga oid layoqatni, ya'ni kompetentlikni tarkib toptirish talab qilinadi. Xususan, o'zbek tili bo'yicha davlat ta'lim standartlarida respublikamizda yashovchi boshqa millat vakillarining farzandlari o'zbek tili fanini davlat tili sifatida puxta egallashlari va ijtimoiy-siyosiy hayotimizning barcha jabhalarida amaliy tatbiq eta olishlari uchun o'zbek tilining og'zaki va yozma nutq shakllarini to'liq o'zlashtirgan bo'lishlari, uning so'z boyligidan grammatik bilimlar asosida to'g'ri foydalana bilishlari, kundalik turmush va tanlangan ixtisosligiga oid mavzularda o'zbekcha erkin muloqotga kirisha olishlari zarurligi ta'kidlanadi. Shuningdek, ta'lim standartlarida o'quvchi-talabalarning yoshi, ehtiyoj va imkoniyatlari, kasbiy yo'nalishi hisobga olingan holda har bir ta'lim bosqichi uchun eng yuqori miqdordagi o'quv yuklama hajmi va o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan minimal talablar ham ko'rsatib o'tilgan.

O'zbek tili fanidan davlat ta'lim standartlarida o'quvchi-talabalarga qo'yiladigan asosiy talab – o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olish, o'zgalar bilan turli nutqiy vaziyatlarda muloqot yurita olishga o'rgatish, ya'ni kommunikativ savodxonlikni shakllantirishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda o'zbek tilini o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari bo'lg'usi pedagoglarni ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar va guruhlarda o'zbek tilini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, turli yondashuvlari va tamoyillari bilan tanishtirish, ta'lim bosqichlarida o'zbek tilini o'qitish mazmuni uzluksizligi va uzviyligini ta'minlashning nazariy va metodik asoslari bilan qurollantirish, talabalarga darsliklarda berilgan o'quv materiallari, mashqlar va topshiriqlar bilan ishlashning o'ziga xos jihatlari haqida uslubiy ko'rsatmalar berish, o'quvchi-talabalarning lingvistik kompetensiyalarini va nutq faoliyatining tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish turlari bo'yicha ko'nikma-malakalarni shakllantirish va natijaviylikni ta'minlashning samarali yo'llarini ko'rsatishdan iborat. Bu o'rinda erishilgan natijalarni, ya'ni



nutqiy kompetensiyalarning rivojlanganlik darajalarini aniqlash va obyektiv baholash nihoyatda muhim bo‘lib, natijaviylikni ta‘lim oluvchilarni bir-biriga qiyoslagan holda emas, balki o‘zini o‘ziga, ya‘ni ta‘lim olishni boshlagan dastlabki vaqtidagi bilim, ko‘nikma, malakalari darajasining qanchalik rivojlanganligiga ko‘ra aniqlash baholashning bosh mezoni sifatida olinishi kerak bo‘ladi. Davlat ta‘lim standartlari talablaridan kelib chiqib, fan hajmi va ta‘lim mazmuni belgilanadi, ya‘ni tayanch o‘quv reja va fanning o‘quv dasturi ishlab chiqiladi.

#### 4.2. Tayanch o‘quv reja va o‘quv dasturi, uning tarkibiy qismlari va mazmuni

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun asosida uzluksiz ta‘lim tizimi yaratildi va majburiy ta‘lim turlari uchun davlat ta‘lim standartlari talablari, Davlat ta‘lim standarti asosida esa tayanch o‘quv reja ishlab chiqiladi. Tayanch o‘quv reja har bir o‘quv fani bo‘yicha beriladigan ta‘lim mazmunini o‘quvchiga etkazish uchun ajratilgan o‘quv soatlarining minimum hajmdagi miqdorini ifodalaydi. Bu esa har bir sinfda, bosqichda davlat ta‘lim standarti asosida beriladigan ta‘lim mazmunini aniqlashga asos bo‘ladi.

**Tayanch o‘quv reja** - davlat ta‘lim standartining tarkibiy qismi bo‘lib, ta‘lim sohalarini me‘yorlashga asos bo‘ladigan davlat hujjatidir. Tayanch o‘quv reja o‘quv fani bo‘yicha beriladigan ta‘lim mazmuni uchun ajratilgan o‘quv soatlarining eng kam hajmdagi miqdorini belgilab beradi va muayyan o‘quv fani bo‘yicha davlat standartlariga muvofiq beriladigan ta‘lim mazmuni hajmini aniqlashga asos bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, tayanch o‘quv rejada muayyan ta‘lim turi, ta‘lim muassasasida o‘qitiladigan fanlar bloklari va nomlari, ularga ta‘lim bosqichlarida yoki semestrlarda ajratiladigan soatlar, o‘qitilish shakllari ko‘rsatib o‘tiladi.

**O‘quv dasturi** – muayyan o‘quv fani bo‘yicha davlat standartlari talablari hamda tayanch o‘quv rejada belgilangan o‘quv yuklamadan kelib chiqib, shu fan bo‘yicha beriladigan ta‘lim mazmuni va shakllari ko‘rsatilgan me‘yoriy hujjatdir. Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limida avval ta‘lim yo‘nalishlari uchun umumiy namunaviy o‘quv dasturi, so‘ngra shu asosda har bir ta‘lim muassasasi uchun ishchi o‘quv dasturi tuziladi. Namunaviy

o'quv dasturi tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan ishlab chiqilib, muayyan fan yo'nalishi uchun tavsiya qilinadigan me'yoriy hujjat hisoblanadi. Namunaviy dastur asosida har bir oliy ta'lim muassasasi o'zining ishchi o'quv dasturini ishlab chiqadi. Ishchi o'quv dasturida o'z ta'lim muassasasi xususiyatidan kelib chiqqan holda namunaviy o'quv dasturiga ayrim o'zgartirishlar kiritish mumkin bo'ladi. Oliy ta'limda fan dasturlari tarkibida talabalar mustaqil bajarishi ko'zda tutiladigan mavzular va ularni bajarish shakllari ham berilishi kerak.

Fan darsliklari va o'quv-metodik adabiyotlar o'quv dasturi mazmunidan kelib chiqib yaratiladi va belgilangan tartibda har tomonlama ekspertizadan o'tkaziladi. Har bir ta'lim turi uchun yaratilayotgan o'quv adabiyotlariga psixologik-pedagogik, uslubiy-didaktik, sanitariya-gigiyenik va boshqa talablar alohida belgilab qo'yiladi. Uzlüksiz ta'lim tizimining barcha turlarida fundamental bilimlar bo'yicha o'quv adabiyotlari asosan an'anaviy bosma shaklda tayyorlanadi.

“O'zbek tili” fanidan o'quv dasturlari mazmunida va darsliklarni yaratishda quyidagilarga amal qilinishi shart:

1. O'zbek tili ta'limi mazmunida ta'lim bosqichlariaro uzluksizlikka amal qilish, ya'ni umumiy o'rta sinflar uchun rejalashtirilgan o'quv dasturi boshlang'ich sinflar uchun o'zbek tilidan o'quv dasturining tadrijiy davomi va ayni paytda o'rta maxsus ta'lim bosqichi akademik litseylari va kasb-hunar kollejlari uchun asos bo'lishiga erishish, bunda qaytariq va takrorlarning oldini olish.

2. Davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablar asosida har bir ta'lim bosqichi uchun o'zbek tilidan beriladigan faol va nofaol leksik-grammatik minimumni taqsimlash va ularni bosqichdan bosqichga rivojlantirib borilishiga erishish.

3. Mavzulararo izchillik va uzviylik tamoyiliga rioya qilish, ya'ni nutqiy mavzular, grammatik mavzular hamda adabiy o'qish materiallarining muayyan izchillikda va o'zaro uzviy bog'liqlikda berilishini ta'minlash.

4. Mavzularda berilgan matnlar va adabiy o'qish materiallarining o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishiga, ularning osondan qiyinga, oddiydan murakkabga tomon tadrijiy o'stirib borilishiga e'tibor qaratish.

5. O'quv materiallari tarkibiga adabiy o'qish materiallarini kiritish boshqa millatlar farzandlarini o'zbek adabiyotining nodir va

mashhur namunalari bilan tanishtirish, ularda o‘zbek adabiyotiga qiziqish uyg‘otish, ularning adabiy tildagi so‘z boyligini oshirib borish.

6. Darsliklarda ma’lumotlar, qoidalarning tushunarli tilda bayon etilishi, ijodiy fikrlashga undaydigan mashq va topshiriqlar, jahon tajribalarida tan olingan ilg‘or pedagogik texnologiyalarning berilishi va ko‘rgazmalilik tamoyiliga amal qilinishi.

Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun o‘zbek tilidan o‘quv dasturi nutq mavzulari asosida bo‘limlarga bo‘lib berilgan bo‘lib, har bir bo‘limda leksik minimum, grammatik ma’lumotlar va qoidalar, nutq faoliyati turlarini shakllantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar, so‘z boyligini oshirish maqsadida adabiy o‘qish materiallari, shuningdek, quyi sinflarda o‘zbek tilida muloqot yuritishning nutqiy etiketi me’yorlari, yuqori sinflarda esa rasmiy ish yuritish qog‘ozlari uzviylik va uzluksizlik asosida soddadan murakkabga qarab berib borilishi rejalashtirilgan. Shunga mos tarzda boshlang‘ich sinflar o‘quv dasturlari tinglab tushunish, talaffuz qilish va so‘zlash, o‘qish va yozish hamda nutq odobi tarkibiy qismlari; o‘rta 5–9-sinflar dasturlari nutqiy qurilmalar, grammatik ma’lumot, adabiy o‘qish, yuqori 10–11-sinflarda esa bularga qo‘shimcha tarzda rasmiy ish qog‘ozi ham qo‘shilgan tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, darsliklarni yaratishda ushbu qismlar uzviyligi va uzluksizligiga jiddiy e’tibor qaratiladi. Afsuski, o‘rta maxsus ta’lim va oliy ta’lim uchun o‘quv dasturlari mazmunida bunday tizimlilik mavjud emas.

### **4.3. O‘zbek tilidan yaratiladigan bosma va elektron adabiyotlar, ularga qo‘yiladigan talablar**

O‘quv-uslubiy adabiyotlar bosma va elektron shaklda bo‘lishi mumkin. O‘quv-uslubiy adabiyotlarning asosiy turlari quyidagilar bo‘lib, ularga:

- darslik;
- o‘quv qo‘llanma;
- uslubiy (metodik) qo‘llanma;
- uslubiy ko‘rsatma;
- lug‘at;
- ma’lumotnoma;
- ma’ruzalar matnlari to‘plami;
- mashqlar to‘plami kabilar kiradi.

O'quv adabiyotlarining har bir turi me'yoriy hujjatlar asosida belgilab qo'yilgan ta'lim yo'nalishi va davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqadigan, bilim oluvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari e'tiborga olingan talablar asosida va izchillik, ilmiylik, o'quv adabiyotlarini yaratish tamoyillari asosida yaratiladi. Asosiy o'quv adabiyoti hisoblanuvchi darsliklar va o'quv qo'llanmalar uzluksiz ta'lim bosqichlarining har bir bo'g'ini uchun bosma nashr shaklida chop etiladi.

**Darslik** – davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqloq g'oyasi singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fanning asoslarini mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan o'quv adabiyotidir. Darsliklar har bir ta'lim turining o'z maqsad va vazifalaridan, bilim oluvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib yaratiladi. Xususan, umumta'lim bosqichi uchun o'zbek tilidan yaratiladigan darsliklarda yuqorida qayd etilgan tarkibiy qismlarning qamrab olinishi, nazariy ma'lumotlarning sinflar kesimida soddadan murakkabga qarab berilishiga, adabiy o'qish materiallarida takror va qaytariqlar bo'lmasligiga, mashq va topshiriqlarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan yo'g'rilganligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Darsliklarda nazariy ma'lumotlardan tashqari, amaliy-tajriba va sinov mashqlari bo'yicha zarur ko'rsatmalar, ko'rgazmalilik tamoyili asosida ham jadvallar, slaydlar, rasmlar, illyustratsiya kabilar ham berib boriladi. "O'zbek tili" darsliklariga tasviriy materiallar hajmi bo'yicha quyidagi meyoriy talablar belgilangan:

1–2-sinf darsliklarida tasviriy material darslik hajmining 50%ini;

3–4-sinf darsliklarida tasviriy material darslik hajmining 40%ini;

5-sinf darsliklarida tasviriy material darslik hajmining 30%ini;

6–7-sinf darsliklarida tasviriy material darslik hajmining 20%ini;

8–9-sinf darsliklarida tasviriy material darslik hajmining 10%ini tashkil etishi lozim.

Darslik materialining o'quvchilar yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos kelishi ham maxsus ekspertlar tomonidan va tajriba-sinovdan o'tkazish jarayonida alohida o'rganib chiqiladi.

**O‘quv qo‘llanma** – darslikni qisman to‘ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo‘yicha tuzilgan va mavzularni zaruriy hajmda tizimli yoritib beradigan, fan asoslarining chuqur o‘zlashtirilishini ta‘minlovchi, ayrim bob va bo‘limlarni keng tarzda yoritishga yoki amaliy mashq va mashg‘ulotlar o‘tishga mo‘ljallangan, o‘quvchi va talabalarda fanga taalluqli bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanishiga xizmat qiladigan bosma adabiyot bo‘lib, unda muayyan mavzular darslikka nisbatan kengroq yoritiladi. O‘quv qo‘llanmada, mavzu qanday masalalar yoritilganligining rejasi, egallangan bilimlarni mustahkamlab borish yoki nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar, qo‘shimcha foydalanish uchun adabiyotlar ro‘yxati, zarur o‘rinlarda termin va atamalarning izohli lug‘atlari berib borilishi ham mumkin.

**Metodik (uslubiy) qo‘llanma** – o‘qituvchilar va ta‘lim oluvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda muayyan bir darsning maqsadi, dars o‘tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, seminar va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tish yuzasidan qo‘shimcha topshiriqlar, ularni bajarish yo‘l-yo‘riqlari haqida tavsiyalar bayon qilinadigan, ayrim hollarda bajarish namunalari ham ko‘rsatiladigan, ta‘lim muassasalarining ilmiy yoki pedagogik kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan bosma nashr. Umumta‘lim bosqichlarida bunday qo‘llanmalar “O‘qituvchi kitoblari” deb atalib, ularda darslikdagi har bir mavzuning to‘liq yoki qisqa ishlanmalari, dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan samarali foydalanish yo‘l-yo‘riqlari berib borilgan bo‘ladi.

**Lug‘at** – aniq, bir tartibda (alifbo yoki tematik) joylashgan so‘zlar (yoki so‘z birikmasi, iboralar va hokazo) to‘plami, ularning mazmuni, ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimasi to‘g‘risida ma‘lumot beruvchi yoki so‘z ifodalagan tushuncha, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi ilmiy va ommabop qo‘llanmadir. Ushbu ma‘lumotlar lug‘at tarkibida lug‘at maqolasi sifatida beriladi. Lug‘atlar, avvalo, bir tilli va ikki yoki ko‘p tilli lug‘atlarga bo‘linadi. Ikki yoki ko‘p tilli lug‘atlar tarjima lug‘atlari bo‘lib, so‘z va birikmalar ma‘nosi ikkinchi til vositasi orqali ifodalanadi. Bir tilli lug‘atlar izohli lug‘atlar bo‘lib, bunday lug‘atlar so‘z va birikmalar mazmunini izohlab tushuntiradigan, uning grammatik, etimologik va uslubiy tavsiflaydigan, ularni qo‘llashga oid misollar va boshqa ma‘lumotlar keltirilgan

qo‘shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan qo‘llanma. “O‘zbek tili” darsliklari ta‘lim rus, qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman tillarida olib boriladigan maktablar uchun chop etilishi tufayli ularda shu tillarda tarjima lug‘atlari berib boriladi.

**Uslubiy ko‘rsatma** – muayyan fanning o‘quv dasturi asosida mustaqil ishlar, kurs ishlari (loyihalari), bitiruvchilarning bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalarini bajarish tartibi va yo‘l-yo‘riqlari aniq va batafsil ifodalangan hamda ushbu fan bo‘yicha bilim oluvchilarda zarur amaliy ko‘nikmalar hosil qilishga mo‘ljallangan, ta‘lim muassasalarining kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr.

**Ma‘lumotnoma** – foydalanishga qulay shaklda yaratilgan muayyan fanni yoki ta‘lim yo‘nalishini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan, isbot talab qilmaydigan ma‘umotlar, ilmiy ko‘rsatkich va o‘lchamlar, turli belgi va raqamlardan, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, amaliy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi qisqa ma‘lumotlardan tashkil topgan asar. Ushbu to‘plamda bir qator muhim ilmiy-amaliy masalalarni yechish namunalari keltirilishi mumkin.

**Ma‘ruzalar matnlari to‘plami** – muayyan fanning o‘quv dasturi bo‘yicha undagi ayrim mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar ko‘rsatilgan, o‘zini o‘zi nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, davriy ravishda ilmiy-tadqiqot izlanishlar asosida yangilanib turiladigan, ta‘lim muassasalarining ilmiy yoki pedagogik kengashi tavsiyasi bo‘yicha chiqariladigan kichik adadli tarqatma material.

**Elektron o‘quv adabiyotlari** – ta‘lim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va chuqurlashtirishga, qo‘shimcha ma‘lumotlar bilan ta‘minlashga mo‘ljallangan bo‘lib, ko‘proq chuqurlashtirib o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha yaratiladi. O‘quv adabiyotlarning mazmuni bilim oluvchilarda mustaqil va erkin fikrlash olingan bilimlarni bosqichma-bosqich boyitish, mukammallashtirib borish, mustaqil ta‘lim olish, yangi bilimlarni o‘quv adabiyotlardan izlab topish ko‘nikmalarini hosil qilishni ta‘minlashi kerak. Bunday adabiyotlariga multimedia ishlanmalar, elektron lug‘at va so‘zlashgichlar kiritiladi. Bular orasida elektron platformalar qamrovi va qo‘llanish doirasi kengligi bilan alohida o‘rin tutadi.

**Elektron platforma** fanga oid keng ma'lumotlarni mustaqil o'rganishga, fanning yondosh sohalar bilan aloqalarini yoritish, yangi ma'lumotlarni kiritib borish va ularni muntazam yangilab borish orqali ta'lim oluvchilarning dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va chuqurlashtirishga mo'ljallangan elektron vosita bo'lib, uning tarkibiga muayyan fanga oid elektron darslik, elektron mashq va masalalar to'plami, elektron xrestomatya, elektron lug'at va elektron so'zlashgichlar, shuningdek, o'z-o'zini nazorat qiluvchi test topshiriqlari to'plamlari kiritiladi.

**Elektron darslik** – kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarali o'zlashtirilishiga mo'ljallangan bo'lib:

- o'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;
- o'quv materiallar verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklda;
- multimedia, ya'ni ma'lumot uch o'lchamli grafik ko'rinishda, ovoqli, video, animatsiya va verbal (matn) shaklda ko'p axborotli bo'ladigan qo'llanmalardan iborat bo'ladi.

**Ma'lumotlar banki** – axborot texnologiyalarning imkoniyati va vositalari asosida yaratilgan, statik va dinamik rejimda tuzilgan, tovush va rangli tasvirlar bilan ta'minlangan, katta hajmdagi axborotlarni o'z ichiga qamrab olgan va ularni turli ko'rinishda (jadval, diagramma, gistogramma, matn, rasm va hokazo) bera oladigan, o'quv jarayonida bilim oluvchilar tomonidan o'z ustida mustaqil ishlashi va o'z bilimlarini nazorat qilishi uchun qo'llaniladigan, doimiy ravishda to'ldirib boriladigan, keng doirada foydalanishga mo'ljallangan, tegishli vakolatli davlat tashkilotida qayd etilgan sohalar bo'yicha ma'lumotlar to'plami.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Davlat ta'lim standartlari qanday me'yoriy hujjat hisoblanadi?
2. Standart tushunchasining ma'nosi va tarkibiy qismlari haqida ma'lumot bering.
3. Tayanch o'quv reja nimani belgilab beradi?
4. O'zbek tilidan egallagan bilim, ko'nikma va malakalar qaysi parametrlil standart ko'rsatkichlari asosida tekshiriladi?
5. Uzlüksiz ta'lim bosqichlarida o'zbek tilidan belgilangan DTS darajalari haqida ma'lumot bering.

6. O‘zbek tili fanidan o‘quv dasturi mazmuni, tarkibiy qismlari va turlari haqida so‘zlab bering.
7. O‘quv-uslubiy adabiyotlar qanday turlarga bo‘linadi?
8. Bosma nashrlar va elektron adabiyotlarga xos xususiyatlar nimada?
9. Bosma o‘quv-uslubiy adabiyotlarga qo‘yiladigan talablar haqida ma‘lumot bering.
10. Elektron o‘quv-uslubiy adabiyotlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma‘lumot bering.
11. Elektron darsliklar qaysi tamoyillar asosida yaratiladi?
12. Elektron platforma tarkibiga nimalar kiradi?

### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Арнольд И.В. Основы научных исследований в лингвистике. – М., 1991.
2. Илмий-тадқиқотчилик фаолиятига тайёргарлик асослари / Ўқув-усlubий қўлланма / Б.Ю.Ходиев, А.Ш.Бекмуродов, М.Р.Болтабаев, Л.В.Голиш, О.Б.Гимранова. – Т.: Экономика, 2010. – 138-б.
3. Учебные и научные издания: основные виды и аппарат (методич.указания) – Краснодар: КубГАУ, 2015. – С. 31.
4. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Ўзбек тили (таълим бошқа тилларда олиб бориладиган мактаблар учун) // Таълим тараққиёти. ЎЗР Халқ таълими вазирлигининг ахборотномаси, 1-махсус сон. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 262–302-б.
5. O‘zbek tili fani bo‘yicha uzluksiz majburiy ta‘lim tizimida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar / O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz majburiy ta‘lim tizimining Davlat ta‘lim standartlari, 2017-yil 10-aprel.
6. “O‘zbek tili” fani o‘quv dasturi (ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun). – Toshkent, RTM. – 2017.
7. Толипова Р. ва б. Умумтаълим мактаблари учун ўзбек тилидан такомиллаштирилган ва модернизация қилинган ўқув дастури. – Тошкент: PTM, 2004.
8. Rafiyev A. O‘zbek tili (ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlar uchun uzviylashtirilgan dastur). – Toshkent: RTM, 2004.



## 5-MAVZU. UMUMIY O‘RTA TA‘LIM BOSQICHIDA O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING METODIK MAZMUNI

### REJA:

1. Boshlang‘ich sinflarda o‘zbek tilini o‘qitish bosqichlari va mazmuni.
2. 5–9-sinflarida A2 daraja talablari asosida o‘zbek tilini o‘qitish mazmuni va tamoyillari.
3. 10–11-sinflarida B1 daraja talablari asosida o‘zbek tilini o‘qitish mazmuni va tamoyillari.

**Tayanch tushunchalar:** boshlang‘ich ta‘lim, “Alifbo” davri, A1 daraja talablari, A2 daraja talablari, 2–4-sinflar uchun DTS talablari, 5–9-sinflar uchun DTS talablari, 10–11-sinflar uchun DTS talablari, leksik minimum, grammatik minimum, muomala odobi, nutqiy mavzular, adabiy o‘qish materiallari, ish qog‘ozlarini yozish, sinfdan tashqari o‘qish.

### 5.1. Boshlang‘ich sinflarda o‘zbek tilini o‘qitish bosqichlari va mazmuni

Ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda va o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta‘limi mazmunida asosiy diqqat-e’tibor nutqiy va til kompetensiyasiga qaratilgan bo‘lib, ta‘lim oluvchilarda o‘zbek tilidan egallaydigan lingvistik bilimlari vositasida kundalik turmush, tabiat va jamiyat, ijtimoiy-madaniy hayot hamda mutaxassislik sohalarida og‘zaki va yozma erkin muloqot yuritish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish ko‘zda tutiladi. O‘quv dasturida fan yuzasidan belgilangan ta‘lim mazmuni o‘quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlari hamda uzluksizlik-uzviylik tamoyillariga asoslanilgan holda ta‘lim turlari bo‘yicha taqsimlangan. Shuningdek, nutqiy va lingvistik kompetensiya bilan bir qatorda o‘quvchi-talabalarning jamiyatda o‘zbek tilida muloqot yuritishning me‘yoriy qoidalari, xushmuomalalikning milliy etiketi me‘yorlarini bilish va qo‘llashga qaratilgan sotsiolingvistik, turli nutqiy vaziyatlarda o‘zbek tilining o‘ziga xos lisoniy va nolisoniy vositalaridan foydalanishni bilishga qaratilgan pragmatik kompetensiyalarini shakllantirish va bosqichdan bosqichga rivojlantirib borish ham aks ettirilgan.

Yuqorida qayd etilganidek, o‘zbek tilining respublikamizda tutgan o‘rni va maqomidan kelib chiqib, uzluksiz ta‘lim tizimining barcha – umumta‘lim, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim bosqichlarida asosiy fan sifatida o‘qitiladi. Bunda eng asosiy bosqich umumiy o‘rta ta‘lim bosqichi bo‘lib, 2-sinfdan 11-sinfgacha bo‘lgan 10 yil davomidagi ta‘limni qamrab oladi. O‘zbek tilini umumta‘lim bosqichida ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o‘qitish quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

– o‘zbek tilini ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning boshlang‘ich 2–4- sinflarida o‘qitish;

– o‘zbek tilini ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning o‘rta va yuqori 5–9-sinflarida o‘qitish;

– o‘zbek tilini ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning yuqori 10–11-sinflarida o‘qitish;

Ushbu bosqichlarning har birida yakunlovchi sinflar o‘quvchilari uchun davlat ta‘lim standartlarining daraja talablari belgilangan. Jumladan, boshlang‘ich ta‘limning 4-sinf bitiruvchilariga A1 daraja, 9-sinf bitiruvchilariga A2 daraja talablari, 10–11-sinflar bitiruvchilariga B1 daraja talablari belgilangan bo‘lib, ushbu talablar belgilangan ta‘lim mazmuni uzviyligi va uzluksizligini ta‘minlash orqali amalga oshiriladi. Shuni ta‘kidlash kerakki, bunda o‘rta 5–9-sinflardagi o‘tiladigan mavzular boshlang‘ich ta‘lim mazmuni asosida egallanadigan bilimlar va shakllantiriladigan nutqiy ko‘nikmalarning davomi hisoblansa, ayni vaqtda keyingi yuqori sinflar – 10–11-sinflar o‘quvchilari uchun poydevor vazifasini bajaradi. Shu bois o‘zbek tilidan o‘quv dasturlari mazmuni-da va darsliklarda berilgan nazariy grammatik materiallar, mashq va topshiriqlarda ushbu bosqichli ketma-ketlikka alohida e‘tibor qaratilgan.

Shuningdek, keyingi yillarda maktabgacha ta‘limga alohida e‘tibor qaratilayotgani ushbu muassasalar tarbiyalanuvchilariga ham o‘zbek tilini o‘rgatib borish bo‘yicha dasturlar tuzish va mashg‘ulotlar olib borish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu maktabgacha ta‘lim muassasalarini uzluksiz ta‘limning quyi bosqichi sifatida qayd etish va ushbu bosqich uchun o‘zbek tili ta‘limi mazmunini belgilashni ham taqozo etadi. Quyida har bir bosqichda o‘zbek tilidan beriladigan bilimlar mazmuni va shakllantiriladigan nutq ko‘nikmalirining metodik jihatlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimida "O'zbek tili" fani boshlang'ich ta'limning 2-sinfidan boshlab o'qitilishi yo'lga qo'yilgan. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 2-4-sinflarida o'zbek tilini o'qitishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad o'quvchilarni shu sinflarda o'rganiladigan leksik va grammatik materiallar hajmida o'zbek tilida fikr bayon etish va fikr almashishga, matnlardan (bolalar uchun mo'ljallangan davriy matbuot materiallaridan) axborot olishga o'rgatish, o'zbek adabiyoti durdonalaridan bahramand etish, o'zbek xalqining tarixi, madaniyati, milliy ma'naviyatidan, urf-odatlarini, udumlaridan xabardor qilish, sharqona odob-axloq bilan tanishtirish, o'zbek xalqiga va uning milliy ma'naviyatiga hurmat hissini uyg'otishdan iborat. 2-sinf uchun "O'zbek tili" fanidan o'quv dasturi mazmunini 2 bosqichga bo'lish mumkin:

**1. Alifbo davri.** Bu davrda o'quvchilar o'zbek tilining lotin alifbosiga asoslangan alifbosi bilan tanishtiriladi, ularga o'zbek tilidagi unli va undosh tovushlarning orfoepik talaffuz me'yorlari o'rgatiladi, harflarni yozishning orfografik ko'nikmalari shakllantiriladi. O'quvchilar lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosining barcha harflari, harflarning bosh va kichik shakllarini, spetsifik nutq tovushlarining harfiy ifoda shakllarini, harflarni o'qish va yozishning asosiy qoidalarini bilishi, bosh va kichik harflarni husnixat me'yorida yozishni; so'zlarni bo'g'inlarga bo'lish, bo'g'inlab o'qish, bo'g'in ko'chirish qoidalarini bilishi va amalda qo'llay olishi kerak.

## **2. O'quvchilarning lug'at boyligini o'stirish.**

O'quv dasturida ushbu boshlang'ich darajada nutq o'stirish bo'yicha *oila va uy jihozlari, tana a'zolari, kiyimlar, ranglar, idishlar, oziq-ovqatlar, maktab, o'quv qurollari, bayramlar, hayvonlar, qushlar* mavzulari bilan tanishtirish va *bozorda, do'konida, oshxonada, transportda* turli vaziyatlarda so'zlashish ko'nikmalarini shakllantirish ko'zda tutilgan.

Grammatikadan esa quyidagi ma'lumotlarni berish rejalashtirilgan: *atoqli otlar (ko'plik shakli) tushum, o'rin-payt, jo'nalish kelishiklari; kichraytirish, erkalash otlari; kishilik, ko'rsatish, jamlovchi, so'roq olmoshlari; rang va maza-ta'm sifatlari; sanoq son, dona son; fe'l zamonlari, hozirgi, o'tgan (-yapti, -di, -gan); ravish, payt va o'rin ravishlari.* Shuningdek, boshlang'ich bos-

qichda o'quvchilarga o'zbek tilida *sodda gap tuzilishi, gap bo'laklarining o'zini* haqidagi bilimlar ham beriladi.<sup>28</sup>

2-sinfda A1 daraja talablariga ko'ra o'zbek tili ta'limida o'quvchilar nutq faoliyati turlari bo'yicha shakllantiriladigan ko'nikmalar:

**tinglab tushunish bo'yicha** – darsga oid ko'rsatmalar va o'qituvchi nutqini, o'zaro savol-javoblarni, kichik matnlar, topishmoq, ertak va hikoyalarni tinglab tushuna olish;

**gapirish bo'yicha** – salomlashish, o'zini va manzilgochini tushuntirish, iltimos qilish, kechirim so'rash, rahmat aytish, tabriklash, voqea-hodisa yoki predmet tasvirini sodda bayon qilish, topishmoq va kichik ertaklarni so'zlab berish, yoshiga mos sodda taqdimotlar qila olish malakasiga ega bo'lishlari;

**o'qish bo'yicha** – o'zlashtirilgan til materialidan iborat qisqa matnlar, tarkibida ma'nosi tahmin qila olinishi mumkin bo'lgan ba'zi yangi so'zlar bo'lgan sodda matnlar, hikoyalarni o'qish, o'rganilgan she'rlarni ifodali yod aytish, kommunikativ gap turlari (darak, so'roq, buyruq gaplar)ga mos ohangdan to'g'ri foydalana olishi va amalda qo'llay olishi;

**yo'zish bo'yicha** – husnixat va imlo qoidalariga rioya qilish, sodda xabarlar yo'zish (tabriklar, eslatmalar, elektron xatlar); eshittirilgan sodda matnni to'g'ri yoza olish; so'z, so'z birikmasi va ixcham matnni ko'chirib yo'zish; shaxsiy ma'lumotlarni (ismi, uy manzili) yoza olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Ushbu talablarni o'rganib chiqish, milliy maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining (hatto ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar o'quvchilarining aksariyat qismi ham ularning ko'pchiligini o'zbek va turkiy millatlar farzandlari tashkil etishi tufayli) qayd etilgan malaka ko'rsatkichlarini, shuningdek, o'zbek tilida muloqot jarayonida qo'llanadigan noverbal elementlar: qo'lini ko'ksiga qo'yib salomlashish, *ha* va *yo'q* ishoralarini hamda o'zbekcha muomala odoibini nutqiy vaziyatlarga mos holda, ya'ni kattalarga, kichiklarga, tengdoshiga nisbatan to'g'ri qo'llashni etilgan malakalarning asosiy qismini maktabgacha ta'lim muassasalarida shakllantirish maqsadli bo'ladi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, boshlang'ich sinflarda o'zbek tilini o'qitish jarayoni faqat nutqiy mavzuga mos yangi so'zlarni

<sup>28</sup> "O'zbek tili" fani o'quv dasturi (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun). – Toshkent, RTM. – 2017.

o‘zlashtirish, nutqiy mavzudan kelib chiqib, ayrim morfologik shakllar – ko‘plik qo‘shimchasi, kelishik qo‘shimchalari, ayrim zamon shakllarini amaliy o‘rgatib borish ko‘zda tutiladi, grammatik qoida va ta‘riflar berilmaydi.

Boshlang‘ich ta‘limda asosan o‘quvchilarning lug‘at boyligi ustida ishlash, o‘zbek tilini amaliy egallash ko‘nikmalarini hosil qilishdan iboratdir. Shundan kelib chiqib, 2–4-sinflar o‘quv dasturida belgilangan nutqiy mavzular bo‘yicha lug‘at – leksik minimum, nutq namunalarini tinglab tushunish va so‘zlash, o‘qish va yozish amallari ustida ishlash orqali o‘zlashtirish ko‘zda tutiladi.

### **2-sinfda DTS talablari bo‘yicha:**

topshiriqlarni, kundalik muloqotga oid so‘z va jumalarni tinglab tushunish;

o‘zbek tiliga xos nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilish;

savollarga javob berish, o‘zi (ismi sharifi, yoshi, yashash manzili va o‘qish joyi), ota-onasi, aka-ukasi, opa-singlisi haqida qisqa ma‘lumot berish;

mavzuga oid so‘z va so‘z birikmalarini to‘g‘ri talaffuz qilish va yozish;

so‘zlarni bo‘g‘inlab o‘qish, mavzu bo‘yicha berilgan kichik she‘rlarni o‘qib, yoddan aytish;

qisqa dialogik matnlarni ohangga rioya qilgan holda to‘g‘ri o‘qish;

mavzular bo‘yicha o‘zlashtirilgan so‘zlarni, 2–4 ta yig‘iq gaplardan iborat matnni ko‘chirib yozish;

o‘zlashtirilgan so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib yozish;

10–12 ta so‘zdan iborat diktant matnini to‘g‘ri yozish;

mavzu bo‘yicha berilgan she‘rlarni ifodali o‘qib, yoddan aytish talablari belgilangan.

Ushbu talabarni bajarish 2 bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi – ilk alifbo bosqichi davrida nutq tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘zlarni bo‘g‘inlab to‘g‘ri o‘qish va yozish;

Ikkinchi – o‘quvchilarning lug‘at boyligini o‘stirish bosqichida barcha nutq tovushlari o‘zlashtirib olingandan keyingi o‘qish va yozish amallariga tinglab tushunish va so‘zlash amallari ham qo‘shilgan holda dasturda berilgan leksik minimum va nutq namunalarini o‘zlashtirish ko‘zda tutiladi<sup>29</sup>.

<sup>29</sup> Rafiyev A. va b. O‘zbek tili (ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 2-sinfi uchun darslik). – Toshkent, O‘qituvchi, 2018.

Dasturda belgilangan lug‘at minimumi *sanoq, ranglar, tana a‘zolari, kiyimlar, yil fasllari, hafta kunlari, taomlar, idishlar* mavzulari doirasidagi so‘zlarni o‘zlashtirishga qaratilgan.

### **3-sinfda DTS talablari bo‘yicha:**

mavzuga oid savollarni, eshittirilgan topishmoq, tez aytish, ertaklar, namoyish qilingan multfilm mazmunini tinglab tushunish;

o‘rganilgan mavzularni savol-javob orqali qisqa yoki to‘liq so‘zlab berish;

savollar bilan murojaat etish; salomlashish, xayrlashishga oid muomala odobi unsurlarini vaziyatlarga mos holda qo‘llash;

mavzuga oid tayanch so‘z va jumalarni to‘g‘ri talaffuz qilish;

berilgan matnni ifodali o‘qiy olish, she‘rni yod aytish;

kichik matnlar, maqol va tez aytishlarni ko‘chirib yozish;

12–16 ta so‘zdan iborat videolug‘at diktanti yozish talablari belgilangan<sup>30</sup>.

Mazkur ko‘nikmalar *vatan, oila, sinf, kun tartibi, kuz, mevalar, sabzavotlar, ob-havo, qish, bahor, yoz, bayramlar, sport, gullar, parrandalar va qushlar, uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar, hayvonot bog‘ida* kabi nutqiy mavzular asosida shakllantiriladi.

### **4-sinfda DTS talablari bo‘yicha:**

sodda savollar va gaplar, suhbatlarni, audio-video vositalar orqali eshittirilgan so‘zlar va gaplar ma‘nosini tinglab tushunish;

matnni (badiiy asardan parcha, she‘r) o‘qib tushunish;

matn (topishmoq, maqol, ertak, kichik hikoya, she‘r) tarkibidagi yangi so‘zlar ma‘nosini lug‘at yordamida tushunish;

ma‘lumot so‘rash va sodda savollarga javob bera olish;

topishmoq, tez aytish, ertak va kichik hikoyalarni o‘qib tushunish, mazmunini so‘zlab bera olish;

o‘zbek tilida o‘zlashtirilgan 600 ta so‘zni nutqida qo‘llay olish;

o‘rganilgan mavzu doirasida o‘z fikrini 6–8 ta gap bilan izchil bayon qila olish;

so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratish va bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari-ga amal qilgan holda yozish;

o‘rganilgan so‘zlar va sodda gaplarni, tabriknoma, xat, so‘rovnoma ma‘lumotlarini to‘g‘ri yozish;

---

<sup>30</sup> Rafiyev A. va b. O‘zbek tili (ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 3-sinfi uchun darslik). – Toshkent, O‘qituvchi, 2016.

25–30 soʻzdan iborat diktant matnini husnixat talablari asosida yozish talablari belgilangan<sup>31</sup>.

4-sinfda oʻquvchilar nutqini berilgan nutqiy mavzular asosida boyitish, shuningdek, ushbu sinfda *-nchi, -inchi, -lik, -dilar, -ish, -ishdi, -sin* qoʻshimchalarini; *kim?, nima?, nimani?, qayer?, qayerga?, qayerda?, nechanchi?, qanday?, qanaqa?, nima qilasiz?, nima qildi? (qilyapti?)* soʻroqlarini qoʻllash koʻnikmalarini hosil qildirish koʻzda tutiladi.

Demak, 2-sinfda “Alifbo” davrida faqat nutq tovushlarini toʻgʻri talaffuz qilish, oʻqish va yozishni oʻrgatish, 3–4-sinfda oʻquv dasturida muayyan nutq mavzulari boʻyicha soʻzlarni va nutq namunalari oʻzlashtirish koʻnikmalarini shakllantirish rejalashtirilgan. Shundan kelib chiqqan holda, 2-sinfning birinchi yarim yili talaffuz qilish, oʻqish va yozish faoliyatlari boʻyicha, 2-sinfning ikkinchi yarmidan boshlab esa belgilangan nutq mavzusi boʻyicha berilgan lugʻat minimumi va nutq namunalari tinglab tushunish va soʻzlash, talaffuz qilish, oʻqish va yozish koʻnikmalari shakllantirishga qaratiladi. Oʻquv dasturi shunga mos ravishda nutq mavzulari asosida boʻlimlarga, har bir mavzu esa ichki tartiblanishida 4ta tarkibiy qismga ajratilgan.

Oʻquv dasturining bu shaklda tarkiblanishi didaktik talablarga toʻla javob beradi va taqvim-reja asosida soatlar boʻyicha quyidagicha taqsimlangan:

## 2–4-sinflarda nutq mavzulari boʻyicha dars soatlari taqsimoti

№	2-sinfda	3-sinfda	4-sinfda
1.	Tanishuv (1 soat)	Vatanim (3 soat)	Vatan (3 soat)
2.	A, O, N harflari (1 soat)	Sinfimiz (3 soat)	Qadrdon maktabim (3 soat)
3.	T, M harflari (2 soat).	Kuz (2 soat)	Koʻchamiz (2 soat)
4.	I, B, L harflari (3 soat).	Mevalar (2 soat)	Uyimiz (2 soat)
5.	K, R harflari (2 soat)	Polizda (2 soat)	Bogʻda (3 soat)
6.	Oʻ, D harflari (2 soat)	Sabzavotlar (2 soat)	Kuzgi ishlar (3 soat)
7.	U, Y harflari (2 soat)	Oila (3 soat)	Kitob (3 soat)
8.	E, G harflari (2 soat)	Kun tartibi (3 soat)	Bozorda (3 soat)
9.	Ng harf birikmasi, S harfi (2 soat)	Qish (2 soat)	Doʻkonda (3 soat)

<sup>31</sup> Rafiyev A. va b. Oʻzbek tili (taʼlim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 4-sinfi uchun darslik). – Toshkent, Oʻqituvchi, 2017.

10.	H, X harflari (2 soat)	Yangi yil bayrami (2 soat)	Maktab oshxonasi (2 soat)
11.	P, Q harflari (2 soat)	Sport (3 soat)	Ob-havo (3 soat)
12.	Sh, Ch harflari (2 soat)	Ob-havo (3 soat)	Bahor keldi (3 soat)
13.	J, G', Z harflari (3 soat)	Bahor (3 soat)	Assalom, Navro'z! (3 soat)
14.	F, V harflari va tutuq (') belgisi (3 soat)	Gullar (3 soat)	Orasta bo'ling (2 soat)
15.	Yangi yil bayrami (2 soat)	Bayramlar (3 soat)	Sport va salomatlik (2 soat)
16.	Sanaymiz (3 soat)	Uy hayvonlari va par-randalar (3 soat)	Har doim tinchlik bo'lsin! (3 soat)
17.	O'quv qurollari (2 soat)	Yovvoyi hayvonlar va qushlar (3 soat)	Yo'l harakati (3 soat)
18.	Ranglar (3 soat)	Hayvonot bog'ida (3 soat)	Ta'til rejasi (3 soat)
19.	Tana a'zolari (3 soat)	Yoz (2 soat)	
20.	Kiyimlar (3 soat)		
21.	Yil fasllari (3 soat)		
22.	Hafta kunlari (3 soat)		
23.	Oziq-ovqatlar (3 soat)		
24.	Idishlar (2 soat)		

Boshlang'ich sinflarda o'zbek tilining nutq tovushlari talaffuzi, ularni yozish va o'qish ko'nikmalari shakllantirish, o'quvchilarning berilgan nutq mavzulari doirasidagi lug'at boyligini o'stirish, xususan, 2-sinfda o'quv yilining 1-yarmi – “Alifbo” davrida o'zbek tilining nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish, o'qish va yozish ko'nikmalarini o'zlashtirish ko'zda tutiladi.

Boshlang'ich sinflar o'quv dasturida o'zbek tili grammatikasidan nazariy ma'lumotlar, imlo qoidalarini berish rejalashtirilmagan, faqat nutq faoliyatining **tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish** ko'nikmalarini o'quvchilarning yosh xususiyatidan kelib chiqib bosqichma-bosqich rivojlantirib borgan holda amaliy shakllantirib borish rejalashtirilgan bo'lsa-da, bu jarayonda ham uzviylik va uzluksizlik ta'minlanishi shart, aks holda til ko'nikmalarini puxta shakllantirish mumkin emas. Shunday bo'lsa-da, aynan “bosqichma-bosqich rivojlantirib borish” borasida muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yilayotgani kuzatilmoqda.

Xususan, o'zbek tili mashg'ulotlarida tinglab tushunish va to'g'ri talaffuz qilish ustida yetarli ishlanmayotgani, spetsifik nutq tovushlarini aslyatdagidek o'rgatishga jiddiy e'tibor qaratilma-



yotgani tufayli oʻzga tillar vakillari nutqi talab darajasida emas. Bu koʻnikmalar aynan tilni egallashning ilk bosqichida, yaʼni boshlangʻich bosqichda amalga oshirilishi kerak va bunda taʼlim sifatini taʼminlashga alohida eʼtibor qaratilishi zarur.

Boshlangʻich sinflarda grammatik mavzular alohida mavzular sifatida oʻtilmaydi, biroq oʻquvchilar nutqida uchraydigan faol grammatik shakllar boʻyicha koʻnikmalarni shakllantirib borish oʻquv dasturi rejasiga kiritilgan. Quyida mazkur grammatik shakllarning sinflar kesimida taqsimlanishi holatining qiyosiy tahlilini koʻrib chiqamiz.

## 2–4-sinflarda oʻzbek tilidan beriladigan grammatik vositalar

Sinflar	Qoʻshimchalar va yordamchi soʻzlar	Soʻroqlar
2-sinf	<i>-ta</i> qoʻshimchasi, <i>esa</i> soʻzi	<i>nechta? qancha? qaysi rang? qanday rangda? kim nima qil-yapti? nima bilan? nechta? qancha?, nechanchi? qaysi?, qayerga qoʻyay? nima qilay? soʻroqlari</i>
3-sinf	<i>ha, yoʻq</i> soʻzlari, <i>-dan, -sin</i> qoʻshimchalari, <i>-ni</i> qoʻshimchasining egalik shakllari bilan qoʻllanishi, <i>-ga, -ka, -qa</i> qoʻshimchalari	<i>qayerdan?, qayerga?</i> soʻroqlari
4-sinf	<i>-miz</i> qoʻshimchasi, <i>-nchi, -inchi, -ga, -ka, -qa, -gan, -dan, -da</i> qoʻshimchalari, koʻplik sondagi shaxson qoʻshimchasi, <i>sifat + ekan</i> tuzilishli feʼl shakllari, <i>-sh, -ish, -dilar, -(i)shdi</i> qoʻshimchalari, <i>-jon, -lik</i> qoʻshimchasi, buyruq-istak maylining <i>-sin</i> qoʻshimchasi	<i>qayer?, nechanchi?, qayerda? qayerga?, kimdan?, qayerdan?, qachon?, nima?, nimani?, nima qilasiz?, kim?, nima?, qayerda?</i> soʻroqlari

Berilgan maʼlumotlarni qiyosiy tahlil qilish sinflar kesimida grammatik koʻnikmalarning shakllantirilishi masalasida ancha muammoli holatlar mavjudligini – qoʻshimchalar va savollarning berilishida tadrijiylikning yoʻqligi, qayta-qayta takrorlarning koʻp uchrashini, masalan, *qayerga?* soʻrogʻi 2-,3-,4-sinfda, *qayerdan?* soʻrogʻi 3-,4-sinfda, *kim? nima?* soʻroqlari 2- va 4-sinfda berilgani, *-ga, -ka, -qa* qoʻshimchalari ham 3- ham 4-sinfga kiritilganini, *-sin* qoʻshimchasi 3-sinfda ham, 4-sinfda ham kiritilganini koʻrish mumkin.

Dastur va darslikdagi eng jiddiy kamchiliklardan biri, sinflar kesimida grammatik shakllarning murakkablik darajasi e'tiborga olinmagan holatlar bo'lib, jumladan, *kim?*, *nima?* so'roqlari 4-sinf dasturiga kiritilgani holda, murakkab tuzilishli *kim nima qilyapti?* so'rog'i 2-sinf dasturiga kiritilgani yoki *sifat+ekan* tuzilishli fe'l shakllarining, buyruq-istak maylini ifodalovchi *-sin* qo'shimchasining boshlang'ich sinflar o'quvchilariga berilishini to'g'ri deb bo'lmaydi. Grammatik shakllar hajmining sinflar kesimida rejalashtirilishida ham mutanosiblikning buzilganini, 3-sinfda shakllantiriladigan ko'nikmalar miqdori 2-sinfdagidan ham kamligini ko'rish mumkin. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning lug'at boyligini o'stirishda o'zbek tilining milliy realiyalari – o'zbekcha ismlar, milliy taomlar, kiyimlar nomlarini to'g'ri talaffuz qilish va yozishni o'rgatishga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ushbu tahlillar ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning boshlang'ich sinflari uchun "O'zbek tili" darsliklarini modernizatsiyalash, ulardagi kamchiliklarni bartaraf etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, yuqorida qayd etganimizdek, bugungi kunda respublikamiz ta'lim tizimida yuz berayotgan yangilanishlar orasida maktabgacha ta'limni uzluksiz ta'limning boshlang'ich ilk bosqichi sifatida qarash, ushbu bosqichning umumiy o'rta ta'lim uchun mustahkam poydevor vazifasini o'tashi uchun maktabgacha ta'lim muassasalarini kuchaytirish, ayniqsa, chet tillarni o'rgatishni bolalarning kichik yoshidan boshlashga alohida e'tibor qaratish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Biroq, ta'kidlash kerakki, kichik yoshdagi bolalarga chet tili bolalarning ona tilidagi so'z boyligi zahirasi asosida o'rgatilishi barchaga ma'lum bo'lsa-da, uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarini 1-sinfdan boshlab, o'zga tilli guruhlarda ikkinchi til sifatida o'qitiladigan o'zbek tilining 2-sinfdan boshlab o'qitilishi til ta'limida fanlararo aloqaning ta'minlanishida muayyan bo'shliqning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

## 5.2. 5–9-sinflarda o'zbek tilini o'qitish mazmuni va tamoyillari

Ta'lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 5–11-sinflari uchun o'quv dasturida o'zbek tilidan belgilan-

gan ta'lim mazmuni nutq mavzulari asosida bo'limlarga ajratilgan bo'lib, har bir bo'limda o'quvchilarga nutq mavzusi bo'yicha so'zlar va so'z birikmalaridan, nutq qurilmalari minimumi tavsiya etilgan. Boshlang'ich sinflar o'quv dasturlaridan farqli o'laroq, 5-sinfdan boshlab o'zbek tilida so'z tarkibi, so'zlarning yasalishi, so'z turkumlari va ularning o'zgarishi, so'zlarning o'zaro bog'lanib so'z birikmasi hamda gap tuzish qonuniyatlari bo'yicha nazariy ma'lumotlar, grammatik qoidalar, qisqa ta'riflar beriladi.

Biroq bunda til hodisalarining o'zaro uzviylikini ta'minlash uchun o'zbek tili grammatikasining izchilligini saqlash, biroq grammatik hodisalarni bevosita nutq tuzishga xizmat qilishi nuqtai nazaridan tanlab olinishi ko'zda tutilgan. Shunga ko'ra, o'quv dasturida sinflar kesimida har bir nutqiy mavzu doirasida beriladigan **leksik minimum** (tayanch so'zlar va birikmalar), **grammatik minimum** (so'z shakllari va grammatik bilimlarning aniq chegarasi), **muomala odobi, adabiy o'qish** materiallari yuzasidan beriladigan materiallar aniq ko'rsatilgan. Ushbu materiallar ta'lim mazmuni hamda o'quvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlaridan kelib chiqib o'zgarib boradi. Chunonchi, 5–6-sinflarda mavzular **leksika** (leksik minimum), **grammatika** (grammatik minimum), **muomala odobi, adabiy o'qish**; 7–9-sinflarda esa **leksika** (leksik minimum), **grammatika** (grammatik minimum), **ish qog'ozlarini yozish va adabiy o'qish** sifatida taqsimlangan.

Dasturda leksik minimum har bir nutqiy mavzu bo'yicha belgilangan tayanch so'z va birikmalar hamda nutqiy qurilmalardan, grammatik minimum esa berilishi kerak bo'ladigan bilimlar majmuidan tashkil topgan. Leksik-grammatik minimumning bosqichma bosqich uzluksizlik va uzviylik tamoyilida berilishi ta'minlangan bo'lib, 5–8-sinflarda tilning morfologiya sathiga oid bilimlar, 9-sinfda esa so'z birikmasi va soddaga gap sintaksisiga oid bilimlarni izchillik asosida o'stirib borish ko'zda tutilgan. Grammatik bilimlarni izchillikda berish ularning mohiyatini tushunish va mustahkamlab borish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Mazkur bosqichda beriladigan ma'lumotlarni tinglab tushunish, o'qish, so'zlash va yozish amallari vositasida muayyan nutqiy mavzularda hamda turli vaziyatlarda amaliy qo'llab borishni o'rgatish orqali o'quvchilarda nutqiy, lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarni hosil qilishga erishish, provard oqibatda o'quvchilar o'zbek tilida so'zlarni o'zaro to'g'ri bog'lab, gap tuza

olish, nutqning dialogik va monologik shakllarida erkin muloqot yurita olish layoqatiga ega bo'lishi ko'zda tutiladi.

Aytish joizki, o'quvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni hosil qilishda **muomala odobi va adabiy o'qish** bo'yicha beriladigan materiallarning o'rni nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Muomala odobi va adabiy o'qish bo'yicha beriladigan materiallar ham o'quvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlari hamda ta'lim turi talablaridan kelib chiqib belgilangan. Jumladan, 5-sinfda adabiy o'qish uchun ertak, she'r, topishmoq, tez aytishlar kiritilgan bo'lsa, 6–7-sinflarda hikoyalar, rivoyat va she'riy asarlar, o'zbek bolalar adabiyoti namunalari, 8–9-sinflarda esa o'zbek yozuvchilar asarlaridan parchalar ustida ishlash rejalashtirilgan.

O'quv dasturida 5-sinf dan boshlab grammatikadan berilgan nazariy ma'lumotlar bo'yicha qoida va ta'riflar berib borilishi ko'zda tutiladi. Har bir mavzu bo'yicha berilgan qoida-ta'riflarni mustahkamlovchi mashq-topshiriqlar asosida ushbu grammatik vositalarni to'g'ri talaffuz qilish va imloviy me'yorlarni o'rgatish, ushbu grammatik shakllarni ishtirok ettirib nutqiy mavzular doirasida gaplar va kichik matnlar tuzish orqali so'zlarning grammatik shakllarini singdirib borish ko'nikma-malakalari ham shakllantirib boriladi.

Shuningdek, adabiy o'qish materiallarini ham nutqiy mavzu va grammatik mavzuga muvofiq lashtirib borish ko'zda tutiladi. Bu shu sinflar uchun "O'zbek tili" darsliklarini yaratishda har bir mavzu doirasida berilayotgan materiallarni bir markazga jamlagan holda strukturalashtirib berishni, har bir mavzuga kiritiladigan o'quv materiallari – matnlar, qoidalar, mashqlar, topshiriqlar va adabiy o'qish materiallarini bir maqsadga yo'naltirib berishni taqozo etadi. "O'zbek tili" darsliklarini shu tarzda tartiblash o'quvchilarda har bir dars jarayonida belgilangan leksik minimum va grammatik shakllarni bir-biriga bog'liq holda puxta o'zlashtirib borish, mavzuni o'tishda **nutqiy mavzu – grammatik ma'lumot – adabiy o'qish** bo'yicha berilgan o'quv materiallarini o'zaro uzviylikda o'rgatish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Ta'kidlash kerakki, ta'lim sohasidagi yangilanishlardan yana biri shundaki, 5–9-sinflar uchun o'quv dasturini tuzishda har bir sinf kesimida nutqiy mavzular, grammatik ma'lumotlar va adabiy o'qish materiallari uzviyligi, ayni vaqtda sinflararo kesimda ushbu o'quv materiallarining uzluksizligini ta'minlashga ham jiddiy

e'tibor qaratildi. Bu nafaqat takror va qaytariqlarni bartaraf etish, o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mavzular va nazariy ma'lumotlarni osondan qiyinga qarab berish, balki nutqiy mavzularnigina emas, nazariy grammatik ma'lumotlarni ham tarqoq holda emas, til strukturasiidan kelib chiqib tizimlashtirib berish imkoniyatini ham yuzaga keltiradi. Ushbu holat darsdan darsga o'tish jarayonida avvalgi darsda o'tilgan nazariy ma'lumotlarni mustahkamlab, takrorlab borish, til unsurlarini yaxlit holda tasavvur qila olish, ularning o'zaro aloqadorligini, qo'llanishlarining sabab va oqibatlarini tushunib olishga zamin yaratadi.

Sobiq o'quv dasturlari va darsliklarda grammatik shakllarni faqat nutq mavzusi doirasida qo'llanishidan kelib chiqib o'rgatish grammatik bilimlar uzviyligi va uzluksizligini mutlaqo ta'minlamas, o'quvchi, jumladan, uzoq o'tgan zamon bilan aniq o'tgan zamon fe'llarining mazmuniy qo'llanishidagi farqlarni tushunmas, natijada barcha holatlarda yoki unisini, yoki bunisini farqlamay qo'llayverar edi. Demak, til materiallarini berishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashi, ayni vaqtda mustahkamlovchi mashq va topshiriqlar yordamida ularning nutq mavzusi va adabiy o'qish materiallari bilan o'zaro bog'liqlikda berilishiga erishish bugungi kunda "O'zbek tili" fanidan yangi avlod darsliklari yaratila boshlanganini ko'rsatadi.

Ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi munosabati bilan umumta'lim maktablari uchun fanlar bo'yicha DTSlari talablari takomillashtirildi. Xususan, 5–9-sinflar uchun kompetensiyaviy yondashuvning A2 darajasi talablari belgilangan bo'lib, o'quv dasturida nutqiy mavzular va ular bilan bog'liq holda o'rganilishi zarur bo'ladigan grammatik ma'lumotlar hajmi va ularni o'zlashtirish bo'yicha qo'yiladigan talablar belgilab berilgan bo'lib, quyida ushbu talablar va ta'lim mazmunini uzviylik va uzluksizlik nuqtai nazardan ko'rib chiqamiz.

### **5-sinfda DTS talablari asosida:**

kundalik muloqot yuritishga oid matnlar, eshitilgan xabarlarini tinglab tushunish;

o'rganilgan mavzular bo'yicha matnlar mazmunini savol-javob shaklida, qisqa yoki to'liq so'zlab berish;

o'zaro suhbatda kundalik muloqotda ishlatiladigan (murojaat etish va murojaatga javob berish, hol-ahvol so'rash va hol-ahvol

so‘rashga javob berish, rozilik yoki rad javobini berish, ruxsat so‘rash va ruxsat berish, tabriklash va tabrikka javob berish, minnatdorchilik bildirish, kechirim so‘rashga oid) muomala odobi unsurlarini qo‘llash;

kelishik qo‘shimchalari, kishilik, o‘zlik olmoshlarini, maza-ta‘m, rang-tus, hajm-o‘lchov hamda xarakter-xususiyatni bildiruvchi sifatlar, sifatning ozaytirma va orttirma darajalarini og‘zaki va yozma nutqda qo‘llash;

berilgan tayanch so‘zlar, mavzu yoki rasm asosida 6-8 gapdan iborat bog‘lanishli matn tuzish, berilgan matnni topshiriqlar asosida to‘ldirish yoki davom ettirish;

o‘rganilgan mavzular bo‘yicha 31–40 so‘zdan iborat diktant yozish talablari belgilangan<sup>32</sup>.

5-sinf uchun o‘quv dasturi **leksika, grammatika, muomala odobi, adabiy o‘qish** qismlariga ajratib berilgan. Ushbu materiallar o‘quv dasturida asosiy konsentr sifatida tanlangan **nutq mavzulari** bog‘liq holda jamlab berilgan bo‘lib, berilgan mavzular<sup>33</sup> asosida o‘quvchilarning nutqini boyitish, ularda tinglab tushunish, ifodali o‘qish va so‘zlash ko‘nikma-malakalarini shakllantirish hamda mavzuga oid matnlar, suhbatlar, adabiy o‘qish materiallari vositasida har bir nutq mavzusi bo‘yicha faol va nofaol leksik minimumni egallash ko‘zda tutiladi.

O‘quv dasturida har bir nutq mavzuda **grammatika bo‘yicha ot, atoqli va turdosh otlar, narsa-buyum va shaxs otlari, birlik va ko‘plik sondagi egalik qo‘shimchalari, ularning imlosi, egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda yuz beradigan tovush o‘zgarishlari, sifat, maza-ta‘m bildiruvchi, rang-tus bildiruvchi, hajm-o‘lchovni bildiruvchi, xarakter-xususiyatni bildiruvchi, ma‘nodosh va zid ma‘noli sifatlar, sifatlarning ot o‘rnida qo‘llanishi** haqida ma‘lumotlar berib borilishi rejalashtirilgan, Dastur va darslikda ushbu nazariy ma‘lumotlarning o‘zaro uzviylikini va nutqiy mavzularga bog‘liqligini ta‘minlashga harakat qilingan.

5-sinf o‘quv dasturida **muomala odobi** bo‘yicha o‘quvchilarning yosh xususiyatiga mos holda kundalik muomala odobi-

<sup>32</sup> “O‘zbek tili” fani o‘quv dasturi (ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun). – Toshkent, RTM. – 2017.

<sup>33</sup> Rafiyev A. va b. O‘zbek tili (ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 5-sinfi uchun darslik). – Toshkent, O‘qituvchi, 1917.

da qoʻllanadigan etiket meʼyorlari berilishi rejalashtirilgan boʻlib, bu darslikda turli vaziyatlarda oʻzbekona muomala odobiga oid nutqiy qurilmalarni berish, vaziyatli suhbatlarni rolli oʻqishga oid topshiriqlar orqali aks ettirilishi koʻzda tutilgan. Shundan kelib chiqib, 5-sinf darsligida kattalarga murojaat qilish shakllari, tengdoshlar bilan oʻzaro soʻzlashish odobi, telefonda soʻzlashish odobi, murojaatlarga javob berish odobi, hol-ahvol soʻrash, iltimos qilish, ruxsat soʻrash, ruxsat berish, kechirim soʻrash, kechirim soʻrashga javob, minnatdorchilik bildirishga oid soʻz va jumlar, tabriklash va tabrikka javob berishga oid soʻz va jumlar, minnatdorchilik bildirish va minnatdorchilikka javob berish, kechirim soʻrash va kechirim soʻrashga javob qaytarishga oid soʻz va jumlar berilgan. Ushbu qism dialogik nutq namunalari, kundalik mu-loqotda koʻp ishlatiladigan nutq namunalari orqali oʻquvchilarning ogʻzaki nutq koʻnikma-malakalarini rivojlantirishga qaratilgan.

**Adabiy oʻqish boʻyicha** 5-sinf dasturida mavzuga oid matnlar, sheʼrlar va maqollar berilishi va nutq mavzulariga muvofiqlashtirilgan holda Vatan mavzusidagi, ilm, ilm olish, hunar egallash haqidagi, ustozlar haqidagi, onalar haqidagi, til haqidagi maqollar, hikoyatlar, sheʼrlar, doʻstlik mavzusidagi matnlar, kichik hikoyalardan parchalar, rivoyatlar, sheʼrlar, maqollar berilishi, shuningdek, sport va salomatlik haqidagi hikmatlar, milliy bayramlarimiz bilan bogʻliq maʼlumotlarni darslikka kiritish koʻrsatib oʻtilgan. Ushbu maʼlumotlar muayyan bir tizimda boʻlmasa-da, har bir nutq mavzusida berilgan maqollar, rivoyatlar, hikmatlar, sheʼrlar namunalari orqali berilgan. Ular asosan nutq mavzusiga muvofiqlashtirilgan va oʻquvchilarning leksikasini boyitish, nutqini oʻstirishga qaratilgan.

#### **6-sinfda DTS talablariga binoan:**

mavzuga oid matnlar, topshiriqlar, audiovizual vositalar orqali berilgan xabarlar mazmunini, suhbatdoshining nutqini tinglab tushunish;

mavzuga oid matnning mazmunini soʻzlab berish, savollarga javob berish;

suhbat jarayonida muomala odobiga oid soʻz va jummalarni qoʻllay olish;

mavzular boʻyicha berilgan matnlar, adabiy materiallar, sheʼrlarni ifodali oʻqish;

berilgan topshiriqlar asosida savollarga javoblar yozish; nuqtalar yoki savollar o‘rniga mos so‘zlar va grammatik shakllarni qo‘yib yozish orqali matnni to‘ldirish yoki davom ettirish; o‘rganilgan mavzular bo‘yicha 41–50 so‘zdan iborat diktant yozish;

berilgan rasm yoki mavzular bo‘yicha 10–14 ta gapdan iborat matn tuza olish nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish ko‘zda tutiladi<sup>34</sup>.

6-sinf o‘quv dasturi ham **leksika, grammatika, adabiy o‘qish** qismlariga ajratilgan va berilgan nutqiy mavzularga mos matnlar, adabiy o‘qish materiallari vositasida o‘quvchilar nutqiga singdirib borilishi hamda tinglab tushunish, ifodali o‘qish ko‘nikma-malakalarini shakllantirish rejalashtirilgan. Ushbu sinfda **grammatika bo‘yicha** *aniq va mavhum, o‘rin-joy va kasb-hunar, shaxs va narsa-buyum otlarining yasalishi va imlosi; sifat darajalari, qiyosiy, ozaytirma va kuchaytirma darajalar; son, sanoq va tartib sonlar, chama va taqsim sonlar, ularning yasalishi, talaffuzi va imlosi, jamlovchi sonlar, sonlarning turlanishi va ot o‘rnida qo‘llanishi, butun va kasr sonlar, sonlarda hisob so‘zlarining qo‘llanishi, vaqtni ifodalash; olmosh, kishilik, o‘zlik, so‘roq, belgilash, bo‘lishsizlik olmoshlari; ravish, holat, payt va o‘rin, miqdor-daraja ravishlari* bo‘yicha nazariy ma‘lumotlarni o‘quvchilarning yoshiga mos va mazulararo uzviylikda berish rejalashtirilgan.

**Adabiy o‘qish materiallari** sifatida o‘quv dasturida kasb-hunar, ilm olish, muzeylar, ustozlar, buyuk ajdodlarimiz, xususan, Mirzo Ulug‘bek hayoti va faoliyati bilan bog‘liq, Navro‘z bayrami, Xotira kuniga oid adabiy matnlar haqidagi, Vatanimiz tabiati va uning boyliklarini asrash haqidagi, bahorgi ishlar, hashar bilan, shahrimizdagi bunyodkorlik ishlari bilan bog‘liq matnlar, maqollar, she‘rlar berilishi rejalashtirilgan. 2017-yilda chop etilgan 6-sinf darsligida ular har bir mavzuda 3-dars sifatida alohida ajratib berilgan.

Darslik mualliflari ushbu mavzularning nutqiy mavzuga ham, grammatik mavzuga ham uzviy bog‘liq tarzda berilishiga jiddiy

<sup>34</sup> Muxitdinova X., Avlakulov Ya., Nuriddinova D. O‘zbek tili (ra‘lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 6-sinfi uchun darslik) – Toshkent: Mitti yulduz, 2017.



e'tibor qaratilgan. Ushbu sinfdan boshlab dasturdan kelib chiqqan holda adabiy o'qish materiallari alohida dars sifatida berilgan va mavzu doirasidagi leksik minimum va grammatik bilimlar darsdan darsga mustahkamlanib borilishi ko'zda tutiladi.

#### **7-sinfda DTS talablari asosida:**

mavzu bo'yicha berilgan matnlar, suhbatlar mazmunini tinglab tushunish;

grammatik bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlarni bajarish, savollarga javob berish;

mavzuga oid dialoglar tuzish, dialogni davom ettirish va suhbat matnida murojaat shakllarini qo'llash;

matnlar mazmuni bo'yicha savollar tuzish va o'zaro suhbatlasha olish;

ko'rsatilgan o'quv filmi mazmunini so'zlab berish;

matndan grammatik mavzuga doir birikmalar va jumalarni ajratib yozish;

adabiy o'qish bo'yicha berilgan matnlarni so'zlab berish, she'rlarni ifodali o'qish va yoddan ayta olish;

berilgan savollar, tayanch so'zlar yoki rasm asosida 15–20 ta gapdan iborat bog'lanishli matn tuza olish;

o'rganilgan mavzular bo'yicha 51–60 ta gapdan iborat diktant yozish nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish ko'zda tutiladi<sup>35</sup>.

7-sinf o'quv dasturi ham **leksika, grammatika, adabiy o'qish** qismlariga ajratilgan va nutq mavzulari bo'yicha berilgan leksik minimum, matnlar, adabiy o'qish materiallari vositasida o'quvchilarning lug'at boyligi, so'zlash va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantiriladi<sup>36</sup>.

7-sinfda **grammatika bo'yicha** o'quvchilarga uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida *so'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari, sodda yasama so'zlar, so'z yasovchi qo'shimchalar, ularning so'zga qo'shilish tartibi; qo'shma so'zlar, qo'shib va ajratib yoziladigan so'zlar, juft va takror so'zlar; fe'l, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, fe'l zamonlari, aniq o'tgan zamon, uzoq o'tgan zamon, o'tgan zamon davom, hikoya va maqsad fe'llari, hozirgi za-*

<sup>35</sup> “O'zbek tili” fani o'quv dasturi (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun). – Toshkent, RTM. – 2017.

<sup>36</sup> Muxitdinova X., Avlakulov Ya., Nuriddinova D. O'zbek tili (ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 7-sinfi uchun darslik) – Toshkent: O'qituvchi, 2017.

*mon fe'li, kelasi zamon maqsad va gumon fe'llari; fe'l mayllari, buyruq-istak va shart mayllari* bo'yicha grammatik ma'lumotlar berish va o'quvchilarda egallagan grammatik bilimlari, o'rganagan grammatik vositalarini to'g'ri qo'llash ko'nikma-malakalarini shakllantirish ham ko'zda tutilgan. O'quv dasturida ushbu grammatik mavzular o'zaro uzviylikda va sinflararo kesimda uzluksizlikda va osondan qiyinga tamoyili asosida berilishiga alohida e'tibor qaratilgan.

7-sinfda **adabiy o'qish materiallari** sifatida mavzuga oid adabiy matnlardan parchalar, jumladan, kamtarlik, mehnatsevarlik, ijobiy fazilatlar, onalar, milliy an'analar, urf-odatlar, respublikamizning suv havzalari, O'zbekistonning tog'lari, shifobaxsh o'simliklar, Vatan sarhadlari, chegarachilar, Amir Temur hayoti bilan bog'liq adabiy matnlar, rivoyatlar, Temur tuzuklari haqidagi matnlar, rivoyatlar, maqollar, she'rlar berilishi rejalashtirilgan.

2017-yilda chop etilgan 7-sinf uchun "O'zbek tili" darsligida adabiy o'qish materiallarining nutq mavzusi hamda grammatik ma'lumotlarga bog'liqligiga alohida e'tibor qaratilgan, bu orqali nutqiy mavzu – grammatik ma'lumotlar – adabiy o'qish konsentrlarining uzviyligi ta'minlangan. Bu darslikning o'quv dasturi tuzilmasiga to'liq mos kelishiga, qismlar o'rtasida mutanosiblikning to'liq ta'minlanishiga imkon yaratgan. Ta'kidlash kerakki, har bir nutq mavzusiga 3 soat ajratilib, grammatik ma'lumotlar bo'yicha qoida va ta'riflarni ham o'quvchilar yoshiga mos ravishda qismlarga ajratib berilishi va har bir dars doirasida berilgan alohida mashq va topshiriqlar vositasida darsdan darsga mustahkamlanib borilishi, oxirgi 3-darsda esa adabiy o'qish materiallari orqali ham nutqiy, ham grammatik ma'lumotlarni mustahkamlash o'quvchilarning ham nutqiy, ham grammatik bilimlarni puxta o'zlashtirib olishlariga zamin tayyorlaydi.

### **8-sinfda DTS talablariga ko'ra o'quvchilar:**

audio-video vositalar orqali eshittirilgan matnlar mazmunini tushunish va so'zlab berish;

tavsiya etilgan nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish, suhbat jarayonida murojaat etish shakllarini, muomala odobi (etiket) unsurlarini to'g'ri qo'llash;

o'rganilgan grammatik vositalarni qo'llab, gaplarni va matnni to'ldirish;

dialoglarini va yakka tarzda tuzilgan monolog matnlarni davom ettirish;

berilgan tayanch soʻzlar, rasmlar asosida matn tuzish;

matn mazmuni asosida savollar tuzish, nuqtalar oʻrniga grammatik shakllarni qoʻllab, javoblar yozish;

adabiy oʻqish boʻyicha berilgan hikoya, qissalar mazmunini soʻzlab berish, ular mazmuniga munosabat bildirish, sheʼrlarni ifodalari oʻqish va yoddan aytish;

berilgan tayanch soʻzlar yoki reja asosida 21–25 ta gapdan iborat bogʻlanishli matn yozish;

oʻrganilgan mavzular boʻyicha 60–70 soʻzdan iborat matn asosida diktant;

90–100 soʻzli matn asosida bayon yozish kompetensiyalariga ega boʻlishlari kerak<sup>37</sup>.

Ushbu koʻnikma-malakalar 8-sinf dasturida berilgan **leksika, grammatika, adabiy oʻqish** materiallari vositasida shakllantiriladi. Shundan kelib chiqib, 8-sinf darsligi oʻquv dasturi asosida berilgan nutq mavzulari boʻyicha<sup>38</sup> leksik minimum, mavzuga doir matnlar, adabiy oʻqish materiallari vositasida oʻquvchilarning soʻzlash va tinglab tushunish koʻnikmalari rivojlantirish hamda lugʻat boyligini oʻstirib borish koʻzda tutiladi.

Dasturda **grammatika** boʻyicha *feʼl nisbatlari, feʼlning aniq, oʻzlik, majhul birgalik va orttirma nisbati, ularning yasalishi va imlosi, nisbat qoʻshimchalarining birdan ortiq qoʻllanishi; feʼlning vazifaviy shakllari, harakat nomi, ravishdosh, sifat-dosh, ularning yasalishi va imlosi, sifat-doshlarning ot oʻrnida qoʻllanishi; bogʻlovchilar, ularning turlari, biriktiruv va zidlov, ayiruv va inkor bogʻlovchilari, ularning imlosi va qoʻllanishi; modal soʻzlar, ishonch va tasdiqni, fikrning tartibi va kimga qarashlilikini, gumon va taxminni bildiruvchi modal soʻzlar, fikrni xulosalashda qoʻllanadigan modal soʻzlar; koʻmakchilar, yuklamalar va undov soʻzlar, ularning imlosi va qoʻllanishi* mavzulari boʻyicha nazariy grammatik maʼlumotlar berish rejalashtirilgan.

Bu ushbu mavzu doirasida beriladigan **grammatik minimumni** – soʻz shakllari va ularni hosil qiluvchi grammatik vositalarni

<sup>37</sup> “Oʻzbek tili” fani oʻquv dasturi (taʼlim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun). – Toshkent, RTM. – 2017.

<sup>38</sup> Muxitdinova X. Oʻzbek tili (raʼlim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 7-sinfi uchun darslik) – Toshkent: Oʻqituvchi, 2019.

o'quvchilar nutqiga singdirib borish, ular yordamida so'z birikmasi va gap tuzishga o'rgatish, so'zlar va gaplarni o'zaro bog'lashda yordamchi so'zlarni to'g'ri qo'llashni o'rgatishni ko'zda tutadi.

Berilgan grammatik ma'lumotlar muayyan izchillikka va quyi 7-sinfdan tadrijiy o'sib chiquvchi uzluksizlikka asoslangan bo'lib, 5–8-sinflarda tilning morfologiya sathi bo'yicha nazariy ma'lumotlar o'quvchilarning yoshiga mos tarzda osondan qiyinga qarab berib boriladi. Dasturda 9-sinfдан boshlab sintaksisga oid nazariy ma'lumotlar berilishi rejalashtirilgan.

8-sinf darsligiga quyi sinflardan tadrijiy o'sib chiqadigan uzluksizlikdagi va nutq mavzular bilan uzviy bog'liqlikdagi quyidagi **adabiy o'qish materiallari** berilgan: respublikamizdagi o'zgarishlar, kuz ne'matlari, hosil bayrami, o'zbek yozuvchilari va olimlari haqidagi ma'lumotlar, kitobxonlik, milliy hunarmandchilik, hunar egallash sirlari, dunyo mo'jizalari, o'zbek udumlari, urf-odatlar, hashar, O'zbekistonning tabiiy boyliklari haqidagi maqollar, she'rlar ham ushbu mavzuga doir leksik va grammatik minimum bilan uzviy bog'liq holda berilgan.

#### **9-sinfda DTS talabiga binoan:**

audio-video vositalar orqali eshittirilgan xabarlar, ommabop va kundalik hayot mavzusidagi yangiliklarni tushunish;

o'rganilgan mavzularda o'zaro suhbatlashadi va bahslarda ishtirok etish;

suhbat jarayonida murojaat etish shakllarini, muomala odobi (etiket) elementlarini to'g'ri qo'llash va fikrga munosabat bildirish;

suhbatdoshining gapini bo'lish, suhbatga qo'shilish va unga aniqlik kiritish, nutqini sekinlashtirishga undash vositalaridan foydalanish;

ommabop materiallarni (gazeta, shaxsiy va elektron xatlar) o'qib tushunish va mazmunini so'zlab berish;

o'rganilgan matnlar asosida 1300 ta so'zni nutqida qo'llash;

matn (badiiy asardan parcha, hikoya, xabar) bir daqiqada 70–75 so'z tezligida o'qish;

70–80 so'zdan iborat matn asosida diktant; 90–100 so'zli matn asosida bayon yozish; 11–15 gap hajmida matn tuzish;

ayrim ish qog'ozlarini (ariza, tarjimai hol, e'lon, tushuntirish xatini) yozadi;

ko‘rgan yoki eshitgan voqea-hodisani, hikoya, ertak, matn mazmunini gapirib berish, unga munosabat bildirish nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish ko‘zda tutiladi<sup>39</sup>.

Ushbu kompetensiyalarni shakllantirish quyi ta‘lim bosqichlaridan tadrijiy uzluksizlikda berilgan Dasturda tinglab tushunish, to‘g‘ri o‘qish, yozish va so‘zlash ko‘nikmalari ushbu mavzular bo‘yicha berilgan leksik minimumni nutqiy mavzular bo‘yicha berilgan matnlar, adabiy o‘qish materiallari: hikoyalar, qissalar va she‘rlar matnlari vositasida o‘zlashtirilishi ko‘zda tutiladi.

9-sinfda **grammatika bo‘yicha**: *gap bo‘laklari, ega va kesim, ularning ifodalanishi; ot kesim, ularda -dir shaklining qo‘llanishi; fe‘l kesim, ularda yordamchi fe‘llarning qo‘llanishi; to‘ldiruvchi, uning turlari, vositali to‘ldiruvchi, uning kelishik qo‘shimchalari va ko‘makchilar bilan qo‘llanishi; aniqlovchi, uning turlari, sifatlovchi aniqlovchi, qaratqich aniqlovchi va izohlovchi, ularning ifodalanishi, gapdagi o‘rni va imlosi; hol, vaziyat holi, o‘rin holi, payt holi, sabab va maqsad holi, miqdor-daraja holi, shart holi, ularning ifodalanishi, gapdagi o‘rni va qo‘llanishi; gap bo‘laklarining uyushib kelishi, umumlashtiruvchi so‘zlar va ularning imlosi; undalma va ajratilgan bo‘laklar, ularning qo‘llanishi va imlosi* grammatik mavzulari bo‘yicha nazariy ma‘lumotlar berilishi rejalashtirilgan. Dasturda sodda gap sintaksisi bo‘yicha beriladigan ushbu grammatik vositalarni o‘quvchilar nutqiga singdirib borish, ular yordamida so‘z birikmasi va gap tuzishga o‘rgatish, gap bo‘laklari, ularning gapdagi o‘rni va ifodalanishini o‘rgatish orqali o‘quvchilarning o‘zbek tilida to‘g‘ri gap tuzish va gap bo‘laklarini to‘g‘ri qo‘llash malakalarini egallashlari rejalashtirilgan.

Ushbu sinfda **adabiy o‘qish materiallari** sifatida tengdoshlar haqidagi, tilshunos olimlar, ma‘rifatparvar olimlar, san‘at, mehnat, huquq va burch, milliy an‘ana va udumlar haqidagi, me‘morchilik obidalari, axborot-resurs markazi, O‘zbekiston sporti, vatanparvarlik, Vatanga sadoqat, ekologiya, kasblar, kasb tanlash, Xotira va qadrlash, yaxshilik haqidagi adabiy matnlar, rivoyatlar, maqollar va she‘rlar berilishi ko‘zda tutilgan.

Biroq, shuni ta‘kidlash kerakki, 5–9-sinf o‘quv dasturida o‘zbek tilining milliy-madaniy leksikasini nutqda to‘g‘ri qo‘llash-

<sup>39</sup> “O‘zbek tili” fani o‘quv dasturi (ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun). – Toshkent, RTM. – 2017.

ga doir ko‘nikma-malakalarni shakllantirish e‘tiborga olinmagan. Ushbu sinflarda, xususan, toponimlar – joy nomlari, milliy qadriyatlar, an‘analalar, urf-odatlar nomlarini to‘g‘ri talaffuz qilish va to‘g‘ri yozish ko‘nikma-malakalarini shakllantirish rejalashtirilmagan. Bizningcha, o‘zbek tilini boshqa millatlar vakillariga ikkinchi til sifatida o‘qitishda milliy-madaniy leksikani o‘rgatish leksik minimum tarkibida salmoqli o‘rin egallashi kerak. Aynan milliy-madaniy leksika tarkibida o‘zbek tilining spetsifik nutq to‘vushlarining ko‘p qo‘llanishi kuzatiladi, shu bois bunga alohida e‘tibor qarataish nihoyatda muhim.

### 5.3. 10–11-sinflarda o‘zbek tilini o‘qitish mazmuni va tamoyillari

Umumta‘lim maktablarining yuqori 10–11-sinflari va o‘rta maxsus ta‘lim bosqichi o‘quvchilari uchun til ko‘nikmalarining B1 darajasi belgilangan. DTS talablariga muvofiq 11-sinf o‘quvchilari ham, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari ham provard natijada B1 daraja talablariga javob berishlari kerak. Jumladan,

#### **10-sinfda o‘quvchilar DTS talablariga ko‘ra:**

shaxsiy qiziqishlari va kasbiga oid axborot va ma‘lumotlarni tinglab tushunish;

ijtimoiy va kasbga yo‘naltirilgan mavzulardagi ommabop suhbatlarni, bahs-munozaralarni tushunish va suhbatga kirishish;

matnni kengaytirib yoki qisqartirib so‘zlab berish;

o‘qilgan va ko‘rilgan asar haqidagi taassurotini va unga munosabatini bayon qilish;

murakkablashgan sodda gaplar, qo‘shma gaplar, ularning bog‘lovchi vositalarini bilish;

o‘rganilgan ish qog‘ozlarini to‘g‘ri yoza olish;

90–100 so‘zdan iborat matn asosida diktant, 2–2,5 bet hajmida ijodiy matn (kichik insho) yozish kompetensiyalariga ega bo‘lishlari ko‘zda tutiladi<sup>40</sup>.

Ushbu kompetensiyalarni shakllantirish dasturga kiritilgan nutq mavzulari bo‘yicha berilgan mavzuga doir matnlar, adabiy o‘qish materiallari vositasida o‘quvchilarning so‘zlash va tinglab

<sup>40</sup> “O‘zbek tili” fani o‘quv dasturi (ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun). – Toshkent, RTM. – 2017.

tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish va o'quv dasturda berilgan leksik minimumni singdirish orqali ularning lug'at boyligini o'stirib borish ko'zda tutiladi.

10-sinfda **grammatika bo'yicha** o'quv dasturida: *Gapning tuzilishiga ko'ra turlari, sodda gap va ularning turlari: sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplar, bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar; qo'shma gap va qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar; bog'langan qo'shma gaplar turlari: biriktiruv munosabatli, zidlov va ayiruv munosabatli qo'shma gaplar; ergashgan qo'shma gap, tobe gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar; bog'lovchisiz qo'shma gaplar, qo'shma gap turlarining o'zaro ma'nodoshligi; ko'chirma gaplar, ularda tinish belgilarining qo'llanishi; o'zlashtirma gaplar, ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirish, qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi* bo'yicha nazariy grammatik ma'lumotlar berilishi rejalashtirilgan.

11-sinfda 10-sinfda o'rganilgan so'z birikmasi va gap, gap bo'laklari mavzularining tadrijiy davomi bo'lgan sodda va qo'shma gaplar, ularning turlari haqida ma'lumot beriladi. Ushbu sinfda o'quvchilarga sodda va qo'shma gaplar ma'nodoshligi, fikrni ham sodda, ham qo'shma gaplar vositasida ifodalash ko'nikma-malakalarini shakllantirish rejalashtirilgan.

Yuqori sinflar – 10–11-sinflar o'quv dasturida **adabiy o'qish bo'yicha** o'quv materiallarini yanada kengroq berish, xronologik tartibda o'zbek yozuvchilari va shoirlarining tarjimai holi va asarlaridan parchalar bilan tanishtirib borish, shuningdek, har chorak davomida bittadan yirikroq asar – roman yoki qissani sinfdan tashqari mustaqil o'qish sifatida o'qishlari va maxsus nazorat turi sifatida baholashni tashkil etish o'quvchilarni kitobxonlikka o'rgatish, o'zbek adabiyotining nodir asarlari bilan yaqindan tanishish, ularga mehr qo'yish va o'zbek tilidagi so'z boyligini oshirib berish imkoniyatini yaratishga yordam beradi, deb o'ylaymiz.

10-sinfda o'quvchilarga xalq og'zaki ijodidan namunalar, o'zbek adiblaridan Abdulla Qodiriy, Hamid Olimjon, Zulfiya, Asqad Muxtor, Erkin Vohidov, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek, Saida Zunnunova, Ibrohim Rahim, G'afur G'ulom, Abdulla Oripovlarning hayoti va ijodiy faoliyati, ular haqida xotiralar va asarlaridan namunalar, publitsistik maqolalardan namunalar, Karim Mahmudovning "Qiziqarli pazandalik" kitobidan ayrim matnlar berilishi rejalashtirilgan.

**Sinfdan tashqari o‘qish** bo‘yicha har bir chorak uchun Abdulla Qahhorning “Ming bir jon” hikoyasi, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani, Chingiz Aytmatovning “Qiyomat” romani, Saida Zunnunova she‘rlari tanlangan. O‘quvchilarga bu asarlarni bir chorak davomida mustaqil o‘qish va ular mazmunini hikoya qilib berish, Saida Zunnunova she‘rlaridan 1–2 tasini ifodalayotgan yod aytib berish nazorat turi sifatida kiritilgan. Bu o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek tilining to‘g‘ri talaffuz me‘yorlarini o‘zlashtirish, bog‘lanishli nutq malakalarini rivojlantirishga yordam beradi.

**11-sinfdan DTS talablariga ko‘ra** quyidagi nutqiy kompetensiyalar shakllantirilgan bo‘lishi zarur:

audio, televizual vositalar orqali eshittirilgan turli mavzulardagi axborotlarni tinglab tushunish, ular haqida ma‘lumot bera olish; shaxsiy qiziqishlari va kasbiga oid axborot va ma‘lumotlarni tinglab tushunish;

ijtimoiy va kasbga yo‘naltirilgan mavzulardagi ommabop suhbatlarni, bahs-munozaralarni tushunish, suhbatlarga qo‘shila olish;

o‘qilgan va ko‘rilgan asar haqidagi taassuroti va unga munosabatini bayon qilish;

o‘zbek tilining so‘zlashuv, badiiy, ommabop, rasmiy nutq uslublari xususiyatlarini bilish;

o‘qilgan badiiy asarlar, ommabop maqolalar mazmunini tushunish, ularning mazmunini o‘zbek tilining milliy-madaniy leksikasini nutqda to‘g‘ri qo‘llagan holda hikoya qilib bera olish;

mavzular bo‘yicha berilgan matnlarni kengaytirib yoki qisqartirib so‘zlab berish, monolog matnlar tuzish;

o‘rganilgan ish qog‘ozlarini to‘g‘ri yoza olish;

100–110 so‘zdan iborat matn asosida diktant yoza olish, 2,5–3 bet hajmida ijodiy matn (insho) yozish<sup>41</sup>.

O‘quvchilarda ushbu ko‘nikma-malakalarni shakllantirish quyidagi nutqiy mavzular doirasida amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan: *“O‘zbekiston - suveren davlat”*, *“O‘zbekiston ta‘lim tizimi”*, *“Ajdodlar merosi”*, *“Xalqimizning asl farzandlari”*, *“Kasbim – faxrim”*, *“Xalq amaliy san‘ati”*, *“Teatr va kino”*, *“Milliy madaniy markazlar”*, *“Jahon adabiyoti namoyandalari”*, *“Vatanga sadoqat”*, *“O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimi”*, *“O‘zbekiston spor-*

<sup>41</sup> “O‘zbek tili” fani o‘quv dasturi (ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun). – Toshkent, RTM. – 2017.



ti”, “O‘zbekistonda turizm”, “Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab sayohat”, “Tadbirkorlik faoliyati”, “Kelajakka yo‘l”. Quyi sinflarda torroq mavzular berilishi, yuqori sinflarda esa nutqiy mavzular mazmuniy qamrovining kengayib borishi o‘quvchilarning erkin muloqot yuritishiga, mustaqil fikrlashiga imkon beradi, dunyoqarashini kengaytirishga zamin yaratadi. **Grammatik bilimlar** bo‘yicha esa o‘quvchilarga o‘zbek tilining sintaktik va punktuatsion xususiyatlari, uslublar, rasmiy ish qog‘ozlarini yozishga doir ko‘nikma-malakalarini shakllantirish rejalashtiriladi.

Mazkur sinfda bitiruvchi sinflar o‘quvchilarini keyingi mustaqil hayotga tayyorlash uchun rasmiy uslub bo‘yicha zaruriy ko‘nikmalar berilishi, buning uchun **rasmiy ish qog‘ozlaridan ariza, tarjimai hol, tushuntirish xati, taklifnoma, tavsifnoma, e‘lon (reklama)** matnlarini yozishni o‘rgatish dastur rejasiga kiritilgan. Umumta‘lim maktabini bitirib, oliy ta‘lim muassasasiga o‘qishga kirish yoki ishga joylashish jarayonida o‘quvchilarga ushbu ish hujjatlarini amaliy qo‘llashga to‘g‘ri keladi.

11-sinfda ham 10-sinfidagi kabi **adabiy o‘qish materiallari** kengroq berilishi, o‘zbek yozuvchi va shoirlarining hayoti va faoliyati, asarlari haqida quyidagi ma‘lumotlarni berib borish ko‘zda tutiladi: Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati, “Hayrat ul-abror” dostonidan parcha; Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodiy faoliyati, ruboiylari va tuyuqlari; “Muzqaymoq”, Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi”, Rahmat Fayziyning “Hazrati inson” asarlaridan parchalar, Herman Hessening hayoti va ijodiy faoliyati hamda “Oy shu‘lasi” (Bo‘ri) hikoyasi, Cho‘lpon, Sharof Rashidov, Maqsud Shayxzoda, Said Ahmad, Saida Zunnunova, Odil Yoqubov, Shukrullo, Halima Xudoyberdiyevlarning hayoti va ijodiy faoliyati, she‘rlari, shuningdek, Ozod Sharafiddinovning “O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan” maqolasi bilan tanishish, ularni o‘rganish.

**Sinfдан tashqari o‘qish** sifatida o‘quv dasturiga Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni, Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarlaridan parchalarni, shuningdek, jahon adabiyoti namunalaridan Daniel Defoning “Robinzon Kruzo” asarini o‘qish va mazmunini so‘zlab berish, har chorak davomida mustaqil ishlash va chorak oxirida alohida baholanadigan nazorat turi sifatida esa dolzarb mavzudagi publitsistik maqolalarni sharhlash kiritilgan. Bu nafaqat o‘quvchilarning ushbu adiblarning asarlarini chuqurroq

oʻrganib, oʻz nutqlarini boyitishliri va bogʻlanishli nutq koʻnikmalarini oʻstirishlari uchun, balki oʻquvchilarga oʻrganilgan asarlar mazmuniga oʻz munosabatlarini bildirib borishlariga ham imkon yaratadi.

Oʻquv dasturi mazmunida nutqiy mavzu va grammatik maʼlumotlar uzluksizlik, uzviylik, izchillik tamoyillariga rioya qilingan holda berilgan, ushbu mavzularda berilishi rejalashtirilgan leksik-grammatik minimum mavzuga doir matnlar, mashq va topshiriqlar, adabiy oʻqish materiallari orqali oʻquvchilar nutqiga singdirib boriladigan yangi soʻzlar va grammatik shakllar hisobiga oʻstirib boriladi.

Eng muhimi, ularning barchasi nutqiy mavzu doirasida jamlanib, bir-biriga bogʻliq holda sinfdan sinfga bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi. Bularning barchasi oʻquv dasturi mazmunining taʼlim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda davlat tilini oʻqitish boʻyicha qabul qilingan konsepsiyada belgilangan yondashuvlar asosida tuzilganini koʻrsatadi.

“Oʻzbek tili” fanidan DTSning B1 darajasi talablari asosida taʼlim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 10–11-sinflari uchun rejalashtirilgan ushbu oʻquv dasturi mazmunini kasbga yoʻnaltirilgan holda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun ham asos sifatida joriy etish mumkin. Zero, taʼlim rus va boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 10–11-sinflari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning rus guruhleri bitiruvchilari provard natijada bir xil nutqiy kompetensiyani egallagan boʻlishlari zarur. Biroq oʻrta maxsus taʼlim muassasalari rus guruhlarida oʻzbek tilini oʻqitish mazmuni, shakllari va vositalarida, albatta, kasbiy-sohaviy jihatlardan kelib chiqadigan oʻziga xosliklar ham eʼtiborga olinishi kerak boʻladi.

Oʻzbek tilini oʻqitishning metodik mazmuni umumtaʼlim bosqichida mavzularning sinflar kesimida bosqichma-bosqich sodadan murakkabga qarab oʻsib borishi koʻzda tutilgan. Jumladan, boshlangʻich sinflarda grammatik qoidalar va taʼriflarsiz toʻgʻri talaffuz va soʻz boyligini oshirish ustida ishlash koʻzda tutilgan boʻlsa, 5-sinfdan boshlab grammatikadan berilgan nazariy maʼlumotlar boʻyicha qisqa qoida va taʼriflar berib borilishi koʻzda tutilgan. 5–9-sinflar uchun oʻquv dasturining tarkiblanishi kengayib, **leksika, grammatika, muomala odobi, adabiy oʻqish** qismlari-

ga ajratib berilgan, mavzular esa kompetensiyaviy yondashuvning A2 darajasi talablari asosida nisbatan murakkablashtirib borilgan. 6–7-sinf o‘quv dasturlarida ham **leksika, grammatika, adabiy o‘qish** qismlariga ajratilgan, faqat **muomala odobi** rukni kiritilmagan.

Umumta’lim maktablarining yuqori 10–11-sinflari uchun B1 darajasi talablari belgilangan bo‘lib, dasturida **adabiy o‘qish bo‘yicha** o‘quv materiallarini yanada kengroq berish, **sinfdan tashqari o‘qish** bo‘yicha har bir chorak davomida mustaqil o‘qish va mazmunini hikoya qilib berish, shuningdek, rasmiy uslub bo‘yicha **ish qog‘ozlaridan** namunalari berish rejalashtirilgan.

Bu o‘rinda shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, 5-sinfdan boshlab barcha grammatik, adabiy o‘qish materiallari o‘quv dasturida asosiy konsentrlar sifatida tanlangan **nutq mavzulariga uzviy bog‘liq** holda jamlab berilgan. Sinfdan sinfga o‘tgan sari **nutq mavzulari**, grammatik, adabiy o‘qish materiallarining murakkablashib borishi ta’lim bosqichlari o‘rtasida uzluksizlikni ta’minlashga xizmat qilgan. Ushbu materiallarni mustahkamlash uchun darsliklarda berilgan mashq va topshiriqlar nutq faoliyatining tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirishga va sinfdan sinfga rivojlantirib borishga qaratilgan. O‘zbek tilini o‘qitishda ikkinchi til ta’limining aynan shu jihatiga alohida e’tibor qaratish va o‘quvchilarning diqqat-e’tiborini grammatik shakllarni to‘g‘ri o‘zlashtirishga, matnlar va adabiy o‘qish materiallarida berilgan real hayotiy vaziyatlarda ularning amaliy qo‘llanishini o‘rganishga qaratish kerak bo‘ladi.

### Savol va topshiriqlar:

1. O‘zbek tilini umumta’lim bosqichida o‘qitish qanday bosqichlarga bo‘linadi?
2. Davlat ta’lim standartlari talablariga ko‘ra boshlang‘ich ta’limga qanday daraja talablari belgilangan?
3. 2-4-sinflar o‘quv dasturi ichki tartiblanishida qanday tarkibiy qismlarga bo‘lingan?
4. Boshlang‘ich sinflarda o‘zbek tilini o‘qitishning ilk bosqichi qanday ataladi?
5. A1 daraja talablariga ko‘ra o‘zbek tili ta’limida o‘quvchilarda qanday ko‘nikmalar shakllantiriladi?
6. 5–9-sinflar uchun o‘zbek tilidan o‘quv dasturi qanday tarkibiy qismlarga bo‘linadi?

7. 5–9-sinflarda o‘quvchilarda DTS talablari asosida qaysi daraja talablari shakllantiriladi?
8. Umumiy o‘rta ta’limning 10–11-sinflarida DTS talablari va o‘zbek tilini o‘qitish mazmuni va tamoyillari haqida so‘zlab bering.
9. 10–11-sinflar o‘quv dasturi qanday tarkibiy qismlarga bo‘lib berilgan?
10. Sinfdan sinfga o‘tgan sari nutq mavzulari, grammatik, adabiy o‘qish materiallarining uzluksizligi va o‘zaro uzviyligi qanday ta’minlanadi?

### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus, Xalq ta’limi vazirliklarining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qitiladigan umumta’lim fanlari hamda oliy ta’limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash to‘g‘risida”gi 6/2 4/1-sonli qo‘shma hay’at majlisi Qarori, 2010-yil 1-iyul.
2. O‘zbek tili fani bo‘yicha uzluksiz majburiy ta’lim tizimida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar / O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz majburiy ta’lim tizimining Davlat ta’lim standartlari, 2017-yil 10-aprel.
3. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. O‘zbek tili (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun) // Ta’lim taraqqiyoti. O‘z R Xalq ta’limi vazirligining axborotnomasi, 1-maxsus son. –Toshkent: Sharq, 1999. – 262–302-b.
4. “O‘zbek tili” fani o‘quv dasturi (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun). – Toshkent: RTM, 2017.
5. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 2–9-sinflari uchun amaldagi “O‘zbek tili” darsliklari.
6. Muxitdinova X.S., Nuriddinova D. A., Avlakulov Ya. I. O‘zbek tili (Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 6-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma). – Toshkent: Mitti yulduz, 2013.
7. Muxitdinova X.S. 7-sinfda o‘zbek tili darslari (O‘qituvchi kitobi, ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablar uchun metodik qo‘llanma). – Toshkent: O‘qituvchi, 2013.
8. Muxitdinova X.S. 8-sinfda o‘zbek tili darslari (O‘qituvchi kitobi, ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablar uchun metodik qo‘llanma). – Toshkent: O‘qituvchi, 2006.
9. Tolipova F., Aydarova F. O‘zbek tili (10-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma). – Toshkent: Zamin-nashr, 2020.

## 6-MAVZU. O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMIDA O‘ZBEK TILI MASHG‘ULOTLARINING MAZMUNI

### REJA:

1. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limida o‘zbek tilini o‘qitish mazmuni va tamoyillari.
2. Kasb-hunar kollejlariida o‘zbek tilini kasbiy-sohaviy yo‘naltirib o‘qitishning metodik mazmuni.

**Tayanch tushunchalar:** o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, B1 daraja talablari, sohaviy-kasbiy yo‘nalish, fanlararo aloqadorlik, integratsiyalashgan topshiriqlar, terminlar ustida ishlash, kasbiy leksika, sohaviy matnlar, mutaxassislik yo‘nalishlari, bosqichli ketma-ketlik, iqtisodiy-jo‘g‘rofiy ma‘lumotnomalar.

### 6.1. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limida o‘zbek tilini o‘qitish mazmuni va tamoyillari

Ma‘lumki, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi bosqichi umumiy majburiy ta‘lim bitiruvchilarini muayyan sohaviy-kasbiy yo‘nalish bo‘yicha oliy ta‘lim muassasasiga o‘qishga kirishga tayyorlash yoki muayyan kasb-hunar o‘rgatish vazifalarini bajaruvchi majburiy-ixtiyoriy ta‘lim turi bo‘lib, umumiy o‘rta ta‘limning 9-sinfini tugatgan o‘quvchilar o‘z tanlovlaridan kelib chiqqan holda, 10-sinfda yoki akademik litseylar yohud kasb-hunar kollejlariida o‘qishni davom ettirishlari mumkin. Bu o‘rinda shuni ham qayd etish kerakki, umumta‘lim bosqichida ta‘lim qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, turkman, tojik tillarida olib boriladigan maktablarda tahsil olgan o‘quvchilarning ayrimlari akademik litseylar va kasb-hunar kollejlariining rus guruhlarida, ayrimlari esa ta‘lim o‘zbek tilida olib boriladigan milliy guruhlarda o‘qishni davom ettirmoqdalar. Bu, albatta, ular uchun o‘ziga xos murakkabliklar va ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Yuqorida qayd etganimizdek, “O‘zbek tili” fanidan davlat ta‘lim standartlarining B1 darajasi talablari asosida ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 10–11-sinflari uchun rejalashtirilgan ushbu o‘quv dasturi mazmunini sohaga yo‘naltirilgan holda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun ham asos sifatida joriy etish mumkin. Zero, ta‘lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 10–11-sinflari, akademik

litseylar va kasb-hunar kollejlarning rus guruhlarini bitiruvchilari provard natijada bir xil nutqiy kompetensiyani egallagan bo'lishlari zarur. Biroq o'rta maxsus ta'lim muassasalari rus guruhlarida o'zbek tilini o'qitish mazmuni, shakllari va vositalarida, albatta, kasbiy-sohaviy jihatlardan kelib chiqadigan o'ziga xosliklar ham e'tiborga olinishi kerak bo'ladi.

Ta'lim maqsadidan kelib chiqqan holda, 10–11-sinflar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun “O'zbek tili” fanidan o'quv dasturi mazmuni umumiy asosda (faqat kasb-hunar kollejlari kasbga yo'naltirilgan holda) tavsiya qilinishi maqsadga muvofiq, chunki qayd etilgan barcha ta'lim muassasalari bitiruvchilari yakuniy natijalarda bir xil nutqiy kompetensiyani egallagan bo'lishlari talab etiladi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar, amaliyotchi o'qituvchilar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim bosqichida o'zbek tili ta'limi hozirgi vaqtdagidek umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zbek tilidan beriladigan bilimlarni aynan takrorlamasligi, aksincha, o'zbek tili fanini tanlangan sohaga yo'naltirilishi, bo'lajak kasb-hunarni egallash vositasi sifatida tuzilishi kerakligini, ularda ixtisosiy, kasbiy nutqni ifodalash vositalari berilishi zarurligini ta'kidlaydilar. Aytilganlardan kelib chiqqan holda, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning o'zga tilli (ya'ni rus) guruhlarida o'zbek tilidan beriladigan bilimlar mazmuni quyidagi nutqiy va grammatik mavzularni qamrab olishi maqsadga muvofiq:

**Nutq mavzulari:**

- tanishuv va tarjimai hol
- o'quv muassasasi, ta'lim maskani
- tengdoshlar hayoti, qiziqishlar, intilishlar
- kasblar, hunar va tadbirkorlik
- ilm-fan va texnika
- huquq va burch
- dunyo mo'jizalari
- san'at va madaniyat
- transport
- tarix, bugun va kelajak
- milliy an'analar va udumlar
- ommaviy axborot vositalari
- O'zbekiston sarhadlari
- ekologik muammolar

### **Grammatik mavzular:**

- o‘zbek tilida gap tuzilishi
- ega va kesim, ularning ifodalanishi, gapdagi o‘rni
- egali va egasiz gaplar: shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan, shaxssiz va atov gaplar
- ikkinchi darajali bo‘laklar (aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol), ularning ifodalanishi, gap tarkibidagi o‘rni
- sodda gaplarning murakkablashgan shakli: uyushiq bo‘laklar, ajratilgan bo‘laklar, kirish va kiritmalar, oborotlarda tinish belgilarining ishlatilishi
- qo‘shma gaplarning tuzilishi: teng va ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplar; payt, o‘rin, sabab va maqsad, shart va to‘siqsizlik, o‘xshatish va qiyoslash, miqdor-daraja ma’nolarini ifodalovchi vositalar
- terma gaplar va bog‘lanishli nutq, matn va uning turlari (bayoniy, tavsifiy), matn qismlari haqida ma’lumot
- dialogik va monologik nutq turlari xususiyatlari
- turli nutq uslublari: so‘zlashuv, badiiy, ommabop, rasmiy nutq uslublarga xos lisoniy vositalar
- ma’muriy ish qog‘ozlari, ularning turlari, mazmuni, zaruriy qismlari va rasmiylashtirish qoidalari
- o‘zbek tili punktuatsiyasi qoidalari

Ushbu bilimlar asosida o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi bosqichida rus guruhlarida o‘quvchilarida quyidagi ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi:

- o‘zbek tilida bog‘lanishli matn tuzish va matn ustida ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- nutqning monologik va dialogik shaklida og‘zaki va yozma muloqot yuritish olish, o‘z sohasiga oid kasbiy atamalarni tushunish;
- kasbga oid matnlarni tahlil va tarjima qila olish;
- rasmiy ish yuritish malakasiga ega bo‘lish.

Bu o‘rinda taklif etilayotgan nutq mavzularining muayyan qismini kasbiy yo‘nalishlarga moslashtirib o‘zgartirish, o‘zbek tilidan beriladigan bilimlarni integrativ yondashuv asosida sohaga yo‘naltirib berish maqsadga muvofiqligini ta’kidlash kerak.

Ushbu mavzularni o‘tish barobarida adabiy o‘qishni tashkil etish orqali o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi lug‘at boyligini

o'shirish, o'zbek adabiy tilining me'yorlarini singdirish, ularda Vatanga, xalqiga, el-yurtiga muhabbatli, sadoqatli bo'lish tuyg'ularini singdirish ko'zda tutiladi. O'rta maxsus ta'lim bosqichida mumtoz adabiyotimizning mashhur namoyandalari va o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan "Alpomish", "Kuntug'mish", "Tohir va Zuhra", "Ravshan va Zulxumor", "Go'ro'g'li", "Chambil qamali", "Chambil mudofaasi", "Guldursun" kabi dostonlardan parchalarni, o'zbek adabiyotining taniqli namoyandalardan Cho'lpon, A. Qodiriy, A. Qahhor, Oybek, P. Qodirov, A. Oripov, E. Vohidov, O'. Hoshimov, T. Malik asarlaridan parchalarni dars jarayonida tahlil qildirish, qolgan qismini o'qib kelish va qayta hikoya qilib berish uchun mustaqil uy o'qishi sifatida topshirish maqsadli bo'ladi. Ushbu bosqichda o'zbek tilini o'qitishda shu tarzda kasbga yo'naltirilgan mashq va topshiriqlardan foydalanish, darslik va o'quv qo'llanmalarga integratsiyalashgan topshiriqlarni ko'proq kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

## **6.2. Kasb-hunar kollejlarda o'zbek tilini kasbiy-sohaviy yo'naltirib o'qitishning metodik mazmuni**

Bugungi kunda o'quvchilarga muayyan kasb-hunarga o'rgatishga yo'naltirilgan o'rta maxsus ta'lim muassasalarini barpo etish, ularda kasbiy-sohaviy fanlarni o'qitishga, kasb va hunarlarni amaliy o'rgatishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan bir qatorda o'rta maxsus ta'lim dasturida ko'zda tutilgan fanlar bilan uzluksizlikda, ayni vaqtda kasbiy-sohaviy fanlar bilan uzviy aloqador shaklda davom ettirilishi ko'zda tutiladi. Bunda, albatta, ushbu fanlarni o'qitishda kasbiy-sohaviy jihatlardan kelib chiqadigan o'ziga xosliklar ham e'tiborga olinishi kerak bo'ladi. Jumladan, rus guruhlarida o'zbek tili fanini o'qitishda ham fan mazmuni, shakllari va vositalarini bevosita kasbiy yo'nalishlarga uzviy bog'liqlikda o'tilishi maqsadga muvofiq. Masalan, K.Turdiyevaning tibbiy hamshiralar uchun yaratgan "O'zbek tili" o'quv qo'llanmasida tibbiy terminlar ustida ishlash keng o'rin olganini kuzatish mumkin. Namuna sifatida iqtisodiy yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlarining rus guruhlarini uchun 2006–2007-o'quv yilida yaratilgan va Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi Toshkent hisob-kredit va bank kollejida tajriba-sinovdan o'tkazilib, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qoshidagi Muvofiqlashti-



ruvchi kengash tavsiyasi asosida amaliyotga joriy qilingan “O‘zbek tili” o‘quv qo‘llanmasi mazmunini tahlil qilamiz<sup>42</sup>.

O‘quv qo‘llanma muayyan fikrni ifodalashga bag‘ishlangan 10 ta mavzudan iborat bo‘lib, har bir mavzu bir-biri bilan uzviy bog‘liq nutqiy mavzular asosida 3–5 ta darsga bo‘lib o‘tilishi rejalashtirilgan. Bu o‘quvchilarning o‘zbek tilida avvalgi darsliklarga qaraganda 2–3 barobar ko‘proq mavzularda fikr ifodalashlariga imkon beradi. Ayni paytda 3–5 soat darsning muayyan fikrni ifodalashga bag‘ishlanishi nutqiy muloqot mavzusi doirasidagi leksik minimum, ya‘ni faol so‘zlar va grammatik shakllarni puxta o‘zlashtirish, ularni qo‘llash bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga, ushbu grammatik shakllarning qo‘llanishiga doir nazariy bilimlar bilan tanishib borishga yordam beradi.

Ta’kidlash kerakki, 3–5 soat darsning muayyan fikrni ifodalashga bag‘ishlanishi, ushbu darslarda o‘tiladigan grammatik ma’lumotlarni o‘zaro mazmuniy bog‘liqlikda, izchillikda tushuntirishga va keyingi darslarda ham mustahkamlanib borishiga, berilayotgan faol leksik-grammatik minimumni puxta o‘zlashtirish, nofaol so‘zlarni esa faollashtirib borishga to‘liq shart-sharoit yaratadi. Mazkur o‘quv qo‘llanmada mutaxassislikka oid matnlar va termin, atamalar ustida ishlashga qaratilgan mashq va topshiriqlardan ko‘proq foydalanish ko‘zda tutilgan bo‘lib, mutaxassislikka oid matnlar ustida ishlash jarayonida topshiriqlarni bosqichli ketma-ketlikda, osondan qiyinga qarab izchillikda berishga harakat qilingan. Xususan, har bir mavzu yakunida o‘tilganlarni mustahkamlash darslari tashkil etilib, unda viloyatlar kesimida iqtisodiy-jo‘g‘rofiy ma’lumotnomalar ustida ishlash, shuningdek, adabiy o‘qish bo‘yicha mustaqil uy o‘qishlarining berib borilishi o‘quvchilarning umumiy kasbiy-sohaviy bilimlarini oshirish barobarida o‘zbek tilidagi lug‘at boyligini va bog‘lanishli monologik nutq ko‘nikmasini shakllantirib borishga xizmat qiladi.

Quyida iqtisodiy yo‘nalishdagi kasb-hunar kollejlarning rus guruhlari uchun “O‘zbek tili” fanidan mazkur yo‘nalishda tuzilgan o‘quv dasturining 1- va 2-mavzulari ishlanmalari taqdim etiladi.

**1-mavzu: Terma gaplar va bog‘lanishli nutq. Dialogik va monologik nutq turlari xususiyatlari.**

<sup>42</sup> Muxitdinova X., Madjidova R., Shokirova S. O‘zbek tili (iqtisodiy yo‘nalishdagi kasb-hunar kollejlarning rus guruhlari uchun o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: ILM-Ziyo, 2013. –222-b.

**1. Grammatik bilimlar, ko'nikma va malakalar.** Fikrni bog'lanishli ifodalash. Nutqiy muloqot shakllari: monologik va dialogik nutq, ularda turli vositalardan foydalanish: xabar, so'roq, buyruq, maslahat, istak ma'nolarini ifodalovchi grammatik shakllar, tasdiq gaplar, inkor gaplar, to'liqsiz gaplar, kiritmalar, bunday gaplarda qo'llanadigan grammatik vositalar, ularning imlosi.

**2. Nutqiy muloqot mavzulari.** "Kasbim – faxrim", "Mening Vatanim – O'zbekiston", "Ona yurtim – oltin beshiging", "Vatanim katta imkoniyatlar mamlakati", "Iqtisod nima uchun o'rganiladi?" matnlari ustida ishlash.

**3. Leksik va grammatik minimum.** Shaxs, narsa-buyum va kasb otlari, ot yasovchi qo'shimchalar vositasida mutaxassislik kasbiga oid so'zlarning boshqa so'zlar bilan bog'lanish xususiyatlarini bilish, terma gaplardan bog'lanishli nutq tuzish, dialoglar, monologlar tuzish: *Men kimman? Kimga (nimaga) xizmat qilaman? Soha (kasb) nima uchun kerak?* kabi nutqiy mavzularda faol qo'llanadigan so'z va so'z birikmalari: *olim, muallim, talaba, sardor, fuqaro, mijoz, chevar, muhandis, mutaxassis, posbon, hamshira, farrosh, filolog, dehqon* kabi tub shaxs otlari; *bozor, iqtisodiyot, ijara, haq, kirim, chiqim, kollej, qarz, ulush, hissa, muasasa, dastrulamal, hujjat, bank, talab, ehtiyoj, kredit, tovar, sarmoya, mulk, manfaat, omonat, kompyuter* kabi tub narsa-buyum otlari; *iqtisodchi, hisobchi, loyihachi, buyurtmachi, xaridor, ijarador, ijarachi, sotuvchi, tikuvchi, ip yigiruvchi, konchi, bo'yoqchi, tadbirkor, ta'minotchi, shifokor, sohibkor, kimyogar, zargar, duradgor, darvozabon, mashinasoz, avtomobilsoz, soatsoz, oshpaz, ishbilarmon, hisobdor* kabi yasama shaxs otlari, *-lik, -chilik* qo'shimchalari yordamida ulardan kasb otlari yasash; *bank tizimi, ijara haqi, omonat daftarchasi, talab va taklif, ichki va tashqi bozor, iqtisod yo'nalishi, tadbirkorlik faoliyati, davlatchilik asoslari, davlatchilik tizimi, mutaxassislik yo'nalishi, umumta'lim fanlari, umumkasbiy fanlar, mutaxassis tayyorlamoq, yo'nalish bo'yicha mutaxassis, ehtiyojni o'rganish, ehtiyoj hosil qilish, imkoniyat yaratish* kabi so'z birikmalarini nutqiy muloqotda qo'llash.

**2-mavzu: Matn va uning turlari (bayoniy, tavsifiy), matn qismlari haqida ma'lumot.**

**1. Grammatik bilimlar, ko'nikma va malakalar.** Matn va uning tarkibiy qismlari: kirish, asosiy qism, xulosa, ularni bog'lovchi vositalar: fikrni tasdiqlash, bog'lash, xulosalash, yakun-

lashda qoʻllanadigan kirish soʻzlar va imlosi. Matndan asosiy va qoʻshimcha axborotni topish. Matnni belgi bildiruvchi boʻlaklar yordamida kengaytirish va ixchamlashtirish.

**2. Nutqiy muloqot mavzulari.** “Bobolarimiz ibrati”, “Mustaqillik – buyuk neʼmat”, “Men – Oʻzbekiston farzandiman”, “Maʼnaviy qadriyatlarimiz”, “Biz – XXI asr yoshlarimiz” matnlari ustida ishlash.

**3. Leksik va grammatik minimum.** Fikrni bogʻlanishli ifodalash. Nutqiy muloqot shakllari: monologik va dialogik nutq, ularda turli vositalardan foydalanish: xabar, soʻroq, buyruq, maslahat, istak maʼnolarini ifodalovchi grammatik shakllar, tasdiq gaplar, inkor gaplar, toʻliqsiz gaplar, bunday gaplarda qoʻllanadigan grammatik vositalar. Grammatik va nutqiy muloqot mavzularida faol qoʻllanadigan soʻz va soʻz birikmalari: *tirishqoq, takabbur, masʼuliyatli, halol, buyuk istiqloq, milliy boylik, muhim loyiha, foydali shartnoma, iqtisodiy gʻoya, iqtisodiy siyosat, iqtisodiy qoidalar, iqtisodiy tafakkur, iqtisodiy bilimlar, iqtisodiy malaka, iqtisodiy rivojlanish, kichik mutaxassis, bosh mutaxassis, yirik mutaxassis, malakali mutaxassis, yordamchi mutaxassis, bosh hisobchi, ochiq hisob, shaxsiy hisob, umumiy hisob, erkin raqobat, koʻchmas mulk, kapital qoʻyilma, ishbilarmon rahbar, xalqaro fond.*

Kasb-hunar kollejlari uchun “Oʻzbek tili” darsliklarini shu tarzda mutaxassislik yoʻnalishlariga (chunonchi, iqtisodiy, tibbiy, qishloq xoʻjaligi, huquqiy kabi) muvofiqlashtirib yaratilishi oʻzbek tilining oʻquvchi-talabalarga mutaxassislik tili sifatida ham oʻqitilishiga, yaʼni oʻzbek tili darslarida oʻquvchi-talabalarga sohaviy leksika va kasbiy nutqiy muloqotni kengroq oʻrgatishga yordam beradi.

### **3-mavzu: Miqdor, tartib va vaqtni ifodalash.**

Darslik iqtisodiy yoʻnalishdagi kollejlarda uchun moʻljallanganligi tufayli ushbu mavzuni kengroq, yaʼni 5ta darsga boʻlib oʻtishni rejalashtirish maqsadga muvofiq.

#### **1-dars.**

*Nutq mavzusi: Pul va iqtisod.*

*Leksik-grammatik minimum:* Miqdorni ifodalashda qoʻllanadigan sanoq sonlar, ularning aniq miqdor, taxminiy miqdor, taqsimlash, jamlik maʼnolarini ifodalovchi turlari hamda sonlar bilan qoʻllanadigan hisob soʻzlari (xususan, ot numerativlar), pul

birliklari, bozor, iqtisod, iqtisodiy islohotlar, bank tizimi haqida ma'lumot berish.

*Mustahkamlovchi mashqlar.* Grammatik ma'lumotni mustahkamlash uchun "Bozorda" mavzusidagi suhbat matni, topishmoq matni, son ishtirok etgan maqollar tahlil qildiriladi.


*Matn ustida ishlash.* Ushbu darsda "Bozor va pul", "Pulning paydo bo'lishi", "Xitoy iqtisodiy siyosatining xususiyatlari" matnlari ustida ishlash rejalashtirilgan. Jumladan, "Xitoy iqtisodiy siyosatining xususiyatlari" matni bo'yicha quyidagi savol va topshiriqlarni bajartirish ko'zda tutiladi:

1. *Savollarga javob bering.*

- Xitoyda bozor iqtisodiyotiga o'tish qachon boshlandi?
- Islohot birinchi bo'lib qaysi sohadan boshlangan?
- Yetishtirilayotgan bug'doy dunyoning qancha aholisiga yetadi?

2. *Topshiriqlarni bajaring.*

1. Matndagi sonlarni ma'nolariga ko'ra guruhlab yozing.
2. Nuqtalar o'rniga aniqlovchilar qo'yib gaplarni ko'chiring.
3. Nuqtalar o'rniga aniqlovchili birikmalarni yozib chiqing.

Islohot  .....  
..... ni amalga oshirishga yordam berdi.  
.....

4. Taxminan 160000 birlikmasini yana qanday shaklda aytilish mumkin?

5. Matnni yana bir bor diqqat bilan o'qing. Matndagi asosiy axborotni va qo'shimcha axborotni bildiruvchi abzatlarni aniqlang.

6. Matndagi *birinchidan*, *ikkinchidan* so'zlari qanday ma'noni ifodalayapti?

7. O'zbekistonda bozor iqtisodi qanday yo'l bilan amalga oshirilmoqda? Bu topshiriqlardan ayrimlarini uyga vazifa sifatida topshirish ham mumkin.

## **2-dars.**

*Nutq mavzusi: O'zbekiston taraqqiyot yo'lida.*

*Leksik-grammatik minimum:* Tartib sonlar, ularning qo'llanishi, nutqda kirish so'z sifatida ishtirok etishi haqida ma'lumot berish.

*Mustahkamlovchi mashqlar:* Grammatik ma'lumotni mustahkamlash uchun suhbat matni, leksik-imloviy mashqlar, atamalarni

tavsiflash topshiriqlaridan foydalaniladi. Suhbatni rollarga bo‘lib o‘qish o‘quvchilarning og‘zaki nutqlari va talaffuzlarini yaxshilashga yordam beradi.

*Matn ustida ishlash.* Ushbu darsda “Bank qachon paydo bo‘lgan?”, “Iqtisodiy islohotlar”, “Taraqqiyotning besh tamoyili” matnlari ustida ishlanadi. Jumladan, “Bank qachon paydo bo‘lgan?” matni bo‘yicha quyidagi topshiriqlarni bajartirish nazarda tutiladi:

*Matnni o‘qing. Barcha raqamlarni sanoq va tartib sonlarga ajratib, guruhlab yozing. Talaffuzi va imlosiga e‘tibor bering.*

Ushbu topshiriq bajarilgach, talabalar yana quyidagi savol va topshiriqlar asosida ishlashi kerak bo‘ladi.

1. Matn mazmunini qisqacha so‘zlab bering.
2. Matndagi sonlarni lotin yozuvida yozing va imlodagi farqini ko‘rsating.

3. Lug‘at yordamida ushbu so‘zlarning ma‘nolarini izohlang.

*Chek, tilxat, kongress, garov.*

4. Matndagi atoqli otlarni lotin alifbosi tartibida yozib chiqing.

5. Matndan shaxs otlaridan kasb otlari hosil qiling.

6. Matndan foydalanib, ushbu gaplarni tugallang:

*Bank so‘zi birinchi marta ....*

*Venetsiyadagi bank tizimi ....*

*Birinchi banklar ....*

*.... pul berishning o‘ziga xos tizimi bor edi.*

*Sudxo‘rlar .... garovga olib berganlar.*

*Uyga vazifa* sifatida “Toshkent viloyati” iqtisodiy-jo‘g‘rofiy ma‘lumotnoma matni bilan tanishish va topshiriqlarni bajarish beriladi. Ushbu topshiriqlarda talabalar matndagi ma‘lumotlardan tashqari qo‘shimcha ma‘lumotlar ham to‘plashi, shuningdek, internet ma‘lumotlari va boshqa qo‘shimcha manbalardan foydalanib, Toshkent viloyati sanoati haqida referat yozishlari talab etiladi.

### **3-dars.**

*Nutq mavzusi: O‘zbekistonning milliy valutasini.*

*Leksik-grammatik minimum:* Miqdorni ifodalashda qo‘llanadigan miqdor ravishlari, ularning daraja shakllariga ham egaligi, miqdor ma‘nosining sodda va qo‘shma gaplar vositasida berilishi.

*Mustahkamlovchi mashqlar.* Ushbu darsda grammatik ma‘lumotni mustahkamlash uchun terma gaplardan iborat mashqlardan

foydalanish, “Turkistonda pulning joriy qilinishi”, “Milliy valyuta” matnlari va iqtisodiy atamalar ustida ishlash rejalashtirilgan. Bunda quyidagi kabi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

*Uyga vazifa:* “O‘zbekiston so‘mi” matnini o‘qish va quyidagi topshiriqlarni bajarish maqsadga muvofiq:

1. Matn ma’nosini qisqacha so‘zlab bering.
2. Matnda ajratib ko‘rsatilgan birikmalar ma’nosini izohlang.
3. Har bir abzatsdagi asosiy fikrni ayting.
4. “1994-yil 1-iyul” birikmasining lotin va kirildagi yozilishi qoidalaridagi farqlarni tushuntiring.

#### **4-dars.**

*Nutq mavzusi:* **O‘zbekiston Markaziy banki.**

*Leksik-grammatik minimum:* Miqdor bildiruvchi so‘zlarining vaqtni bildirish maqsadida qo‘llanishi, bunda *daqiqqa (minut)* so‘zining tushib qolishi, o‘zbek tilida vaqtni bildirishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumotnoma berish.

*Mustahkamlovchi mashqlar.* Grammatik ma’lumotlarni mustahkamlash uchun suhbat matni, terma mashqlar, atamalar sharhi kabi ish turlaridan foydalaniladi.

*Matn ustida ishlash.* Ushbu darsda “Markaziy bank”, “Valyutaning almashuv kursi”, “Muqaddas burch” kabi matnlar ustida ishlash maqsad qilib qo‘yilgan. Atamalarni lotin yozuviga o‘girish kabi mashq turini bajarish ham ko‘zda tutiladi. Jumladan, “Valyutaning almashuv kursi” matni bo‘yicha quyidagi savol va topshiriqlar qo‘yilgan:

1. Ushbu savollarga javob berish orqali matnning asosiy mazmunini qisqacha ifodalang:

- Inflyatsiya nima?
- Uning vaqtga aloqasi qanday?
- Valutaning almashuv kursi deganda nimani tushunasiz?
- Valuta kursining barqarorlashuvi inflyatsiyaga qanday ta’sir etadi?

2. Matndan foydalanib, quyidagi gaplarni tugallang:

*Milliy valuta almashuv kursining barqarorlashuvi (nimaning qanday?) yo‘nalishidir. Valuta kursi barqaror bo‘lsa, narxlar (qanday?) bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi banklararo valuta birjasida (qachondan boshlab?) valuta savdolari o‘tkazilmoqda.*

## 5-dars.

**O‘tilganlarni mustahkamlash.** Bu darsda “Bilasizmi?” rukni va iqtisodiy-jo‘g‘rofiy ma’lumotnoma va qiziqarli grammatika mashqlari bajartiriladi. Ushbu darsda Qashqadaryo viloyati bo‘yicha iqtisodiy-jo‘g‘rofiy ma’lumotnoma yuzasidan quyidagi savol va topshiriqlarni bajartirish ko‘zda tutiladi.

1. Viloyatning tashkil topishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Qashqadaryo viloyati tarixi haqida so‘zlab bering.
3. Qashqadaryo qayerda joylashgan?
4. Hozirgi kunda Qashqadaryo xo‘jaligi qay ahvolda?
5. Qarshi shahri qadimda qanday atalgan?
6. Qashqadaryoda qaysi buyuk inson tavallud topgan?
7. Internet va ommaviy axborot vositalaridan olingan ma’lumotlar asosida Qashqadaryo viloyati va Qarshi shahri haqida referat tayyorlang.

8. Matndagi miqdor, tartib va belgi bildiruvchi so‘zlarni aniqlab, o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chirib yozing.

**Adabiy o‘qish.** Ushbu darsda o‘quvchilarni adabiy o‘qish uchun Zahiriddin Muhammad Boburning “Mubayyin” asari haqidagi ma’lumot haqida ma’lumot berish, asardan berilgan parchani o‘qitish hamda uning sharhi bilan tanishtirish; “Boburnoma” asaridan o‘zi tanlagan parchani mustaqil o‘qib kelishni uy vazifasi sifatida topshirish tavsiya etiladi.

Shu tarzda har bir darsda shu mavzuning turli tomonlarini yorituvchi grammatik ma’lumotlar mustahkamlab boriladi. Grammatik ma’lumotlarning darsdan darsga izchillikda o‘stirib borish va o‘zaro uzviylikda berilishi bunga katta imkon beradi. Darslikda talabalarning bevosita o‘zbek tilidagi mutaxassislik nutqini o‘stirishga qaratilgan iqtisodiy mavzulardagi matnlar ustida kengroq ishlash, ularda qo‘llangan faol nutqiy birikmalarning tuzilishini o‘rgatish, o‘quvchilarni o‘zbek tilida so‘zlarning o‘zaro bog‘lanish imkoniyatlari bilan tanishtirish, matn qismlarini bog‘lovchi vositalarni aniqlash yoki o‘zi topib qo‘yish, matnga sarlavha qo‘yish, matndan asosiy axborotni ajratish, matnni abzatslarga bo‘lish va har qaysi abzatsdagi asosiy gapni aniqlash, iqtisodiy atamalarni sharhlash kabi topshiriqlarga keng o‘rin berilgan.

Har bir matn bo‘yicha kamida 5–6 ta topshiriq asosida ishlash rejalashtirilgan bo‘lib, topshiriqlar nutqiy mavzu bo‘yicha ham,

o'tilayotgan va avvalgi darslarda o'tilgan grammatik mavzular bo'yicha ham berib boriladi. Bu matn va unga doir topshiriqlarni to'liq o'zlashtirishga, shu mavzuda o'zbek tilida erkin gaplasha olishga o'rgatadi.

Har bir mavzu oxirida o'tilganlarni mustahkamlash darslari kiritib borilgan bo'lib, bu mazkur darslar jarayonida berilgan lek-sik-grammatik materiallarni takrorlab chiqish imkoniyatini be-radi. Shuningdek, bo'limlar oxirida berib boriladigan viloyatlar bo'yicha **iqtisodiy-jo'g'rofiy ma'lumotnomalar** bilan tanishish va ularga qo'yilgan topshiriqlarni bajartirish o'quvchilarning iqti-sodiy bilimlarini kengaytirish va ularni o'zbek tilida erkin bayon etishga o'rgatadi.

Mustahkamlash darslarini taqdimot darslari sifatida tashkil etish fanlararo aloqani yo'lga qo'yish, o'quvchilarni mustaqil ish-lashga o'rgatib borish, ularning o'z bilimi, dunyoqarashi, o'zining nimaga qodirligini namoyish qilish uchun katta imkoniyat yarata-di, bu esa o'z navbatida darsning qiziqarli o'tishiga va ta'lim sa-maradorligining yuqori bo'lishiga olib keladi.

Buning uchun o'qituvchi semestr boshidanoq guruhda-gi o'quvchilarning har qaysisiga mustaqil ish sifatida bittadan viloyatni taqsimlab berishi maqsadga muvofiq. O'quvchilar har qaysi viloyat bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar to'plab borishlari, so'ngra ushbu ma'lumotlar asosida syujetli rasmlar, slaydlar yoki videolavha tayyorlab, taqdimot paytida ularni namoyish etgan hol-da o'zbek tilida so'zlab berishga tayyorlanishlari kerak bo'ladi.

Bu o'quvchilarning og'zaki monologik nutqlarining rivoj-lanishiga sharoit yaratadi, auditoriya oldiga chiqib nutq so'zlash malakalarini shakllantiradi, shuningdek, o'zbek tili darslarida tex-nika vositalaridan muntazam foydalanishni yo'lga qo'yishga ham katta yordam beradi. Bundan tashqari, mustaqil uy o'qishi sifatida qabul qilinadigan adabiy o'qish materiallarini ham o'quvchilarga o'quv yili yoki semestr boshidayoq e'lon qilish, ularni individual tarzda hafta davomida aniq muddatda qabul qilib borish rus guruh-lari o'quvchilarining davlat tilidan nutq boyligi va umumma'rifiy rivoji uchun juda muhimdir.

Ma'lumotnomalarda respublikamizdagi barcha viloyatlarning iqtisodi, reliefi, foydali qazilmalari, sanoati, qishloq xo'jaligi, mav-jud korxonalari, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot-



lar haqida berilgan ma'lumotlar bo'yicha ishlash nazarda tutilgan. Ma'lumotnoma matnlari bo'yicha berilgan savollar talabalarning fikrlash doirasini kengaytirish, bilimlarini chuqurlashtirishga xizmat qilsa, topshiriqlar o'tilgan grammatik mavzularni mustahkamlashga, faol nutqiy konstruksiyalarni o'zlashtirishga hamda talabalarni mustaqil ishlashga yo'naltiradi. Bunday topshiriqlar va atamalarni o'zbek tilida sharhlatib borish, tayanch va faol so'z birikmalari bilan ishlatish talabalarning kasbiy nutqini rivojlantirishga, ularning o'zlari yashayotgan mamlakatni yaxshiroq bilib olishlariga va shu haqida o'zbek tilida muloqot yurita olishlariga zamin yaratadi.

Darslikda nafaqat O'zbekiston, balki jahondagi barcha mamlakatlar, xususan, qo'shni Yaqin Sharq mamlakatlari, Yaponiya, Xitoy, Tayvan kabi mamlakatlardagi iqtisodiy islohotlar, ushbu mamlakatlarning rivojlanishi, taraqqiyotidagi o'ziga xosliklar, O'zbekistonning ular bilan iqtisodiy hamkorligi haqida ham ma'lumotlar berilgan. Bu talabalarning o'z mutaxassisligi sohasida keng iqtisodiy bilimlarga ega bo'lishlariga, o'zbek tili bilan mutaxassislik fanlariaro aloqalarning rivojlanishiga ham keng imkoniyat yaratadi.

Iqtisodiy atamalar qatnashgan faol so'zlar va so'z birikmalarini ajratib ko'rsatish va sharhlab borish, o'quvchilarning xotirasida ushbu birikmalar, atamalarning mustahkamlanishiga, zarur hollarda ularni o'z nutqida qo'llay olishlariga zamin yaratadi. Ushbu darslik bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari tayanch o'quv rejasidagi 1-blokda berilgan umumta'lim fanlari bo'yicha yaratiladigan darsliklarni ham sohaviy, kasbiy yo'nalishlarga moslab yaratish yuqori samara berishini ko'rsatdi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bosqichi o'quvchilari uchun qanday daraja talablari belgilangan?
2. Kasb-hunar kollejlari o'zbek tilini o'qitishning metodik mazmuni va ta'lim tamoyillari qanday?
3. Akademik litseylar va umumiy o'rta ta'limning 10–11-sinflarida o'zbek tilini o'qitishning mushtarak jihatlari nimada?
4. 10–11-sinflar va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uchun o'zbek tilidan beriladigan bilim, ko'nikma, malakalar mutanosibligi nimalarda namoyon bo'lishi kerak?

5. Til ta'limini kasbiy-sohaviy fanlarga bog'lab, o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'zlab bering.
6. O'zbek tili fanini o'tishda leksik va grammatik minimumlarni taqsimlashda qanday tamoyillarga asoslanish kerak?
7. "O'zbek tili" darslarini bir bosh mavzuga jamlangan 4–5ta kichik mavzularga bo'lib o'tishning qanday metodik afzalliklari bor?
8. Kasb-hunar kollejlari o'zbek tilini kasbga bog'lab o'qitishda iqtisodiy-jo'g'rofiy ma'lumotnomalarning amaliy ahamiyati qanday?

#### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. "O'zbek tili" fanidan o'quv dasturi (OTMLar rus guruhlar uchun). – 2017.
2. Rafiyev A., Niyozmetova R., Dulabov R. O'zbek tili (Kasb-hunar ta'limi kollejlarining rus guruhlar uchun o'quv qo'llanma, qayta ishlangan 2-nashri). – Toshkent, ILM-ZIYO, 2007.
3. Rasulov R., Mirazizov A. O'zbek tili (O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlar uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent – Fan va texnologiya, 2009.
4. Muxitdinova X., Majidova R., Shokirova S. O'zbek tili (Iqtisodiy yo'nalishdagi kasb-hunar ta'limi kollejlarining rus guruhlar uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent, ILM-ZIYO, 2013.
5. Tolipova F., Aydarova F.. O'zbek tili (ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 10-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma). – Toshkent, Zamin-nashr. – 2020.

## **7-MAVZU. OLIY TA'LIMDA O'ZBEK TILINI O'QITISHNING METODIK MAZMUNI**

#### **REJA:**

1. O'zbek tili fanidan OTMLar uchun darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish tamoyillari.
2. Oliy ta'limning filologik va nofilologik yo'nalishlarida o'zbek tilidan BKMLarning tadrijiy o'sishi.
3. Oliy ta'limda o'zbek tilini o'qitishda talabalar mustaqil ijodiy ishlarini tashkil etish.

**Tayanch tushunchalar:** OTMLar bakalavriat yo'nalishi, filologik va nofilologik yo'nalishlar, o'quv fanlari bloklari, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar, umumkasbiy, mutaxassislik va tanlov fanlari, o'zbek tili fanidan DTS talablari, namunaviy va ishchi o'quv dasturlari, o'zbek tili darsliklari, BKMLarning zaruriy me'yorlari, nazariy ma'lumot,

mustahkamlovchi mashqlar, eshitish mashqlari, rivojlantiruvchi mashqlar, mustaqil ishlar, uy o'qishlari, ijodiy ishlar, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar.

### **7.1. O'zbek tili fanidan OTMLar uchun darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish tamoyillari**

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalari mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha, avvalo, filologik (ijtimoiy-gumanitar) va nofilologik (tabiiy fanlar) yo'nalishlarga bo'linadi va oliy ta'lim yo'nalishlari klassifikatorida qayd qilib o'tilgan ixtisoslik sohalari bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydi. Har bir yo'nalish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu o'quv materialini tanlash va ta'lim uslubi-yotini belgilashda, albatta, o'z aksini topadi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlar umummetodologik, ya'ni gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar, umumkasbiy, mutaxassislik va tanlov fanlari o'quv bloklariga ajratiladi va oliy ta'lim o'quv rejasiga binoan har bir fanning o'quv soati aniq belgilab beriladi. Rus guruhlarida o'zbek tili fani har ikki yo'nalishda ham o'quv rejasiga ko'ra birinchi – ijtimoiy-gumanitar fanlar blokiga kiritilgan bo'lib, ushbu blokda o'quv fanlari barcha oliy o'quv muassasalarida bir xil hajmda o'qitilishi rejalashtirilgan. O'zbek tili fani oliy ta'limning bakalavriat bosqichi o'quv rejasida ijtimoiy-gumanitar fanlar blokiga kiritilgan bo'lib, rusiyzabon guruhlarda birinchi bosqichda o'qitiladi.

Oliy ta'lim uzluksiz ta'lim tizimidagi eng yuqori ta'lim bosqichi bo'lgani uchun quyi bosqichlarda o'zbek tilidan egallangan bilimlar umumlashtirilishi, shakllantirilgan ko'nikmalar malakalar darajasiga yetkazilishi kerak bo'ladi. Ushbu bosqich provardida talabalar respublikamizning davlat tilida turli mavzularda mustaqil muloqot yurita olish, o'z fikrini monologik tarzda bog'lanishli bayon qila olish, turli nutq uslublari matn tuza olish malakalariga ega bo'lishi va ularni kundalik turmushda, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning turli jabhalarida, xususan, o'z mutaxassisligi sohasida amaliy qo'llay olish layoqatiga ega bo'lishlari kerak. Har bir fan bo'yicha birxillik va me'yorni ta'minlash maqsadida ishchi o'quv dasturlari uchun yetakchi oliy o'quv yurtlari tomonidan ishlab chiqilgan namunaviy o'quv dasturlari asos hisoblanadi.

Biroq bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, ayrim yo'nalishlar o'zbek tilini ham og'zaki, ham yozma tarzda chuqurroq, kengroq

bilishni taqozo etsa, ayrim mutaxassisliklarda ogʻzaki muloqotning oʻzi yetarli boʻladi. Jumladan, filologik yoʻnalishdagi oliy oʻquv yurtlari filologlar, jurnalistlar, tarjimonlar, oʻqituvchilar, muharrirlarni tayyorlaydi. Bu soha mutaxassislari respublikamizning davlat tilini mukammal bilishlari, nafaqat ogʻzaki muloqot yuritishda, balki yozma nutqda ham savodxon boʻlishlari zarur. Shu bois ushbu yoʻnalishdagi oliy oʻquv yurtlarining rus guruhlarida oʻzbek tili darslarini texnik, iqtisodiy, tibbiy yoʻnalishdagi oliy taʼlim muassasalaridagi kabi qisqa hajmda oʻqitilishi maqsadga muvofiq emas. Shuningdek, huquqshunoslik, diplomatlar, madaniyat va sanʼat xodimlari, kutubxonachilik kabi ayrim ijtimoiy yoʻnalishlar sohalari mutaxassislari ham filologik bilimlarni nisbatan kengroq va chuqurroq oʻrganishlari kerak. Shu bois oliy oʻquv yurtlari oʻz yoʻnalishidan kelib chiqib, ishchi oʻquv dasturiga 30% gacha oʻzgartirish kiritishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.

Bugungi kunga kelib barcha fanlar qatori oliy taʼlim muassalarining rus guruhlariga uchun oʻzbek tili fanidan oʻquv qoʻllanmalar va darsliklarni yaratishda yangicha tamoyillarni qoʻllashga harakat qilish holatlari ham kuzatilmoqda. Xususan, nofilologik oliy oʻquv yurtlarining turli yoʻnalishlari uchun chop etilgan darsliklar va oʻquv qoʻllanmalarda yangilikka intilish, sohaga oid qiziqarli va mazmunli matnlar tanlash, ushbu matnlar ustida ishlashga jiddiy eʼtibor berishga harakat qilinmoqda. Biroq darslik va oʻquv qoʻllanmalarni yaratishda nutqiy mavzularning namunaviy dasturga mos boʻlishiga katta eʼtibor qaratilgani holda, ularning quyi bosqichlarda oʻtilgan mavzular bilan oʻzaro muvofiqligi masalasi, yaʼni ushbu darsliklar maktablar, litsey va kollejlarda darsliklarining davomi boʻlishi kerakligi, taʼlimning ushbu bosqichida bilimlar qay yoʻnalishda rivojlantirib borilishi masalalari esa eʼtibordan chetda qolmoqda.

Taʼlim islohotining sifat bosqichi oʻzbek tili mutaxassislari oldiga “Oliy taʼlimda “Oʻzbek tili” darsliklari qanday boʻlishi kerak?” degan dolzarb masalani qoʻymoqda. Bizning fikrimizcha, oliy taʼlim bosqichidagi rus guruhlariga uchun yoziladigan “Oʻzbek tili” darsliklariga quyidagicha talablar qoʻyilishi maqsadga muvofiq boʻladi:

1. Oliy taʼlim darsliklarida oʻzbek tili fanining mazmuni quyi taʼlim bosqichida oʻtilgan bilimlarning tadrijiy davomi va mavzulararo uzviylik saqlangan holda yoritilishi kerak.

2. Talabalarning bilimlarida o'sish bo'lishi uchun "O'zbek tili" darsliklarda beriladigan materiallar guruhlardagi bilim darajasi yuqori bo'lgan talabalarga mo'ljallanishi kerak. Shunda o'zbek tilini u yoki bu darajada nisbatan yaxshiroq biladigan talabalar ham dars jarayonida bo'sh o'tirmay, o'z bilim va malakalarini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

3. Darsliklarda mashqlar va topshiriqlarning ko'proq berilishi, yangi pedagogik texnologiyalarning aks etishi, talabalarning o'z ustlarida ishlashlari uchun mustaqil ishlar bo'yicha maxsus topshiriqlar, ijodiy ishlar, vaziyatli topshiriqlar, qiziqarli grammatik o'yinlar ham berib borilishi maqsadga muvofiq. Bu – talabalarning fanga qiziqishlarini oshiradi, o'z ustlarida mustaqil ishlab, bilimi yuqori bo'lgan talabalarga yetib olishi uchun imkoniyat yaratadi.

4. Mashqlar osondan qiyinga o'sib boruvchi tamoyil asosida tuzilishi, mashqlardagi matnlar hajmining o'ta katta bo'lishini chegaralash, aksincha, topshiriqlarni ko'paytirish va tizimlashtirish maqsadga muvofiq. Bitta matnga bir necha marta murojaat etish, hatto keyingi darslarda ham shu matn materiallaridan foydalanishni yo'lga qo'yish faol leksik-grammatik minimumni mustahkamlash, nofaol minimumni faollashtirish uchun shart-sharoit yaratadi.

5. Darslikdagi mashqlar va topshiriqlarni oson va murakabligi darajasiga ko'ra reyting tizimida baholash (ya'ni oson mashqlarga pastroq, qiyin mashqlarga yuqoriroq ball qo'yish)ni rejalashtirib qo'yish talabalarni bosqichma bosqich tarzda barcha mashq va topshiriqlarni bajarib borishga intilishlariga, o'z ustida mustaqil ishlashlariga imkon yaratadi.

6. Darslik hajmining o'ta kichik bo'lishi va uning muayyan sahifa bilan chegaralab qo'yilishi ham maqsadga muvofiq emas. Ayni paytda darsliklarning juda katta bo'lib ketmasligi uchun ayrim qo'shimcha materiallarni alohida elektron variantlarda disk-larga joylashtirgan holda darslikka qo'shimcha material sifatida tavsiya etish maqsadga muvofiq. O'qituvchilar uchun mavzular bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, metodik tavsiyalarni ham elektron variantda disklarda qo'shib berilishi mumkin.


Ushbu muhim vazifani amalga oshirish uchun, xususan, oliy ta'lim bosqichida berilishi rejalashtirilgan bilimlar ta'limning uzluksizlik va rivojlantiruvchi tamoyillari asosida quyi ta'lim bosqichlaridan mazmuniy uzviylikda o'sib chiqadigan, ayni paytda

oliy ta'lim yo'nalishlariga mos, talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun yordam beradigan bo'lishiga erishish zarur bo'ladi.

## 7.2. Oliy ta'limning filologik va nofilologik yo'nalishlarida o'zbek tilidan BKMLarning tadrrijiy o'sishi

Oliy ta'lim muassasalari filologik va nofilologik yo'nalishlarida talabalar o'zbek tilidan egallashlari ko'zda tutiladigan bilim, ko'nikma va malakalarning tadrrijiy o'sib borishini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

### Oliy ta'limda o'zbek tilidan bilim, ko'nikma, malakalarning tadrrijiy o'sib borishi



Jadvalda ko'rsatilganidek, 10–11-sinflarda va o'rta maxsus ta'limda o'quvchilar o'zbek tilining asosiy morfologik va sintaktik xususiyatlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi. Oliy ta'lim bosqichida o'zbek tilining nutq uslublari xususiyatlarini – ilmiy, publitsistik va rasmiy-idoraviy uslubni amaliy o'rgatish, talabalarni ixtisosliklari bo'yicha matnlarda faol

qo‘llanadigan nutqiy qoliplar, ularning sintaktik-sinonimik variantlari bilan tanishtirish va ish jarayonida foydalana olishga, o‘z fikrlarini o‘zbek tilida erkin ifodalashga o‘rgatish rejalashtiriladi.

OTMLar bakalavriat yo‘nalishi rus guruhlariga uchun Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqashtiruvchi Kengashning 2017-yil 18-avgustdagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma‘qullangan “O‘zbek tili” fanidan namunaviy o‘quv dasturida fanning vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan<sup>43</sup>:

- talabalar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish;
- talabalar og‘zaki va yozma nutqida sohaviy terminlarni samarali qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ixtisoslikka oid matn tuzish, uni tahrir va tahlil qilish malakalarini hosil qilish;
- sohaviy hujjatlarni tuzish, shu jumladan, elektron hujjatlarni to‘ldirish va rasmiylashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- o‘zbek adabiy tili me‘yorlari, nutq uslublari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish;
- kasbiy terminologiyani, og‘zaki va yozma nutq xususiyatlarini bilish va ulardan foydalana olish;
- matn tuzish, uni tahlil va tahrir qilish, sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish, kasbiy muloqot yuritish ko‘nikma-malakalariga ega bo‘lishlari kerak.

Ushbu vazifalar namunaviy fan dasturida ko‘rsatib o‘tilgan 45 ta mavzu doirasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Namunaviy fan dasturi barcha yo‘nalishlar va mutaxassisliklar uchun davlat tilidan me‘yoriy hujjat sanaladi hamda talabalar o‘zbek tilidan egallashlari shart bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarning zaruriy me‘yorlarini belgilab beradi.

<b>Mavzular</b>	<b>Nutq kompetensiyasi bo‘yicha</b>	<b>Lingvistik kompetensiya bo‘yicha</b>
1-mavzu.	O‘zbekiston – yagona Vatan	Orfoepiya qoidalarini
2-mavzu.	O‘zbek tili – Davlat tili	O‘zbek tilining imlo qoidalarini
3-mavzu.	Milliy qadriyatlar – millat iftixori	O‘zbek tilida so‘z yasalishi
4-mavzu.	Tarix va zamonamiz	O‘zbek tilining leksik qatlamlari

<sup>43</sup> “Ўзбек тили” фанидан ўқув дастури (ОТМлар рус гуруҳлари учун). – 2017.

5-mavzu.	Ulug' ajdodlarimiz	Atamalar va ularning vujudga kelishi
6-mavzu.	Vatan va vatanparvarlik	Ijtimoiy-siyosiy leksika
7-mavzu.	Muzeylar – o'tmish va kelajak orasidagi ko'prik	Sohaviy terminlar va ularning qo'llanishi
8-mavzu.	Kelajak bilimli yoshlar qo'lida	O'zbek tilida sinonimlar
9-mavzu.	Zamonaviy dunyoda ta'lim	Til va terminologiya
10-mavzu.	Kitob mutolaasi	Erkin va turg'un birikmalar
11-mavzu.	O'zbekiston Milliy kutubxonasi	Frazeologik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari
12-mavzu.	Adabiyot – ma'naviyat o'chog'i	Nutq uslublari. Badiiy uslub.
13-mavzu.	Ommaviy axborot vositalari	Publitsistik uslub xususiyatlari
14-mavzu.	Internet hayotimizda	Og'zaki-yozma uslub xususiyatlari
15-mavzu.	O'zbekiston va jahon	Rasmiy diplomatik uslub xususiyatlari
16-mavzu.	XXI asrda innovatsiyalar	Ilmiy uslub va uning xususiyatlari
17-mavzu.	Davrimiz global muammolari	Maqola va uning turlari
18-mavzu.	Tabiat va inson	Intervyu olish va intervyu berish
19-mavzu.	Inson va salomatlik	Reportaj tayyorlash
20-mavzu.	Huquqiy madaniyat	Rasmiy-idoraviy uslub xususiyatlari
21-mavzu.	O'zbekistonda oliy ta'lim	Uslubiy xoslangan va betaraf so'zlar
22-mavzu.	Oliygohimiz hayotidan	So'zlashuv uslubi. Shevaga xos so'zlar
23-mavzu.	Bo'lajak kasbim	Matn va uning ko'rinishlari
24-mavzu.	Hayot mening tasavvurimda	Dialogik matn xususiyatlari
25-mavzu.	Ustoz maktabi	Monologik matn
26-mavzu.	Kasbim tarixi	Soha terminlarining lug'atda berilishi
27-mavzu.	Iqtidor va mehnat	Matnga so'z va termin tanlash
28-mavzu.	Etuk mutaxassis	Matn tahlili va tahriri
29-mavzu.	Kasb bayrami	Matnning tarkibiy qismlari
30-mavzu.	Sharq akademiyalari	Referat matni
31-mavzu.	Ilm sari yo'l	Taqriz matni
32-mavzu.	Rfsb etikasi	Annotatsiya matni
33-mavzu.	Nutq odobi	Me'yor tushunchasi
34-mavzu.	San'at va ma'naviyt	San'atshunoslik terminlari
35-mavzu.	Men sevgan asar	Badiiy tasvir vositalari
36-mavzu.	Iqtisod va hayot	Iqtisodiy terminlar



Dasturda 37-mavzudan boshlab, rasmiy ish qog‘ozlarini yozish bo‘yicha yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan quyidagi mavzular berilgan:

- 37-mavzu. “Ish yuritish tili va uslubi”
- 38-mavzu. “Hujjat turlari va xususiyatlari”
- 39-mavzu. “Tashkiliy hujjatlar va ularning turlari”
- 40-mavzu. “Farmoyish hujjatlari va ularning turlari”
- 41-mavzu. “Ma’lumot-axborot hujjatlari”
- 42-mavzu. “Ishonchnoma. Tilxat. Tushuntirish xati”
- 43-mavzu. “Dalolatnoma. Ma’lumotnoma”
- 44-mavzu. “Majlis bayoni. Hisobot”
- 45-mavzu. “Xizmat yozishmalari. Xatlar”

Oliy ta’lim muassasalari bakalavriat bosqichi rus guruhlari uchun ishlab chiqilgan namunaviy dastur asosida G.Asilova tomonidan yaratilgan “O‘zbek tili” darsligi<sup>44</sup> avvalgi darsliklardan ham mazmuniy tuzilishi, ham topshiriqlar tizimi bilan tubdan farq qiladi. Darslik materiallari 3 yo‘nalishdagi: nutq mavzulari (1–26-mavzular), rasmiy ish yuritish hujjatlari (27–37-mavzular) va mutolaa bo‘limlaridan iborat bo‘lib, so‘nggi bo‘limda talabalarning mustaqil o‘qishi uchun rejalashtirilgan asarlar berilgan.

Darslikda har bir mavzu doirasida matnni o‘qish, so‘zlab berish, davom ettirish, kengaytirish, matnga reja tuzish, uni abzatlarga ajratish, sarlavha qo‘yish, matndagi asosiy fikrni ifodalash; rasm, reja, ayrim gaplar asosida matn tuzish, shuningdek, gaplarni, so‘z birikmalarini va matnni tarjima qilish kabi 20ga yaqin tizimli topshiriqlar berib borilgan.

Bular orasida nutq mavzusi bo‘yicha berilgan matnlar ustida ishlashga yo‘naltirilgan gaplarni to‘ldirish, tushirilgan so‘zlar va so‘z birikmalarini o‘rniga qo‘yib yozish, savollarga javob berish, sinonim, antonimlar, iboralarning ma‘nolari ustida ishlash kabi topshiriqlar, shuningdek, grammatik topshiriqlarni bajarishga yordamchi nazariy ma’lumot va darslikning mutolaa bo‘limidan muayyan asarni mustaqil o‘qishga doir topshiriqlar ham kiritilgan. Bu oliy ta’limda ham quyi bosqichlarda ko‘zda tutilgan ***nutq mavzusi – grammatik ma’lumot – adabiy o‘qish*** konsentrlari uzviyligi ta’minlanishiga olib keladi.

---

<sup>44</sup> Asilova G..A. O‘zbek tili (oliy ta’lim bakalavriat yo‘nalishi rus guruhlari uchun darslik). – Toshkent: Yosh kuch, 2010.

Darslikning “Ish yuritish tili va uslubi” deb nomlangan 2-bo‘limida rasmiy uslubga xos xususiyatlar, ish hujjatlarining turlari, ularni yozish va rasmiylashtirish qoidalari bilan tanishtirish ko‘zda tutiladi. Ma’lumki, yuqori – 10–11-sinflarda o‘quvchilarga ma’muriy hujjatlarning tarjimai hol, ariza, tushuntirish xati, ma’lumotnoma, bayonnoma, e’lon, taklifnoma turlari haqida ma’lumot berilgan. O‘rta maxsus ta’lim bosqichida esa o‘quvchilarga ma’muriy hujjatlar bilan bir qatorda ayrim mutaxassislikka oid ish hujjatlari ham o‘quv dasturga kiritilgan.

Uzluksizlik tamoyilidan kelib chiqib, OTM uchun o‘zbek tili darsligiga tashkiliy, farmoyish, ma’lumot-axborot hujjatlari va xizmat yozishmalari turlariga kiradigan hujjatlarni o‘rgatish rejalashtirilgan va 10 ta mavzu (27–37-mavzular) doirasida ushbu hujjatlar haqida nazariy ma’lumotlar, hujjatlarni tuzish qoidalari, hujjatlarning zaruriy qismlari, hujjatlarda qo‘llanadigan terminlar va nutq qo‘liplari bilan tanishtirish ko‘zda tutiladi, hujjatni to‘g‘ri tuzish ko‘nikmalarini shakllantirishga oid mashq va topshiriqlar berib borilgan. Biroq ushbu mavzularni o‘tish jarayonida adabiy o‘qish masalasida uzilish yuzaga kelganini ko‘rish mumkin. Bizningcha, o‘quv materiallarini strukturalashtirishda nutq mavzusi – grammatik ma’lumotlar – adabiy o‘qish materiallarini o‘zaro uyg‘unlashtirib berishga e’tibor qaratish asosida darslik tuzilmasini yanada optimallashtirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Ma’lumki, ikkinchi tilni o‘qitishda ham xorijiy tillar ta’limidagi kabi nutq faoliyati turlari yuzasidan muayyan ko‘nikma-malakalar shakllantirilishi va rivojlantirib borilishi kerak. Biroq o‘zbek tili darslarida odatda o‘qish, yozish va so‘zlab berishga ustuvor ahamiyat berilgani holda, tinglab tushunishga doir mashq va topshiriqlar deyarli bajartirilmaydi. Aksariyat “O‘zbek tili” darsliklarida ham nutq faoliyatining bu turi bo‘yicha topshiriqlar kiritilmagan. Faqat O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti rus guruhlari talabalari uchun 2006, 2012-yillarda chop etilgan va amalda qo‘llanayotgan “O‘zbek tili” darsligida **eshitish mashqlari** ruknida tizimli topshiriqlar turkumi kiritilgan bo‘lib, unda topshiriqni audiotasma orqali eshitish yoki o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qib eshittirilishi ko‘zda tutilgan<sup>45</sup>.

<sup>45</sup> Muxitdinova X.S., Salisheva 3.I., Po‘latova X.S. O‘zbek tili (oliy o‘quv yurtlari rusiyzabon guruhlari uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 288-b.

Talabalarning lugʻaviy boyligini oshirish, yozma savodxonligini nazorat qilish va oʻzbek tilidagi orfoepik talaffuz meʼyorlarini yaxshilash, qoidalarini amaliy qoʻllay olishga oʻrgatishda tinglab tushunish mashqlarining oʻrni nihoyatda katta boʻlib, ularni audio-vositalarni qoʻllagan holda muntazam oʻtkazib turish juda samarali natija beradi. Tinglab tushunishga oid matnlar audiotasmalar yoki oʻqituvchining oʻzi tomonidan ifodali oʻqib eshittiriladi. Bunday topshiriqlar 3–5 daqiqa vaqt ichida bajartiriladi va talabalar bilimini joriy baholab borish, ularning yozma nutqlarini ham nazorat qilib borish, husnixat malakalarini shakllantirishga, oʻqituvchilar tomonidan talabalarning daftarlarini vaqti-vaqti bilan nazorat qilib turilishini ham taʼminlashga katta yordam beradi.

Maʼlumki, oʻzbek tili darslari oʻquv rejasiga binoan barcha taʼlim bosqichlarida haftada faqat bir marta 2 soatgina oʻtilishi rejalashtirilgan. Bu adabiy oʻqish materiallaridan dars jarayonida keng foydalanish imkonini bermaydi, albatta. Shu bois asarning davomini uy oʻqishi sifatida mustaqil oʻqish uchun berish va berilgan topshiriqlarni darsdan tashqari vaqtlarda qabul qilishni amaliyotga kiritish rusiyzabon talabalarning hafta davomida oʻzbek tili bilan mustaqil tarzda muntazam shugʻullanib borishlariga ham omil boʻladi.

Quyida filologik yoʻnalishdagi oliy oʻquv yurtlarining rus guruhlari uchun Muvofiqlashtiruvchi kengash tavsiyasi asosida darslik sifatida tavsiya etilgan “Oʻzbek tili” darsligining tuzilmasi haqida maʼlumot beramiz [130]. Darslik muayyan fikrni ifodalashga yoʻnaltirilgan 10 ta boʻlimdan iborat boʻlib, har bir boʻlim quyidagi qismlarni oʻz ichiga olgan:

**Nazariy maʼlumot.** “Bilib oling!” ruknlarida mavzu boʻyicha grammatik maʼlumotlar va qoidalar oʻzbek tilida qisqa berilib, jadvallar vositasida mustahkamlanib borilishi, nazariy maʼlumotlarni “Ushbu birikmalarni eslab qoling”, “Esab qoling” ruknlari orqali toʻldirib borish koʻzda tutildi. Ushbu ruknlarni mavzuning turli oʻrinlarida berib borish mumkin.

**Mustahkamlovchi mashqlar.** Suhbat matnlaridan, terma gaplar, shuningdek, oʻtilgan grammatik mavzuga mos lisoniy vositalar koʻp qoʻllangan bir tilli va ikki tilli mashqlardan iborat boʻlib, ularga nokommunikativ (bevosita til materialini mustahkamlashga oid) va kommunikativ (ushbu til materiallarini nutqiy vaziyatlarda qoʻllashga oid) topshiriqlar qoʻyilishi nazarda tutil-

gan. Mustahkamlovchi mashqlar grammatik mavzudan oldin ham, keyin ham berib borilgan bo‘lib, bunda qiyosiy va tarjima mashqlaridan keng foydalanishga tilni amaliy o‘zlashtiruvchi vosita sifatida, ayniqsa, katta ahamiyat berilgan.

**Nutqiy mavzu ustida ishlash.** Kompleks ish turi bo‘lib, talabalarni bitta muayyan nutqiy mavzu bo‘yicha fikrlashga, o‘z fikrini mustaqil tarzda o‘zga tilda ifodalashga o‘rgatishga qaratilgan. Bunda bir dars yoki bir necha dars bitta nutqiy mavzuga bag‘ishlanishi nazarda tutilgan bo‘lib, ushbu matnga qo‘yilgan topshiriqlar, berilgan savollar asosida ham o‘tilgan grammatik ma‘lumotlarni mustahkamlash, ham muayyan nutqiy mavzu bo‘yicha suhbatlashish ko‘zda tutildi. Matnlarga qo‘yilgan savol va topshiriqlar matn mazmunidan, o‘tilgan grammatik mavzulardan kelib chiqib tanlangan, ular orasida, hatto ancha oldin o‘tilgan mavzular bo‘yicha ham topshiriqlar bor. Bu leksik-grammatik minimumni puxta o‘zlashtirib va faollashtirib borish uchun qulay shart-sharoit yaratadi, chunki matn ustida savol va topshiriqlar qancha ko‘p bajarilsa, matn shunchalik oson va chuqur o‘zlashtiriladi. Topshiriqlarda lug‘at ustida ishlash, grammatik topshiriqlarni bajartirish, matnni davom ettirish, matndan asosiy va qo‘shimcha fikrlarni aniqlashga doir ijodiy topshiriqlar berib borilishi ham ko‘zda tutildi, biroq bunda matnlar hajmining katta bo‘lib ketmasligiga jiddiy e‘tibor qaratildi.

**Rivojlantiruvchi mashqlar** talabalarning mantiqiy fikrlash jarayonini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar tizimidan iborat bo‘lib, ularga turli vaziyatli topshiriqlar, qiziqarli grammatika mashqlari (boshqotirmalar, rebuslar), test topshiriqlari kabi ish turlari kiritilgan. Bunday mashq turlari nafaqat ta‘limiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo‘lib, talabalarning iqtidorini aniqlash, dunyoqarashini kengaytirish, fanga qiziqishini oshirishga katta yordam beradi.

**Adabiy o‘qish.** Ilmiy-nazariy va metodik adabiyotlar tahlilida o‘zbek tili ta‘limida adabiy o‘qish materiallarining berib borilishi rusiyzabon o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, mavzuga doir faol leksik-grammatik minimumni mustahkamlash va, ayni paytda, nofaol leksik-grammatik minimum zahirasini to‘plab borishga yordam berishi haqida to‘xtalib o‘tgan edik. Haqiqatan ham, adabiy o‘qish materiallari tili o‘rganilayotgan mamlakat, til sohiblarining hayoti, madaniy-ma‘naviy qarashlari, milliy xusu-

siyatlari bilan tanishish imkoniyatini beruvchi, o'quvchilarda umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish vositasi hamdir. Aynan yuqori ta'lim bosqichlarida adabiy o'qishni kuchaytirish, o'quvchi-talabalarni adabiy asarlarni asliyatida mustaqil o'qishlar til o'rganishda muhim o'rin tutadi. O'zbek tili darslarida adabiy o'qish materiallari talabalarda quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi:

– o'quvchilar nutqiga faol leksik-grammatik minimum bilan bir qatorda nofaol minimumni ham kiritib borish va shu orqali talabalarning so'z boyligini oshirish;

– o'qilgan adabiy asarlarni qayta hikoyalash orqali rusiyzabon talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirish;

– asarlardan parchalarni ifodali o'qitish, she'rlarni yod aytirish orqali rusiyzabon talabalar o'zbekcha talaffuzini yaxshilash;

– asar matnidan mavzuga oid nutqiy konstruksiyalarni aniqlash va tahlil qilish orqali egallangan bilimlarni mustahkamlash va ularning amaliy qo'llanishini o'rgatish;

– o'zbek tilining boy leksik va uslubiy imkoniyatlarini ko'rsatish orqali rusiyzabon talabalarni o'zbek tiliga qiziqitirish;

– o'zbek xalqining boy madaniy-adabiy merosi, buyuk namoyandalari bilan yaqindan tanishtirish;

– o'qilgan asarlardagi qahramonlarga tavsif berish orqali o'zbek xalqiga xos xususiyatlari, boy tariximiz, xalqimizning yuqori madaniy saviyasi, milliy-ma'naviy qadriyatlari, urf-odatlari bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi.

Qayd etilgan samarali natijalarga erishish adabiy o'qish bo'yicha beriladigan materiallarni bosqichma-bosqich rivojlantirib borishni taqozo qiladi. Aytish joizki, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda darsdan tashqari adabiy o'qishlarini tashkil etish o'zbek tili mashg'ulotarining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, bu orqali o'quvchi-talabalarning lug'at boyligini o'stirish, o'qish va gapirish kompetensiyalarini rivojlantirishga erishish mumkin.

Ma'lumki, o'zbek tili darslari o'quv rejasiga binoan barcha ta'lim bosqichlarida haftada faqat bir marta 2 soatgina o'tilishi adabiy o'qish materiallaridan dars jarayonida keng foydalanish imkonini bermaydi, albatta. Biroq oliy ta'limda talabalarning mustaqil ishlariga katta e'tibor berilishini ko'zda tutish va asarning davomini talabalarga mustaqil o'qish uchun topshirish, asarni qayta hikoya qilish va u yuzasidan berilgan boshqa topshiriqlarni

darsdan tashqari vaqtlarda qabul qilish mumkin. Bu rusiyzabon talabalarning hafta davomida o'zbek tili bilan mustaqil tarzda muntazam shug'ullanib borishiga ham omil bo'ladi. Adabiy o'qish materiallariga qo'yilgan topshiriqlarda asar muallifi, asar mazmuni bilan bog'liq vazifalarni berib, talabalarga shular yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar bilan tanishish va ularni mustaqil ish sifatida topshirishni tavsiya etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun darslik so'ngida "Mustaqil o'qish uchun" qismi berilgan bo'lib, ushbu qismda darslikka kiritilgan asarlardan qo'shimchalar va ularning mualliflari haqida ma'lumotlar, qo'shimcha she'riy asarlar kiritilgan.

Adabiy o'qish uchun berilgan asar g'oyasiga munosabat bildirish, asar qahramonlarini tavsiflash yuzasidan davra suhbat, bahs-munozara tashkil etish; hozirgi kunning dolzarb masalalari bo'yicha intervyu berish; mustaqil mashg'ulot o'tish, ishlab-chiqarish yig'ilishini boshqarish yoki soha xodimi sifatida og'zaki rasmiy nutqlar namoyishini ko'rsatuvchi taqdimotlar, matbuot konferensiyasini o'tkazish kabi interfaol metodlar vositasida tashkil etish talabalar monologik nutqini o'stirishda nihoyatda katta samara beradi. Shuningdek, adabiy o'qish uchun berilgan asarlar bo'yicha rolli o'yinlarni tashkil etish talabalarning monologik nutqini rivojlantirishda katta samara beradi. Tizimli ravishda olib borilgan bunday ishlar talabalarning og'zaki nutqida sezilarli o'zgarishlar vujudga kelishiga olib kelishi bilan birga ularning o'zbek tiliga qiziqishlarini ham oshiradi.

### **7. 3. Oliy ta'limda o'zbek tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ijodiy ishlarini tashkil etish**

Oliy ta'limda mustaqil ishlar o'qitishning eng muhim metodlaridan biri bo'lib, u talabalarning mashg'ulotlarga tayyorlanishi, olingan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash jarayonida o'z individual faolligini oshirishni ham qamrab oladi. Ma'lumki, o'zbek tili bakalavriat bosqichida faqat haftada bir marta 2 soat hajmida o'qitiladi. Albatta, ikkinchi til ta'limi uchun bu yetarli emas, chunki tilni puxta va intensiv o'zlashtirish u bilan deyarli har kuni shug'ullanishni taqozo etadi. Albatta, ikkinchi til ta'limi uchun bu yetarli emas, chunki har qanday til haftasiga kamida 2 marta o'qitilgandagina samarali natija beradi. Shu bois mustaqil ishlarni to'g'ri tashkil etish va ularni nazorat qilishni yaxshi yo'lga

qo'yish o'qituvchining rusiyzabon talabalar bilan haftasiga kamida 2 marta bevosita shug'ullanishiga, talabalarning o'zlarini esa o'zbek tili bilan deyarli kunda shug'ullanishlariga zamin yaratadi.

Talabalarning dars jarayonidagi va darsdan tashqaridagi faoliyatini uyg'unlashtirib borish o'tilgan mavzularni darsdan tashqari mustaqil bajargan ishlari vositasida mustahkamlanib borilishiga, individual topshiriqlarni bajarish orqali ayrim talabalarning boshqalaridan ilgarilab ketishiga, tilga bo'lgan qiziqishining ortishiga ham olib keladi. Aytish joizki, ushbu jarayonlarning barchasi o'qituvchining bevosita rahbarligida olib boriladi, o'qituvchining o'quvchi-talabalarning fikrlarini qo'llab-quvvatlash, bevosita va bilvosita ta'sir etish orqali ularning faoliyatini va dars mashg'ulotini ko'zlangan maqsad tomonga yo'naltirib turish funksiyasini hech kim bajara olmasligini tan olish lozim.

Ma'lumki, dars jarayonida bajariladigan mustaqil ishlar o'qituvchi tomonidan boshqarilib turiladi, nomuvofiqlik sezilishi bilan metod o'zgartiriladi. Ammo darsdan tashqari uyga vazifa sifatida beriladigan mustaqil ishlarga o'qituvchi tomonidan faqat yo'l-lanma beriladi, xolos. Talabalarning darsdan tashqaridagi mustaqil ishlarini yo'lga qo'yish uchun esa, odatda, har bir mavzu uchun alohida metod tanlanadi. Talabalarning mustaqil ishini to'g'ri bajarishi uslubiy ko'rsatmalar va o'qituvchi tomonidan beriladigan yo'l-yo'riqlarga bog'liq bo'ladi. Shu bois boshqa fanlar qatori "O'zbek tili" fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmuada talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqiladi. Rus guruhlarida o'zbek tilidan bilim darajasi turlicha bo'lgan talabalarning tahsil olishi ta'lim jarayonini ancha qiyinlashtiradi. Mustaqil ishlar talabalarga ularning bilim darajasiga mos topshiriqlar berish, bilim darajasi past talabalar bilan individual shug'ullanish orqali ularning boshqa talabalarga yetib olishlariga imkoniyat yaratishga yordam beradi.

Shuningdek, mustaqil ishlarni to'g'ri tashkil etishning asosiy shartlaridan biri ularni nazorat qilish va baholashni to'g'ri yo'lga qo'yishdir. Nazorat ishlariga jiddiy qaramaslik, berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida va talab qilingan shaklda so'rab baholab bormaslik, darsdan tashqari ishlarni ikkinchi darajali ishlar deb tushunish talabalarning topshiriqlarni bajarishga loqayd munosabatda bo'lishlariga va fanga qiziqishlarining pasayishiga olib keladi.

O'zbek tili darslarining haftasiga bir marta o'tilishini, til ta'limi uchun bu yetarli emasligini nazarda tutib, aynan auditoriyadan tashqari vaqtlarda bajariladigan mustaqil ishlar uchun topshiriqlarni ko'proq berish, talabalarning muntazam **uy o'qishlarini** tashkil etish va ularni haftasiga bir marta belgilangan jadval asosida darsdan tashqari individual tarzda qabul qilib borishni yo'lga qo'yish ta'lim samaradorligini oshirishga katta yordam beradi. Bu o'rinda ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda har chorak davomida bittadan nasriy asarni uy o'qishi sifatida mustaqil o'qib, so'ng sinfdan tashqari vaqtda mazmunini hikoya qilib berish topshirig'i alohida nazorat turiga kiritilganini ham ko'rsatib o'tish mumkin.

Auditoriyadan tashqari mustaqil ishlash jarayonida talabalarining bilimi va javoblarigina emas, balki ularning mustaqil fikrlashi, faolligi darajasi ham baholanishi kerak bo'ladi. Bu esa talabalarning faolligini, ayniqsa, mustaqil ishlashga bo'lgan qiziqishlari va intilishlarini oshiradi. Uzoq yillik pedagogik amaliyotimizda shu yo'nalishda olib borilgan ishlar talabalarning dars va darsdan tashqaridagi faoliyatini uyg'unlashtirishga, darsda o'tilgan mavzularni darsdan tashqari mustaqil bajargan ishlari vositasida mustahkamlanib borishiga, ayrim talabalarning individual topshiriqlarni bajarish orqali hatto boshqa talabalardan ilgari lab ketishiga, o'zi bajargan ishlaridan ruhlaniishi natijasida tilga bo'lgan qiziqishining ortishiga ham olib keldi. Dars jarayonidagi mustaqil ishlar o'qituvchi tomonidan boshqarilib turiladi, nomuvofiqlik yoki pasayish sezilishi bilan metod o'zgartiriladi. Ammo darsdan tashqari uyga vazifa sifatida beriladigan mustaqil ishlarga esa o'qituvchi tomonidan faqat yo'llanma beriladi, xolos. Talaba qolgan ishlarning barchasini o'zi bajaradi. Talabalarning darsdan tashqaridagi mustaqil ishlarini yo'lga qo'yish uchun esa odatda har bir mavzu uchun alohida bir metod tanlanadi.

**Ijodiy ishlar** ham talabalarning o'qigan, ko'rgan, eshitganlari asosida yoziladigan mustaqil ishlar bo'lib, odatda, uy vazifasi sifatida beriladi. Har qanday fanning rivoji egallangan bilimlarni yangi bilimlar bilan boyitish, hosil qilingan ko'nikmalarni malakalarga aylantirishni taqozo etadi. Jumladan, quyi ta'lim bosqichlarida hosil qilingan gap tuzish, o'z fikrini 7–8 tagacha gaplar vositasida bog'lanishli ifodalash ko'nikmalarini matn yaratish darajasiga olib chiqish talabalarga murakkab sintaktik butunliklarni o'rgatish,



talabalarni o‘zbek tilining sintaktik-sinonimik variatsiyalaridan o‘rinli foydalana olish malakalarini hosil qilishga yo‘naltirilgan holda davom ettirish zarur.

Ijodiy ishlarni tashkil etishda guruh bilan birgalikda teatrlar, muzeylarga, shuningdek, Xotira maydoni, Milliy bog‘, Mustaqillik maydoni, Istiqlol maydonlariga, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarga sayohatlar uyushtirishning, sayyor darslarni tashkil etishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Bunday sayohatlarni videolavhalar yordamida amalga oshirish ham mumkin. Biroq sayohat-darslardan so‘ng, albatta, suhbat o‘tkazish va talabalarning fikrlarini aniq maqsadlarga yo‘naltirish ijodiy ishlarning samarali bo‘lishiga olib keladi. Auditoriyadan tashqari olib boriladigan bunday mashg‘ulotlarning mazmun-mohiyati, bir tomondan, talabaning monologik nutqini rivojlantirishga qaratilsa, ikkinchidan, til o‘rgatish orqali talabalarga milliy qadriyatlarimiz, milliy ma’naviyatimiz, milliy istiqloq g‘oyalari bilan amaliy faoliyat davomida tanishish va ularni o‘zlashtirishdan iborat.

Umuman, oliy ta‘lim bosqichida mustaqil uy o‘qishlari va ijodiy mashqlariga ustuvorlik berish bilan bir qatorda dars jarayonida tizimli topshiriqlardan keng foydalanish talabalarning fikrlash qobiliyatini, so‘z boyligini o‘stirish va bog‘lanishli monologik so‘zlash kompetensiyalarini rivojlantirishga katta yordam beradi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Oliy ta‘lim muassasalari mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha qanday turlarga bo‘linadi?
2. Tayanch o‘quv rejaga ko‘ra oliy ta‘lim muassasalari qanday o‘quv bloklariga ajratiladi?
3. Oliy ta‘lim muassasalari uchun o‘zbek tili fanidan o‘quv qo‘llanmalar va darsliklarni modernizatsiyalash tamoyillari nimalardan iborat?
4. Oliy ta‘lim muassasalari filologik va nofilologik yo‘nalishlarida o‘zbek tilidan beriladigan bilim, ko‘nikma va malakalar qay tarzda o‘stirib boriladi?
5. OTMLar bakalavriat yo‘nalishi rus guruhlarini uchun “O‘zbek tili” fanidan namunaviy o‘quv dasturida qanday asosiy vazifalar belgilangan?
6. Dastur mazmunida qanada nutq kompetensiyalari va lingvistik kompetensiyalar qayd etilgan?
7. Sizingcha, oliy ta‘limda o‘zbek tilini o‘qitish shakllari va zamonaviy “O‘zbek tili” darsliklari qanday bo‘lishi kerak?

8. Oliy ta'limning ishchi o'quv dasturida talabalarning mustaqil ijodiy ishlari qay shaklda rejalashtiriladi?
9. OTMlarda o'zbek tilini o'qitishda mustaqil ishlar mazmuni nimalarni qamrab oladi?
10. O'zbek tilida mustaqil ijodiy ishlarni nazoratdan o'tkazishning qanday shakllari mavjud?

### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Олий таълим: Меъёрий ҳужжатлар тўплами. 2-қисм. – Тошкент: Шарқ, 2003. –731-б.
2. Общеввропейские компетенции владения иностранным языком: изучение, обучение, оценка. – М.: Изд-во МГЛУ (русская версия), 2003. – С. 25-6.
3. “Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 343-sonli Qarori, 2000-yil 16-avgust.
4. Qurbonova G. Tibbiyot institutlarining rus guruhlarida “O'zbek tili” fanini o'zlashtirish jarayonida talabalarning ixtisosiy nutqi ustida ishlash metodikasi: Ped. fan. nom. ... dis. – T., 1998. – 7-b.
5. Qodirov M. O'zbek tilidan programma (doriilfununlar fakultetlarining rus guruhlariga uchun). – Toshkent, 1990. –19-b.
6. Rasulov R., Usmonova M., Mirazizov M. O'zbek tili (Oliy o'quv yurtlari rus guruhlariga talabalariga uchun darslik). – Toshkent: TDP, 2003.
7. Muxitdinova X.S., Salisheva Z. I., Po'latova X.S. O'zbek tili (oliy o'quv yurtlari rusiyazbon guruhlariga uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2012. –288 b.
8. Mirqosimova M., Alimova Sh., Zoitova O., Umarova N. O'zbek tili (texnika universitetining rusiyazbon talabalariga uchun). – Toshkent: TDTU, 2004.
9. Turdiyeva K., Ahmedova D. O'zbek tili (tibbiyot oliy o'quv yurtlari rusiyazbon guruhlariga uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent, Yangi asr avlodi. – 2006.
10. Asilova G.A. O'zbek tili (oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishi rus guruhlariga uchun darslik). – Toshkent: Yosh kuch, 2010.

## 8–MAVZU. O‘ZBEK TILI TA‘LIMIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

### REJA:

1. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda grammatik materiallarni tanlash va taqsimlash tamoyillari.
2. Lingvistik kompetensiyani shakllantirishda grammatik qoidalar ustida ishlash.
3. Grammatik ko‘nikmalarni mustahkamlashga qaratilgan leksik-grammatik mashqlar.

**Tayanch tushunchalar:** an’anaviy lingvistik tamoyil, kommunikativ tamoyil, lingvistik kompetenya, faol leksik-grammatik minimum, nofaol leksik-grammatik minimum, tanlash tamoyili, lisoniy materiallar, taqsimlash tamoyili, lisoniy materiallar, murakkablik darajasi, grammatik qoidalar, uzluksiz mashqlar, grammatik qoidalarning berilishi, nutq qurilmalaridan foydalanish.

### 8.1. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda grammatik materiallarni tanlash va taqsimlash tamoyillari

Qayd etganimizdek, tillarni o‘qitishda tilni chet tili sifatida va ona tili sifatida o‘qitish metodikasi farqli bo‘lib, ona tili an’anaviy lingvistik tamoyilda, chet tili va ikkinchi til ta‘limi esa til ko‘nikmalarini egallashga qaratiladi va kommunikativ tamoyil asosida o‘qitiladi. Bunda o‘quv dasturlari va darsliklar mazmuni nutq mavzulari asosida bo‘limlarga ajratiladi va til o‘rganuvchilarni shu mavzu doirasida og‘zaki va yozma muloqot yuritishga o‘rgatish maqsad qilib qo‘yiladi.

O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda o‘quv dasturlari va darsliklari kommunikativ tamoyil asosida nutqiy mavzular bo‘yicha bo‘limlarga ajratilgan bo‘lib, jumladan, uzluksiz ta‘lim tizimining asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan umumiy o‘rta ta‘lim bosqichining ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun o‘zbek tili fanidan tuzilgan o‘quv dasturlarida har bir mavzu bo‘yicha o‘quv materiali quyidagi tartibda berilishi rejalashtirilgan:

- nutqiy mavzular;
- nutq qurilmalari yoki leksik-grammatik minimum;
- grammatik ma’lumotlar;
- adabiy o‘qish materiallari.

Bu o‘zbek tili dasturlari va darsliklarida nutqiy mavzularning yetakchilik qilishiga, grammatik ma’lumotlarning esa yordamchi vosita sifatida berilishiga olib keldi. Albatta, tillarni o‘rganishda va nutq o‘stirishda nutqiy mavzularining ahamiyati katta. Nutqiy mavzular yordamida o‘quvchilar muayyan mavzularda fikr bayon qilish malakalarini egallay boshlaydilar. Biroq ayrim metodistlar fikricha, “...*bir mavzudan boshqa mavzuga o‘tish sakrashlar tarzida sodir bo‘layotgani uchun o‘quvchilar navbatdagi mavzuni katta zo‘riqishlar bilan egallash qiyinchiligiga duch kelmoqdalar... Leksik va grammatik jihatdan birinchisi ikkinchisiga, ikkinchisi uchinchisiga va hokazo yaqin keladigan, bir-birini rivojlantiradigan mavzulargina rusiyabon o‘quvchilarning o‘zbekcha nutqini o‘stirishga yordam beradi... Dasturlarda mavzular izchilligiga, osondan murakkabga qarab o‘rganilayotgan leksik va grammatik vositalarning murakkablashib borishiga, bir-biriga yaqin mavzularning ketma-ket kelishiga yetarlicha e‘tibor berilmagan. Darsliklarda ham bu masalada ayrim islohotlarni amalga oshirish taqozo etiladi*”<sup>46</sup>.

Hozirgi kunda respublikamiz ta‘lim bosqichlari uchun o‘zbek tilidan yaratilgan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarda dasturga mos tarzda nutqiy mavzular berilgani holda grammatik ma’lumotlar o‘rtasidagi izchillik, uzviylikning ta‘minlanishiga jiddiy e‘tibor qaratilmagan: ularning ayrimlarida grammatik ma’lumotlar yo‘l-yo‘lakay qo‘shib ketilgan, xolos. Hatto ba‘zi qo‘llanmalarda grammatik ma’lumotlarni mustahkamlashga qaratilgan mashq yoki topshiriqlar ham berilmagan. Ayrim darsliklarda esa grammatik ma’lumotlar nutqiy mavzuga bog‘lanmagan holda an‘anaviy-lingvistik izchillikda berilgan holatlar ham mavjud.

Mavzuviylik leksikani bir mavzu doirasida jamlab borishda qulaylik tug‘diradi, lekin bir mavzudan ikkinchi mavzuga o‘tganda, oldingi o‘rganilgan leksikadan keyingi mavzularda deyarli foydalanilmasligi faol leksik minimumni puxta o‘zlashtirmaslikka olib kelishi tabiiy. Ikkinchi til ta‘limida, xususan, o‘zbek tilini o‘zga tilli guruhlarda o‘qitishda boshlang‘ich sinflar, umumiy o‘rta ta‘lim, kasb-hunar ta‘limi, oliy ta‘lim bosqichlari uchun faol

<sup>46</sup> Раупхўжаева М. Ўзбек тили ўқув фанидан ЎММ яратишда нутқ ўстириш мавзуларидаги узвийлик // Узлуксиз таълим жараёнини ўқув методик мажмуалар билан таъминлаш муаммолари: Респ. илм.-амал. конф.мат.лари. – Тошкент, 2001. – 228–230-б.

va nafaol leksik-grammatik minimumni aniqlash bugungi kunning eng muhim va dolzarb masalalaridan biridir.

Haqiqatan ham, til birliklarini nutqiy muloqotda qo'llash darajasini hisobga olgan holda toifalarga taqsimlash va shu taqsimot asosida ularni o'quv materiali tarkibiga kiritish ta'limda takrorlar, qaytariqlar bo'lmasligiga, til ta'limining uzviyligini ta'minlash orqali ta'limni bosqichlararo uzluksizlik asosida tashkil qilinishiga va ta'lim samaradorligiga erishishga olib keladi. Ikkinchi tomondan, faol minimumni o'quvchi-talabalar nutqiga singdirish, nafaol minimumni faol minimumga aylantirish ko'nikma-malakalarini shakllantirish o'quvchilarning nutqini o'stirishning eng muhim omillaridan biridir.

“O'zbek tili” dasturlarida har bir nutqiy mavzu bo'yicha nutqiy qurilmalar sifatida ajratib ko'rsatilgan leksik-grammatik vositalar – so'zlar, so'z birikmalari va gaplarni faol minimumga kiritish mumkin. Biroq umumiy o'rta ta'lim bosqichida faol leksik-grammatik minimumlar ko'rsatib berilgani holda, nafaol minimum masalasiga kam e'tibor qaratilgan. Ko'pchilik mutaxassislar o'quv dasturlarini tuzishda faol minimumni ajratib ko'rsatsalar-da, nafaol minimum masalasiga to'xtalmaydilar, chunki passiv minimumni aniqlash oson emas.

Nafaol leksik minimum ham aslida mashqlar uchun berilgan bog'lanishli matnlar va adabiy o'qish materiallari orqali kiritib boriladi. Biroq nafaol leksik minimumni chegaralash, ya'ni so'zlarni murakkabligi va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiqligiga ko'ra muayyan sinflar bo'yicha taqsimlash masalasini jiddiy o'ylab ko'rish kerak. Albatta, o'zgalarni nutqini tushunish va o'zbek tilida o'z fikrini ifoda qila olish uchun o'quvchi yoki talaba bevosita muloqot uchun kerak bo'ladigan til materialini yaxshi egalashi kerak.

Ma'lumki, odatda faol minimumdan nutq faoliyatining barcha to'rt turida, nafaol minimumdan esa tinglab tushunish va o'qishda foydalaniladi. To'laqonli nutqiy muloqot faoliyati uchun faol material bilan bir qatorda nafaol material bilan ham yaxshi tanish bo'lish talab qilinadi. Shu jihatdan qaraganda, so'z boyligini oshirishda o'zbek tili darslarida beriladigan adabiy o'qish materiallari ustida ishlashni retseptiv mashqlar deb hisoblash mumkin, biroq adabiy o'qish uchun berilgan matnlar grammatik mavzu bilan bog'lanmasa va o'tilgan grammatik qoidalarni takrorlashga

xizmat qilmasa, ushbu matn tarkibidagi soʻzlar faol minimumga aylanmaydi.

Oʻzbek tilidan oʻquv dasturlari va darsliklarida nutqiy mavzulargagina eʼtibor qaratilib, grammatik bilimlarni berishda uzviylikka va uzluksizlikka rioya qilmaslik oʻquvchi-talabalarning egalagan bilimlari tarqoq boʻlib qolishiga olib keladi. Kommunikativ tamoyil yoʻnalishida yozilgan darsliklar koʻproq oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirish, ogʻzaki nutqini oʻstirishga qaratilgan boʻlib, faqat zarur hollardagina grammatik qoidalar berib boriladi. Bu esa oʻquvchi-talabalarning oʻrganilayotgan grammatik shakllar va vositalarning mazmun-mohiyatini, ularning nutqdagi oʻrni, boshqa grammatik kategoriyalar bilan aloqadorligi, qoʻlanishdagi amaliy ahamiyati haqida yetarli maʼlumotlarga ega boʻlmay qolishlariga olib keladi. Oqibatda ular oʻz xatolarining sababi nimada ekanligini bila olmaganliklari tufayli ushbu xatolarni toʻgʻrilash yoʻllarini ham bila olmaydilar.

Xususan, mavzuviylikning yetakchilik qilishi natijasida bir darsda tartib sonlar haqida, keyingi darsda esa feʼllarning oʻtgan zamon shakli haqida maʼlumotlar berib ketish kabi noizchilik holati tilning grammatik tuzilishi, grammatik kategoriyalarning mazmun-mohiyatini anglab yetmaslik, ularning qoʻllanishi, yondosh grammatik shakllar bilan farqli jihatlarini tushunmaslik oqibatlariga, provard natijada esa bu oʻquvchilarda oʻrganilayotgan tildagi grammatik shakllar va vositalarni nutq jarayonida vaziyatga mos holda farqlab ishlatish koʻnikma-malakalari shakllanmay qolishiga olib kelmoqda.

Tillarni oʻrgatishda grammatik bilimlarni nutqiy namunalar (modellar) vositasida taqdim etish orqali til oʻrganuvchilarni nutqqa oʻrgatish ham ancha keng tarqalgan tamoyillardan biri hisoblanadi. Bunda namuna sifatida ajratilayotgan va faol minimumga kiritilayotgan nutqiy birlik ogʻzaki va yozma nutqda koʻp takrorlanadigan, yaʼni matnlarda qoʻllanish chastotasi yuqori boʻlishi kerak. Albatta, faol grammatik minimumlarni ajratishda nutqiy namunalardan foydalanish, yaʼni tanlab olingan hodisaning boshqa shu kabi tuzilmalarni hosil qilishi uchun andoza boʻlib xizmat qila olishi juda muhim.

Darsda bayon etilayotgan materiallarning oʻquvchilar tomonidan yaxshi oʻzlashtirilishiga erishmoqchi boʻlgan oʻqituvchi oʻtilgan mavzular natijasida oʻquvchilarda shakllangan koʻnikma-

lar darajasini, o'quv materiallari, grammatik kategoriyalar haqida o'quvchilarda ona tili fani orqali muayyan tushuncha hosil qilingan yoki qilinmaganligini, ushbu material ilgari o'tilgan o'quv materiali bilan qanchalik bog'liqligini hisobga olishi kerak. Til materiallarini mantiqiy izchillik bilan bayon etish o'tilgan materialni navbatdagi o'quv materiali bilan, yangi materialni undan oldingi materiallar bilan bog'lab tushuntirishni talab qiladi. O'quvchilar tomonidan o'zlashtirib olingan til materiallariga tayangan holda yangi materialni bayon etish ular o'rtasida muayyan bog'lanishning hosil bo'lishiga, o'quvchilarning yangi materialni osonroq va tezroq bilib olishiga, dars jarayonida bilib olingan narsalarni tez-tez eslab turish, uni yangi material bilan bog'lab borish esa o'quvchilarning o'quv materiallarini puxta bilib olishiga sabab bo'ladi. Shu tarzda o'zbek tili darslarida nazariya bilan amaliyotning o'zaro bog'liqligini ta'minlash mumkin.

Kommunikativ tamoyilda tilni sof amaliy maqsadlarda o'qitish, ya'ni o'quvchilarni biron-bir mavzuda erkin fikrlash va so'zlashishga o'rgatish maqsad qilib qo'yiladi. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda, avvalo, lingvistik kompetensiya, ya'ni fonetik, leksik va grammatik bilimlarni bilish muhim ahamiyatni kasb etadi. Chunonchi, fonetika orqali tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, urg'uni to'g'ri qo'yish va intonatsiyalar o'rganilsa, leksika orqali so'zlar, so'z birikmalari, iboralar o'rganiladi. Grammatika orqali esa so'z birikmalari, turli xil gaplarning tuzilishi, zamonlarning moslashuvi o'rganiladi. Bunda o'quvchi-talabalarga ot, sifat, son kabi sof grammatik mavzularni emas, balki biron-bir nutqiy mavzuda so'zlashish, muayyan fikrni ifodalash uchun zarur bo'ladigan nutqiy qurilmalar o'rgatiladi, grammatik qoidalar esa, faqat nutqiy ehtiyojdan kelib chiqib beriladi. Shuning uchun har bir mavzu bo'yicha beriladigan fonetik, leksik, grammatik (morfologik va sintaktik) bilimlar til sathlari bo'yicha emas, balki kompleks holda berilib, o'quvchilarni 4 ta asosiy amalga: tinglab tushinish, so'zlash, o'qish va yozishga o'rgatish ko'zda tutiladi.

Natijada ushbu yo'nalishda tuzilgan o'quv dasturlari va darsliklar, o'quv qo'llanmalarda o'zbek tilidan berilgan grammatik ma'lumotlar quyi ta'lim bosqichlarida o'tilgan grammatik mavzular bilan uzviy bog'lanmay, tarqoq holda beriladi. Jumladan, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning rus guruhlariga uchun o'zbek tilidan ushbu tamoyil asosida tuzilgan amaldagi

o'quv dasturlarida faqat nutqiy mavzularning berilishigina uzviy-lashtirilgan bo'lib, har bir mavzu kichik mavzuchalarga ajratilgan hamda mashg'ulotlarni asosan ushbu mavzular bo'yicha o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro suhbatlari asosida tashkil etish ko'zda tutilgan. Biroq faqat suhbat matnlaridan foydalanishning o'zi o'quvchining tilni yaxshi egallashi va savodxon bo'lishini ta'minlay olmaydi.

O'quvchi-talabalar faqat tayyor matnlarni takrorlab gapirish-nigina emas, balki o'z fikrlarini ifodalay olishga o'rganishlari ham kerak, ya'ni ularga matndan ot, sifat, sonni topishni emas, balki muayyan fikrni ifodalash vositalaridan kompleks foydalangan holda matn tuza olishni o'rgatish kerak bo'ladi. Hozirgi kunda til ta'limida keng tatbiq qilinayotgan ideografik aspekt yo'nalishida qayd qilinganidek, o'quvchi tayyor matnlarni qismlarga bo'lgan holda tahlil qilib emas, balki *"til tokchalaridan o'ziga zarur vositalarni topib"*, ya'ni vaziyatga mos fikrni turli usullar vositasida aniq ifodalashga o'rganib borishlari kerak<sup>47</sup>. Shu bois kommunikativ tamoyilning funksional-semantik yo'nalishida muayyan fikrni boshqa bir tilda ifodalash uchun leksik, morfologik, semantik vositalardan kompleks tarzda foydalana olishga o'rgatish ko'zda tutiladi. O'zbek tili ta'limiga mazkur yo'nalishni olib kirgan R.Tolipovanning fikricha, *"ushbu metodika o'quvchida qiziqish (motivatsiya), faollik, ijodiylik va mustaqillikni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, o'quvchi grammatik vositalarni tushunib qo'llaydi, tanlab ishlatadi"*<sup>48</sup>. G.Ahmedovanning o'z tadqiqot ishi asosida *"so'zni harakatda ko'rish uchun nutqqa nisbatan funksional-semantik tamoyilni tatbiq etish ma'qul, chunki o'quvchi so'z birikmalari va turli xil gaplar namunalari asosida yasama so'zlarni funksional qirralari jihatidan ham, semantikasi jihatidan ham amaliy va faol o'zlashtiradi, ya'ni funksional-semantik tamoyil to'lig'icha namoyon bo'ladi"*<sup>49</sup> degan xulosaga kelishi ham shu fikrni isbotlaydi.

---

<sup>47</sup> Mahmudov N. Til ta'limi va stilistika // J. Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2009. – 1-son. – 3–9-b.

<sup>48</sup> Толипова Р. XXI асрда тил ўқитиш истиқболлари ҳақида // XXI асрда ўзбек тили таълими масалалари: Ўзбек тили доимий 9-анжумани мат-лари. – Т., 2007. – 192–193-б.

<sup>49</sup> Аҳмедова Г. Ўзбек тили дарсларида ўқувчилар нутқини ясама сўзлар билан бойитишнинг методик асослари (таълим рус тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Пед. фан. ном. дис. –Тошкент, 2006. – 122-б.



Funksional-semantik tamoyilda aynan shu maqsadni amalga oshirish maqsad qilib qo'yilgan bo'lib, shundan kelib chiqqan holda hatto mavzular ham sof grammatik tarzda emas, balki semantik (ma'noviy) nuqtai nazardan nomlanadi (ya'ni mavzularni "Sifat", "Sifatning ma'no turlari" yoki "Sifat darajalari" deb emas, balki "Insonning tashqi qiyofasini yoki xususiyatlarini tavsiflash", "Narsa-buyumlarni tasvirlash" yoki "O'rinni, maqsadni ifodalash" kabi nomlash rejalashtiriladi) va sifatlarning o'zini emas, muayyan fikrni ifodalashdagi amaliy qo'llanishini o'rgatish ko'zda tutiladi. Shuni qayd etib o'tish kerakki, har bir ma'noviy (semantik) mavzuni o'tishda bir necha grammatik shakl qo'llanishi mumkin. Masalan, "Tabiatni tasvirlash" mavzusi bo'yicha fikr ifodalashda nafaqat sifat yoki ot turkumidagi so'zlar, balki ot, fe'l, ravish, ravishdosh, olmosh, ko'makchi va bog'lovchilardan, tasviriy ifodalardan ham foydalaniladi. Shuning uchun o'quvchilarga muayyan fikrni ifodalash uchun zarur bo'ladigan barcha: fonetik, leksik, grammatik vositalar kompleks tarzda beriladi va o'quvchilarning qo'yilgan maqsadga muvofiq muayyan nutqiy ko'nikmalarga ega bo'lishlari maqsad qilib qo'yiladi.

Ko'rinadiki, mazkur tamoyilda grammatik mavzularning ham muayyan bir izchillik asosida o'qitilishi nazarda tutiladi, ammo bu izchillik o'zbek tilining tizimli grammatikasi asosida emas, balki funksional-semantik nuqtai nazardan, ya'ni muayyan ma'noga bog'liq fikrni ifodalash yo'llari, usullaridan kelib chiqib belgilanadi. O'quvchilarga muayyan fikrni ifodalash uchun zarur bo'ladigan barcha so'z turkumlariga oid leksikani o'z ichiga olgan nutqiy birliklar beriladi. O'quvchilarning so'zlarni alohida leksik birliklar sifatida mexanik ravishda yod olish yo'li bilan emas, balki muayyan grammatik shakllarda, ajratib ko'rsatilgan nutqiy qurilmalar tarkibida o'zlashtirib borilishi, ushbu qurilmalarni nutqiy vaziyatga mos ravishda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish ko'zda tutiladi. Biroq ushbu tamoyilni ta'limning yuqoriroq bosqichlarida o'quvchilar ma'lum so'z va grammatik bilimlar zahirasiga ega bo'lgandan keyin qo'llash maqsadga muvofiq.

Ma'lumki, muayyan tilni o'rganish va unda to'g'ri nutq tuza olish, albatta, shu tilning tuzilishi, sathlari va har bir sathga aloqador grammatik qoidalarini bilish va ularni o'z o'rnida amaliy to'g'ri qo'llash talab etiladi. Demak, chet tillarni va ikkinchi tilni o'rganishda nutqni to'g'ri tuzish va yuzaga chiqarish grammatik

ma'lumotlar va qoidalarsiz amalga oshmaydi. Biroq ikkinchi til ta'limida nazariy ma'lumotlarni berish tartibi tilni ona tili sifatida o'qitishdan ham, chet tili sifatida o'qitishdan ham farqli bo'lib, bunda o'rganilayotgan tilning morfologik tipologik xususiyatlari ham katta o'rin tutadi.

G.Ahmedova rusiyzabon o'quvchilarning nutqini o'stirishga doir izlanishlarida bilimlarini muvaffaqiyatli ravishda mustahkamlash, leksik-semantik aloqalar tizimi sifatida o'rganish darajasida tashkil etilgan taqdirdagina yuqori samaraga erishish mumkinligini quyidagicha ta'kidlaydi: *"Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, lug'at ishidagi bartaraf etish qiyin bo'lgan kamchiliklardan biri shuki, so'zning har bir ma'nosi asosan ayrim-ayrim sinflarda o'rganiladi, ma'nolar ko'pincha bir tushuncha atrofida birlashmaydi, natijada noto'g'ri o'zlashtiriladi, binobarin, tez unutilib ketadi."*<sup>50</sup>

Darhaqiqat, so'zlarning takroriy ishlatilish chastotasini ta'minlashda mutlaqo noqulay bo'lgan mavzuvilik tamoyiliga berilib ketish ham, islohotdan oldingi darsliklardagi kabi nazariy grammatik ma'lumotlarning o'zini alohida izchillikda rejalashtirish ham o'zbek tili ta'limida samaradorlikka olib kelmadi. Bizningcha, ushbu muammoning echimi – biryoqlamalilikdan voz kechishda, ya'ni ta'lim tamoyilini to'g'ri tanlagan holda ham nutqiy mavzular, ham grammatik ma'lumotlarning o'zaro mazmuniy uzviyligi va ta'lim bosqichlariaro uzluksizligini ta'minlashdadir. Shuningdek, ayrim metodist olimlarning ishlarida ikkinchi tilni grammatik qoidalarsiz, faqat muayyan turdagi gap qurilmalari, modellarini o'zlashtirish g'oyasi ham ilgari surildi.

Haqiqatan ham, ikkinchi til ta'limida nutq qurilmalaridan foydalanish qator uslubiy qulaylik va ustunliklarga ega. Muayyan fikrni ifodalashda, ya'ni ma'lum bir grammatik mavzu bo'yicha eng ko'p qo'llanadigan nutqiy qurilmalarning o'quvchilarning diqqatini jalb qilish uchun ajratib berilishi mavzuning nisbatan tezroq o'zlashtirilishiga, mazkur nutqiy modellarning o'quvchilar xotirasida uzoq saqlanib qolishi va nutqda faolroq qo'llanishiga olib keladi. Ammo til o'zlashtirishda nutqiy modellardan foydalanishni yagona vosita sifatida talqin qilish va boshqa turdagi metodik usullarni nazardan chetda qoldirish samarali natijalarga olib kelmaydi. Faqat nutqiy qurilmalarni, ularning qo'llanishini ajratib ko'rsatib berishning o'zi tilni mustahkam o'zlashtirish uchun ye-

<sup>50</sup> Ахмедова Г. Ўша манба, 79-б.

tarli bo'la olmaydi, shu bois tilga o'rgatishda faqat nutqiy qurilmalarning o'zi bilangina cheklanib qolish maqsadga muvofiq emas. Grammatik ta'limni ma'lum andozalar – nutqiy qoliplar, model-lar (so'z birikmalari, muayyan tuzilishdagi gaplar) vositasida o'zlashtirish tillarni o'rganishda faqat ilk samarani berishi mumkin, xolos. Psixolingvistik nazariyotda nutqiy faoliyat ko'nikmalarini egallashda grammatik bilimlar inkor qilinmaydi, aksincha, grammatik bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish va qo'llash muhim omil ekanligi, tilga o'rgatishda o'quvchilarning qaysi shakl yoki vositalar qanday mazmunni ifoda qilishga qodir ekanligini anglab olishi o'ta muhim ekanligi ta'kidlanadi.

Ma'lumki, nutqiy ko'nikmalar 3 xil: grammatik, leksik va talaffuz ko'nikmalariga asoslanadi. Ularning barchasi nutqiy ko'nikmada bir butun holda namoyon bo'ladi. Bunda, ayniqsa, leksik va grammatik ko'nikmalar o'zaro uzviy aloqada bo'ladi. Grammatik ko'nikmalar nutqiy birliklarning morfologik-sintaktik jihatdan to'g'ri rasmiylashtirilishini ta'minlaydigan avtomatlashgan nutqiy faoliyatni yuzaga keltirish qobiliyatidir. Nutqda grammatik shakllarning yetarli darajada tezkorlik bilan to'g'ri qo'llanishi leksik ko'nikmalarning qanchalik shakllanganiga, ya'ni so'zlovchining o'ziga kerakli so'zlarni qanchalik tez tanlay bilishi va o'zaro birliktirib, nutqda ulardan foydalana olishiga bog'liqdir.

Ko'rinadiki, tilni o'zlashtirish leksik, grammatik bilimlarni uyg'unlashtirgan holda qo'llashni taqozo etadi. Shu bois o'zbek tilidan amaliy mashg'ulotlarda til materiallarini taqsimlashda *til tizimi sathlarining o'zaro aloqadorligi bosh xususiyat* ekanligini unutmashlik kerak. Morfologiya hamda sintaksisning o'zaro bog'liqligi, grammatik qonuniyatlar bayonida lug'aviy hodisalarga murojaat qilinishi buning isbotidir.

Ma'lumki, har bir til gaplarning grammatik tuzilishi, sintagmatik bo'linishi, so'zlarning talaffuz ohangi va tezligi kabi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. O'zbek tilining agglyutinativ va affiksallik sabab so'zlar tarkibida qo'shimchalarning ko'p qo'llanishi tufayli so'zlarning grammatik tuzilishi jihatidan birmuncha yoyiq bo'lishi flektiv til sohiblariga talaffuz jarayonida ayrim qiyinchiliklar tug'diradi. Shuningdek, o'zbek tilidagi kelishik shakllari, turlanish, tuslanish kategoriyalari, fe'l zamonlari, fe'l nisbatlari, fe'l funksional shakllari turlarini o'zaro uzviy ketma-ketlikda berilishi va o'zaro aloqadorlikda tushuntirilishigi-

na ushbu grammatik shakllarni nutqda amaliy qo'llashni to'g'ri o'zlashtirishga olib keladi.

Keyingi yillarda ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun o'zbek tilidan tuzilgan o'quv dasturlarida grammatik ma'lumotlarni o'zaro uzviylikda va ta'lim bosqichlariaro uzluksizlikda berilishiga, "O'zbek tili" darsliklarida esa ushbu nazariy ma'lumotlarni ham nutqiy mavzu bilan, ham adabiy o'qish materiallari bilan uzviyligi ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, tilga oid bilim, ko'nikma. malakalarni shakllantirish spiralsimon bosqichli ketma-ketlikni talab etadi. Ya'ni, nazariy ma'lumotlarni o'quvchining yoshiga mos holda avval berilgan bilimlar mustahkamlab borilgan holda bosqichma-bosqich kengaytirib borilishini talab etadi. Jumladan, ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun "O'zbek tili" o'quv dasturlarida boshlang'ich sinflarda fe'lning 3ta zamon shaklini amaliy tanishtirish, 5–6-sinflarda fe'l zamonlarining ichki turlari va shakllari haqida nazariy ma'lumotlar berish, 7-sinfda esa fe'lning funksional shakllari yuzasidan ma'lumotlar berilishi ko'zda tutilgan. Fe'l so'z turkumiga oid ma'lumotlarning bunday bosqichli ketma-ketlikda berilishi ushbu grammatik shakllarning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda tanlangan va sinflararo taqsimlangan bo'lib, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga ham mos keladi.

Ayni paytda ushbu grammatik kategoriyalarning turlarini shu sinf doirasida uzviy ketma-ketlikda berilishi esa ular o'rtasidagi o'zaro mazmuniy aloqadorlik, qo'llanishiga oid nozikliklarni anglab olishga xizmat qiladi. O'zbek tili grammatikasidagi ko'p sonli zamon shakllari aynan shu tilda mavjud bo'lgan hodisani ifodalashgagina xizmat qilmasdan, balki umuminsoniy tushuncha bo'lgan ish-harakatning aniq bajarilish vaqtini aks ettirish uchun ham xizmat qiladi. Turkologiya va qiyosiy tilshunoslikda turkiy tillardagi fe'llarning bu xususiyati haqida ma'lumotlar ko'p. Jumladan, L.Yu.Sultanova turk va ozarbayjon tillaridagi o'tgan zamon fe'llarining sodda shakllari ushbu tillardagi ko'pdan-ko'p o'tgan zamon fe'llarining yadrosi – asosini tashkil etishi va har biri o'ziga xos ko'rsatkichga egaligini *-di // di* va *-mish, -ib* shakllarini qiyoslash vositasida ko'rsatib, ushbu fe'l shakllaridagi tugallanganlik yoki tugallanmaganlik, davomiylik, bir martalik yoki

takroriylik, aniqlik yoki noaniqlik kabi xilma-xil ma'nolar aynan mazkur grammatik shakllar bilan ifodalanishini qayd ta'kidlaydi<sup>51</sup>.

Rus tilida ham hozirgi, o'tgan, kelasi zamonlarni ifodalovchi grammatik shakllar mavjud, ammo ushbu ma'no qirralari boshqa birliklar vositasida ifodalanadi. Ish-harakatning tugallanganligi yoki davom etayotganligi nutq ijrosining aniq paytini ko'rsatishga xizmat qiluvchi maxsus shakllar – vid kategoriyasi orqali bayon etiladi. Ushbu vositalarni to'g'ri qo'llash uchun o'quvchi muloqot vaziyatini aniq idrok etishi va ushbu vaziyatni bayon qilish uchun mos keladigan vositalarni ikkala til tizimidan topa olish malakasini o'zlashtirishi kerak bo'ladi. Mazkur vositalarni topish va amalda qo'llash uchun o'quvchi muloqot vaziyatini aniq idrok etishi va ushbu vaziyatni bayon qilish uchun mos keladigan vositalarni ikkala til tizimidan topa olish malakasini ham o'zlashtirishi lozim, chunki buni e'tiborga olmaslik xato qo'llanishlarga olib kelishi mumkin.

Darhaqiqat, ikkinchi til ta'limida grammatik ma'lumotlarni tanlash va sinflar, bosqichlararo taqsimlashning o'ziga xos omillari mavjud bo'lib, bunda, avvalo:

– grammatik shakl yoki vositaning nutqda amaliy qo'llanishidagi faollik va nafaollik darajasi;

– nutq mavzusiga moslik darajasi;

– til o'rganuvchining yosh xususiyatiga moslik darajasi e'tiborga olinishi kerak bo'ladi. Shu bois chet tillarni o'rganishda grammatik materillar tilning struktural tuzilishi izchilligidan kelib chiqib emas, aynan yuqorida qayd etilgan omillardan kelib chiqib tanlanadi. Biroq ikkinchi til ta'limida tilning til muhitida o'rganilayotgani, til o'rganuvchilarning til tajribalari har xilligi, ular orasida qardosh tillar vakillari, hatto shu til vakillari borligi ham e'tiborga olinishi kerak bo'ladi. Xususan, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda til materiallarini tanlash va ta'lim bosqichlararo taqsimlashda o'zbek tilining aglyutinativ tuzilishi, uning affiksalsal til ekanligi hisobga olinishi, shundan kelib chiqib grammatik vositalarni murakkablik darajasiga va o'zaro aloqadorligiga ko'ra taqsimlash nihoyatda zarur. Shundan kelib chiqqan holda so'nggi yillarda ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun o'zbek tilidan o'quv dasturini tuzishda grammatik ma'lumotlarni

---

<sup>51</sup> Sultanova L. Yu. [174, 81].

tanlash va taqsimlashda ushbu omillarning barchasini e'tiborga olish kerak bo'ladi.

Qayd etilganidek, boshlang'ich sinflar uchun tilga oid materiallar grammatik shakl yoki vositaning nutqda amaliy qo'llanishidagi faollik va nofaollik darajasi, nutq mavzusiga moslik darajasi, til o'rganuvchining yosh xususiyatiga moslik darajasi e'tiborga olingan holda amaliy ko'nikmalar berish nuqtai nazaridan tanlangan. 5-sinfdan boshlab esa lingvistik bilimlar til tuzilishi izchilligidan kelib chiqib uzviylik va uzluksizlikda, ya'ni til materiallarini tanlash va sinflararo taqsimlashda til sathlari izchilligini saqlagan holda va grammatik vositalarning o'zaro aloqadorligi omillari e'tiborga olingan holda berildi. Ya'ni, o'quv dasturida 5–8-sinflarda morfologiya sathiga oid, 9–11-sinflarda sintaksis sathiga oid ma'lumotlar berilishi rejalashtirilgan. Bunda til materiallarining izchilligi va nomlanishida o'zbek tilining o'z xususiyatlari to'liq saqlangan, biroq bu izchillik tilni ona tili sifatida o'qitishdan farq qilib, lisoniy materiallarni tanlashda faqat amaliy nutq uchun zarur bo'lgan grammatik ma'lumotlar va vositalar tanlab olingan.

Respublikamiz ta'lim sohasidagi islohotlar tufayli yuz bergan o'zgarishlardan biri – maktabgacha ta'lim muassasalarining uzluksiz ta'limning ilk, dastlabki bo'g'iniga aylantirilishi tillarni o'qitishni aynan shu bosqichdan boshlashni taqozo etmoqda. Albatta, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga o'qish, yozish o'rgatilmaydi. Biroq turli o'yin metodlari vositasida rus guruhleri tarbiyalanuvchilarini rus tilidagi so'zlarning o'zbek tilida qanday atalishi bilan tanishtirib borish orqali o'zbek tilidagi lug'at boyligini shakllantirish va spesifik nutq tovushlari talaffuziga o'rgatib borishni amalga oshirish mumkin. Mazkur bosqichda ko'rsatmali vositalar, kichik-kichik she'rlar, qo'shiqlar, ertaklardan, rolli o'yinlardan foydalanish orqali bolalarning o'zbek tilidagi lug'at zaxirasini shakllantirish va ularni nutqda qo'llash bo'yicha muayyan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga erishish mumkin.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar o'zbek tilining nutq tovushlarining talaffuzi va yozilishi bilan tanishtiriladi, nutq etiketi iboralari so'z boyligini o'stirish ustida ishlanadi, o'quvchilarning to'g'ri talaffuz, to'g'ri yozish ko'nikmalari, shuningdek, o'rganagan so'zlaridan ixcham gaplar, kichik matnlar tuzish ko'nikmalari shakllantiriladi. Atoqli va turdosh otlar, kelishik qo'shimchalari,

fe'l zamonlarining qo'llanishi amaliy o'rgatiladi. Biroq bular yuzasidan nazariy ma'lumotlar, qoidalar berish ko'zda tutilmaydi.

5–8-sinflarda tilning morfologik sathiga oid, 9–10-sinflarda sintaksis sathiga oid nazariy bilimlar o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos tarzda va til materiallarining murakkablik darajasiga ko'ra taqsimlangan holda beriladi. Chunonchi, o'quv dasturida fe'l so'z turkumini bir muncha murakkab bo'lgani uchun ot, sifat, son so'z turkumlaridan keyin ikkita sinfda bo'lib berish rejalashtirilgan. Shuningdek, o'quv dasturida fe'lning shaxs-son va zamon shakllarini 6-sinfda, nisbat shakllari va funksional-vazifaviy ko'rinishlarini 8-sinfda o'tish ko'zda tutilgan. 10–11-sinflar va o'rta maxsus ta'limda esa qo'shma gap sintaksisi va matn turlari, matnning tarkibiy qismlari yuzasidan nazariy ma'lumotlar berish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish ko'zda tutilgan. Ushbu bosqichda kasbga yo'naltirilgan ta'lim amalga oshirilishidan kelib chiqib, kasbiy-sohaviy matnlar, terminlar ustida ishlash va shunga bog'liq holda matn turlari va tarkibiy qismlari, nutq uslublari, rasmiy ish qog'ozlari haqida nazariy ma'lumotlar berilishi ham ko'zda tutiladi. Oliy ta'lim bosqichida matn lingvistikasi, nutq uslublari haqidagi bilimlar kengaytirilib, ilmiy ish uslubi xususiyatlari bilan tanishtiriladi, talabalarda sohaviy ichki rasmiy ish qog'ozlarini tuzish va rasmiylashtirishga oid amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi.

Ikkinchi til ta'limida, ona tili ta'limidan farqli o'laroq, faqat nutq uchun, shu tilda amaliy ko'nikma hosil qilish uchun xizmat qiladigan nazariy ma'lumotlarningina berilishi maqsadga muvofiq. Qayd etganimizdek, barcha tillar uchun umumiy bo'lgan "Leksikologiya haqida ma'lumot", "Fonetika haqida ma'lumot", "Morfologiya haqida ma'lumot", "Sintaksis haqida ma'lumot", "Uslubiyat haqida ma'lumot" kabi yoki "Tilning boyish manbalari", "Omonim, sinonim va antonimlar", "Iboralar" kabi nazariy ma'lumotlarni o'quvchilar o'z ona tillari orqali o'rganishlarini nazarda tutgan holda, "O'zbek tili" darsliklarida bu mavzular bo'yicha nazariy ma'lumot va alohida qoidalar berilmaydi. Biroq darsliklarda omonim, sinonim va antonim so'zlar, iboralarni nutqda qo'llashga doir mashq turlarini barcha mavzularda berib borish orqali o'quvchilar nutqiga ushbu so'zlarni singdirib borish va o'quvchilarning so'z boyligini o'stirish ko'zda tutiladi.

Umuman, til materiallarini tanlash tamoyilida lisoniy materiallarning amaliy jihati, ya'ni nutqda qo'llanishiga, taqsimlash tamoyilida esa lisoniy materiallarning murakkablik darajasi va o'quvchi-talabalarning yosh xususiyatlariga mosligiga asoslanish ko'zda tutiladi. Bu til materiallarini nutq mazulariga mos holda bosqichlararo uzluksizlik tamoyili asosida, ayni vaqtda grammatik materiallarning o'zaro bog'liqligini, izchilligini saqlagan holda darslararo uzviylik tamoyili asosida taqsimlanishini ta'minlaydi. Darsliklarda til materiallarining nutq mavzulari bilan, hatto adabiy o'qish materiallari bilan ham uzviy aloqadorlikda bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu leksik va grammatik materiallarning o'zaro uyg'unligini ta'minlab beradi. Ya'ni, grammatik materiallar nutqning to'g'ri tuzilishini ta'minlashga, nutq materiallari esa ushbu grammatik shakllarning nutq jarayonida amaliy qo'llanilishini o'rgatishga xizmat qiladi. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar va o'zga tilli guruhlarda o'zbek tili darslarini tashkil etish va o'tish jarayonida bu jihatlar o'qituvchining diqqat markazida turishi kerak bo'ladi. Demak, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda grammatik materiallarni tanlash va taqsimlash ona tili ta'limidan tubdan farq qiladi, o'zga tilli guruhlarda o'zbek tilini o'qitish uchun beriladigan grammatik materiallar bevosita nutqqa xizmat qilishi nuqtai nazaridan tanlanadi.

Darhaqiqat, tilni o'zlashtirish leksik, grammatik bilimlarni uyg'unlashtirgan holda qo'llashni taqozo etadi. Shu bois o'zbek tilidan amaliy mashg'ulotlarda til materiallarini taqsimlashda *til tizimi sathlarining o'zaro aloqadorligi bosh xususiyat* ekanligini unutmaslik kerak. Morfologiya hamda sintaksisning o'zaro bog'liqligi, grammatik qonuniyatlar bayonida lug'aviy hodisalarga murojaat qilinishi buning isbotidir.

## **8.2. Lingvistik kompetensiyani shakllantirishda grammatik qoidalar va leksik-grammatik mashqlar bilan ishlash**

Ko'rinadiki, har qanday tilda amalga oshiriladigan nutqiy muhoqotlarni grammatik shaklsiz va grammatik qoidalar amaliyotisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu barchaga ayon bo'lsa-da, keyingi yillarda ikkinchi tilni o'zlashtirishda grammatik qoidalarning ahamiyatini pasaytirish harakatlari paydo bo'lmoqda.

Har qanday nutqiy qurilma zaminida biron-bir grammatik model – namuna yotishini unutmaslik lozim. Ma'lum bir nut-



qiy qurilmani hosil qilish uchun grammatik qoidalarni, sintaktik shakllar, gap tuzishning modellarini o'zlashtirish kerak bo'ladi. Bu o'rinda grammatika va leksikaning uzviy aloqasi to'liq namoyon bo'ladi, ya'ni grammatika so'zlarni uyushtirib beradi va o'zi so'zlar, so'z birikmalari orqali namoyon bo'ladi. Til o'rgatishni grammatik qoidalarsiz, faqat nutqiy qurilmalarning o'zi bilan amalga oshirishning ko'zda tutilishi muayyan metodik qiyinchiliklar hosil qiladi, chunki ko'pchilik o'quvchilar faqat nutqiy qurilmalarning o'zi bilangina fikrni ifodalash vositalarini umumlashtirib, qoidalashtirib bera olmaydilar. O'zlashtirilgan nutqiy qoliplarni turli vaziyatlarda qo'llay olish uchun o'quvchi grammatik qoidalarni ham bilishi kerak.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida o'zbek va rus tillarini o'rgatish yuzasidan tadqiqot ishi olib borgan F. Qodirova ta'kidlaganidek, nutqiy faoliyat, avvalo, o'zi xohlagan fikrni ifodalash uchun so'z tanlashga qaratilgan ayrim jarayonlardan tashkil topadi. Har bir tildagi so'zlar minglab birikmalarga qo'shilishi mumkin va so'zlovchi o'z fikrini ifodalashga xizmat qiluvchi so'zlar, vositalarni, fikrning ifoda shaklini, gap tuzish uchun kerak bo'ladigan grammatik unsurlar (qo'shimchalar, ko'makchilar, bog'lovchilar)ni topishi zarur bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, birinchidan, o'zbek tilida so'zlovchilarning xotirasida nechta gap konstruksiyasi andoza shaklida saqlab qolinishi hech kimga ma'lum emas. Ikkinchidan, har kim o'z nutqiga e'tibor bersa, shunga iqror bo'ladiki, kishi gapirayotgan paytda muayyan gap qurilmalarini xotirasidan qidirib o'tirmaydi, u fikr bayon qilish chog'ida so'zlarni bir zanjirga tizgan holda gap tuzish harakatini boshlaydi, o'z tuyg'ularini, munosabatlarini turli ohanglar vositasida hali konstruksiyasini noaniq gapda aks ettiradi. Demak, nutqiy tuzilmalarni hosil qilish uchun til birliklarini, sintaktik shakllar, so'z birikmalari, gap yasash modellarini bilish kerak.

Haqiqatan ham, nutq tuzuvchi tildagi bu modellardan o'z kommunikativ maqsadiga uyg'unini tanlaydi va uni turli variantlarda kengaytiradi, berilgan model asosida kerakli jumlani tuzadi. Nutqiy faoliyat bir-biri bilan uzviy bog'langan aspektlarni qamrab olgan bo'lib, ushbu rivojlanuvchi, davomli jarayon biri ikkinchisining davomi bo'lgan turlarini bajarishni talab qiladi. Ko'rinib turibdiki, psixolingvistik nazariyotda nutqiy faoliyat ko'nikmalarini egallashda grammatik bilimlar inkor qilinmaydi, aksincha, gram-

matik bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish va qo'llash muhim omil ekanligi alohida ta'kidlanadi. Chet tillarni o'rgatishda ham o'quvchilarning qaysi shakl yoki vositalar qanday mazmuni ifoda qilishga qodir ekanligini anglab olish o'ta muhim ekanligi ham ta'kidlanadi.

Demak, har qanday tilda amalga oshiriladigan nutqiy muloqotlarni grammatik shaklsiz va grammatik qoidalar amaliyotisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Nutqiy muloqot til birliklarining o'zaro birikishi asosida yuzaga kelar ekan, til birliklarini o'zaro biriktirib nutqiy tuzilmalar hosil qilish uchun esa grammatik qoidalarni ham bilish kerak bo'ladi. Ushbu qoidalar majmuasini o'zlashtirmasdan turib to'g'ridan to'g'ri gap tuzish va nutqiy ko'nikma hosil qilish mumkin emas. Shu bois o'qituvchi dars jarayonida o'rni bilan o'zbek va rus tillarini qiyoslab borishi va har ikki tildagi mutanosib va nomutanosib til vositalarini imkon qadar kengroq tushuntirib borishi kerak bo'ladi. Biroq bunda imkon qadar til o'rganuvchining ona tilida izoh berishdan qochish kerak, bu tilni egallashga intilishni kamaytiradi, xolos. Ta'kidlash joizki, o'zbek tilini rus tiliga qiyoslab o'tish zinhor darsni rus tilida o'tish degani emas. O'qituvchining mavzuni rus tilida tushuntirishi, qiyinroq so'zlarni o'zi tarjima qilib aytib berishi, darsliklarda qoidalar va ta'riflarning, grammatik ma'lumotlarning rus tilida, ayrim hollarda ham o'zbek, ham rus tilida berib borilishi ikkinchi tilga o'rgatish metodikasida mutlaqo o'zini oqlamaganligi 50–70-yillardayoq e'tirof etilgan edi. Buning natijasida, tadqiqot ishlarida ta'kidlanganidek, sinfda o'quvchilar o'rganayotgan til muhiti yo'qoladi, har bir so'zning ma'nosi o'qituvchi tomonidan tarjima qilib tushuntirilganligi uchun, o'quvchilar o'rganayotgan tilda o'ylashni, fikrlashni o'rganmaydilar, ya'ni tayyoriga o'rganib qoladilar. Bunday metodda olib borilgan darslar tarjima unsurlari qatnashganligi tufayli birmuncha murakkablashgan ona tili darslariga o'xshash bo'lib qoladi.

Afsuski, ayrim darslik va o'quv qo'llanmalarda bu hol hanz davom etib kelayotgani kuzatilmoqda. Jumladan, tibbiyot institutlarining rus guruhlariga uchun, iqtisodiy yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari uchun o'zek tilidan chop etilgan darslik va o'quv qo'llanmalarda grammatik ma'lumotlarning ham rus tilida, ham o'zbek tilida berilganligini ko'rsatib o'tish mumkin. Grammatik ma'lumotlar yoki qisqacha ta'riflarning rus tilida bayon qilinishi

o‘zbek tilini o‘rganishning dastlabki bosqichida, o‘zbek tilini mutlaqo bilmaydiganlar uchungina qo‘llanishi mumkin. Umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi bosqichlarida o‘zbek tilini 9–10 yil o‘qib kelgan o‘quvchilarga oliy ta‘lim bosqichida qoida va ta‘riflarning rus tilida berilishi, bizningcha, tilni o‘rganishga bo‘lgan tabiiy ehtiyojni kamaytiradi, xolos.

Ikkinchi til ta‘limida grammatik qoidalarning berilishi ham ona tilidagidan katta farq qiladi. Xususan, umumiy o‘rta ta‘limda bir mavzu uchun kamida 3–5 soat vaqt ajratilishidan kelib chiqib, har biri dars uchun faqat bitta nazariy qoida rejalashtirilishi va unda berilgan nazariy ma‘lumotni mashqlar yordamida albat-ta mustahkamlab ketilishi, adabiy o‘qish jarayonida ushbu grammatik vositalarni autentik material tarkibida hayotiy vaziyatlarda amaliy qo‘llanishini ko‘rsatib borish va amaliy qo‘llashga o‘rgatib borish ko‘zda tutiladi. Keyingi darsda ham shu grammatik ma‘lumotlarning uzviy davomi berilishi avvalgi ma‘lumotlarni takrorlashga va mustahkamlashga, ushbu grammatik shakllar va vositalarni darsliklarning bunday tuzilishi o‘quvchilarda ushbu grammatik bilimlar asosida hosil qilingan ko‘nikmalarni malakaga aylanib borishini ta‘minlashga olib keladi.

Darsliklarida amaliy nutq faoliyati uchun zarur bo‘ladigan grammatik shakllar va vositalar, ularning qo‘llanishi va imlosi bo‘yicha qisqa qoidalarni berib borish ko‘zda tutiladi. Shundan kelib chiqib, “O‘zbek tili” darsliklarida grammatik ma‘lumotlar “Bilib oling!” ruknida qisqa qoida va ta‘riflar misollar ularga ilova qilingan shaklda beriladi. Bu nutq uchun zarur bo‘lgan amaliy kerak nazariy bilimlarni oson va ko‘rgazmalilik vositasida puxta o‘zlashtirib olishga yordam beradi. Masalan, 6-sinfda shaxs otlarining yasalishi bo‘yicha quyidagi nazariy ma‘lumot berilgan:

### *Bilib oling!*

Shaxs otlari insonlarning kasbini bildirib keladi. Ular tub va yasama bo‘ladi. Yasama shaxs otlari **-chi, -kor, -bon, -soz, -shunos, -paz, -gar, -dor, -do‘z, -kash, -dosh** qo‘shimchalari bilan yasaladi. Masalan:

#### **tub otlar**

muhandis

dehqon

tarjimon

#### **yasama otlar**

shifokor

o‘quvchi

tilshunos

## Yasama shaxs otlari va ularni yasovch qo‘shimchalarni bilib oling!

-chi	-kor	-bon	-soz	-shunos	-paz
ishchi	paxtakor	bog‘bon	soatsoz	tilshunos	oshpaz
-gar	-dor	-do‘z	-boz	-kash	-dosh
zargar	chorvador	etikdo‘z	dorboz	chizmakash	sinfdosh

11-sinf darsligida esa bog‘lanishli matn haqida quyidagi ta‘rif beriladi:

### *Bilib oling!*

Insonlar gap vositasida o‘zaro fikr almashadilar. Nutq jarayonida gaplar, odatda, alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda bayon etiladi. Bir-biri bilan o‘zaro mantiqan uzviy bog‘langan gaplar matn deb ataladi. Misollarni qiyoslang:

#### **Alohida gaplar**

1. Kitob – insonning do‘sti.
2. Maktabimiz kutubxonasi birinchi qavatda joylashgan.

#### **Matn**

Kitob barcha bilimlarning kaliti. Ko‘p kitob o‘qigan odam bilimli bo‘ladi.

Kitob insonni ko‘klarga ko‘taradi. Bilimni yoshlikda egallash kerak. Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan xazinadir.

Ko‘rinadiki, ta‘riflar hajm jihatidan ham, shakl jihatidan ham sinflar kesimida katta farq qiladi. “O‘zbek tili” darsliklari nutq mavzulari bo‘yicha bo‘limlarga ajratilgan bo‘lib, har bir nutq mavzusi 2–3 darsga bo‘lib o‘tiladi. Shu mavzuda beriladigan grammatik ma‘lumotlar bo‘yicha qoida va ta‘riflar ham darslarga taqsimlanadi va har bir darsda leksik-grammatik mashqlar vositasida mustahkamlab boriladi. Jumladan, 8-sinf darsligida “Bug‘doy – rizq-ro‘zimiiz” mavzusida fe‘lning orttirma nisbati, uning yasalishi va imlosi yuzasidan grammatik ma‘lumot berilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, ushbu nazariy ma‘lumotlar 3 soatga quyidagicha taqsimlangan: 1-darsda orttirma nisbatning qanday qo‘shimchalar bilan yasalishi; 2-darsda *-dir*, *-tir* qo‘shimchalarining imlosi; 3-darsda esa *k*, *q* tovushlari bilan boshlanadigan qo‘shimchalarning fe‘l asosiga qo‘shilishi va imlosi qisqa ta‘riflar vositasida misollar bilan illyustrativ tarzda taqdim etiladi:

### *Bilib oling!*

Fe'ning orttirma nisbatida ish-harakatning biror boshqa vosita orqali bajarilganligi anglashiladi. Fe'ning orttirma nisbati fe'l asosiga - *t*, - *dir(-tir)*, - *giz(-kiz)*, - *qiz*, - *g'iz*, - *gaz(-kaz)*, - *qaz*, - *ir*, - *iz*, - *sat* kabi qo'shimchalarni qo'shish bilan yasaladi. **Masalan:** *ishlatmoq, kiydirmoq, o'stirmoq, yurgizmoq, tekkizmoq, o'tqizmoq, yurg'izmoq, o'tkazmoq, oshirmoq, oqizmoq, ko'rsatmoq.*

Nima qildi?	Nima qilindi?	Nima qildirdi?
<i>o'qidi</i>	<i>o'qildi</i>	<i>o'qitdi</i>

2-darsda ushbu ma'lumot ularning imlosiga doir ma'lumot bilan to'ldiriladi.

“Bilib oling” ruknida berilgan grammatik ma'lumotlar, qisqa ta'riflardan so'ng ushbu qoidalarning amaliy qo'llanishi leksik-grammatik mashqlar yordamida mustahkamlanadi.

### *Bilib oling!*

-*dir* orttirma nisbat qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga, -*tir* qo'shimchasi, asosan, jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga, -*ir*, -*iz* qo'shimchalari esa bir bo'g'inli so'zlarga qo'shiladi. **Masalan:** *oldirmoq, qiziqirmoq, ichirmoq, oqizmoq.*

- <i>tir</i> qo'shiladi	- <i>dir</i> qo'shiladi	- <i>ir</i> , - <i>iz</i> qo'shiladi
<i>ektirmoq, tuzattirmoq</i>	<i>kuldirmoq, yedirmoq</i>	<i>ichirmoq, oqizmoq</i>

Shu mavzuga bag'ishlangan uchinchi darsda esa ta'rif quyidagi ma'lumot bilan to'ldiriladi:

### *Bilib oling!*

-*giz*, - *g'iz*, -*gaz*, -*g'az* qo'shimchalari jarangli tovushlardan so'ng, -*kaz*, -*qaz*, -*kiz*, -*qiz* qo'shimchalari jarangsiz tovushlardan so'ng qo'shiladi. **Masalan:** *o'tkazmoq, yurg'izmoq, ketqizmoq, kirg'izmoq.*

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 5–11-sinflari uchun “O'zbek tili” darsliklarida har bir mavzuda berilishi rejalashtirilgan grammatik ma'lumotni har bir darsga taqsimlangan tarzda, qisqa va ixcham qoidalar shaklida berili-

shi, ularda asosan ushbu grammatik vositalarning qo‘llanish xususiyatiga ko‘proq e‘tibor qaratilishi ushbu darsliklarning yutuqli tomonlaridan biridir. Har bir qoidadan so‘ng berilgan nazariy ma‘lumotni mustahkamlashga, grammatik shakllar va vositalarni yozma nutqda qo‘llashga qaratilgan leksik-grammatik mashqlar ustida ishlash, dialogik va monologik nutq jarayonida qo‘llashga qaratilgan suhbat matnlari, vaziyatli topshiriqlar ustida ishlash o‘quvchi-talabalarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradi.

### 8.3. Grammatik ko‘nikmalarni mustahkamlashga qaratilgan leksik-grammatik mashqlar

Nazariy qoidalar bo‘yicha keltirilgan misollar, grammatik ko‘nikmalarni mustahkamlash uchun qaratilgan mashqlar tarkibida beriladigan gaplarni ham nutq mavzusiga bog‘lab tanlanishi o‘quv materiallarini nutqiy mavzu atrofida maqsadli jamlab berishga xizmat qiladi. Darsliklarda grammatik ko‘nikmalarni mustahkamlash uchun quyidagi turdagi leksik-grammatik mashqlardan foydalanish ko‘zda tutiladi:

- so‘zlarning yangi morfologik shakllarini, grammatik vositalarni nutq jarayonida qo‘llanish holatini ko‘rsatuvchi mashqlar;
- ushbu vositalarni nuqtalar o‘rniga mos holda qo‘yib so‘zlar va gaplarni to‘ldirib yozish mashqlari;
- foydalanish uchun berilgan so‘zlar va birikmalarni qo‘yib jummalarni to‘ldirib mashqlari va h.z.

Bunday mashqlarni bosqichli ketma-ketlikda qo‘llash o‘quvchilarning nazariy ma‘lumotlarni tushunib olishlari va amaliy mashqlar yordamida mustahkamlashlariga erishishga yordam beradi. Masalan, 7-sinfda “-a,-y, -(i)b qo‘shimchali ravishdoshlarining qo‘llanishi” mavzusini mustahkamlash uchun 2-darsda mashqlarni quyidagicha ketma-ketlikda bajartirish o‘zbek tilidagi ravishdoshlarni puxta o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi:

**5-mashq.** Berilgan fe‘llardan ravishdoshlar hosil qiling. So‘ngra ularni yakka yoki takroriy qo‘llab, so‘z birikmalari tuzing.

N a m u n a: *O‘ynamoq – o‘ynab: Bola ko‘chada o‘ynab yurardi. Qor o‘ynab-o‘ynab yog‘ardi.*

O‘ynamoq, so‘zlamoq, ishlamoq, bajarmoq, gapirmoq, kulmoq, qidirmoq.

**6-mashq.** Nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Nodira ... kerakli suratni topdi. 2. Azizbek bu kitobni ... topdi. 3. Nargiza voqeani ... gapirib berdi. 4. ... o‘yimga yetolmadim. 5. ... erishilgan g‘alaba g‘alaba emas. 6. ... bironi xafa qilib qo‘ymang. 7. Yo‘l ..., mo‘l ... manziliga yetibdi.

F o y d a l a n i s h u c h u n s o‘ z l a r: *so‘rab-surishtirib, o‘ylay-o‘ylay, kula-kula, izlay-izlay, bilib-bilmay, yurib, kurashmay.*

**4-mashq.** Berilgan so‘zlarga zarur qo‘shimchalarni qo‘shib gaplar tuzing, so‘ng ularni izchillikda joylashtirib bog‘lanishli matn hosil qiling.

1. Bugun, men, Namangan, do‘st, maktub, olmoq.
2. Sinf, barcha, do‘st, salom, yo‘llamoq.
3. Biz, u bilan, Guliston, shaxmat, musobaqasida, tanishmoq.
4. Maktabimiz, yangiliklar haqida, keyingi, sport, musobaqalari haqida, ma‘lumot bermoq.
5. U, men, maktab, o‘qish, musobaqa, tayyorgarlik, haqida, yozmoq.
6. Biz, navbat, sport, musobaqalari, yaxshi tayyorlanmoq, va, keyingi yil, albatta, uchrashmoq, kelishib olmoq.
7. Men, ham, u, darhol, javob, yozmoq.

**(7-sinf, 3-mavzu)**

**7-mashq.** Matnni o‘qing va davom ettiring. Holatni bildiruvchi ravishdoshlarni toping.

Saida darslari tugab, uyga vaqtliroq qaytdi. Uyda hech kim yo‘q edi. U darrov kiyimlarini almashtirib chiqdi va tezgina choy ichib oldi. So‘ngra avval uy ichini yig‘ishtirib chiqdi, so‘ng hovlini suv sepib supurdi. U oyisini bayram oldidan quvontirmoqchi bo‘ldi. Haqiqatan ham, oyisi ishdan kelib qizidan xursand bo‘ldi. “Dastyor qiz bo‘lib qolibsang-ku, qizim, men bilmay yurgan ekanman, – deya maqtab ham qo‘ydi. – Shu ishlarni har kuni erinmay qilib tursang, yanada yaxshi bo‘lar edi“.

*Ayting-chi, Saidaning oyisi nima uchun bu gapni aytdi? Siz onajonlar bayramiga qanday sovg‘a tayyorladingiz?*

Bunda 1-mashq fe'lining bosh shaklidan ravishdosh shaklini hosil qilish, 2-mashq foydalanish uchun berilgan soʻzlardan mosini qoʻyib nuqtalar oʻrnini toʻldirish, 3-mashq matndan ravishdoshlarni topish, matnni davom ettirish va berilgan savollar asosida matn mazmuniga munosabat bildirishga bagʻishlangan. Yaʼni, 1-mashq muayyan koʻnikmani shakllantirishga, ikkinchisi muayyan malaka hosil qilishga, uchinchisi koʻnikma-malakani rivojlantirish va nutqda amaliy layoqatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Taʼlim rus tilida beriladigan maktablarda oʻzbek tili taʼlimini funksional-semantik tamoyil asosida oʻqitishni tatbiq etgan metodist olim R.Tolipova oʻzbek tili darslarida nutqiy va grammatik mavzularni mustahkamlash uchun beriladigan mashqlar tizimini muayyan tartibga rioya qilingan holda qoʻllashni, buning uchun “Oʻzbek tili” darsliklarida birinchi turkumdagi mashqlarni berilgan matnni oʻqing va ajratib koʻrsatilgan nutqiy qurilmalarni matn tarkibida qoʻllanishini kuzating, matndan mavzuga mos soʻzlar va soʻz birikmalarini aniqlang, nuqtalar oʻrniga maʼlumot uchun berilgan soʻz va qoʻshimchalardan mosini qoʻyib yozing, nuqtalar oʻrniga mos soʻzlar va qoʻshimchalarni topib qoʻying, berilgan soʻzlar va birikmalarni qatnashtirib mavzuga mos gaplar tuzing, ajratilgan soʻzlar yoki soʻz birikmalarini ularning sinonimlari yoki antonimlari bilan almashtirib qoʻllang tartibida berishni tavsiya etadi. Keyingi turkumdagi mashqlar esa ijodiy tusda boʻlib, ularda nutqiy qurilmalar vositasida mavzuga mos matn tuzish, berilgan rasm asosida mustaqil hikoya tuzish, mavzu asosida ijodiy insho yozish kabi topshiriqlar beriladi. Ushbu metodda mashqlarni shu tarzda oddiydan murakkabga qarab rivojlantirib borish orqali berilgan nutqiy qurilmalar yordamida oʻquvchilarni nutqqa olib chiqish, matn tuza olish va nutqiy muloqot yurita olish malakasini shakllantirish nazarda tutilgan.

Koʻrinib turibdiki, bu tizim mavzu boʻyicha soʻz va grammatik qurilmalarni nutqda ijodiy va mustaqil qoʻllash boʻyicha nutqiy koʻnikmalarni hosil qildirish uchun qadamba-qadam ilgari lab borishga moʻljallangan avval retseptiv, soʻngra reproduktiv va nihoyat produktiv (ijodiy) topshiriqli mashqlardan iborat. Bizningcha, ushbu topshiriqlarni quyidagi bosqichlarga boʻlgan holda umumlashtirish mumkin:



1-bosqich – matnni o‘qib, unda ajratib ko‘rsatilgan yangi so‘zlarni va ushbu mavzuda ko‘zda tutilgan grammatik shakllarni eslab qolish va tushunib olishni talab qiluvchi mashqlar;

2-bosqich – matndan mazkur grammatik shakllarni mustaqil ravishda ajrata olishni talab qiluvchi mashqlar;

3-bosqich – dialogik yoki monologik matnni eslab qolingan va grammatik shakllar bilan to‘ldirishni talab etuvchi mashqlar;

4-bosqich – o‘rganilgan nutqiy qurilmalarni bog‘lanishli matn ichida mustaqil ravishda qo‘llay olishni talab qiluvchi mashqlar;

5-bosqich – o‘rganilgan nutqiy qurilmalar ishtirokida ijodiy matn tuzishni talab qiluvchi mashqlar.

R.Tolipova fikricha, so‘z va iboralar yarim ijodiy (reproduktiv) mashqlar natijasida o‘zlashtirib olingandan so‘ng, bu so‘zlarni mavzu bo‘yicha talab qilingan grammatik qurilmalar tarkibida erkin qo‘llashga o‘rgatuvchi ijodiy (produktiv, mahsuldor) mashqlar beriladi. Shu tarzda topshiriqlarda o‘zlashtirilgan so‘z va grammatik qurilmalarni muayyan vaziyatlarda nutqda qo‘llashga o‘rgatiladi. So‘nggi ijodiy tarzdagi vaziyatli topshiriqlar o‘quvchilarda har bir mavzu bo‘yicha o‘z fikrini mustaqil og‘zaki va yozma ravishda ifoda etish bo‘yicha ilk ko‘nikmalarni hosil qilish uchun shart-sharoit yaratadi<sup>52</sup>.

Shu bois “O‘zbek tili” darsliklardagi mashqlar ham sof grammatik emas, leksik-grammatik mashqlardan iborat bo‘lib, har bir mashq grammatik ma’lumotlarni mustahkamlash bilan bir vaqtda o‘zlashtirilayotgan grammatik shakllarni nutqda amaliy qo‘llashga o‘rgatishga yo‘naltiriladi. Darsdan darsga o‘tgan sari ushbu ma’lumotlar mustahkamlanib, so‘zlarning grammatik shakllari esa faollashtirib boriladi. Bitta nutqiy mavzuni kamida 3–4 dars jarayonida o‘tilishi shu nutqiy mavzu doirasidagi so‘zlarni – leksik minimumni faollashtirishga, shu mavzu bo‘yicha rejalashtirilgan grammatik vositalar esa grammatik minimumni darsdan darsga, bosqichdan bosqichga faollashtirib borishga imkon yaratadi. Har bir darsda nutqiy mavzular, adabiy o‘qish materiallari vositasida taqdim etiladigan yangi so‘zlar va so‘z shakllari nafaol minimumni tashkil etadi. Nafaol leksik-grammatik minimum keyingi mav-

<sup>52</sup> Толіпова Р. XXI асрда тил ўқитиш истиқболлари ҳақида // XXI асрда ўзбек тили таълими масалалари: Ўзбек тили доимий 9-анжумани мат-лари. – Т., 2007. – 192–193-б.

zular, bosqichlarda faollashtirib boriladi va asta-sekinlik bilan faol minimumga o‘tib boradi.

Shuningdek, matnlar tarkibida ushbu grammatik shakllar va vositalarni ajratib ko‘rsatish, berilgan adabiy o‘qish materiallari orqali ham ushbu grammatik vositalar va shakllarni mustahkamlab borish shakllantirilgan lingvistik ko‘nikmalarni autentik materiallar vositasida hayotiy vaziyatlarda amaliy qo‘llanishini ko‘rsatish imkonini beradi. Ko‘rinadiki, bir mavzuga bag‘ishlangan 3–5 dars davomida ushbu grammatik mavzuning mashq va topshiriqlar vositasida mustahkamlanib va yangi bilimlar bilan to‘ldirilib borilishi o‘quvchilarda lingvistik kompetensiyani shakllantirishiga zamin tayyorlaydi. Biroq lingvistik kompetensiyani tarkib topeirish lingvistikaga oid nazariy bilimlar bilan qurollantirishning o‘zigina emas, ushbu bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish hamdir. Bu o‘rinda N.Mahmudovning quyidagi fikrlari, ayniqsa, diqqatga sazovor: *“Tilni o‘zlashtirishda til qurilishini bilish shart, bu boradagi bilimlar asosdir. Ammo ayni qurilish birliklaridan qanday foydalanish, ularni nutqda bevosita qanday qo‘llash malakasi shakllanmagan bo‘lsa, tilni bilishni tugal deyish mushkul”*<sup>53</sup>.

Lingvistik kompetensiyani shakllantirish shu tarzda bosqichli ketma-ketlik va uzviylik asosida olib borilishi o‘quvchilarni lisoniy bilimlarni puxta egallashlariga, grammatik qoidalarni tushunib olishlariga imkon berali, albatta. Biroq o‘quvchilar ushbu bilimlardan foydalanib o‘zlari nutqiy konstruksiyalarni tuzish va amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini egallamas ekanlar, ularda shakllangan lingvistik kompetensiyalar nutqqa xizmat qilmaydi. Buni amalga oshirish uchun asosiy e‘tiborni tayyor matnlar ustida ishlashga emas, so‘zlardan so‘z birikmalari, jumlar, jumladan gaplar, gaplardan esa bog‘lanishli matn tuzishga qaratilgan mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va ularni turli hayotiy vaziyatlarda amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirib borish kerak. Ammo ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda tahsil oladigan o‘quvchilar orasida o‘zbek tilini boshlang‘ich va qisman tayanch darajada biladigan qardosh xalqlar va hatto o‘zbek xalqi farzandlari ko‘pchilikni tashkil etishi ushbu mashq va topshiriqlar

---

<sup>53</sup> Mahmudov N. Til ta‘limi va stilistika // J. Til va adabiyot ta‘limi. – T., 2009. – 1-son. –B. 3–9.

tizimini o‘zbek tili darslari jarayoniga to‘liq tatbiq etish mumkin emasligini ko‘rsatadi. Bunday vaziyatlarda o‘quvchi-talabalar bilan individual ishlash, tabaqalashtirilgan guruhlar tashkil etish kabi til ta’limining turli usullaridan foydalanish va o‘quvchilarning bilimlarini tenglashtirib olishga harakat qilish kerak bo‘ladi.

Aytilganlardan ko‘rinadiki, o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda asosiy maqsad til o‘rganuvchida o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda mustaqil bayon eta olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat bo‘lib, bu orqali O‘zbekistonda yashovchi barcha millat vakillarining jamiyatimizda yashash jarayonida erkin fikr almashishlari, tanlagan kasbiy sohalarida erkin faoliyat yurita olishlari uchun ularning ham nutqiy, ham lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishga erishiladi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. “O‘zbek tili” o‘quv dasturlarida o‘quv materiallari mavzular bo‘yicha qaysi tartibda berilishi rejalashtirilgan?
2. Darsliklarda nutqiy mavzularning yetakchilik qilishi nimalarga sabab bo‘ladi?
3. “O‘zbek tili” dasturlari va darsliklarida faol minimum tarkibiga nimalar kiritiladi?
4. Nofaol leksik minimum qanday ajratiladi va qaysi vositalar orqali kiritib boriladi?
5. Faol va nofaol minimumdan nutq faoliyatining qaysi turlarida foydalaniladi?
6. Grammatik bilimlarni berishda uzviylikka va uzluksizlikka rioya qilmaslik qanday oqibatlariga olib keladi?
7. Ikkinchi til ta’limida ona tili ta’limidan farqli o‘laroq, qanday nazariy ma’lumotlar berilishi maqsadga muvofiq?
8. Til materiallarini tanlash tamoyilida lisoniy materiallarning qaysi jihatiga, taqsimlash tamoyilida esa nimalarga asoslanish ko‘zda tutiladi?
9. Nutqiy muloqot yuritishda grammatik shakllar va grammatik qoidalarning ahamiyati va o‘rni qanday?
10. Til birliklarini o‘zaro birlashtirib nutqiy tuzilmalar hosil qilish uchun nimalarni bilish kerak bo‘ladi?
11. Grammatik ma’lumotlar yoki qisqacha ta’riflarning rus tilida bayon qilinishi qanday oqibatlariga olib keladi?
12. Ikkinchi til ta’limida grammatik qoidalarning berilishi ham ona tili dagidan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?

13. Darsliklarda grammatik ko'nikmalarni mustahkamlash uchun qan day mashqlardan foydalanish kerak bo'ladi?
14. Ikkinchi til ta'limida grammatik ma'lumotlarni tanlash va sinflar, bosqichlararo taqsimlashning qanday o'ziga xos omillari mavjud?

### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Раупхўжаева М. Ўзбек тили ўқув фанидан ЎММ яратишда нутқ ўстириш мавзуларидаги узвийлик // Узлуксиз таълим жараёнини ўқув методик мажмуалар билан таъминлаш муаммолари: Респ. илм.-амал. конф. мат.-ллари. – Тошкент, 2001. – 228–230-б.
2. Толипова Р. XXI асрда тил ўқитиш истиқболлари ҳақида // XXI асрда ўзбек тили таълими масалалари: Ўзбек тили доимий 9-анжумани мат.-лари. – Тошкент, 2007. – 192–193-б.
3. Аҳмедова Г. Ўзбек тили дарсларида ўқувчилар нутқини ясама сўзлар билан бойитишнинг методик асослари (таълим рус тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Пед. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2006. – 164 б. 122.
4. Қодирова Ф.Қ. Лингводидактические основы обучения детей дошкольного возраста второму языку (на материале русского и узбекского языков): Дис. ... док. пед. наук. – Ташкент: 2006.
5. Мухитдинова Х.С. Взаимосвязь и семантические свойства слова и их учет при обучении узбекскому языку как второму / А. Арабаев атындагы Кыргыз мамлакеттик университетинин Жарчысы. №1(2). – Бишкек, 2011. – С. 263–265.
6. Muxitdinova X.S. O'zbek tilini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari (monografiya) – Toshkent: Vneshinvest, 2021.
7. Ҳоликбердиев К. Ўқишлар рус тилида олиб бориладиган мактабларда ўзбек тилидан дастлабки таълим: Пед. фан. ном. ... дис.–Тошкент: 1971.
8. Mahmudov N. Til ta'limi va stilistika // J. Til va adabiyot ta'limi.– Toshkent, 2009. – 1-son. – 3–9-б.
9. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 6–11-sinflari uchun amaldagi "O'zbek tili" darsliklari.

## 9-MAVZU. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA TINGLAB TUSHUNISH VA GAPIRISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

### REJA:

1. O‘zbek tilini o‘qitishda tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari.
2. Monologik va dialogik nutq shakllarida gapirish ko‘nikmasini shakllantirish.

**Tayanch tushunchalar:** nutq faoliyati turlari, tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalari, tinglash va tushunish qiyinchiliklari, lingvistik qiyinchiliklar, talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirish, eshitish mashqlari, tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirish, real hayotdagi turli nutqlarni eshitib tushunish ko‘nikmasi, gapirish, nutqni yuzaga chiqarish bosqichlari, grammatik tuzilmalarini ikkinchi tilga transformatsiyalash, monologik va dialogik nutq, ekstralingvistik vositalar, to‘xtamlar.

### 9.1. O‘zbek tilini o‘qitishda tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari

Nutq faoliyati tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalaridan iborat bo‘lib, nutqiy kompetensiyani tarkib topdirish uchun ushbu to‘rt amal bo‘yicha til ko‘nikmalarini shakllantirish taqozo etiladi. O‘zbekistonda yashovchi barcha millat vakillarining o‘qish va ishlash jarayonida mahalliy millat vakillari bilan teng munosabatda bo‘lishlari, barcha sohalarida erkin fikr almashishlari uchun o‘zbek tilidan bilim, ko‘nikma va malakalarni yetarli darajada egallashlari talab etiladi. Buning uchun ta‘lim oluvchilarda o‘zbek tilidan egallangan bilimlar asosida amaliy nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish, ularni bosqichma-bosqich rivojlantirib borish orqali nutqiy malakani hosil qilish hamda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni turli muloqot vaziyatlarida erkin qo‘llash layoqatini tarkib topdirish kerak bo‘ladi.

Tillarni o‘qitishda gapirishning uzviy qismi deb qarab kelingan tinglab tushunish o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab nutq faoliyatining alohida turi sifatida ko‘rila boshlangan. Tinglab tushunishdagi asosiy qiyinchiliklardan biri bu lingvistik qiyinchiliklar bo‘lib, ularni bartaraf etishda tinglab tushunishni muvaffaqiyatli amalga oshirish, o‘tish muhim hisoblanadi. Tinglash va

tushunish bir paytda sodir bo'ladigan jarayon bo'lib, mazmunni anglab olishda tinglovchi leksik va grammatik bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi, ushbu bilimlar esa o'qish va yozish orqali sodir bo'ladi. Xususan, o'qish faoliyatining axborot-malumot olish, dunyoqarashni kengaytirish hamda so'z boyligini ko'paytirib borishda ahamiyati nihoyatda katta. O'qish va yozish orqali olingan bilimlardan talaba tinglab tushunish va gapirishda samarali foydalanadi. Hozirgi kunda talimning asosiy talabi turli fanlardan olingan bilimlarni o'z o'rnida amaliy qo'llay olishga o'rgatish bo'lib, bu esa, o'z-o'zidan integrativ yondashuvni talab qiladi.

Taniqli olim M.T.Irisqulov mamlakatimizda chet tillarni o'qitishda olib borilgan ishlarining samarali natijalari bo'yicha bergan intervyusida quyidagilarni ta'kidlab o'tgan edi: *"Ilgari an'anaviy yondashuvda tilning har bir bo'limi alohida-alohida o'rgatilardi. Oylab talaffuzni, ya'ni fonetikani o'rgatardik. Bunda o'rganilayotgan so'zlar talaffuz qoidalariga to'g'ri kelsa bo'ldi, hayotda qo'llanish darajasiga e'tibor bermasdik. Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitishda grammatika – tarjima metodidan voz kечilib, ham talaffuz, ham grammatika, so'z tanlash, gapirish, tinglab tushunish, yozuv bir vaqtda olib boriladi. Endilikda birinchi kundan o'sha tilda gapirishni o'rgatishga e'tibor berilmoqda. Ilgari o'qiganlar talaffuz qoidalarini, grammatikani yaxshi bilishardi, lekin muloqotda qiynalishardi. Bugungi vazifamiz nazariyasini amaliyot bilan olib borishdir hamda malakalar integratsiyasini asosida olib borishga ustuvor ahamiyat berish muhim ahamiyatni kasb etadi"*<sup>54</sup>.

Ta'lim o'zga tillarda olib boriladigan maktablar va guruhlarda o'zbek tilini o'qitishdan asosiy maqsad ham o'quvchilarga o'zbek tilining izchil grammatikasini o'rgatish emas, balki ularda o'zbekcha nutqiy malakalarni shakllantirishdir. Bu til ta'limining har bir bosqichida ushbu til ko'nikmalarini muntazam shakllantirib borish va bosqichma-bosqich rivojlantirib borish orqali amalga oshiriladi. Jumladan, o'zbek tilining A1 darajasi talablariga ko'ra boshlang'ich bosqichda o'quvchilarda nutq faoliyati turlari bo'yicha quyidagi til ko'nikmalarini shakllantirish belgilangan:

**Tinglab tushunish bo'yicha** – darsga oid ko'rsatmalar va o'qituvchi nutqini, o'zaro savol-javoblarni, kichik matnlar, topishmoq, ertak va hikoyalarni tinglab tushuna olish;

<sup>54</sup> Ирискулов М.Т. Тил ва адабиёт таълим журнали мухарририга берган интервьюси // Тил ва адабиёт таълими. №1. – Т., 2017. – Б. 27.

**Gapirish bo'yicha** – o'zbek tilining spetsifik nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish, salomlashish, o'zini va manzilgochini tushuntirish, iltimos qilish, kechirim so'rash, rahmat aytish, tabriklash, voqea-hodisa yoki narsa-buyum tasvirini sodda bayon qilish, topishmoq va tez aytishlarni aytib bera olish, o'rganilgan she'rlarni ifodali yod aytish, ertaklar va hikoyalar mazmunini so'zlab bera olish, yoshiga mos sodda taqdimotlar qila olish;

**O'qish bo'yicha** – o'zbek tilining spetsifik nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish, darak, so'roq, buyruq gaplarni mos ohangda o'qish, she'rlarni ifodali o'qish, o'zlashtirilgan til materialidan iborat qisqa matnlar, hikoyalarni sintagmalarga to'g'ri ajratib o'qish;

**Yozish bo'yicha** – o'zbek tilining spetsifik nutq tovushlarini husnixat va imlo qoidalari asosida to'g'ri yozish, so'z, so'z birikmasi va ixcham matnni to'g'ri ko'chirib yozish; shaxsiy ma'lumotlarni (ismi-sharifi, uy manzili) yoza olish sodda xabarlarini yozish (tabriklar, eslatmalar, elektron xatlar va b.); eshittirilgan sodda matnni to'g'ri yoza olish.

Ushbu talablardan kelib chiqqan holda boshlang'ich ta'limda o'zbek tilini o'qitishda, asosan, o'quvchilarning lug'at boyligi ustida ishlash, o'rganilgan so'zlar tarkibidagi o'zbek tilining nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish, so'zlar, so'z bikikmalari va gaplarni to'g'ri o'qish va yozish, gapirish ko'nikmalarini hosil qilishga qaratiladi. Shundan kelib chiqib, 2–4-sinflar o'quv dasturida belgilangan nutqiy mavzular bo'yicha berilgan lug'at – leksik minimum, nutq namunalarini tinglab tushunish, so'zlash, o'qish va yozish amallari ustida ishlash orqali o'zlashtirish ko'zda tutiladi.

Ko'rinadiki, boshlang'ich ta'limda topshiriqlarni, kundalik muloqotga oid so'z va jumalarni tinglab tushunishdan boshqa talablar belgilanmagan. Birinchi – alifbo bosqichida talaffuz qilish bo'yicha o'zbek tiliga xos nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish; so'z va so'z birikmalarini to'g'ri talaffuz qilish ko'rsatilgan, biroq to'g'ri talaffuz me'yorlarini keyingi bosqichlarda muntazam davom ettirish ko'zda tutilmagan. Orfoepik talaffuz me'yorlarini tizimli ravishda o'rgatmaslik oxir-oqibatda sinf (auditoriya)dan tashqaridagi nutqni tushunishni ham, til sohiblari bilan muloqotga kirishishni ham qiyinlashtirib qo'yadi.

“O‘zbek tili” darsliklarining bir yo‘la ta‘lim rus, qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, turkman va tojik tillarida olib boriladigan maktablar uchun umumiy tarzda yozilishi va chop etilishi ham bu borada qator muammolar yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Ushbu muammolar:

– qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, turkman tillari genetik jihatdan bir oilaga mansub qardosh tillar ekanligidan;

– rus va tojik tillari esa genetik jihatdan ham, tuzilishi jihatidan ham o‘zbek tilidan farqlanishi tufayli ular o‘rtasida farq-tafovutlarning ko‘pligidan;

– ta‘lim rus tilida olib boriladigan maktablarda qardosh tillar vakillari, shuningdek, o‘zbek xalqining farzandlari ham ko‘pchilikni tashkil etishidan kelib chiqmoqda.

Bu holat bir guruhda o‘zbek tilini bilish darajalari turlicha bo‘lgan o‘quvchi-talabalarning tahsil olishiga olib kelmoqda. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda ta‘lim o‘zga tillarda olib boriladigan maktablarda o‘qiydigan o‘quvchi-talabalarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

– o‘zbek tilini yaxshi biladigan turkiyzabon o‘quvchi-talabalar (ular orasida o‘zbeklar ham bor);

– o‘zbek tilini yaxshi bilmaydigan turkiyzabon o‘quvchi-talabalar (ular orasida o‘zbeklar ham bor);

– o‘zbek tilini nisbatan yaxshi biladigan rusiyzabon o‘quvchi-talabalar (ular orasida o‘zbeklar ham bor);

– o‘zbek tilini tushunadigan, biroq o‘zbek tilida gapira olmaydigan rusiyzabon o‘quvchi-talabalar;

Albatta, ikkinchi til ta‘limida ta‘lim oluvchining ona tili va o‘rganilayotgan tillarning o‘zaro ta‘siri yuz berishini kuzatish mumkin. Bunda ona tilining ta‘siri ham ijobiy, ham salbiy bo‘lishi mumkin. Ona tilining salbiy ta‘siri til interferensiyasi, deb atalib (lug‘aviy ma‘nosi “aralashtirish”, “chalkashtirish”), bu hodisa aslida ona tili tizimiga xos hodisalarni xorijiy til nutqiy faoliyatiga ko‘chishi natijasida yuzaga keladigan xatoliklardir. Bir tilga xos ko‘nikmaning boshqa tilga ko‘chishi inson ruhiyatining murakkab faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, inson tafakkurida uning ona tili tizimi bilan bevosita va bilvosita bog‘liq assotsiatsiyalarni yuzaga keltiradi. Bu, ayniqsa, xorijiy til tizimining ona tiliga mos kelmaydigan qismlarida paydo bo‘ladi.



Akademik L.V. Shcherba: *“Ikkinchi til ta’limida har doim ona tilining salbiy ta’siri sezilib turadi. Ona tilini biz har qancha haydashga urinmaylik, chet tillarni o’qitishda u hamisha yonma-yon turadi. Shu bois biz ushbu “dushman”ni “do’stimiz”-ga aylantirishimiz kerak bo’ladi”*<sup>55</sup>, deb ta’kidlagan edi. Mazkur “dushman”ni “do’st”ga aylantirish uchun tillarni qiyoslash metodidan foydalanish kerak bo’ladi, ya’ni o’quvchining ona tili bilan o’rganilayotgan til o’rtasidagi umumiy, o’xshash jihatlarni va, aksincha, farqli, noo’xshash jihatlarni aniqlash zarur bo’ladi.

Tillardagi o’xshashlik va farqli jihatlar ayniqsa, tillarni o’rganishning boshlang’ich bosqichida o’quvchi nutqida yuz berishi mumkin bo’lgan xatolarning oldini olishda katta yordam beradi. Biroq bir guruhda bir necha tillarning vakillari tahsil oladigan sharoitda o’quvchilarning ona tillari bilan o’rganilayotgan tilni qiyoslab o’rgatishning imkoni yo’q, albatta. Chunonchi, ko’p millatli respublikamizda ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda tuzilishi va tovush tizimi butunlay farq qiluvchi rus, tatar, tojik tillarining vakillari kelib chiqishi va tuzilishiga ko’ra bir-biri bilan qarindosh, biroq singarmonizm holati mavjudligi tufayli nutq tovushlari talaffuzida ham ko’plab farqli xususiyatlar mavjud bo’lgan qoraqalpoq, qozoq, qirg’iz, turkman tillari vakillarining birga o’qishi o’zbek tilini o’rgatishda katta qiyinchiliklar yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Jumladan, qardosh til vakillarida nutq tovushlari talaffuzida quyidagi xato holatlar ko’p uchraydi:

**A** va **O** unillarining nutqda ko’p hollarda almashtirib qo’llanishi (masalan: yA(o)vvoyi, bA(o)zor);

**J** undoshi so’z boshida kelgan hollarda o’zbek tilida Y tovushiga o’tishi (yo’l – jol, yo’q – jo’q, yomon – jaman, ya(YA)xshi – jaqsi ) tufayli o’quvchilar deyarli barcha o’rinlarda J undoshini Y undoshiga almashtirib qo’llashlari va shu tufayli xatolar sonining ko’payib ketishi;

**G’** undoshin **V** undoshi bilan almashtirib qo’llash, ya’ni tog’ – taV, og’iz – aVuz, to’g’ramoq – tuVramaq kabi;

**Q** undoshini **G’** undoshi bilan almashtirib qo’llash (chiqib – shiG’ip) va shunday yozish holatlari;

---

<sup>55</sup> Щерба Л. В. Преподавание иностранных языков в средней школе // Общие вопросы методики. / Под ред. Рахманова И.В. Изд. 2-е. – Москва: 1974. – С. 38.

**K** undoshining **G** undoshi bilan almashtirilishi va soʻz oxirida kelganda tushirib talaffuz qilinishi va shunday yozilishi (ekin – eGin, koʻrsatkich – koʻrsatGich, kichik – kichi);

**Ch** undoshining **Sh** undoshi bilan almashtirib qoʻllanishi (choy – shoy) kabi.

Genetik jihatdan ham, tuzilishiga koʻra ham turli guruhlarga mansub boʻlgan rus va tojik tillarida farqli xususiyatlar nafaqat tovush tizimida, balki tilning soʻzlarning grammatik tuzilishi, grammatik kategoriyalar turlari va ularning ifoda vositalari, gap tuzilishi tartibi kabilarda ham yaqqol namoyon boʻladi. Xususan, rus va oʻzbek tillari nutq tovushlari tizimida faqat u yoki bu tilda mavjud boʻlgan unli va undosh tovushlar, talaffuzida qisman farqli jihatlar mavjud boʻlgan tovushlar, shuningdek, talaffuzi bir xil boʻlgan nutq tovushlari uchraydi. Bunday hollarda, spetsifik va talaffuzida qisman farqli jihatlari boʻlgan quyidagi tovushlar talaffuzi ustida davomli ravishda ish olib borilishi kerak boʻladi:

1. Oʻzbek tilida mavjud boʻlgan, rus tilida esa mavjud boʻlmagan spetsifik nutq tovushlari: **Q, Gʻ, H, Ng, J** (qorishiq undosh) undoshlari, **O** unlisini toʻgʻri talaffuz qilish mashqlari.

2. Oʻzbek va rus tillarida mavjud, biroq talaffuzida qisman farq qiluvchi nutq tovushlari: **L** undoshini rusiyzabonlar yoki qattiq variantda (*lola*) yoki yumshoq variantda (*bulbul*) talaffuz qiladilar, oʻzbek tilidagi **L** undoshi esa ushbu tovushlarning oʻrtasida talaffuz qilinadi.

**I** unlisi oʻzbek tilida faqat **Y** tovushidan oldin kelganda choʻziq aytiladi, qolgan barcha hollarda qisqa aytiladi. Biroq rusiyzabon oʻquvchilar urgʻu tushgan (udarnaya pozitsiya) va urgʻudan oldingi (peredudarnaya pozitsiya) boʻgʻinlarda **I** unlisini hamisha choʻziq talaffuz qiladilar: *bi:r, ikki:nchi*: kabi. Har ikki holat ham ona tilining salbiy taʼsirida yuz beradi.

Tojik tilida ham **O** unlisining talaffuzi oʻzbek tilidagi **O** unlisidan farq qiladi. Shuningdek, rus tilidagi unilarning urgʻuli va urgʻu olmagan vaziyatlardagi talaffuz meʼyorlari, oʻzbek tilida soʻz oxirida undoshlarning jarangsizlashish xususiyatlari, ikkilangan undoshlar talaffuzi bilan bogʻliq orfoepik meʼyorlar rusiyzabon oʻquvchilar oʻzbekcha talaffuzida sezilib turadi.

Albatta, bunday holatlarda oʻquvchilarga individual yondashish, ularning ona tilidagi bu kabi xususiyatlarni qiyoslab tushuntirgan holda, ularni oldindan ogohlantirish kerak boʻladi. Oʻzbek

tili darslarida, ayniqsa, spetsifik nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishga qaratilgan quyidagi kabi mashq turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

- **Q, G', H** tovushlarining talaffuzini diqqat bilan eshiting;
- **Ng, J** tovushlarini namunadagidek talaffuz qiling;
- spetsifik nutq tovushlarini eshiting va birga talaffuz qiling;
- so'zlarni eshiting, talaffuzdagi xatoni toping.

Boshlang'ich ta'limda qatorlar o'rtasida musobaqa tashkil etish, kim to'g'ri talaffuz qiladi kabi o'yinlarni tashkil etish va tez-tez o'tkazib turish to'g'ri talaffuz me'yorlarini mustahkamlashga va spetsifik nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini shakllantirishga shart-sharoit yaratadi. Spetsifik nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish ishlarini yuqori sinflarda ham, hatto zarurat tug'ilsa oliy ta'limda ham davom ettirishi kerak.

Shu o'rinda ayrim o'qituvchilarning nutqida uchraydigan shevaga xos talaffuz xatolarini ham bartaraf etishga jiddiy e'tibor qaratish zaruratga aylanayotganini ham qayd etish lozim. Xususan, Xorazm, Buxoro, Qashqadaryo, Namangan, Toshkent shevalarida uchraydigan **Q, G'** tovushlarini **K, G** tarzida, **U** tovushini qisa va cho'ziq variantlarda qo'llash; **U** tovushini **I** deb talaffuz qilish; **H** va **Ch** tovushlarini farqlamaslik kabi talaffuz xatolari boshlang'ich ta'limdayoq o'quvchilar tomonidan etalon talaffuz sifatida qabul qilinadi. Keyinchalik ushbu shakllanib bo'lgan ko'nikmalarni qayta shakllantirish nihoyatda qiyin kechadi, chunki o'quvchida shakllanib bo'lgan ko'nikmalar keyingisi uchun interferentiv to'siqqa aylanadi. Shu bois, "O'zbek tili" lari jarayonida etalon talaffuz ustida ishlash, buning uchun audio ishlanmalardan keng foydalanish va o'quvchilarning to'g'ri talaffuz qilish, to'g'ri o'qish, ifodali o'qish ko'nikmalari ustida muntazam ish olib borilishi, "*Bu – to'g'ri!*", "*Bu – xato!*" kabi ish turlaridan tez-tez foydalanib turish kerak bo'ladi.

Quyida sinflarda ushbu ko'nikmalarni yuqorida qayd etilganidek, o'qituvchining yoki audiovosita orqali eshittirilgan etalon talaffuzga taqlid qilish, to'g'ri talaffuzni qayta-qayta takrorlash orqali, mustahkamlash orqali shakllantirish, yuqori sinflarda matn tarkibidagi yangi so'zlar talaffuzini o'zlashtirishda mobil ilovalardan foydalanish samarali natija beradi.

Afsuski, ko‘p hollarda atrof-muhitda til sohiblarining turli shevalarda gapirishlari, fan o‘qituvchilarining nutqida ham shevalarga xos unsurlarning ko‘plab uchrashi, hatto talaffuz me‘yorlarida ham ayrim tovushlarning shevalar ta‘sirida talaffuz qilinishi til muhiti mavjud bo‘lgan shart-sharoitda ham til o‘rganuvchilar uchun muayyan to‘siqlarni yuzaga keltirmoqda.

M. Gulamova o‘z tadqiqot ishida tinglab tushunishdagi asosiy qiyinchiliklardan biri – bu lingvistik qiyinchiliklar ekanligini, tinglab tushunishni muvaffaqiyatli amalga oshirishda va qiyinchiliklarni bartaraf etishda o‘qish va yozishni integratsiyalashtirib o‘tish muhim hisoblanishini ta‘kidlaydi<sup>56</sup>.

Ikkinchi til ta‘limida xorijiy tillardagi kabi nutq jarayonida tinglab tushunish va gapirish faoliyati o‘ta muhim o‘rin tutadi. Gapirish nutq faoliyatining faol jarayoni bo‘lib, u nafaqat gapirganda, balki so‘zlovchini tinglaganda ham o‘z faolligini yo‘qotmaydi. Gapirish tushunish jarayonida, tushunish esa gapirish jarayonida shakllanadi. Tinglab tushunishga uzoq vaqtlar davomida tillarni o‘qitishda gapirishning uzviy qismi, deb qarab kelingan. O‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab nutq faoliyatining alohida turi sifatida ko‘rila boshlangan. Til o‘rganishda muhitning o‘rni va ahamiyati juda katta. Tilni til muhiti bor bo‘lgan va bo‘lmagan joyda o‘rganilishi tinglab tushunishning qiyinchiliklarining kamayishi yoki ortishiga olib keladi. Til muhiti mavjud sharoitda tinglab tushunish kompetensiyasi bolalikdan bir muncha shakllangan bo‘lgani uchun nutq faoliyatining bu turi gapirish faoliyatining bir qismi sifatida tushuniladi. Odatda, dialogik nutq jarayonida savollarga javoblar berishda chet tillarni o‘rganishda o‘quvchi-talabalardan *“Понимаю, но не умею говорить”*, degan e‘tiroflarni ko‘p eshitamiz. O‘zbek tili darslarida tinglab tushunishga oid mashqlarning nisbatan kam o‘tkazilmasligining sabablaridan biri shunda.

Afsuski, o‘zga tilli o‘quvchi-talabalarining o‘zbek tilidagi talaffuz ko‘nikmalarining shakllanganlik darajalari va o‘zbekcha nutqni qanchalik darajada tushunishlari baholash me‘yorlarida o‘z aksini topmay kelmoqda. Bu o‘zbek tili darslarida boshlang‘ich ta‘lim bosqichidan boshlab to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalarini shakl-

---

<sup>56</sup> Гулямова М. Инглиз тилини ўқитишда талабалар коммуникатив компетенциясини ривожлантиришга интегратив ёндашув: Пед. фан.... falsafa dokt. diss (PhD). – T., 2019. 35–36-б.

lantirishga jiddiy e'tibor qaratish, o'zbek tilidagi spetsifik nutq tovushlari talaffuzi, urg'u, gaplarni jummalarga to'g'ri ajratib talaffuz qilishga doir mashq turlarini darsliklarga kiritish va, albatta, dars jarayonida etalon talaffuz namunalari berilgan audiovositalar bilan ishlash, eshitish mashqlarini keng yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Amaldagi "O'zbek tili" darsliklariga, masalan, OTMLar rus guruhlari 2012-yilda chop etilgan "O'zbek tili" darsligida<sup>57</sup> eshitish mashqlari alohida rukn sifatida berilgan bo'lib, jumladan, quyidagi kabi topshiriqlar kiritilgan:

**Eshitish mashqi.** O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning "Ona tilim" she'rini diqqat bilan tinglang. Spetsifik nutq tovushlarining talaffuziga e'tibor bering. She'rni ifodali o'qing va yod oling. (9-b.)

**Eshitish mashqi.** "O'zbekiston daryolari" matnini diqqat bilan tinglang. Matndagi so'zlarni jadvalga mos holda yozib boring va tuzilishini izohlang. Matnni davom ettiring. (15-b.)

**Eshitish mashqi.** Matnni diqqat bilan tinglang va tayanch so'zlarni yozib boring. So'ngra ushbu so'zlarning ma'nosini sharhlagan holda matnni qayta tiklang. (20-b.)

Bunday mashq turlarini boshlang'ich ta'lim bosqichlaridan boshlash maqsadli va samarali bo'ladi. O'zbek tilini xorijliklarga chet tili sifatida o'qitishda tinglab tushunish mashqlariga katta e'tibor qaratiladi. Biroq o'zbek tilini til muhiti mavjud bo'lgan shart-sharoitda ikkinchi til sifatida o'qitishda ta'lim oluvchilar ko'p so'zlar va jumlar ma'nosi bilan avvaldan tanish bo'lganliklari uchun bunday mashq turlari deyarli o'tkazilmaydi. Amaldagi "O'zbek tili" darsliklarida she'r mazmunini so'zlab berish bo'yicha, she'rni ifodali o'qing, matnni o'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlarga yoki ularning talaffuziga e'tibor bering kabi topshiriqlar ko'p berilgan. Xususan, yuqori sinflar darsliklarida asosan o'qilgan yoki o'qib eshittirilgan matn mazmunini so'zlab bering, matn nima haqidaligini ayting, matndagi asosiy fikrni toping kabi topshiriqlar ustida ko'p ishlanadi. She'r yoniga uning mazmuni bo'yicha rasmlar berib borilishi o'quvchilarga bu topshiriqni bajarish va she'r g'oyasini tushunishga imkon yaratadi. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlar talaffuziga e'tibor berish topshirig'i, bizningcha, aslida tinglovchilarga taalluqli bo'lib, talaffuz xatolarini o'qituvchi

<sup>57</sup> Muxitdinova X.S., Salisheva 3.I., Po'latova X.S. O'zbek tili (oliy o'quv yurtlari rusiyazon guruhlari uchun darslik). –Toshkent: O'qituvchi, 2012. –288-b.

(yoki boshqa o'quvchilar) ilg'aydilar. Bunday xatolar qaysi sinfda uchrashidan qat'iy nazar talaffuz xatolari ustida muntazam ish olib borilishi, tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish so'zlar, jumlar, matnlarni o'zlashtirish jarayonida eng muhim ish turlaridan biri hisoblanishi kerak bo'ladi. Biroq she'rni ifodali o'qishda aynan nimaga e'tibor qaratish, qaysi so'zni qanday o'qish, qayerda va necha marta to'xtam qilish, shoir ifodalamoqchi bo'lgan g'o-yani tushunishga qaratilgan ish turlari o'tkazilmaydi.

Aslida, tinglab tushunish mashqlari til o'rganuvchilarni real hayotdagi turli nutqlarni eshitib tushunish ko'nikmasini shakllantirish bo'lib, biz ko'proq o'quvchi-talabalarning dars jarayonida o'qituvchi nutqini, maktab, sinf, auditoriyada o'z tengdoshlarining nutqini tinglab tushunishlarigagina e'tibor qaratyapmiz. O'quvchi-talabalar ta'lim dargohidan chiqqandan keyin real hayotiy vaziyatlarda turli yoshdagi va turli kasbdagi insonlar bilan to'qnash kelishi, turli hayotiy vaziyatlarga, muammoli holatlarga duch kelishi mumkinligi va shunday vaziyatlardagi muomala-muloqotlarni tushuna olsa hamda ularga javob qaytara olsagina ularda til kompetentligi shakllangan bo'ladi. Bu tinglab tushunish mashqlarini ko'proq hayotiyashtirish, darsliklarda o'quvchilarning yoshiga mos autentik materiallardan, ayniqsa, audiomateriallardan ko'proq foydalanish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shuni ham qayd etish kerakki, o'zbek tilining shevalarga boy til bo'lib, turmush tarzimizda og'zaki so'zlashuv jarayonida ulardan keng foydalanilishi va milliy urf-odatlarda har bir shevaga xos muomala etiket namunalari ham keng qo'llanilishi adabiy tildagi nutq bilan jonli so'zlashuv o'rtasida katta farqlar mavjud. Aynan shu holat o'zbek tilini o'rganish istagidagi xorijlik sayyohlar, tadbirkorlar uchun ham juda katta to'siqni yuzaga keltiradi. Buni bartaraf qilish uchun dars jarayonlarida audio va video materiallar namoyishi orqali real nutqiy vaziyatlarni ko'proq namoyish qilish, shartli va haqiqiy kommunikativ vaziyatlar yaratish orqali o'quvchi-talabalarni real hayotiy vaziyat ishtirokchilariga aylantirish mashqlarini ko'paytirish darkor. "O'zbek tili" ta'limini shunday tashkil etish kerakki, til o'rganuvchilar ta'lim dargohidan chiqqandan so'ng o'rganganlari asosida atrofda odamlar bilan o'zlari muloqot qilib, egallagan bilimlarini amalda qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lsinlar. Atrofdagi til muhiti aslida ularga amaliyot o'tash hududi vazifasini o'tashi kerak.

Bugungi kunda ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun chop etilayotgan ayrim "O'zbek tili" darsliklarini bevosita til ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirib yaratilayotganini ta'lim islohoti natijalaridan biri, deb hisoblash mumkin. Shu bilan bir qatorda o'zbek tili darslari jarayonida audiovositalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'limiy o'yinlardan foydalanish orqali tinglab tushunish va to'g'ri talaffuz mashqlarini muntazam o'tkazib turish ta'lim sifati samaradorligiga erishishda yaxshi natijalar beradi. She'rlarning audiodiskka yozilgan variantini eshittirish, o'quvchilarni diktor bilan birga o'qish mashqlarini bajarishga jalb qilish bu masalalarning barchasini amalda egallab borishga imkon beradi.

## **9.2. Monologik va dialogik nutq shakllarida gapirish ko'nikmasini shakllantirish**

Nutq faoliyati tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuvdan iborat bo'lib, tilshunoslikda nutq tilning mahsuli sifatida, psixologiyada nutq jarayoning fiziologik mexanizmlari sifatida tadqiq etiladi. Og'zaki nutqning eng muhim shakli gapirish bo'lib, psixologlarning fikricha, ushbu jarayon psixologik jihatdan quyidagi 3 bosqichdan iborat:

1) muloqotga kirishish istagi va nutq g'oysining yuzaga kelishi;

2) nutqning shakllanish jarayoni;

3) nutqning yuzaga chiqishi, amalga oshishi jarayoni<sup>58</sup>.

Aynan ikkinchi bosqichda nutqni shakllantirish jarayoni – o'y-fikrni muayyan til vositalari asosida ifodalashni tashkil etish harakatlari boshlanadi. Bu jarayonda til qonun-qoidalari asosida lisoniy vositalarni tanlash, ifodalanadigan fikrdan kelib chiqib, ularni bir-biriga bog'lash faoliyati amalga oshiriladi. Fikrlar shu tarzda jamlab olingandan so'ng, nutq faoliyatining uchinchi – nutqni bevosita yuzaga chiqarish bosqichi boshlanadi. Mazkur bosqichda:

– muayyan fikrni qamrab olgan jumlaning tashqi nutqda avval yuzaga chiqqan jumla bilan bog'liqligini ta'minlash;

– barcha nutq a'zolarining o'zaro muvofiqlashtirgan bir me'yordagi harakatlarini ta'minlash;

---

<sup>58</sup> Муҳиддинов А. Ф. Ўқув жараёнида нутқ фаолияти. – Т., Ўқитувчи, 1995. – 4-б.

– tashqi nutqning qanday amalga oshayotganligini nazorat qilib turish;

– nutqning suhbatdoshga qay darajada taʼsir etayotganligini baholash;

– soʻzlash jarayonida nutq gʻoyasining qay darajada amalga oshayotganligini aniqlash vazifalari amalga oshiriladi<sup>59</sup>.

Gapirish til vositalarining aqliy faoliyat vositasida faollashuvi, lisoniy ifodalarning grammatik tuzilmalarini ikkinchi tilga transformatsiyalash jarayonidan iborat boʻlib, u nutq tovushlari artikulyatsiyasi vositasida yuzaga chiqariladi. Ushbu jarayon yuqorida qayd etilgan barcha faoliyat turlarining eng oliy darajada amalga oshirish, yaʼni botiniy nutqning til vositalari yordamida ifodalangan zohiriy nutq shaklining yuzaga kelish jarayonidan iborat boʻladi.

Nutqning yuzaga chiqishi lingvistik jihatlar bilan bir qatorda nutqiy ifodalarni yuzaga keltirishning turli mexanizmlari, xususan, zarur nutqiy birliklarni vaziyatga mos holda tanlash va ijodiy ishlash koʻnikmalarini egallashni ham taqozo etadi. Bu jarayon, eng avvalo, soʻzlar va ularning grammatik shakllarini tanlash va jamlashdan boshlanadi. N. I. Jinkin ushbu fiziologik jarayonni ikki qismga: nutqiy faoliyatni yuzaga keltiruvchi analizator va eshitysh analizatoriga boʻladi. Uning qayd qilishicha, birinchi bosqichda soʻzlar tanlovi ketadi, ikkinchi bosqichda esa soʻzlarni oʻzaro bogʻlash jarayoni kuzatiladi. Nutq mexanizmlarini shu tarzda transformatsiyalash, yaʼni shakllantirish va takomillashtirish jarayoni nutqiy muloqotda yuz beradigan axborot almashinuvi sharoitidagina amalga oshishi mumkin. Ushbu mexanizmlar esa faqat nutqiy muloqotga ehtiyoj paydo boʻlgandagina ishga tushadi<sup>60</sup>.

Ikkinchi til taʼlimining asosiy vazifasi ushbu nutq mexanizmlarini ishga tushirish, talabalarning oʻrganayotgan tilda axborot almashinuv qobiliyatini roʻyobga chiqarishdan iborat. Buning uchun taʼlim oluvchilarda shu tilda gapirish ehtiyojini yuzaga keltirish va mazkur tilning leksik-grammatik imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalana olishni oʻrgatish kerak boʻladi.

Nutqning ogʻzaki va yozma, monologik, dialogik shakllarining har biri oʻziga xos grammatik xususiyatlarga ega boʻlib, ular turli lingvistik vositalarni qoʻllashni talab etadi. Bu oʻrin-

<sup>59</sup> Мухиддинов А. Ф. Ўша манба, 15-б.

<sup>60</sup> Жинкин Н.И. Механизмы речи. 3-е изд. – М., 1991. – С. 132.



da tovushlarni ifoda qilish, gap ohangi, nutq tempi kabi vositalar ham katta ahamiyatli bo‘lib, bu xususiyatlar og‘zaki nutq shakli bilan bog‘liqdir. Nutqni yuzaga keltiruvchilar ishtirokiga ko‘ra monolog, dialog va polilog turlari mavjud bo‘lib, **monolog** grekcha *monos* – bir va *logos* – ta’limot so‘zlaridan olingan bo‘lib, bir shaxs tomonidan fikrlarning izchillik bilan davomli va uzviy bog‘liq holda bayon etilishidir. Qisqa muloqot shakli hisoblanuvchi dialoglardan farqli holda monologik nutq muayyan mavzu bo‘yicha kengaytirilgan axborotdan iborat bo‘lib, bunda aytilmoqchi bo‘lgan fikr haqida yetarli darajada keng va to‘liq ma’lumot berish ko‘zda tutiladi. Psixolog A.A. Leontev fikricha, “*Monologik nutq bir kishining nutqi bo‘lib, uzoq vaqt jarayonida o‘z fikrini bayon qilishi yoki bilimlar tizimining bir kishi tomonidan izchillikda bog‘lanishli shaklda ifodalanishi*”dir<sup>61</sup>. Ushbu fikrda monologik nutqning uch asosiy xususiyati:

- uning yakka shaxsning nutqi ekanligi;
- davomiyligi (muayyan vaqt davom etishi);
- fikrni izchillikda bog‘lanishli ifodalashga xizmat qilishi ta’kidlangan.

Monologik so‘zlash dialogik suhbatga nisbatan psixologik va lisoniy jihatdan ancha murakkab jarayon bo‘lib, so‘zlovchidan o‘z fikrlarini aniq, o‘zaro izchil va uzviy bog‘liqlikda ifodalash ko‘nikmalarini talab etadi. Shu bois monologik nutq malakalarini egallash ko‘proq mehnatni talab qiladi. G.A. Yakovlevaning ta’kidlashicha, talabalarning nutqni monologik ifodalashdagi qiyinchiliklar monologni tuzishga xos mantiqiy bog‘lanishlarni (chunonchi, voqea shart-sharoiti va natijalarini tavsiflash va baholash), voqea bayonida xronologik izchillikni ifodalash bilan bog‘liqdir. Bu, bir tomondan, so‘zlovchining o‘rganilayotgan til-dagi lisoniy vositalarni qay darajada bilishidan kelib chiqsa, ikkinchi tomondan, ta’lim oluvchining bilimi darajasidan ham kelib chiqadi<sup>62</sup>.

---

<sup>61</sup> Леонтьев А. А. Внутренняя речь и процесс грамматического порождения высказывания // Сб. Вопросы порождения речи в обучении языку. – М.: МГУ, 1967. – С. 6–15.

<sup>62</sup> Яковлева Г. А. К вопросу о развитии русской монологической речи студентов старших курсов // Сб. статей по методике преподавания русского языка в вузах союзных республик. Выпуск 6. – М.: Высшая школа, 1988. – С. 127.

Haqiqatan ham, bog‘lanishli nutq shaklidagi muloqot jarayoni juda murakkab bo‘lib, so‘zlovchi muloqot yuritish uchun miyasida yuzaga kelgan fikrni idrok qilib, tushunib olgach, uni tashqi nutqda ifoda qilishga kirishadi. Aynan shu vaqtning o‘zida uning ongida navbatdagi fikr tug‘ila boshlaydi. Shunday tartibda yuzaga keladigan har bir fikr ifoda qilingan avvalgi fikr bilan uzviy bog‘langan bo‘ladi. Bunday bog‘lanish fikrlarning bir-birini to‘ldirishi, izohlashi, tasdiqlashi orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonda muayyan fikrlarni bevosita ifoda qilish uchun zarur bo‘lgan til vositalarini tanlab olish til ko‘nikmasi va nutq malakasiga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Jumladan, o‘zbek tilida fikrni mantiqiy bog‘lagan holda ifodalovchi murakkab monologik nutqni egallash, asosan, gaplarni bog‘lovchi birliklar – payt ravishlari (*so‘ng, so‘ngra, keyin, avval, oldin, dastlab*), sabab-natija ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar (*shuning uchun, shu sababli, shu bois, chunki, natijada, oqibatda*), ketma-ketlikni, izchilikni ifodalovchi ravishlarni (*ketma-ket, birma-bir, birin-ketin*) to‘g‘ri qo‘llash, gapda so‘zlar tartibi, bog‘lovchi va bog‘lovchi vositalarni to‘g‘ri tanlay olishga bog‘liq bo‘ladi.

Monologik nutqiy malakaga ega bo‘lish bir vaqtning o‘zida ham mantiqiy, ham lisoniy dasturni amalga oshirishi, ya‘ni so‘zlovchi o‘z fikrini bog‘lanishli tarzda ravon bayon etishi, matn hech qanday uzilishlarsiz, jumlarlar o‘rtasida to‘xtamlarsiz yaxlit holda aytilishi uchun ichki dasturlash, ya‘ni oldingi gapni aytilish jarayonida keyingi gap mazmunini o‘ylab olish va unga mos ifoda vositalarini rejalashtirib olishdan iboratdir. Monologik nutqda, dialog va poliloglardan farqli o‘laroq, imo-ishora, mimika va boshqa ekstralingvistik vositalar hamisha ham ijobiylik kasb etmaydi. Jumladan, uzilishlar, to‘xtamlar, tovush cho‘ziqliklari monologik nutq turida artikulyasion-fiziologik yoki lingvistik nuqson sifatida baholanishi mumkin. Ikkinchi til ta‘limida monologik nutqqa o‘rgatishda shu xususiyatlarni ham nazarda tutish, xususan, mazmunni mantiqiy bog‘liqlikda ifodalay olish ko‘nikmasini hosil qilish, asosiy fikrni ifodalashga, muayyan maqsadga yo‘naltirish, aytilgan fikr-mulohazalardan xulosa va umumlashmalar chiqarishga ham o‘rgatib borish kerak bo‘ladi.

O‘zbek tili ta‘limida bog‘lanishli nutqqa o‘rgatish muhim amaliy ahamiyatga ega. Umumiy o‘rta ta‘lim bosqichining ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablari uchun DTS talabla-

rida o'quvchining o'zbek tilida o'z oilasi, do'stlari, tengdoshlari, qiziqishlari kabilar haqida o'z fikrlarini bayon etishlari, o'zlari yashaydigan shahar yoki qishloq, ko'cha, maktab va sinfxonalari tasvirlay olish ko'nikma-malakalariga ega bo'lishlari ko'zda tutilgan. Biroq R.Yo'ldoshev ta'kidicha, matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilar o'zbek tilida ko'p gapirmaydilar. 2–3 o'quvchigagina matn mazmuni so'zlatiladi, xolos. Natijada og'zaki nutq o'stirishda olg'a siljish talab darajasiga yetmaydi. "Bu qalam", "Shifokor keldi", "Men maktabda o'qiyman" kabi erta-yu kech tilga olinadigan jummalarni mustasno etganda, mustaqil ravishda gap tuza olmaydigan o'quvchilardan biror mavzuda erkin hikoyalashni talab etishning o'zi foydasiz<sup>63</sup>.

Ayni vaqtda har bir tildagi monologik nutq gaplarning grammatik tuzilishi, sintagmatik bo'linishi, so'zlarning talaffuz ohangi va tezligi kabi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xususan, o'zbek tilining agglyutinativ tillar turkumiga kirishi va affiksallik tilligi sabab so'zlar tarkibida qo'shimchalarning ko'p qo'llanishi tufayli so'zlarning grammatik tuzilishi jihatidan birmuncha yoyiq bo'lishi flektiv til sohiblariga talaffuz jarayonida ayrim qiyinchiliklar tug'diradi. So'zlarni muayyan izchillikda, tautologik takrorlarsiz va tez-tez almashtirib qo'llashni taqozo qiluvchi monologik nutq turida rus guruhleri o'quvchi-talabalari uchun bu anchagina murakkab hisoblanadi. Z.Salisheva tadqiqot ishida rus guruhlarida o'zbek tili mashg'ulotlari jarayonini o'rganish talabalarining o'zbek tilida og'zaki bog'lanishli gapirish malakasiga ega bo'lishlarida quyidagi qiyinchiliklarga duch kelishlari ko'p kuzatilishini qayd etadi va buning sabablari sifatida:

– fikrni mustaqil ifodalash uchun so'z boyligining yetarli emasligi;

– so'zlarni o'zaro bog'lash uchun kerakli grammatik vositalarni to'g'ri tanlay olmaslik;

– tayyor nutqiy qoliplar, iboralarga o'rganib qolganligi, so'z birikmalari va gaplarni to'g'ri shakllantirish malakasining yetishmasligi;

– gap ohangini to'g'ri tanlash va sintagmalarga to'g'ri ajrata olish bilan bog'liq qiyinchiliklar;

---

<sup>63</sup> Yo'ldoshev R. A. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitish metodikasi. – T.: O'zPFTI, 2015.– 39-b.

– soʻz urgʻusini qoʻyish va ayrim tovushlarning talaffuzi bilan bogʻliq qiyinchiliklar;

– jonli soʻzlashuvda shevaga xos soʻzlar, jargonlar, evfemizmlarning koʻplab ishlatilishi tufayli til sohiblari nutqini tushunish bilan bogʻliq qiyinchiliklar;

– ona tili taʼsirida roʻy beradigan interferentiv xatolar va keraksiz oʻzlashmalarni ishlatish;

– bogʻlanishli nutqning mantiqiy qismlarini bir-biriga bogʻlashda qoʻllanadigan kirish soʻzlarni oʻrinli va meʼyorida qoʻllash bilan bogʻliq qiyinchiliklar;

– soʻz boyligining yetishmasligi tufayli bogʻlanishli nutq jarayonida sunʼiy toʻxtamlarga duch kelish holatlari;

– tilning vazifaviy uslublari, bayon qilinayotgan axborotning uslubiy xosligidan kelib chiqib, shunga mos til vositalarini tanlash va qoʻllash bilan bogʻliq qiyinchiliklarni koʻrsatib oʻtadi [76; 30-b.].

Ikkinchi til taʼlimida ekstralingvistik vositalar orasida eng koʻp uchraydigan salbiy hodisalardan biri pauza (toʻxtamlar) bilan bogʻliq boʻlib, ogʻzaki soʻzlash jarayonida toʻxtamlarning turlicha kechishi kuzatiladi. Toʻxtamlar natijasida turlicha psixologik holatlar, nutqdagi ravonlikning buzilishi, ortiqchaliklar yuz beradi. Toʻxtamlarning haddan ziyod koʻpayib ketishi esa quyidagi holatlarni yuzaga keltiradi:

1. Nutq jarayonida aytilayotgan soʻzdagi oxirgi boʻgʻin yoki tovushni sunʼiy choʻzib turish holati. Bu soʻzlovchining oʻzi qidirayotgan soʻz yoki jumlani bilgan, biroq yoddan chiqargan hollarda yuz beradi va topguniga qadar davom etadi.

2. Nutq jarayonida taktlar, yaʼni jumlarlar orasidagi qisqa toʻxtamlarning koʻpayib ketish holati. Bu soʻzlovchining ikkinchi til-dagi gap ohangi bilan bogʻliq xususiyatlarni yaxshi bilmasligi oqibatida yuz beradi.

3. Nutq jarayonida jumlarlar orasida ortiqcha tushunarsiz tovushlarning qoʻllanish holati. Bu soʻzlovchining lugʻat zaxirasi yetarli boʻlmagan hollarda vujudga keladi.

4. Nutq jarayonida yuz beradigan toʻsatdan toʻxtalish holati. Bu tashqi taʼsirlar: auditoriyada kimningdir salbiy munosabatini sezib qolish, oʻrinsiz kulgu, kinoya, kimningdir gap tashlashi, eshikning qoʻqqisdan ochilishi kabilar natijasida sodir boʻladi.

Aytish joizki, bunday holatlar soʻzlovchiga kuchli taʼsir qilishi va u stress holatiga tushib qolib, ancha vaqt davomida oʻzini oʻnglab ololmasligi, nafaqat bu tilda, balki boshqa tillarda ham ogʻzaki gapirishdan bezib qolishi mumkin. Shu bois taʼlim jarayonida bunday noxush holatlarning oldini olish uchun oʻqituvchi oʻquvchi-talabalarga ikkilamchi nutqiy malakalarni egallashda ana shunday psixologik toʻsiqlardan oʻtilishi kerakligini oʻrganilayotgan tilda ogʻzaki monologik gapirishga oʻrganish uchun bir-biriga yordam berishlari zarurligi haqida tushuntirishlar olib borishi va auditoriyada doʻstona vaziyat hukm surishini boshqarib turishi shart.

Bu oʻrinda qayd qilish joizki, nutqning ogʻzaki va yozma, monologik, dialogik shakllarining har biri oʻziga xos grammatik xususiyatlarga ega boʻlib, ular turli lingvistik vositalarni qoʻllashni talab etadi. Bu oʻrinda tovushlarni ifoda qilish, gap ohangi, nutq tempi kabi vositalar ham katta ahamiyatli boʻlib, bu xususiyatlar ogʻzaki nutq shakli bilan bogʻliqdir.

Darhaqiqat, bogʻlanishli nutqni oʻstirish vazifalari qisqa fursatda, yaʼni bir-ikki mashqdan keyinoq tegishli nutqiy ravonlik darajasini bermaydi. Nutqiy ravonlik bir qator mashqlar soʻngidagina qoʻlga kiritiladi. Y.I.Passov fikricha, muayyan til koʻnikmalarini shakllantirish qatʼiy reja asosidagi leksik-grammatik va nutqiy mashqlarni bajarish talab etiladi. Koʻnikmaning shakllanish jarayoni olingan bilimlardan foydalanib nutqiy vazifalarni bajarish va shunga koʻnika boshlashda namoyon boʻladi. Gap tuzish yoki bogʻlanishli tarzda fikr bayon qilish chogʻida yaqinda oʻrganilgan soʻzlarni lugʻat yordamida eslab ishlatish koʻnikmaning dastlabki hosil boʻlish qadami sanaladi<sup>64</sup>. Koʻnikma mashqlar avvalida quyi darajada boʻladi, oxiriga yaqinlashgach, yuqori darajaga yetadi, malakaga oʻtish chegarasida qoladi. Nutqiy ravonlik bir qator mashqlar soʻngidagina qoʻlga kiritiladi. Muntazamlik va uzluksizlik bilan ish olib borilsa, darsdan darsga, mashqdan mashqqa hosil qilingan koʻnikmaning sifati yaxshilanib boradi, baʼzan hatto malaka darajasiga yetadi. Buning uchun ikkinchi tilda rivojlangan nutq tezligini individning ona tilidagi nutq surʼatiga yaqinlashtirish kerak.

---

<sup>64</sup> Пассов Е.И. Теоретические основы обучения иноязычному говорению в средней школе. I часть.: дисс. ...доктора пед. наук. – Липецк, 1980. – С. 48.

Soʻzlash malakasi fikrni avtomatik tarzda gaplar tuzib bayon qilish boʻlib, u ayni bir mavzuda qayta-qayta gapirish natijasida shakllanadi. Koʻnikmalarning malaka darajasiga yetishida adabiy oʻqish uchun berilgan nasriy asarlarni oʻqish va mazmunini soʻzlab berish topshiriqlarini koʻp bajartirishning ham amaliy ahamiyati nihoyatda katta. Rusiyzabon oʻquvchilarni oʻzbek tilida biror mavzuda soʻzlatishdan kuzatiladigan asosiy maqsad:

- yoyiq gaplarni tuzish va aytish jarayonini tezlashtirish;
- bogʻlanishli nutqni shakllantirish jarayonini rivojlantirish;
- ogʻzaki nutq surʼati va ravonligini til egalarining soʻzlash surʼati va ravonligiga yaqinlashtirishdan iborat.

Ikki shaxs nutqi – **dialoglarda** soʻzlovchi va tinglovchi orasidagi fikr almashish jarayoni, oʻzaro suhbat, savol-javoblar ifoda qilinadi. Muloqot jarayonida ikkidan ortiq shaxs ishtirok etadigan nutq turi poliloglar ham mavjud boʻlib, ushbu nutq turlarining har biri oʻziga xos lisoniy va psixologik xususiyatlarga ega. Dialogik nutqda vaziyat juda muhim oʻrin tutadi. Koʻpincha dialog va poliloglar oʻz-oʻzidan tasodifiy uchrashuv jarayonida yoki biror voqea-hodisa taʼsirida yuz berishi va vaziyatdan kelib chiqqan holda kutilgan – ijobiy yoki kutilmagan – salbiy natijalarni berishi mumkin. Dialog va poliloglarda suhbatda ishtirok etuvchi shaxslarning nafaqat psixologik-ruhiy holati, balki suhbat kechayotgan vaziyat, nutq oqimining borishi, soʻzlovchi va tinglovchining suhbatdagi oʻrni, suhbat mavzusiga eʼtibori kabilar ham katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu nutq turlarida tinglovchining reaksiyasidan kelib chiqib, nutq davom ettirilishi yoki qisqartirilishi, hatto nutq mavzusi oʻzgartirilishi, tinglovchilarning diqqatini tortish maqsadida aynan bir gap bir necha marta takror aytilishi, yoʻnaltiruvchi savollar yordamida nutq mavzusini oʻz maqsadi tomon burishi ham mumkin. Nutqning bu turida mimika, imo-ishora kabi noverbal, yaʼni ekstralingvistik vositalar katta oʻrin tutadi. Dialoglarda hatto nutqdagi uzilishlar, toʻxtamlar, takrorlar ham muayyan maqsadga xizmat qilishi mumkin.

Taʼkidlash joizki, dialogik nutqda shakl va mazmun birligi amal qiladi: suhbatdoshning nima maqsadda muloqotga kirishayotganligiga qarab muloqot tartibi yuzaga keladi. Demak, dialogik nutq oʻstirishda taʼlim mazmuni soʻzlashuv chogʻida ishlatiladigan gap turlari, yaʼni replikalar, shuningdek, qolip gaplardan tashqari, muloqot tartibini ham oʻz ichiga olishi kerak. Tayyor berib qoʻyil-

gan savol, uning javoblari yod olishdan iborat hozirlik ko'rishnigina taqozo etadi. Aslida, dialogik nutq o'stirishda ham monologik nutq o'stirishda boigani kabi muayyan leksik va grammatik materiallarni gap tuzib aytish mazmunidagi faollashtirish jarayoni kechishi kerak. Mustaqil ravishda gap tuzib o'zaro suhbatlashish mashqlari ana shunday imkoniyatlari yuzaga keltirish uchun xizmat qiladi.

Qayd etish kerakki, odatda, til o'rganish qisqa kurslarida yoki tilni mustaqil o'rganishda so'zlashgichlardan foydalaniladi. So'zlashgichlardagi savol va javoblar – bildiriladigan istaklar o'qib berib yoki yod olib aytish tarzida muloqotda ishlatish uchun mo'ljallangan. Odatda, chet eldan kelgan sayyohlar yoki O'zbekistonga vaqtincha ish bilan kelgan tadbirkorlar o'zbek tilida gaplashuvchi aholi bilan so'zlashgichlar orqali muloqot olib boradilar. Lekin respublikamizda muqim yashaydigan rusiyzabon millat vakillari uchun so'zlashgichlarda berilgan qolip-gaplarning o'zi bilan doimiy muloqot olib borish yetarli emas, ular o'zbek tilini ham og'zaki, ham yozma mukammal o'rganishlari taqozo etiladi.

Tilni chet tili sifatida, shuningdek, ikkinchi til sifatida o'qitishda qolipli turg'un birikmalar, ya'ni har bir tilda mavjud muayyan andozadagi shablon iboralar katta rol o'ynaydi. Muayyan nutqiy vaziyat bilan bog'liq bo'lgan bunday iboralar shu xalqning milliy, madaniy turmush tarzini ham aks ettiradi. Biz hayotimizning barcha jabhalarida – uyda, ko'chada, ishxonada, to'y-tantanalarda, rasmiy marosimlarda ishlatiladigan qolip iboralarni har lahza qo'llaymiz. Eng e'tiborlisi, ushbu iboralardan nafaqat kommunikativ vaziyatga, balki suhbatdoshning kimligi, yoshi, jinsi, lavozimi, tanish-notanishlik jihatlari va h.z.lardan kelib chiqib tanlanadi va muomala-muloqot jarayonida foydalaniladi. Bu o'rinda N.I.Formanovskayaning nutq etiketi bergan ta'rifi diqqatga sazovor: *“Nutq etiketi, tor ma'noda, bu muayyan vaziyatlarda o'zaro muomalaga kirishda muloqot-muomala vositalarini ayni vaziyatidagi shart-sharoitga va kommunikantlarning ijtimoiy mavqei, shuningdek, o'zaro munosabatlari xususiyatlariga mos ravishda tanlangan odob-axloq me'yorlarining milliy o'ziga xos qoidalaridir”*<sup>65</sup>.

<sup>65</sup> Формановская Н.И. Использование русского речевого этикета. – М.: Русский язык, 1984. – 5-бет.

Har bir jamiyatning milliy madaniy turmush tarzini o'zida yorqin ifodalovchi bunday qolipli iboralar nutq etiketi deb nomlanib, odatda, ikki-uch tilli so'zlashgichlarda keng aks ettirilgan. Albatta, chet tili vakillari muloqotga kirishishning ilk bosqichida ushbu qo'llanmalar yordamida ushbu qolip so'zlarni yodlab olish va muayyan nutqiy vaziyatlarda ulardan unumli foydalanish orqali o'zlariga zarur ma'lumotlarni oladilar. Shu bois nutq etiketlari gapirishga o'rganishning eng oson yo'llaridan biri sifatida e'tirof qilinadi.

Albatta, nutq etiketlari gapirishga o'rganishda birlamchi ko'prik vositasini o'tashi mumkin. Ammo R.Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, *“qolip-gaplarni egallash jarayonida gap tuzish operatsiyalari deyarli bajarilmaydi: ular o'quvchilarga yod oldiriladi, turg'un iboralar kabi o'quvchilar nutqiga yaxlit olib kiriladi”*<sup>66</sup>. Til o'rganuvchilar muayyan nutqiy vaziyat bo'yicha berilgan aynan savolning tushunadilar. Ko'p hollarda savol tarkibidagi so'z yoki so'z shaklining salgina o'zgartirilishi ham javob beruvchining to'xtab qolishiga olib keladi. Bunday misollarni o'zbek tilini o'rganayotgan chet elliklarning muloqotida ko'plab kuza-tish mumkin. Bunday insonlar odatda o'qituvchisi bergan, doimiy eshitib yurgan savol shakliga javob bera oladilar, biroq xuddi shu mazmunni ifodalovchi sinonimik shakldagi savolga esa javob berolmay to'xtab qoladilar. Bu ularning savollar mazmunini chuqur tushungan holda emas, balki qolip so'roq va javob gaplarni yodlab olganliklaridan kelib chiqadi.

R.Yo'ldoshev fikricha, darsliklarda berilgan savol-javoblar tartibida so'zlashish o'quvchilarni hayotiy jonli muloqotlarga tayyorlay olmaydi. Jonli muloqotda tartib o'zgarib turadi: javob qaytargan kishi aks savol berishi, muloqot bevosita savoldan emas, biror taklifdan boshlanishi, suhbatdoshlar bir-birlarining gaplarim ma'qullashi yoki rad etishi, o'zining turli munosabatlarni bildirishi mumkin. O'zbek tili ta'limi jarayonida esa eslab qolish va muloqot jarayonida foydalanish topshirig'i qolip-gaplar bilangina taqdim etiladi, lekin ushbu qolip-gaplarning aksariyat qismi qaysi vaziyatlarda ishlatilishi nuqtayi nazaridan izohlanmaydi, situativ vaziyatli mashqlar ham tizimli shaklda emas.

---

<sup>66</sup> Yo'ldoshev R. A. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitish metodikasi. – T.:O'zPFITI, 2015.– 67-b.



Dialogik nutqni o‘stirish jarayonida bolalarga, avvalo, savollarga javob qaytarishni o‘rgatish, ularda suhbatni boshlab berish va davom ettirish malakasini hosil qilishga erishish lozim. Dialogik nutqda so‘zlovchining suhbatni boshlash va davom ettirishga mo‘ljallab aytadigan gapi muhim rol o‘ynaydi. Ba‘zan yuzaga kelgan nutqiy vaziyatda bir xil tuzilish va mazmundagi gaplar aytiladi. Shu sababli tuzilishi bir xil bo‘lgan dialoglar (dialog-shablonlar) yuzaga keladi.

So‘roq mazmunidagi replikalar quyidagicha tuzilishdagi dialoglarni vujudga keltiradi:

1. Suhbatdoshlardan biri bilish mazmunida savol beradi, ikkinchisi faqat javob qaytaradi, ya‘ni: – *Savol?* – *Javob.Savol?*

2. Suhbatdoshlar bir-birlaridan ko‘pincha u yoki bu to‘g‘rida so‘raydilar, bunda savolga javob qaytargan suhbatdosh, o‘z navbatida, shu savol-javobdan kelib chiqib savol beradi: – *Savol?* – *Javob.Savol?* – *Javob*<sup>67</sup>.

Buni darsliklarda berilgan suhbat matnlari misolida ham ko‘rish mumkin. Ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun “O‘zbek tili” darsliklarida deyarli har bir dars tarkibida quyidagi tuzilishlardagi suhbat matnlari berilgan:

1. Ikki suhbatdosh savol-javobidan iborat dialogik suhbat matni.
2. Birdan ortiq suhbatdoshlar savol-javobidan iborat polilogik suhbat matni.
3. O‘qituvchi va o‘quvchilar savol-javobidan iborat savol-javobidan iborat polilogik suhbat matni.

Ushbu qurilmalardagi dialoglar asosan kutubxonada, maktabda, bozorda, shifokor huzurida deyarli bir xil nutqiy vaziyatlarda berilgan bo‘lib, ko‘p hollarda 2–3ta gapdan so‘ng suhbatni davom ettirish topshirig‘i bilan yakunlanadi. Lekin keyingi yillarda chop etilayotgan yuqori sinflar darsliklarida kengaytirilgan, o‘quvchilarning mavzu yuzasidan qo‘shimcha ma‘lumot olishlariga qaratilgan suhbat matnlari, milliy an‘anaviy qadriyatlarimizga urg‘u berilgan dialog va poliloglar ham berilmoqda. O‘qituvchilar dars jarayonida bunday suhbat matnlarini bir-ikki juftliklarga o‘qitish

---

<sup>67</sup> Qarang: Yo‘ldoshev R. A. Ta‘lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. – T.: O‘zPFTI, 2015. – 67-d.; Гурвич П.Б. Обучение ведению парного и группового диалога в школе // ИЯШ. – 1973. №5. – С.56.

bilangina chegaralanmay, yo‘lovchi savollar yordamida shunga yondosh mavzularda erkin suhbatlarni tashkil etib, sinfdagi barcha o‘quvchilarni, ayniqsa tortinchoq o‘quvchilarni suhbatga jalb qilsa, ularning gapirish ko‘nikmalarini ham asta-sekin shakllanib borishiga turtki beradi.

Kundalik muomalada so‘zlashuv ko‘proq dialog shaklida ro‘y beradi. Dialogik nutq tarkibida monolog unsurlari ham ishtirok etadi. Demak, o‘quvchilarga monologik va dialogik nutqni, o‘zbekcha to‘g‘ri talaffuzni, matnni undagi so‘z va so‘z shakllari talaffuziga e‘tibor bergan holda o‘qishni o‘rgatish, ayni paytda yoshlarni og‘zaki nutqqa tayyorlash masalalarida ishlarni notug‘al bajarish, muammoga bir tomonlama yondashishdan iborat jiddiy metodik kamchiliklar mavjud. Dialogik nutq o‘stirishdan ko‘zlanadigan maqsad, bir tomondan, o‘quvchilarga o‘zbek tilida o‘zaro so‘zlashishni o‘rgatish, ularni hayotdagi muloqotga tayyorlash, ikkinchidan, ularga muloqot odobi, madaniyatini singdirish, uchinchidan, nutqning ushbu shakli doirasida qo‘llanadigan leksik va grammatik materiallarni faollashtirishdan iborat.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Nutq faoliyati turlari va ularning integratsiyasi haqida ma‘lumot bering.
2. Tinglab tushunish qaysi nutq faoliyati bilan uzviy bog‘liq?
3. Tinglash va tushunish jarayonini amalga oshirishda qaysi bilimlarga ega bo‘lish talab etiladi?
4. Nima sababdan ikkinchi til ta‘limida tinglab tushunish kompetensiyasi gapirish faoliyatining bir qismi sifatida tushuniladi?
5. Maktab darsliklarida tinglab tushunish ko‘nikmasi bo‘yicha qanday topshiriqlar berilgan?
6. O‘zga tilli o‘quvchi-talabalarning o‘zbekcha nutqni qanchalik darajada tushunishlari baholash me‘yorlarida qanday aks etishi kerak?
7. “Eshitish mashqlari” yordamida qaysi til ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin?
8. Gapirish, ya‘ni zohiriy nutq jarayoni qanday amalga oshiriladi?
9. Gapirish jarayoni psixologik jihatdan qanday bosqichlardan iborat?
10. Nima uchun gapirish jarayoni til o‘rganishda nutq faoliyatning eng muhim turi sifatida qayd etiladi?
11. Og‘zaki nutqni shakllantirishda monologik va dialogik nutq turlarining ahamiyatli jihatlari nimalardan iborat?
12. Gapirish jarayonida duch kelinadigan qiyinchiliklarni qanday bar-taraf etish mumkin?

## Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Шчерба Л. В. Преподавание иностранных языков в средней школе // Общие вопросы методики. / Под ред. Рахманова И.В. Изд. 2-е. – Москва: 1974. – 38-б.
2. Muxitdinova X.S., Salisheva Z.I., Po'latova X.S. O'zbek tili (OTM rusiyzabon guruhlari uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 288 b.
3. Мухиддинов А.Ф. Ўқув жараёнида нутқ фаолияти. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 4-б.
4. Жинкин Н.И. Механизмы речи. 3-е изд. – Москва, 1991. – С. 132.
5. Лапидус Б.А. К вопросу о сущности процесса обучения иноязычной устной речи и типологии упражнений // ИЯШ. № 4. – 2006. – С. 112–122.
6. Леонтьев А.А. Психолингвистические единицы и порождение речевого высказывания. 4-е изд., стер. – М.: URSS, 2007. – 306 с.
7. Yo'ldoshev R.A. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitish metodikasi. – T.: O'zPFTI, 2015.– 39-b.
8. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. 2-е издание. – Москва: Просвещение, 1991. – 5–б.
9. Мухитдинова Х.С. Ўзбек тилини ўзга тиллар вакилларига ўқитишда орфоэпик талаффуз меъёрларини шакллантириш / Ўзбекистон халқаро ислом академияси республика илмий-амалий конференцияси материаллари, 2020 йил, 19 октябрь. – Тошкент, Ўз ХИА, 2020. – 118–122-бетлар.
10. Muxitdinova X.S. O'zbek tilini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari (monografiya). – T.: VNESHINVEST, 2021.

## 10-MAVZU. O'ZBEK TILINI O'QITISHDA O'QISH VA YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

### REJA:

1. O'qish turlari va ularni shakllantirishning metodik o'ziga xos jihatlari.
2. O'zbek tilida yozish ko'nikmasini shakllantirish.

**Tayanch tushunchalar:** o'qish va yozish faoliyati, axborot-ma'lumot olish faoliyati, o'qish turlari, hijjalab o'qish, ichida o'qish, ovoz chiqarib o'qish, ifodali o'qish, jo'r bo'lib o'qish, alifbo bosqichi, to'g'ri talaffuz qilish, bo'g'inlab to'g'ri o'qish, bo'g'inga ajratib yozish qoidalari, o'qish tezligi, o'qish ko'nikmasi shakllantirish, yozish ko'nikmasi, murakkab psixofiziologik faoliyat, ko'rish sezgilari, grafik belgilar, yozuv malakasi, husnixat, imlo, bayon va insho yozish.

## 10.1. O‘qish ko‘nikmasining turlari va ularni shakllantirishning metodik jihatlari

Gapirish nutq faoliyatining turi sifatida mustaqil, yakka o‘zi qo‘llanmaydi, aksincha, boshqa nutq faoliyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldirishga xizmat qiladi. O‘qish va yozish faoliyatlari orqali olingan bilimlardan tinglab tushunish va gapirishda samarali foydalaniladi. O‘qish faoliyati axborot-ma’lumot olish, dunyoqarashni kengaytirish hamda so‘z boyligini ko‘paytirib borishda ahamiyati nihoyatda katta. Qayd etilganidek, o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda o‘quvchilar og‘zaki talaffuz me‘yorlarini shakllantirish ustida ishlashga, ayniqsa boshlang‘ich sinflarda ko‘p e‘tibor qaratish kerak bo‘ladi. Biroq o‘zga tilli o‘quvchilarda o‘zbek tildagi nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda faqat tinglab tushunishning o‘zi mutlaqo yetarli emas.

Tinglash va tushunish bir vaqtda sodir bo‘ladigan jarayon bo‘lib, mazmuni anglab olish uchun o‘quvchi leksik va grammatik bilimlarga ega bo‘lishi talab etiladi, ushbu bilimlar esa o‘qish va yozish orqali sodir bo‘ladi. Bu jarayonda o‘qishning amaliy ahamiyati katta bo‘lib, xususan, “Alifbo”ni o‘rganish bosqichida o‘quvchilar har bir nutq tovushining bosh va kichik harf shakli, harflarning bosma va yozma shakllari bilan tanishtiriladi. Aynan shu bosqichda o‘quvchilarda tovushlarning harfiy belgilarini tanish, harflarni va so‘zlarni o‘qituvchi bilan birgalikda talaffuz qilish, nutq tovushlarining katta va kichik shakllarini yozish, yakka holda va so‘z ichida bir-biriga qo‘shib o‘qish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu jarayonda o‘qishning amaliy ahamiyati juda katta bo‘lib, o‘quvchilar aynan o‘qish vositasida harflarni to‘g‘ri va bir-biriga qo‘shib talaffuz qilishni o‘rganadilar.

Metodist olim R.Yo‘ldoshev o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarda so‘z va so‘z shakllarini xato talaffuz qilish, so‘z urg‘usini noto‘g‘ri qo‘yish, so‘zlarni sintagmalarga birlashtirib aytish ko‘nikmalarini shakllantirishga jiddiy e‘tibor qaratilmasligi yakuniy natijada gapirish ko‘nikmalarining yaxshi rivojlanishiga katta to‘siq bo‘lib kelayotganini alohida ta‘kidlaydi. Matn ustida ishlash bosqichida rusiyzabon o‘quvchilar matndagi so‘z va so‘z shakllarini talaffuz xatolari bilan o‘qiganlarida, ba‘zi tovushlar talaffuzida xatolarga yo‘l qo‘yganlarida o‘qituvchi bu holatdan xulosa

chiqarib, darhol o'qish texnikasini o'rgatish topshiriqlari ustida ishlamasligi, bunga dars vaqti ham imkon bermasligi tufayli talaffuz xatolari o'quvchilar nutqiga ketganligi keyinchalik talaffuz xatolarini tuzatish uchun katta kuch sarflashga to'g'ri kelishini uqtiradi. Uning fikricha, talaffuz xatolari ayrim tovushlar talaffuzi ustida yetarli ish olib borilmasligi tufayli barqarorlashadi. Chunki o'zbek tili darslarida, odatda, yangi tovush qatnashgan so'zlar o'quvchilarga bir sidra aytiriladi, xolos<sup>68</sup>.

Boshlang'ich ta'limda so'zlarni va so'zlar tarkibidagi nutq tovushlarini to'g'ri o'qish orqali talaffuz qilish ko'nikmalarini shakllantirish asosiy talablardan biri sifatida qo'yilishi kerak. To'g'ri o'qish to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Aynan ushbu til ko'nikmalarining mustahkam shakllantirilmaganligi oqibatida bugungi kunda o'zga tilli maktablarda tahsil olgan o'quvchilarning talaffuzidagi xatolar hatto oliy ta'lim bosqichida ham davom etayotganini ta'kidlash mumkin.

O'qishning hijjalab o'qish, ya'ni bo'g'inlarga ajratib o'qish, ichida o'qish, ovoz chiqarib o'qish, ifodali o'qish, jo'r bo'lib o'qish kabi turlari mavjud bo'lib, ular o'quvchilarga bosqichma-bosqich singdirib boriladi. O'qish faoliyatining ilk bosqichi, albatta, o'rganilayotgan til alifbosidagi harflarni yakka holda to'g'ri talaffuz me'yorlariga rioya qilgan holda bo'lib, o'qituvchi har bir o'quvchiga harflarni yakkama-yakka o'qitish, shuningdek, butun sinf jamoasiga birgalikda talaffuz qildirish orqali nutq tovushlarini og'zaki talaffuz qilish ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Shakllantirilgan ko'nikmalar harflarning yozma shakllarini yozdirish orqali mustahkamlab boriladi.

O'qishga o'rgatishning ilk davrida harflarni ayrim holda to'g'ri o'qish va bir-biriga qo'shgan holda bo'g'inlab o'qish, keyin esa asta-sekin so'zga birlashtirib o'qishga alohida e'tibor qaratilsa, keyingi bosqichlarda o'qish tezligini tezlashtirish, so'z urg'usini to'g'ri qo'ygan holda va to'xtamlarga to'g'ri rioya qilgan holda ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirib borishga e'tibor qaratiladi. Ko'nikmalarni shakllantirishning dastlabki bosqichida tezlik nazarda tutilmasligi, e'tiborni aynan to'g'ri o'qishga qaratish kerak bo'ladi. Keyingi bosqichlarda esa bo'g'inlarni bir-biriga qo'shish jarayonini asta-sekin tezlashtirib borish orqali o'quvchi-

---

<sup>68</sup> Yo'ldoshev R. A. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitish metodikasi. – T.: O'zPFITI, 2015. – 11-b.

larda soʻzlarni yaxlit holda oʻqish koʻnikmasi shakllantiriladi. Oʻqish jarayonida tezlikni oshirib borish gapirish koʻnikmasining shakllanishiga ham yordam beradi. Shu bois oʻqish darslarida soʻz birikmalari va gaplarni, kichik matnlarni oʻqish jarayonida boʻgʻinlab oʻqish usuli samara bermaydi.

Koʻrinadiki, ikkinchi til taʼlimida (chet tillarni oʻrganish, hatto ona tili taʼlimida ham) oʻqish toʻgʻri talaffuz qilish va gapirish koʻnikmalarini shakllantirishga katta yordam beruvchi, yozish uchun koʻprik vazifasini oʻtovchi asosiy vosita hisoblanadi. Aynan boshlangʻich taʼlim bosqichida oʻquvchilarga oʻzbek tili-dagi nutq tovushlarini toʻgʻri oʻqish, nutq tovushlarini bir-biriga qoʻshib oʻqish orqali soʻz hosil qilish va soʻzlarni yaxlit holda oʻqishni puxta oʻrgatish tilni toza talaffuz bilan aksentsiz egallashga shart-sharoit yaratadi. Oʻqish yangi soʻzlarni oʻzlashtirishga va soʻz boyligini oshirishga, shuningdek, soʻzlarni birlashtirib gap va jumlar tuza olish koʻnikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi.

Afsuski, taʼlim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning boshlangʻich sinflari uchun oʻzbek tilidan davlat taʼlim standartlari talablarida nutq faoliyatining bu turiga deyarli eʼtibor qaratilmagan. DTS talablarini oʻrganib chiqish oʻqish koʻnikmalari boʻyicha **2-sinfda** oʻzbek tiliga xos nutq tovushlarini toʻgʻri talaffuz qilish, soʻzlarni boʻgʻinlab oʻqish, mavzu boʻyicha berilgan kichik sheʼrlarni oʻqib, yoddan aytish; qisqa dialogik matnlarni ohangga rioya qilgan holda toʻgʻri oʻqish talablari belgilangan. Ushbu talabarni bajarish quyidagi 2 bosqichda amalga oshirilishi, yaʼni birinchi – alifbo bosqichi davrida nutq tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish, soʻzlarni boʻgʻinlab toʻgʻri oʻqish va yozish; ikkinchi – oʻquvchilarning lugʻat boyligini oʻstirish bosqichida barcha nutq tovushlari oʻzlashtirib olingandan keyingi oʻqish va yozish amallariga tinglab tushunish va soʻzlash amallari ham qoʻshilgan holda dasturda berilgan leksik minimum va nutq namunalarni oʻzlashtirish koʻzda tutilgan. Ushbu talablarga, bizningcha, soʻzlarni boʻgʻinlab oʻqishdan tashqari, soʻzlarni, boʻgʻinlarni bir-biriga qoʻshgan holda yaxlit oʻqish talabi ham kiritilishi joiz.

**3-sinfda** davlat taʼlim standartlarida berilgan matnni ifodali oʻqiy olish, sheʼrni yod aytish; **4-sinfda** esa matnni – badiiy asardan parcha, sheʼrlarni oʻqib tushunishgina koʻrsatib oʻtilgan, xolos. **2-sinfda** toʻgʻri talaffuz qilish va oʻqish boʻyicha shakl-

lantirilgan ko‘nikmalar **3–4-sinflarda** yanada mustahkamlab va rivojlantirib borilishi kerak. Shuningdek, DTS talablariga o‘qish tezligini sinfdan sinfga oshirib borish, sinflar kesimida muayyan miqdordagi so‘zlar, so‘z birikmalari, gaplar va jummalarni ham muayyan vaqt oralig‘ida o‘qish bo‘yicha aniq talablarni kiritish zarur. Faqat **9-sinfagina** matnni (badiiy asardan parcha, hikoya, xabar) bir daqiqada 70–75 so‘z tezligida o‘qish talabi berilgan.

Afsuski, buguni kunda ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o‘qish ko‘nikmasini shakllantirishda aynan o‘qish tezligi masalasiga e‘tibor qaratilmayapti. Bu masala, qayd etilganidek, hatto standart talablarida ham alohida belgilab ko‘rsatilmagan. O‘zbek tili darslarida o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish bosqichma-bosqich mustahkamlab borilsagina malaka darajasiga yetib boradi. **5-sinfda** o‘qish ko‘nikmasi umuman qayd etilmagan, **6–7-sinflarda** esa mavzular bo‘yicha berilgan matnlar, adabiy materiallar, she‘rlarni ifodali o‘qish va yoddan ayta olish ko‘zda tutilgan, xolos<sup>69</sup>.

Davlat ta‘lim standartlarida ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, “O‘zbek tili” darsliklarida matn ustida ishlash jarayonida matnni o‘qish topshirig‘i deyarli har bir darsda beriladi. Darsliklarda, shuningdek, adabiy o‘qish materiallari sifatida berilgan she‘r, hikoya, rivoyatlar, qissa, romanlardan parchalarni ham o‘qish va mazmunini hikoya qilib berish topshirig‘i ko‘p berilgan. Ushbu topshiriqlar, odatda, o‘qing, diqqat bilan o‘qing, o‘qing va so‘zlab bering, o‘qing va ajratilgan so‘zlarga e‘tibor bering, ifodali o‘qing kabilardan iborat bo‘lib, o‘qish ko‘nikmasi bo‘yicha:

– so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib o‘qing;

– so‘zlarni hijjalab o‘qing;

– so‘zlarni ovoz chiqarib o‘qing;

– dialogni rolli o‘qing;

– matnni (she‘rni) ifodali o‘qing;

– matnni ichingizda o‘qing;

– matnni ko‘z yugurtirib o‘qing;

– matnni o‘rnatilgan vaqt tezligida o‘qing kabi topshiriqlarni bosqichma-bosqich rivojlantirib borish maqsadga muvofiq.

<sup>69</sup> O‘zbek tili fani bo‘yicha uzluksiz majburiy ta‘lim tizimida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar. O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz majburiy ta‘lim tizimining Davlat ta‘lim standartlari, 2017-yil 10-aprel.

O'qish ko'nikmasini shu tarzda shakllantirib borish matnlar tarkibidagi spetsifik nutq tovushlari va yangi so'zlar talaffuzi ustida muntazam ish olib borish imkonini beradi. Xususan, til o'rganishning boshlang'ich bosqichida beriladigan bo'g'inlarga ajratib o'qish, hijjalab o'qish, ovoz chiqarib o'qish aynan to'g'ri talaffuz me'yorlarini mustahkamlash va o'quvchilar nutqiga singdirib borilishiga qaratilgan. Bunday topshiriqlarda bir xil tovushlar takrorlangan bo'g'inlar va so'zlardan foydalanish (masalan, *bo-bo, mo-mo, da-da, chip-chip, taq-taq* kabi).

Ifodali o'qish paytida odatda urg'u, intonatsiya, gaplarni sintagmalarga ajratib talaffuz qilishga ko'proq e'tibor beriladi. Ovoz chiqarmay o'qish paytida so'z va gaplar ichida talaffuz qilib boriladi, shu bois ba'zan so'z va gaplarning noto'g'ri talaffuzi singib qolishi mumkin. Chunki matnni ovoz chiqarmay o'qish paytida so'z va gaplar ichda talaffuz qilib boriladi. Bunday vaziyatda ba'zi so'zlar va gaplarning noto'g'ri talaffuzi singib qolishi mumkin. Shu bois R.Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, matnni bir vaqtning o'zida ham eshitib, ham o'qib, mazmunini qayta so'zlash o'quvchilaning talaffuz ko'nikmalarini tekshirib borish, matnning mazmunini so'zlashga tayyorlash imkonini beradi<sup>70</sup>. Bunda o'qilgan matn mazmunini qayta so'zlatish matnning talaffuzi va intonatsiyasi o'zlashgandan keyin o'tkazilishi kerak. Shu bois o'zbek tili o'qituvchilari nafaqat matnlar va she'rlarni ifodali o'qib berish vaqtida, balki darsga oid ko'rsatmalar berish va oddiy so'zlashuv jarayonida ham o'z nutqlarida adabiy talaffuz me'yorlariga rioya qilishlari nihoyatda zarur.

Darsliklarga qo'shimcha ravishda yangi so'zlar ma'nosi, to'g'ri talaffuzi va grammatik shakllari bo'yicha turli tillar bo'yicha tayyorlangan va darsliklarning elektron variantiga giperilova yordamida taqdim qilinadigan mobil ilovalar taqdim etish bu muammoning zamonaviy yechimlaridan biridir. Mobil ilovalar vaqtini tejash bilan bir vaqtda ham o'quvchilarni o'z ustida mustaqil ishlashga ham o'rgatib boradi. Biroq elektron va multimedia vositalaridan hamma vaqt va hamma joyda ham foydalanishning imkoni yo'qligi bois o'quvchi-talabalar uchun o'qituvchi va atrof-dagi til vakillarining talaffuzi eng birlamchi namuna hisoblanadi.

---

<sup>70</sup> Yo'ldoshev R. A.O'sha manba, 59-b.



## 10.2. O‘zbek tilini o‘qitishda yozish ko‘nikmasini shakllantirish

O‘qish ko‘nikmasi bilan yonma-yon turadigan til amali yozish nutq faoliyati turlaridan biri bo‘lib, insonning o‘z fikrini bayon etish, fikr almashish va ma’lumotlarga ega bo‘lishida katta ahamiyat kasb etadi. Yozuv – muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o‘rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar tizimi bo‘lib, u gapirish ko‘nikmasidan keyingi o‘rinda turadigan kommunikativ aloqa vositasi hisoblanisa-da, ko‘p afzalliklarga ham ega. Insonlarning barcha erishgan yutuqlari, ixtirolarining keyingi avlodlargacha yetib borishi, o‘z bilimlarini oshirib borishi ham bevosita yozuv orqali bajariladi.

Psixologik nuqtai nazardan fikrni yozma ravishda bayon qilish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, bu jarayonda ko‘rish sezgilari asosida so‘zlarning grafik timsollari shakllanadi. *“Ruhshunoslikdagi faoliyat nazariyasi bo‘yicha yozuv fikrni shakllantirish va ifodalash usuli bo‘lib, maxsus til belgilari, harflar, tinish belgilari bilan yuzaga chiqadi. Ular bosh miya qobig‘ida yuz beradigan nerv bog‘lanishlarida tamg‘alangan timsollar tarzida “saqlanadi”. Mazkur nutq faoliyati turida ko‘ruv va qo‘l harakat timsollari eshitish va nutq harakatga oidlari bilan birgalikda amal qiladi. Ko‘ruv – grafik va qo‘l harakat timsollari muvoziy tarzda yozish bilan mashg‘ul qo‘lning harakat mexanizmi tomonidan boshqariladi. So‘zning imloviy timsoli esa yozayotgan qo‘lning harakat mexanizmidan emas, balki nutqiy mexanizmida tamg‘alanadi”*<sup>71</sup>.

J.Jalolov ham yozuv murakkab psixofiziologik faoliyat ekanligi va unda nutq analizatorlarini barchasi ishtirok etishini ta’kidlaydi. Inson eshitganda va ko‘rganda idrok etadi, idrok mahsuli analizatorga uzatiladi va tahlil etiladi. Ushbu jarayonlar nutq harakati orqali qo‘l harakati analizatorida namoyon qilinadi. Yozuv malakalari quyidagi ko‘nikmalardan tashkil topadi: 1) husnixat ko‘nikmasi; 2) imlo ko‘nikmasi; 3) nutq tuzish (yozma fikr bayon etish maqsadida gaplarni birlashtirish) ko‘nikmasi; 4) yozuvning leksik va grammatik ko‘nikmalari kabilar<sup>72</sup>.

<sup>71</sup> Саидалиев С. Чет тил ўқитиш методикасидан очерклар. – Наманган, 2004. –287-б.

<sup>72</sup> Жалолов Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. – Т., Ўқитувчи, 2012. – 285–287-б.

Demak, yozish malakalariga erishish uchun qayd etilgan ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish kerak bo'ladi. Yozuv nutqiy faoliyatning reproduktiv turi bo'lib, yozishga o'rgatish chet tillarini o'qitishda tinglab tushunish, gapirish va o'qishni o'rgatish vositasidir. I.L.Bim chet tilini o'qitishda yozish faoliyatiga muhim vosita sifatida qaraydi va yozma nutqqa alohida maqsadga yo'naltirgan holda o'qitish muhimligini, aks holda u samarali o'qitish vositasi bo'la olmasligini ta'kidlaydi<sup>73</sup>.

Ona tili ta'limi ham, chet tillar ham shu til alifbosidagi harflarni yozuvda ifodalashni o'rganishdan boshlanadi. Har bir tilda ta'limning dastlabki boshlang'ich bosqichidan boshlab, shu tildagi yozuv shakli va to'g'ri yozish qoidalari bo'yicha ko'nikmalar shakllantirib boriladi. O'qish va yozishni bilish savodxonlik belgisi hisoblanadi, shu bois o'qish-yozishni o'rgatgan o'qituvchilar eng birinchi ustoz sifatida qadrlanadi. Bu o'rinda mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish joiz:

*Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish yuz ranj ila,  
Aylamak oson emas, oning haqqin ming ganj ila.*

Qayd etilganidek, ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitish 2-sinfдан boshlanadi va birinchi yarim yillikdan yozish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda o'quvchilar nutq tovushlari talaffuzini ham mustahkamlab boradilar. Davlat ta'lim standartlari talablari bo'yicha 2-sinfda mavzuga oid so'z va so'z birikmalarini to'g'ri yozish; mavzular bo'yicha o'zlashtirilgan so'zlarni, 2–4 ta yig'iq gaplardan iborat matnni ko'chirib yozish; o'zlashtirilgan so'zlarni bo'g'inlarga ajratib yozish; 10–12 ta so'zdan iborat diktant matnini to'g'ri yozish talablari; 3-sinfda kichik matnlar, maqol va tez aytishlarni ko'chirib yozish; 12–16 ta so'zdan iborat videolug'at diktanti yozish talablari; 4-sinfda so'zlarni bo'g'inlarga ajratish va bo'g'in ko'chirish qoidalari amal qilgan holda yozish; o'rganilgan so'zlar va sodda gaplarni, tabriknoma, xat, so'rovnoma ma'lumotlarini to'g'ri yozish; 25–30 so'zdan iborat diktant matnini husnixat talablari asosida yozish belgilangan<sup>74</sup>.

<sup>73</sup> Бим И.Л., Леонтьев А.А и др. Общая методика обучения иностранным языкам. – М., Изд. Русский язык. 1991. – С.53.

<sup>74</sup> O'zbek tili fani bo'yicha uzluksiz majburiy ta'lim tizimida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar / O'zbekiston Respublikasi uzluksiz majburiy ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari, 2017-yil 10-aprel.

Tahlillar o‘zbek tilidan 2-4-sinflar sinflar uchun belgilangan davlat ta’lim standartlari talablarida bir qator noaniqliklar va kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatdi:

1. 2-sinfda yozish ko‘nikmasida avvalo o‘zbek alifbosidagi nutq tovushlarining bosh va kichik harf shakllarini husnixat qoidalari binoan to‘g‘ri yozish, so‘ng so‘z va so‘z birikmalarini to‘g‘ri yozish belgilanishi kerak edi.

2. 3-sinfda 12–16 ta so‘zdan iborat videolug‘at diktanti yozish, 4-sinfda esa 25–30 so‘zdan iborat diktant matnini husnixat talablari asosida yozish talablari belgilangan. Qayd etish kerakki, bir sinfdan ikkinchi sinfga o‘tganda talabni deyarli teng barobariga kuchaytirilishi o‘quvchilarning yosh xususiyatiga to‘g‘ri kelmaydi.

3. 4-sinf uchun belgilangan so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib yozish talabi aslida 2-sinfga, so‘rovnomma ma’lumotlarini to‘g‘ri yozish talabi esa yuqori sinflarga qo‘yilishi, ko‘chirib yoziladigan matnlarning barchasiga husnixat talablari asosida yozish talablari kiritilishi maqsadga muvofiq.

Umuman, boshlang‘ich ta’limda o‘zbek lotin alifbosidagi harflarning bosh va kichik yozma shakllarini husnixat talablari asosida yozishga juda qattiq e’tibor qaratish va o‘quvchilarda ushbu ko‘nikmalarni mustahkam shakllantirishga erishish boshlang‘ich sinflarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar o‘quvchilari 2-sinfda bir yo‘la 2 yozuv tizimini – lotin yozuviga asoslangan ingliz alifbosi va lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi harflarini o‘rganadilar. Shuni ta’kidlash kerakki, bir sinfdan lotin yozuvining 2 xil varianti o‘rgatilayotgani sabab o‘quvchilar ingliz va o‘zbek lotin harflari tizimini va orfografik qoidalarni aralashtirib qo‘llashga odatlanib qolishmoqda. Bu yozma savodxonlikning keskin pasayishiga, husnixatga mutlaqo e’tibor qaratmaslikka olib kelmoqda.

Yozishni o‘rganishdagi ayrim tipik qiyinchiliklar: matn yozishdan avval mavzu bo‘yicha yetarlicha tasavvurga ega emasliklari, tildagi leksik boylikning yetarli emasligi, matn mazmuni bog‘lay olmasliklari va grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuza olmasliklari oqibatida yuzaga keladi. Shuningdek, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llay olmaslik, gaplarni mos joylarga joylashtirishda bir qancha qiyinchiliklarni kuzatish mumkin.

Yozish ko‘nikmasini shakllantirish uzoq vaqttni va muntazamlikni talab qiladigan jarayon bo‘lgani uchun avval bir yil

davomida bitta yozuv tizimini egallash bilan bog‘liq ko‘nikmalarni mustahkam shakllantirib olish, keyingi yilda ikkinchi tildagi yozuv ko‘nikmalarini shakllantirilishi kerak bo‘ladi. Buni bartaraf etish uchun o‘zbek tilini 1-sinfdan boshlab o‘qitilishini yo‘lga qo‘yish, 1-sinfning 1-yarmida faqat og‘zaki nutq ustida ishlash, ya‘ni to‘g‘ri talaffuz me‘yorlarini shakllantirish va lug‘at boyligini o‘stirish; 1-sinfning 2-yarmidan boshlab yozuvni o‘rgatishni boshlash kerak bo‘ladi. O‘quvchilarda yarim yil davomida o‘zbek lotin alifbosi tizimidagi nutq tovushlari talaffuzi hamda bosh va kichik yozma harflar shakllari shakllantirib olingach, keyingi yil ingliz tilidagi harflar va ularning yozish ko‘nikmalari ustida ishlash mumkin bo‘ladi.

Yozishga o‘rgatishning ilk bosqichida quyidagi amallar ustida ish olib borish maqsadli bo‘ladi:

– yozma harflarning bosh va kichik shakllarini husnixat talablari asosida yozing;

– so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib yozing;

– so‘zlarni husnixat talablari asosida ko‘chirib yozing;

– so‘z birikmalari va gaplarni ko‘chirib yozing;

Bunday mashq turlarini yuqori sinflarda ham bajarib turish shakllangan ko‘nikmalarni mustahkamlashga yordam bo‘ladi. Amaldagi “O‘zbek tili” darsliklarida yozish bilan bog‘liq mashqlar ancha ko‘p. Yuqori sinflar uchun DTS talablarini tahlil qilish:

**5-sinfda** berilgan tayanch so‘zlar, mavzu yoki rasm asosida 6–8 gapdan iborat bog‘lanishli matn tuzish, berilgan matnni topshiriqlar asosida to‘ldirib yoki davom ettirish; o‘rganilgan mavzular bo‘yicha 31–40 so‘zdan iborat diktant yozish;

**6-sinfda** berilgan topshiriqlar asosida savollarga javoblar yozish; nuqtalar yoki savollar o‘rniga mos so‘zlar va grammatik shakllarni qo‘yib yozish orqali matnni to‘ldirib yozish yoki davom ettirish; o‘rganilgan mavzular bo‘yicha 41–50 so‘zdan iborat diktant yozish;

**7-sinfda** matndan grammatik mavzuga doir birikmalar va jumalarni ajratib yozish; berilgan savollar, tayanch so‘zlar yoki rasm asosida 15–20 ta gapdan iborat bog‘lanishli matn tuza olish; o‘rganilgan mavzu bo‘yicha 51–60ta gapdan iborat diktant yozish;

**8-sinfda** o‘rganilgan grammatik vositalarni qo‘llab gaplarni va matnni to‘ldirish; matn mazmuni asosida savollar tuzish, nuqtalar o‘rniga mos grammatik shakllarni yozish; berilgan tayanch so‘zlar

yoki reja asosida 21–25 ta gapdan iborat bog‘lanishli matn yozish; o‘rganilgan mavzular bo‘yicha 60–70 so‘zdan iborat matn asosida diktant; 90–100 so‘zli matn asosida bayon yozish;

**9-sinfda** 70–80 so‘zdan iborat matn asosida diktant; 90–100 so‘zli matn asosida bayon yozish; 11–15 gap hajmida matn tuzish; ayrim ish qog‘ozlarini (ariza, tarjimai hol, e‘lon, tushuntirish xatini) yozish;

**10-sinfda** o‘rganilgan ish qog‘ozlarini to‘g‘ri yoza olish; 90–100 so‘zdan iborat matn asosida diktant, 2–2,5 bet hajmida ijodiy matn (kichik insho) yozish;

**11-sinfda** o‘rganilgan ish qog‘ozlarini to‘g‘ri yoza olish; 100–110 so‘zdan iborat matn asosida diktant yoza olish, 2,5–3 bet hajmida ijodiy matn yozish talablari belgilanganini ko‘rsatdi<sup>75</sup>.

DTS talablarida 9-va 10-sinflarda diktant yozish talablarida o‘shish ko‘rsatkichlari bir xil belgilangani e‘tiborga olinmaganida, yozishga doir ko‘nikmalarni shakllantirishga ancha e‘tibor qaratilganini ko‘rish mumkin. Ushbu sinflar darsliklarida ham yozish amali bo‘yicha mashq va topshiriqlar yetarli miqdorda berilgan. Jumladan, amaldagi 5–11-sinflar darsliklarida:

- so‘zlarni ko‘chirib yozing;
- gaplarni ko‘chiring;
- nuqtalar o‘rnini to‘ldiring;
- gaplarni davom ettiring;
- nuqtalar o‘rniga berilgan (so‘zlar, qo‘shimchalardan) mosini qo‘yib yozing;

- berilgan so‘zlarni o‘zaro bog‘lab gap tuzing;
- savollarga javob yozing;
- javoblarga mos savollar yozing;
- matndagi aosiy fikrni aniqlang va ko‘chirib yozing;
- matnni to‘ldiring yoki davom ettiring;
- matnga sarlavha qo‘ying yoki sarlavha asosida matn tuzing;
- berilgan so‘z va so‘z birikmalaridan foydalanib, gaplarni to‘ldiring kabi topshiriqlar berilgan.

Ko‘rinadiki, ushbu topshiriqlarda aynan husnixat talablari asosida yozish talabi qo‘yilmagan. Amaldagi darsliklarda quyidagi kabi topshiriqlar berilgan:

1. Kirill yozuvidagi ushbu matnni lotin yozuviga o‘girib yozing. Har ikki alifboda bir xil yoziladigan, qisman farq qila-

<sup>75</sup> Davlat ta‘lim standartlari, 2017-yil 10-aprel.

digan va to'liq farq qiladigan harflarni 3 ustunga ajratib yozib chiqing.

2. Matndagi spetsifik nutq tovushlari mavjud bo'lgan so'zlarni ko'chiring va ular ishtirokida namunadagidek so'z birikmalari tuzing.

*Namuna:* qadimgi – qadimgi xalqlar.

3. Savollarga javob bering, javoblaringizda spetsifik nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishga harakat qiling.
4. Berilgan maqollar va topshiriqlardagi tovush o'zgarishli so'zlarni aniqlab, qanday tovush o'zgarishi yuz berganini tushuntiring.

Savodli yozish ko'nikma-malakalarini shakllantirishda diktant, bayon, insholarning o'rnini katta bo'lib, ular nazorat turlari hisoblanadi. DTS talabiga ko'ra ular sinfdan sinfga hajm jihatidan kattalashib borishi ko'zda tutilgan. Ayniqsa, diktant va bayon yozish muayyan vaqtda o'qituvchi nazoratida yoziladi va asosan chorak yakunida nazorat ishi sifatida o'tkaziladi. Biroq ularni tekshirishda asosan imloviy, uslub va tinish belgilarga bog'liq xatolar hisobga olinadi. Keyingi yillarda husnixat talablari, yozuv tizimlari, harflarning bosma va yozma shakllari, harflarning bosh va kichik shakllarini aralash yozilishi nazoratga olinmayotgani, ushbu yozma ishlardan so'ng maxsus xatolar ustida ishlash darslarining tashkil etilmayotgani savodxonlik darajasining keskin pasayib ketishiga olib keldi.

Ko'rinadiki, bayon va insho yozish ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar standart talablariga va o'quv dasturi rejasiga kiritilmagan, darsliklarda faqat ijodiy matn yaratish topshirig'i beriladi. Bizningcha, ushbu talablarni qayta ko'rib chiqish va bayon yozish talabini 7–9-sinflar, insho yozish talabini 10–11-sinflar (shuningdek, AL va KHKlar uchun) kiritilishi OTM rus guruhlarida bu kabi ishlarni kengroq olib borish imkoniyatini yaratgan bo'lar edi. Oliy ta'limda rus guruhlari "O'zbek tili" fani o'quv dasturiga "Fikrni mantiqiy bog'langan holda ifodalash" modulini kiritish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. Z. Salisheva ushbu modul asosida mashg'ulotlarni tashkil etishda matnni tinglash vositasida bayon qilish, o'qilgan asarlar mazmunini hikoya qilish, ko'rgan, eshitgan voqea-hodisalarni bayon etish yoki ular haqida axborot berish, muammoni muhokama qilish, isbotlash, shuningdek, so'zlab berish malakalarini rivojlantirishga qaratilgan

topshiriqlardan foydalanishni tavsiya etadi. Matnni tinglab tushunish va soʻzlab berish malakalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan mashq va topshiriqlarni bayon va insho yozishga qaratilgan topshiriqlar, deb hisoblash ham mumkin.

Insho turlari, mavzulari, insho rejasini tuzish, inshoga material toʻplash, toʻplangan materialni tartiblash, saralash, mantiqiy izchillikda joylashtirish, voqealar rivojida ketma-ketlikni belgilash, insholardagi matniy xatolar va ularni bartaraf etish usullari haqida nazariy maʼlumotlar berish oʻquvchi-talabalarning ham yozma, ham ogʻzaki bogʻlanishli nutqini rivojlantirishga ham yordam beradi. Aslida har bir darsda gapirish ham, nutqni eshitib tushunish ham, yozuv ham integratsiyalashib qoʻllanishi darkor. Chet tillarni oʻqitishda ham nutq faoliyati turlarini integratsiyalab qoʻllash, til koʻnikmalarining toʻrt amali – tinglab tushunish, gapirish, oʻqish va soʻzlash amallarini birdek rivojlantirib borish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Demak, ogʻzaki va yozma nutq bir-birini toʻldirib, mustahkamlab boradi. Shu jihatdan bayon va insho yozishga oʻrgatishning amaliy ahamiyati nihoyatda katta. Bunday ish turlari savodxonlik darajasini oshirishga, soʻzlar va gaplarni bir-biriga bogʻlovchi vositalarni toʻgʻri tanlash va oʻz oʻrnida qoʻllashga oʻrgatadi, tavnologiyaning oldini olishga yordam beradi. Insho yozishning asosiy maqsadlaridan biri ham oʻquvchi-talabalarni mustaqil fikrlash, oʻz fikrlarini erkin mantiqiy izchil, chiroyli, savodli ifodalashga oʻrgatishdir.

Insho yozish jarayonida oʻquvchi-talabalar ifodalar jamgʻarmasini yigʻadilar, oʻzi uchun notanish yangi jumalarni, soʻzning yangidan-yangi maʼno ifodalash imkoniyatlarini qidirib topadilar va qoʻllaydilar. Shu asnoda ularning soʻz boyligi ham ortib boraveradi. Odatda, rusiyzabon oʻquvchi-talabalarning koʻpchiligi ruscha fikrlab, oʻzbekcha nutq soʻzlaydi. Agar insho yozishga eʼtibor maktab bosqichidanoq kuchaytirilsa, insho uchun tanlangan mavzular qiziqarli va xilma-xil boʻlsa, bu oʻquvchi-talabalar nutqini oʻstirishga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Insho oʻquvchi-talabaning lugʻat boyligini boyitadi, milliy tafakkurni shakllantiradi, rivojlantiradi va tarbiyalaydi. Ushbu omillarsiz rusiyzabon talabalar oʻzbek tilida xatosiz va ravon gapira olmaydilar. Rusiyzabon talabalar borliqni oʻzbekcha tafakkur bilan qabul qilib, oʻzbekning koʻzi bilan koʻra olsagina, u oʻzbekcha fikrlashi, oʻzbek tilida er-

kin soʻzlay olishi mumkin. Shu bois ularni oʻzbek tiliga oʻrgatish uchun taʼlim jarayonida insho yozdirishga katta eʼtibor berish maqsadga muvofiq.

Maʼlumki, oʻzbek tili darslarida “Taassurotlaringiz asosida ijodiy ish yozing”, “Biror mavzu asosida ijodiy ish yozing”, “Taassurotlaringizni soʻzlab bering” kabi topshiriqlar koʻp beriladi. Z.Salisheva oʻquvchi-talabalar tomonidan bajarib kelinadigan ushbu ijodiy ishlar, uy insholari aksariyat hollarda deyarli bir xil yozilishi, ushbu insholarning koʻpchiligi 5–6 gapdan 7–8 gapgacha boʻlgan hajmdagi eng sodda konstruksiyali gaplardan tuzilishi, buning boisi, avvalo, mavzularning deyarli bir xil berilishida ekanligini taʼkidlaydi. Chunonchi, “*Mening Vatanim*”, “*Mening oilam*”, “*Birinchi ustozim*”, “*Men tanlagan kasb*”, “*Men sevgan qahramon*” kabi mavzular umumiy oʻrta taʼlim bosqichida ham, keyingi taʼlim bosqichlarida ham takrorlanib kelaveradi. Bu esa oʻquvchi va talabalarning qiziqishlarini soʻndiradi, ulardagi tafakkur, fikrlash jarayonini ham toʻxtatib qoʻyadi.

Yuqori bosqichlarga chiqqan sari inshoning tasviriy, qiyosiy, muhokama insho turlarini tatbiq etish, oʻquvchi-talabalarning koʻrgan, bilgan, eshitgan, oʻqiganlarini qiyosiy tahlil etishga, oʻzi muhokama qilishga oʻrgatib borish kerak boʻladi. Oʻquvchi-talabalarning oʻzbek tilida erkin muloqot qila olishi, turli uslublarda bogʻlanishli matnlar tuzish va gapirib berish malakalariga ega boʻlishi uchun koʻproq adabiy oʻqish materiallari, ijtimoiy, milliy-maʼnaviy qadriyatlarimizni aks ettiruvchi mavzularni bosqichma-bosqich kengaytirib, murakkablashtirib borish ularning fikrlash hamda qiziqish doirasining kengayib borishiga, shunga mos holda lugʻat boyligining oʻsib borishiga olib keladi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Oʻqish koʻnikmasining turlari haqida maʼlumot bering.
2. Oʻqish koʻnikmalarini shakllantirishning dastlabki bosqichida oʻqishning qaysi turlaridan koʻproq foydalaniladi?
3. Oʻqish koʻnikmasini shakllantirishda oʻqish tezligi ustida ishlashni qaysi bosqichdan boshlash kerak?
4. Boshlangʻich sinf darsliklarida oʻqish faoliyati bilan bogʻliq qanday topshiriqlar berilgan?
5. Yuqori sinflarda adabiy oʻqish darslarini qanday tashkil etish nutq kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi?



6. Nima uchun o‘qish yozish uchun ko‘prik vazifasini o‘tovchi asosiy vosita hisoblanadi?
7. O‘qish ko‘nikmasi qanday hollarda bevosita gapirish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi?
8. Yozuv malakalari quyidagi ko‘nikmalardan tashkil topadi?
9. Nima sababdan fikrni yozma ravishda bayon qilish murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi?
10. Boshlang‘ich ta‘limda yozish ko‘nikmasini shakllantirish bo‘yicha DTSda qanday talablar belgilangan?
11. Maktab ta‘limida yozuv va husnixatni shakllantirishda qanday kamchiliklar mavjud?
12. Yuqori sinflar o‘quvchilariga yozish ko‘nikmasi bo‘yicha qanday talablar belgilangan?
13. Sizningcha, imlo savodxonligini yaxshilash uchun nutq faoliyatning qaysi turlarini rivojlantirishga jiddiy e‘tibor qaratish kerak?

### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Yo‘ldoshev R. A. Ta‘lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. – T.: O‘zPFITI, 2015. – 11-b.
2. Гулямова М. Инглиз тилини ўқитишда талабалар коммуникатив компетенциясини ривожлантиришга интегратив ёндашув: Пед. фан.... фалс докт. дисс (PhD). – Т., 2019. – 35–36-б.
3. O‘zbek tili fani bo‘yicha uzluksiz majburiy ta‘lim tizimida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar / O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz majburiy ta‘lim tizimining Davlat ta‘lim standartlari, 2017-yil 10-aprel.
4. Muxitdinova X.S. O‘zbek tilini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari (monografiya) – Toshkent: Vneshinvest, 2021.
5. Саидалиев С. Чет тил ўқитиш методикасидан очерклар. – Наманган, 2004. – 287- б.
6. Жалолов Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 2012. – 285–287- б.
7. Бим Л.Л, Леонтьев А.А и др. Общая методика обучения иностранным языкам. – М.: Русский язык, 1991. – С.53.
8. Мухитдинова Х.С. Формирование навыков правильного чтения при обучении второму языку (на примере узбекского языка) / “Актуальные проблемы филологии и лингводидактики”, 29 октября 2020 г. – Душанбе, 2020. – С.375–378.

## 11-MAVZU. O‘ZBEK TILI MASHG‘ULOTLARIDA MASHQ VA TOPSHIRIQLAR BILAN ISHLASH METODIKASI

### REJA:

1. Ikkinchi til ta’limida mashq va topshiriqlar turlari.
2. O‘zbek tili darslarida o‘quv-biluv topshiriqlari bilan bosqichli ketma-ketlikda ishlash.
3. O‘zbek tili darslarida adabiy o‘qish materiallari ustida ishlash.

**Tayanch tushunchalar:** o‘quv mashg‘ulotlari, mashq va topshiriqlar, o‘quv-biluv materiallari, ikkinchi til ta’limida mashq va topshiriqlar turlari, haqiqiy kommunikativ mashqlar, shartli kommunikativ mashqlar, interferentiv xatoliklarni bartaraf etishga qaratilgan mashqlar, tarjima mashqlari grammatik material ustida ishlash bosqichlari, retseptiv mashqlar, reproduktiv mashqlar, produktiv mashqlar, mashq va topshiriqlarni konsentrlarga jamlash, nutq mavzusi – grammatik ma’lumot – adabiy o‘qish konsentrlari, o‘quv-biluv topshiriqlar bosqichli ketma-ketligi.

### 11.1. Ikkinchi til ta’limida mashq va topshiriqlar turlari

Mashq va topshiriqlar o‘quv mashg‘ulotlarining alohida turi bo‘lib, ular yordamida berilgan bilimlar asosida o‘quvchilarda tegishli malaka va ko‘nikmalar shakllantiriladi. Til ta’limida ayniqsa mashqlarning o‘rni juda katta. Til tizimi o‘zining ko‘p qirraliligi, birliklarining struktural va funksional xususiyatlariga ko‘ra o‘zaro bog‘liqligi bilan ajralib turadigan hodisa, shu bois til ta’limidagi mashqlar ham turli-tuman ko‘rinishga va tuzilishga ega bo‘ladi. Ona tili ta’limidan farqli ravishda o‘zga tillarni o‘rganish jarayonida bajariladigan mashqlarning asosiy qismi muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgani bois metodistlar ularni nutq mashqlari va til mashqlariga ajratishni tavsiya etadilar.

Hozirgi kunda o‘zbek tilini o‘qitish tamoyillari, o‘quv materiallarining tartibi va taqsimoti bilan bir qatorda, dars jarayonida qo‘llanadigan mashqlar va topshiriqlar, ularning tarkibi va turlarini takomillashtirish, zamonaviy ta’lim mashg‘ulotlariga moslashtirib qo‘llash yo‘llarini topish o‘zbek tili ta’limi mutaxassislari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Buning uchun mavjud mashq turlarini zamonaviy tilshunoslik, psixologik, pedagogik

tadqiqotlar natijalari asosida yuzaga kelgan ilmiy-amaliy tavsiyalar asosida ko‘rib chiqish va aynan ikkinchi til ta‘limiga xos bo‘lgan mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish kerak bo‘ladi. Amaliy tajribalar natijalaridan kelib chiqib, ikkinchi til ta‘limida o‘zbek tilidan mashqlarni tuzishda:

– umumdidaktik tamoyilning tanish hodisadan notanishga o‘tish, mashqlar va topshiriqlarni bosqichdan bosqichga murakkablashtirib borish, ya‘ni terma gaplardan bog‘lanishli matnlarga, tayyor mashqlardan ijodiy mashqlarga o‘tib borish tamoyiliga amal qilish;

– faol va nofaol leksik-grammatik materiallarni mustahkamlab borishga qaratilgan mashqlardan foydalanish, matnlar bo‘yicha berilgan topshiriqlarda avvalgi mashqlar, matnlarga ham murojaat qilib borish;

– mashqlarning kommunikativ va nokommunikativ turlaridan o‘z o‘rnida va samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish;

– o‘quvchi-talabalarning bilim darajasini, o‘quvchilarning yoshi va ona tili, shuningdek, ta‘lim yo‘nalishi xususiyatini hisobga olish;

– guruhda turli til vakillarining borligini e‘tiborga olgan holda darsliklarda mashqlarni imkon boricha ko‘proq berish orqali tabaqalashtirilgan ta‘limni joriy etish va o‘quvchilarning har biriga o‘z kuchi darajasidagi mashqlarni bajartirishga erishish;

– o‘quvchilarning ijodiy faolligini va mustaqil fikrlashlarini amalga oshirish uchun tarjima mashqlaridan keng foydalanish;

– o‘quvchilar nutqidagi ona tilining salbiy ta‘sirini – interferensiyani bartaraf etishga qaratilgan mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Afsuski, o‘zbek tili ta‘limida qo‘llanadigan mashqlar va topshiriqlarni osondan qiyinga tamoyilida bosqichma bosqich rivojlantirib borish, talabalarni nutqqa olib chiquvchi, so‘zlardan so‘z birikmasi, ulardan gap va jumlarlar, ulardan bog‘lanishli matnlar tuzishga olib chiqishga, matn qismlarini mantiqiy bog‘lashga yo‘naltirilgan tizimlashtirilgan mashqlardan foydalanish, shu yo‘nalishda bosqichli ketma-ketlikdagi mashq va topshiriqlarni ishlab chiqish masalasi bugungi kungacha muammoligicha qolmoqda. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda o‘quvchi-talabalarning yoshi, til xususiyati, bilim darajasi, ta‘lim yo‘nalishini e‘tiborga olish, *qaysi bosqichda, kimga, qanday* mashq va top-

shiriqlarni berishning konseptual asoslarini ishlab chiqish ilmiy-metodik jihatdan tadqiq qilinmagani ta'lim samaradorligiga erishishda jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Ma'lumki, jahon tajribasida ikkinchi til ta'limida haqiqiy yoki shartli muloqot vaziyatini yuzaga keltirishni talab etuvchi kommunikativ mashqlar turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. **Haqiqiy kommunikativ mashqlar** bevosita muloqot paytida yuzaga keladi. Jonli muloqot mashg'ulotlarini turli joylarda, turli maqsadlarda tashkil etish mumkin. O'quvchi-talabalar bilan teatr, muzeylarga borish, ularni do'konlar, bozorlarda jonli muloqot qilishga, darsdan tashqari tadbirlarda faol ishtirok etishga undash tabiiy nutq vaziyatini keltirib chiqaradigan omillardir. **Shartli kommunikativ mashqlar** mashg'ulotlar paytida shartli muloqot vaziyatini yuzaga keltirishni taqozo etadi. Buning uchun, masalan, rasm yoki videolavhalarni ko'rsatish va o'zbek tilida uning og'zaki yoki yozma bayonini so'rash, o'yin mashqlaridan foydalanish, taqdimot darslarini tashkil etish, ish o'yinlaridan foydalanish, ya'ni kasbiy muloqot vaziyatini hosil qilish yo'li bilan haqiqiy muloqot sharoitiga anchagina yaqinlashadigan shartli muloqot sharoitini hosil qilish mumkin<sup>76</sup>.

Metodist olimlar O'.Hoshimov va I.Yoqubovlarning fikricha, ikkinchi tilga o'qitish metodikasida matnlar asosida tuzilgan mashqlarda grammatik material ustida ishlash quyidagi 4 bosqichda amalga oshirilishi kerak:

1-bosqichda – grammatik topshiriqni qoidali, qoidasiz yoki namunaga muvofiq bajarish;

2-bosqichda – grammatik ma'lumotlarni og'zaki nutqda qo'llash bo'yicha malaka hosil qildirish (suhbat matnlari, vaziyatli topshiriqlar, rolli o'yinlar orqali);

3-bosqichda – grammatik malakalarni nutqiy faoliyatning har xil turlari bilan bog'lash;

4-bosqichda – fikr almashishda grammatik malakalarni erkin qo'llay olishni ta'minlash lozim<sup>77</sup>.

Ma'lumki, o'zbek tilini o'zga tilli guruhlarda o'qitishda genetik jihatdan farq qiluvchi rus tili vakillari bilan ishlash ancha mu-

<sup>76</sup> Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. 2-е издание. – Москва: Просвещение, 1991. – С. 18–40.

<sup>77</sup> Хусанов Н., Шокирова С., Шайхова К. Ўзбек тили (иктисодий йўналишдаги олий ўқув юрглари учун қўлланма). – Тошкент, 1999. – 112-б.

rakkablikni tashkil etadi. Rus guruhlarida o'zbek tilini o'qitishda eng ko'p uchraydigan xatolardan biri so'z urg'usi ta'sirida yuzaga keladigan fonetik interferentiv xatoliklardir. Ma'lumki, o'zbek tilida so'z urg'usi turg'un (bog'liq) urg'u bo'lib, asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. So'z o'zagiga qo'shimchalar qo'shilib borgan sari urg'u ham oxirgi bo'g'inga ko'chib boraveradi. Faqat urg'u olmaydigan qo'shimchalar qo'llangandagina urg'u boshqa bo'g'inlarga tushishi mumkin. Masalan: *ishchi* (urg'u oxirgi bo'g'inda), *ish-chi?* (*-chi* yuklamasi o'zbek tilida urg'u olmaydi, shu bois urg'u birinchi bo'g'inda). Rus tilida esa so'z urg'usi erkin bo'lib, so'zlarning turli bo'g'inlariga tushadi. Bu ikki tildagi noo'xshashlik hodisasi nafaqat rus tilini o'rganayotgan o'zbeklarga, balki o'zbek tilini o'rganayotgan rusiyazon o'quvchilar uchun ham muayyan qiyinchiliklar hosil qilishi tabiiy.

Ayniqsa, rus tilidagi so'z urg'usining 1- va 2- , ya'ni urg'udan oldingi (*peredudarnaya* pozitsiya) va urg'udan keyingi (*zaudarnaya* pozitsiya) holatlarida *o*, *a*, *i* unli tovushlari talaffuzida farqlanishi interferensiyaning kuchayishiga olib keladi. Bu hodisa ko'p hollarda o'zbek tilida unli larning buzib aytilishiga va xato yozilishiga sabab bo'layotganini ko'rish mumkin. Rusiyazon fuqarolarning *Toshkent*, *Yunusobod*, *Oqtepa* so'zlaridagi kabi barcha so'zlardagi *o* tovushining *a* unlisiga almashtirib talaffuz qilishlari va *Tashkent*, *Yunusabad*, *Aktepe* shaklida xato yozishlari yoki *keldi*, *ketdi* so'zlarining oxirgi bo'g'inidagi *i* tovushini urg'uli bo'g'in sifatida rus tilidagi kabi kuchli va cho'ziq talaffuz qilishlari kabi ko'pdan-ko'p holatlar bunga misol bo'la oladi.

**Fonetik interferentiv xatoliklarni** bartaraf etishga qaratilgan mashqlarni boshlang'ich ta'lim bosqichidan, hatto maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab tizimli ravishda yo'lga qo'yilsagina, muayyan samaradorlikka erishish mumkin. 2-sinfda nutq tovushlarining talaffuzini o'rgatish jarayonida, ayniqsa, o'zbek tilining spetsifik nutq tovushlari (*o* , *q* , *g* , *h*) talaffuziga jiddiy e'tibor berish, o'zbek tilidagi *i*, *u*, unli larning qisqa va cho'ziq aytilishini, ularning (*keldi*, *ketdi*, *uzun [uzin]* kabi) urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarda farqlanmasligini amaliy tomondan o'zlashtirib borilishi *o* unlisining *a* bilan, *o* unlisining *u* tovushi bilan, *q*, *g* undoshlarining *k*, *g* tovushlari bilan almashtirib aytilishi va shunday yozilishi kabi jiddiy, qo'pol xatoliklarni bartaraf qilishga yordam beradi.

3–4-sinflarda esa ushbu talaffuz meʼyorlarini qoʻsh unli va qoʻsh undoshlarning talaffuzi haqidagi maʼlumotlar bilan boyitish orqali rusiyzabon oʻquvchilar tomonidan ikkita bir xil undoshning bitta tovush kabi talaffuz qilinishini, (*katta oʻrnida kata, ikki oʻrnida iki* shaklida) toʻgʻrilab borish talaffuz bilan bogʻliq bunday xatolarning yuqori sinflargacha, hatto oʻrta va oliy taʼlim bosqichlarigacha oʻtib ketmasligiga yordam bergan boʻlar edi. Boshlangʻich sinf darsliklariga ushbu tovushlarning qiyosiy talaffuziga qaratilgan mashqlar tizimini kiritish, spetsifik nutq tovushlari talaffuzini har darsda takrorlash yoʻli bilan mustahkamlab borish, ushbu tovushlarning fiziologik artikulyatsiyasini singdirishga qaratilgan maxsus mashqlardan, “*Bu – xato!*”, “*Bu – toʻgʻri!*” eslatmalaridan muntazam foydalanish maqsadga muvofiq deb oʻylaymiz.

5-sinfdan boshlab **grammatik interferentiv xatoliklarga** eʼtibor qaratish, buning uchun oʻzbek tilida tipik grammatik xatoliklar boʻyicha maxsus mashqlar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Jumladan, oʻzbek tilida boshqa soʻz turkumlaridagi soʻzlarning (jumladan, sifat, son, sifat-dosh kabi) ot oʻrnida kelib otlashishi hodisasi rus tilidagidan farq qiladi. Rus tilida otga bogʻlanib keladigan barcha soʻzlar moslashuv aloqasida bogʻlanadi va son, kelishik, rod kategoriyasi boʻyicha otga mos qoʻshimchalarni olib keladi, gapda ot tushib qolganda ham unga bogʻlangan soʻzlar shaklan oʻzgarmay qolaveradi. Oʻzbek tilida esa otga bogʻlanib keladigan soʻzlar bitishuv aloqasida boʻlgani uchun, ular faqat ot tushib qolgandagina, unga xos qoʻshimchalarni olib kela oladi. Misollarni qiyoslaylik:

Rus tilida: *Больные (Kakiye?) deti // Больные (Kto?)*.

Oʻzbek tilida: *Kasal(Qanday?) bolalar // Kasallar (Kim?)*.

Rus guruhleri oʻquvchilariga oʻzbek tilining ana shu oʻziga xos xususiyati alohida tushuntirib berilmasa, oʻquvchilar rus tili taʼsirida xatoga yoʻl qoʻyadilar. Oʻquvchilar quyi sinflarda otlarning birlik va koʻplik shakllari bilan tanishganlar, biroq ular shu ona tillari taʼsirida aksariyat hollarda jamlikni bildiruvchi soʻzlarni kesim bilan koʻplik sonda moslab aytadilar. Chunonchi, 8-sinfda oʻzbek tilida eganing jamlab ifodalanishi haqida maʼlumot berilar ekan, jamlovchi otlarning ega vazifasini bajarganda kesim bilan birlik sonda moslashishi, yaʼni oʻzbek tilida *Hamma keldilar* emas *Hamma keldi* deyilishi toʻgʻri ekanligi haqida alohida maʼlumot

berish zarur. Buni quyidagicha qiyoslab tushuntirish yaxshi natija beradi:

**To'g'ri**

*Vse prishli. Hamma keldi.*

**Xato**

*Hamma keldilar.*

O'zbek tilida qaratqich va tushum kelishiklarining ba'zan qo'shimchasiz qo'llana olishi, ya'ni belgili yoki belgisiz qo'llanishi rus tilidagi roditelniy va vinitelniy padejlarda mutlaqo uchramaydigan hol. Shuning uchun o'qituvchi tushum kelishigida keladigan vositasiz to'ldiruvchilarning belgili-belgisiz qo'llanishi, bunda ularning ma'nosidagi farqlarni qiyoslash orqali tushuntirib o'tishi kerak.

O'zga bir tilni o'rganishda ana shu xususiyatlarni sezish va ularni anglagan holda nutqda qo'llash juda muhim. O'zbek tili grammatikasini rusiyzabon talabalarga o'rgatishda duch kelinadigan asosan qiyinchiliklar rus va o'zbek tillaridagi muqobil bo'lmagan grammatik kategoriyalar, xususan, fe'llardagi tuslanish va zamon kategoriyasining ifoda va mazmun mundarijasidagi nomuqobilliklar, otlardagi egalik kategoriyasi, kelishik shakllarining qo'llanishi, ayrim kelishik shakllarining belgili-belgisiz qo'llana olishi, fe'llardagi nisbat, ayrim mayl shakllari (jumladan, buyruq-istak mayli), ko'makchi fe'llarning qo'llanishi bilan bog'liqdir.

Rus tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilish, lug'at bilan bevosita ishlash talabalarining olgan bilimlarini takomillashtirishga yordam beruvchi vositalardir. Biroq qaysi tilga tarjima qilinadigan bo'lsa, shu tilni yaxshi bilish kerakligidan kelib chiqib, "O'zbek tili" darsliklarida o'zbek tilidan rus tiliga emas, rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish mashqlari ko'proq berilishi maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

**Tarjima**, odatda, alohida so'zlarning ona tilidagi ekvivalentini ko'rsatishdan boshlanadi, so'ng so'z birikmalari va gaplarning tarjimasiga o'tiladi. Alohida so'z va so'z birikmalarini tarjima qilishga o'rgatish og'zaki tarjima uchun zamin tayyorlaydi, gaplarni tarjima qildirish esa o'rganilayotgan materialni puxta o'zlashtirishga yordam beradi. Qisqa hajmdagi gaplarni tarjima qildirish o'quvchining berilayotgan namuna asosida tez va to'g'ri javob berishiga yordam berib, til o'rganuvchining til materialiga nisbatan qiziqishini kuchaytiradi.

Matnни tarjima qilish esa til hodisasini haqiqiy kommunikativ sharoitga yaqinlashuviga olib keladi va o‘quvchida o‘ziga nisbatan ishonch hissini paydo qiladi. Shu bois tarjimaning ushbu shakllarini bosqichdan bosqichga murakkablashtirgan holda kiritib borish maqsadga muvofiq. Quyi ta’lim bosqichlarida so‘z va so‘z birikmalarini tarjima qildirish, so‘ngra avval sodda, keyin murakkab qo‘shma gaplarning tarjimasiga o‘tish, yuqori bosqichlarda matnlarni tarjima qildirish bilan shug‘ullantrish maqsadga muvofiq.

Ko‘rinadiki, oliy ta’lim muassasalari uchun chop etilgan “O‘zbek tili” darsliklarida so‘z va so‘z birikmalarini tarjima qilishga qaratilgan mashqlarning berilishi, albatta, uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga ziddir. Yuqori bosqichlarga o‘tgan sari tarjima mashqlaridan ko‘proq va kengroq foydalanish samarali bo‘ladi. Bunday mashqlarni bajarishda tarjima lug‘atlaridan foydalanishning amaliy ahamiyati katta.

Hozirgi kunda o‘zbek tilidan darsliklarda bog‘lanishli matnlardan so‘ng beriladigan matnosti lug‘atlari, darslikka ilova sifatida beriladigan lug‘atlar, shuningdek, har bir ta’lim bosqichi uchun alohida chop etiladigan maxsus ikki tilli tarjima lug‘atlari mavjud bo‘lib, ular o‘zbek tilini mustaqil o‘rganish uchun ham katta shart-sharoit yaratadi.

Kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi va ta’lim bosqichlari uchun til ta’limining kompetentlik darajalarining belgilanishi ta’lim mazmuni va shakllarini tubdan o‘zgartirishni taqozo etdi. Xususan, ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun “O‘zbek tili” fanidan kompetensiyaviy yondashuv asosida yangi avlod darsliklarini yaratishda, yuqorida qayd etilganidek, o‘quv materiallarini strukturalashtirishni rejalashtirish tamoyili alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bunda muayyan mavzu bo‘yicha berilgan nazariy ma’lumotlar, mashqlar va topshiriqlarni uzviylik asosida tizimlashtirib joylashtirish, yangi bilimlarni taqdim qilish va o‘tilganlarni mustahkamlashning o‘zaro mantiqiy bog‘liq zanjiri halqalarini uzluksizlik tamoyillari asosida, bosqichli ketma-ketlikda strukturalashning ahamiyati katta.

O‘quv-biluv materiallarini:

- nutqiy mavzu atrofida maqsadli jamlab berish;
- grammatik topshiriqlarini muayyan ketma-ketlikda tartiblashtirib berish;



– o‘quvchilar diqqatini tayanch ma’lumotlarga, asosiy holatlarni ikkinchi darajali holatlardan farqlashga qaratish;

– nazariy ma’lumotlar berilgan qoidalarni tushunib qabul qilinishiga va amaliy mashqlar yordamida mustahkamlanishiga erishish;

– berilgan qo‘shimcha axborotlarning bosh mavzuga aloqadorlik jihatlarini umumlashtirishga yo‘naltirib jamlash, bunda nutq mavzusini asosiy konsentr sifatida tanlash yo‘nalishida rejalashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Qayd etilganlar umumta’lim bosqichi uchun “O‘zbek tili” fani darsliklari mazmuni va strukturasi kompetensiyaviy yondashuv asosida modernizatsiyalashganini ko‘rsatadi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari rus guruhlarini uchun G.Asilova muallifligida chop etilgan “O‘zbek tili” darsligida ham har bir mavzu doirasida talabalarning nutqiy mavzu bo‘yicha berilgan matnlarni o‘qish, mazmunini tinglab tushunish, to‘g‘ri yozish, mavzu doirasida gapirish malakalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, oddiydan murakkabga qarab rivojlantirib borilgan topshiriqlar kompleksi taqdim etilganini, shu bilan bir qatorda muayyan grammatik ma’lumotlar bo‘yicha ham talabalar ko‘nikma-malakalarini mustahkamlab borishga harakat qilinganini ko‘rish mumkin<sup>78</sup>. Darslikda har bir mavzu bo‘yicha berilgan topshiriqlarni mazmuniga ko‘ra taxminan quyidagicha guruhlash mumkin:

*I-turkumdagi* topshiriqlar mavzuga kirishga yo‘naltirilgan quyidagi kabi topshiriqlardan iborat:

– savollarga javob bering;

– quyidagi so‘z va iboralarning ma’nosini izohli lug‘at yordamida tushuntirib bering;

– quyidagi tushunchalarning mavzuga qanday aloqasi borligini misollar yordamida tushuntirib bering;

– quyidagi atamalarni o‘zbek tilida yozing;

– quyidagi tushunchalar mazmuni bilan tanishing, ular orasida qanday bog‘liqlik borligini tushuntiring;

– berilgan baynalminal terminlar qaysi sohaga tegishli ekanligini aniqlang, ularning ma’nosini izohlang;

– berilgan ta’riflarni o‘qing va mazmunini o‘z so‘zlaringiz bilan ifodalang;

---

<sup>78</sup> Asilova G..A. O‘zbek tili (oliy ta’lim bakalavriat yo‘nalishi rus guruhlarini uchun darslik). – Toshkent: Yosh kuch, 2010.

– mashhur kishilarning fikrlarini o‘qing, ularni o‘zbek tiliga tarjima qiling va h.z.

*2-turkumdagi* topshiriqlarni mavzuga oid matnlar bilan tanishishga yo‘naltirilgan quyidagi topshiriqlardan iborat:

– matnni o‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘z va iboralarning ma‘nosini tushuntiring;

– matnni o‘qing, uni sarlavhalang, mazmunini qisqacha so‘zlab bering;

– matnni o‘qing va undagi asosiy fikrni bir necha gap bilan ifodalang;

– matnning mazmunini o‘zbek tilida so‘zlab bering;

– matnni o‘qing va uning mazmuni asosida savollar tuzing;

– berilgan nomlar, ma‘lumotlarga tayanib matn tuzing;

– matnni qismlarga ajrating va har bir qismga sarlavha qo‘ying;

– berilgan jumalarga tayanib, kichik dialoglar tuzing;

– matnni abzatslarga bo‘lib o‘qing va har biridagi asosiy fikrni toping;

– quyidagi so‘z va iboralar ishtirokida kichik matn tuzing;

– matnni kengaytiring (biroq bu o‘rinda matn qisqa berilishi kerak bo‘ladi);

– ... haqidagi fikrlar bilan tanishing, ularning har biriga munosabat bildiring va h.z.

*3-turkumdagi* topshiriqlar mavzuga oid matnlar tarkibidagi so‘zlar va iboralar ustida ishlashga yo‘naltirilgan topshiriqlardan iborat:

– maqollarni mos so‘zlar bilan to‘ldiring va ma‘nosini tushuntirib bering;

– gaplarni to‘ldiring;

– berilgan so‘z va iboralarga matndan sinonimlar toping;

– berilgan so‘zlarning ma‘nosini tushuntirib bering, ular ishtirokida gaplar tuzing;

– berilgan so‘z va iboralar ishtirokida bog‘lanishli matn tuzing;

– so‘zlarni to‘g‘ri o‘qing, ularning yozilishi va talaffuziga e‘tibor bering, ma‘nosini tushuntiring;

– maqollarni ifodali o‘qing va tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘ying;

– til haqidagi maqollarni to‘ldiring, ularni yod oling va mazmunini so‘zlab bering;

– nuqtalar o‘rniga mos harflarni qo‘ying;  
– ... to‘g‘risida hikmatli so‘zlardan misollar keltiring;  
– hikmatli so‘zlarni sharhlang, ularga hayotdan misollar keltiring;

– matnda berilgan tushunchalar ma’nosini bilib oling va h.z.

*4-turkumdagi* topshiriqlarni adabiy o‘qish materiallari ustida ishlashga yo‘naltirilgan topshiriqlardan iborat:

– she’rni ifodali o‘qing, uning mazmunini qisqacha gapirib bering;

– darslikning “Mutolaa” bo‘limidan .... asarini o‘qing;

– matnda tasvirlangan ..... haqida gapirib bering;

– she’rni o‘qing, unda nimalar aks etganini so‘zlab bering;

– she’rda (matnda) tasvirlangan manzara qaysi davrga taalluqli ekanini izohlang va h.z.

*5-turkumdagi* topshiriqlar talabalarni mustaqil ijodiy ishlashga yo‘naltirilgan topshiriqlardan iborat:

– berilgan rasm (yoki matn) asosida qadimgi Sharq bozori haqida so‘zlab bering;

– quyidagi xaritani diqqat bilan o‘rganing. Buyuk Ipak yo‘lining yo‘nalishlari va u yerlarda joylashgan qadimiy shaharlar haqida gaplar tuzing (bu o‘rinda, bizningcha, topshiriqni gap emas, matn tuzdirish, taqdimot tayyorlash, ushbu qadimiy shaharlarning hozirgi nomlarini aytish mazmunida takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi);

– Buyuk Ipak yo‘li haqida ma’lumotlar to‘plang va ularni quyida berilgan turli kasb egalari nuqtai nazaridan gapirib bering;

– tarixiy mavzudagi badiiy filmlardan olgan taassurotingiz haqida so‘zlab bering va h.z.

Albatta, har bir mavzu doirasida 20ga yaqin topshiriqlarning berilishi, topshiriqlar mazmunining keng miqyoslilikli oliy ta’lim bosqichida rus guruhlarida o‘zbek tilini o‘qitishda topshiriqlarni ko‘paytirish borasida jiddiy izlanishlar olib borilayotganini ko‘rsatadi. Topshiriqlarning har biri talabalar diqqat-e’tiborini bosh mavzuning qaysidir qirrasini ochib berishga va nutqini yangi tushunchalar, so‘z va birikmalar bilan boyitib borishga qaratilganligi, yangi leksika ustida ishlashda matn bo‘yicha tayyor tarjima lug‘atlarini berishdan chekinilgani, aksincha, so‘zlar va birikmalarining ma’nosini izohli lug‘atlar yordamida sharhlash, tushuntirish topshiriqlarini berish orqali talabalarni mustaqil ishlashga

yo'naltirilganligi, bizningcha, oliy ta'limda o'zbek tilini o'qitishdagi yangilanishlardan biridir.

Ko'rinadiki, G. Asilova tomonidan tavsiya qilingan topshiriqlar tizimi ham boshqa darsliklardagi kabi asosan tayyor matn ustida ishlashga qaratilgan. Afsuski, "O'zbek tili" darsliklarida o'quvchi-talabalarning o'zlarini bog'lanishli nutq tuza olishiga, ya'ni o'zi matn tuza olishga o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlar tizimi qo'llanmayapti. Bu o'rinda T.Ziyodova tavsiya etgan MYABT – matn yaratish texnologiyasi e'tiborga sazovor bo'lib, u matn yaratishning to'rt modulga bo'lingan quyidagi bosqichli tizimini tavsiya etadi:

*1-bosqich* – tayanch so'zlarni tanlash (tovushdosh, ma'nodosh, uyadosh, zid ma'noli, shakldosh so'zlar, iboralar, tasviriy ifodalarni tanlash);

*2-bosqich* – so'z birikmalarini hosil qilish (so'zlardan so'z birikmalari hosil qilish);

*3-bosqich* – gap tuzish (tuzilgan so'z birikmalaridan sodda yoyiq, uyushiq va ajratilgan bo'lakli, kirish so'z va kirish gapli, sodda va qo'shma gaplar, she'r qatorlar tuzish);

*4-bosqich* – matn yaratish (tuzilgan gaplardan foydalanib monologik va dialogik matnlar yaratish)<sup>79</sup>.

Biroq ushbu texnologiya ona tili ta'limida qo'llashga tavsiya etilgani bois, muallif tavsiyalarining aksariyati ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlar uchun murakkablik qiladi. Ikkinchi til ta'limining o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan yuqorida qayd etilgan fikr-mulohazalar respublikamizda ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar va guruhlarda o'zbek tilini o'qitishda mashq va topshiriqlar mazmuni, ularni darsliklar va o'quv qo'llanmalarida tizimlashtirib berishning o'ziga xos tamoyillaridan foydalanish zarurat ekanligini dalillaydi.

"O'zbek tili" fani darsligi oddiy so'zlashgich sifatida ham emas, o'zbek tilining izchil grammatikasi tarzida ham emas, aksincha, o'quvchi-talabalarni respublikamizning davlat tilida og'zaki va yozma savodxonlikka ega bo'lgan, o'z fikrini turli vaziyatlarda va uslublarda erkin ifodalay oladigan kommunikativlik kompetensiyasiga ega shaxsni shakllantirishga xizmat qiladigan mukammal tarzda yaratilishi kerak. Bunday uyg'unlikni ta'minlash esa darsliklarda o'quv-biluv materiallarni ham tarqoq holda emas, ushbu

<sup>79</sup> Зиёдова Т. Матн яратиш технологияси. – Тошкент: Фан, 2008.

maqsadni amalga oshirishga qaratilgan holda uygʻunlashtirib berilishini taqozo etadi.

## 11.2. Oʻzbek tili darslarida oʻquv-biluv topshiriqlari bilan bosqichli ketma-ketlikda ishlash

Soʻnggi yillarda yuqori sinflar uchun yaratilayotgan “Oʻzbek tili” darsliklarida oʻquv dastur **asosida nutq mavzusi – grammatik maʼlumot – adabiy oʻqish** bloklarining konsentrlar shaklida jamlab taqdim etilishi oʻquv-biluv materiallarini yaxlit qamrab olish imkonini bermoqda. Keyingi yillarda taʼlim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning yuqori sinflari uchun yaratilgan “Oʻzbek tili” darsliklarida oʻquv materiallari *nutq mavzusi – grammatik maʼlumot – adabiy oʻqish* konsentrlariga jamlangan holda tizimlashtirib berilganini koʻrish mumkin. Mazkur darsliklarda topshiriqlar yuqorida qayd etilgan yondashuv asosida quyidagicha tartiblanganini koʻrish mumkin:

1. Rasmlar va illyustratsiyalar bilan ishlash;
2. Matn ustida ishlash;
3. Qoida va taʼriflar bilan ishlash;
4. Leksik-grammatik mashqlar;
5. Suhbat va savol-javob mashqlari;
6. Adabiy oʻqish materiallari;
7. Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar;
8. Uy vazifalari.

Koʻrinadiki, ikkinchi til taʼlimida oʻquv-biluv materiallarining tartiblanishi ona tili taʼlimidagi kabi emas. Qayd etilganidek, tilni ona tili sifatida oʻqitish misollarni qiyoslash, mustaqil tahlil qildirish orqali, yaʼni “pastdan yuqoriga tomon” yoʻnalishida olib borilsa, chet tilini oʻqitish yoki tilni ikkinchi til sifatida oʻqitishda esa “yuqoridan pastga tomon” boriladi, yaʼni avval qoida-taʼrif, soʻng unga mos misollar beriladi. Til muhiti bor boʻlgan joyda ikkinchi tilni oʻqitish ham “yuqoridan pastga tomon” yoʻnalishida amalga oshirilsa-da, bunda til oʻrganuvchilar muayyan til koʻnikmalariga (masalan, eshitganlarini muayyan darajada tushunish) va kundalik turmushda koʻp ishlatiladigan soʻzlar lugʻaviy zahirasisiga egaliklaridan kelib chiqib, mavzuga doir matn yoki rasm ustida ishlash, savollarga javob berish, shu mavzuda suhbatlashish yoki tayanch soʻzlar va birikmalar asosida monologik yoki

dialogik matn tuzish kabi ish turlaridan foydalanish ham kuzatiladi.

Bu holat ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitishning ona tilini o'qitishdan tubdan farqlanishini, ikkinchi til ta'limida mavzuga oid qoida va ta'riflarni tushuntirish va ularni mustahkamlashga qaratilgan mashq va topshiriqlar bilan ishlashning o'zi yetarli bo'lmasligini, o'qituvchi yuqorida qayd etilgan 8 turdagi topshiriqlar bilan muayyan izchillikda ishlashi kerak bo'ladi. Keyingi yillarda ta'lim bosqichlarida o'tkazilgan islohotlar natijasida "O'zbek tili" fanidan o'quv dasturlari va darsliklarining tarkiblanishida ham katta o'zgarishlar yuzaga keldi. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitishda dars jarayonini modernizatsiyalashgan darsliklar asosida tashkil etish o'quv-biluv topshiriqlarining tarkiblanishi va bajarilishidagi bosqichli ketma-ketlikka alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Mazkur o'quv-biluv topshiriqlarini bosqichli ketma-ketlikda bajartirish orqaligina o'quvchilarda nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni tarkib topdirishga, ular orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga erishish mumkin. Metodik jihatdan "O'zbek tili" darsliklarida berilgan o'quv-biluv topshiriqlari quyidagi bosqichlarga bo'linganini kuzatish mumkin:

**1. O'quv-biluv topshiriqlarining birinchi bosqichi.** Mazkur bosqich o'quvchilarni nutqiy mavzuga olib kirish va grammatika bo'yicha beriladigan nazariy ma'lumotni tushunib qabul qilishga, ushbu grammatik shakllarning nutqdagi o'rnini, amaliy ahamiyatini ko'rsatishga qaratiladi. Bu illyustratsiyalar va rasmlar hamda nutqiy mavzu bo'yicha berilgan matn ustida ishlashni qamrab oladi va asosiy mavzuga kirish bosqichi hisoblanadi.

**1. Rasmlar va illyustratsiyalar bilan ishlash.** Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun "O'zbek tili" darsliklarida taqdim etilgan illyustratsiyalar, rasmlar, shuningdek, berilgan tayanch so'zlar asosida gaplar, jumlar yoki matn tuzish, savollar asosida o'zaro suhbatlashish kabi topshiriqlar o'quvchilarni nutq mavzusiga olib kirishga tayyorlaydi, ularda tilni o'rganishga qiziqish va intilish yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Darsning boshidayoq mavzuga mos rasm yuzasidan tayanch so'zlar va birikmalar berilib, o'quvchilarga ular asosida gaplar tuzish va o'zaro suhbatlashish topshirig'i qo'yilishi o'quvchilarning mavzuga qiziqishlarini uyg'otishga zamin tayyorlaydi.

**1-topshiriq.** Suhbat matnini o‘qing. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring. Rasm asosida suhbatlashing.

..... ?

Men kelajakda uchuvchi bo‘lmoqchiman.

.....?

Buning uchun o‘zbek, ingliz, rus tillarini yaxshi bilish kerak.

.....?

Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti.

.....?

### (10-sinf, 16-mavzu)

So‘nggi yillarda umumta‘lim maktablari uchun chop etilgan darsliklarda illyustratsiyalar va rasmlarning bolalar yoshiga mos holda ko‘p va rangdor berilishi o‘quvchilarni mavzularga jalb qilishga, o‘zbek tilini o‘rganishlariga intilish yuzaga keltirishga yordam bermoqda. Albatta, rasmlar va illyustratsiyalar boshlang‘ich sinflar darsliklarida ko‘proq va kattaroq hajmda, yuqori ta‘lim bosqichlarida esa nisbatan kichikroq hajmda va kamroq beriladi. Shuni ham ta‘kidlash kerakki, keyingi vaqtlarda oliy ta‘lim darsliklarida ham syujetli rasmlar vositasida talabalarni mantiqiy fikrlab javob berishga yo‘naltiradigan topshiriqlar berilayotgani holda, afsuski, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi bosqichi uchun chop etilayotgan “O‘zbek tili” darsliklari va qo‘llanmalarda illyustratsiyalar va rasmlar deyarli yo‘q hisobida. Umuman, yuqori ta‘lim bosqichlari uchun bu masalada maxsus talablar ham ishlab chiqilmagan.

**2. Matn ustida ishlash.** “O‘zbek tili” darsliklari nutq mavzulari bo‘yicha bo‘limlarga ajratilgan va har bir bo‘limda shu nutq mavzusiga mos matnlar taqdim etiladi. Matnlar ustida ishlash bo‘yicha matnni o‘qish, uni so‘zlab berish, ona tiliga tarjima qilish, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar va grammatik shakllarga e‘tibor qaratish, matndan o‘tilayotgan grammatik mavzuga aloqador so‘z shakllarini va vositalarni aniqlash, matnni to‘ldirish, davom ettirish kabi topshiriqlar beriladi.

Bunda nutqiy mavzu bo‘yicha berilgan bosh matn tarkibida albatta shu mavzuda o‘tiladigan grammatik shakllar yoki vositalarning mavjud bo‘lishi, matn tarkibida ularni qoraytirib berish orqali o‘quvchilar diqqat-e‘tiborini ushbu birliklarga qaratish nazariy ma‘lumotni tushuntirishda o‘quvchilar diqqatini bir joyga jamlashga yordam beradi. O‘quvchilarning e‘tiborini ushbu grammatik

shakllarga qaratish orqali ularning diqqatini bir joyga jamlash yangi grammatik ma'lumot bo'yicha beriladigan ta'rif va qoidani puxta o'zlashtirishga yordam beradi. Ana shunday muayyan tayyorgarlikdan so'ng yangi grammatik mavzu tushuntiriladi, ya'ni o'quv-biluv topshiriqlarining ikkinchi bosqichi – qoida va ta'riflar ustida ishlashga o'tiladi.

**II. O'quv-biluv topshiriqlarining ikkinchi bosqichi** qoida va ta'riflar bilan ishlash bosqichi hisoblanadi. Ma'lumki, "O'zbek tili" darsliklarida "Bilib oling!" ruknida grammatik ma'lumotlar amaliy nutq faoliyati uchun zarur bo'ladigan grammatik shakllar va vositalar, ularning qo'llanishi va imlosi bo'yicha qisqa qoidalar, misollar berib borish ko'zda tutiladi. Qoidalarda aynan matn tarkibida ajratib ko'rsatilgan mavzuga doir grammatik shakllar va vositalarning qo'llanishi bo'yicha beriladi. Bu amaliy nutq uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlarni ko'rgazmalilik vositasida puxta o'zlashtirib olishga yordam beradi.

"O'zbek tili" darsliklari nutq mavzulari bo'yicha bo'limlarga ajratilgan bo'lib, har bir nutq mavzusi 2–3 darsga bo'lib o'tiladi. Shu mavzuda beriladigan grammatik ma'lumotlar bo'yicha qoida va ta'riflar ham darslarga taqsimlanadi va har bir darsda leksik-grammatik mashqlar vositasida mustahkamlab boriladi. Jumladan, 8-sinf darsligida "Bug'doy – rizq-ro'zimiz" mavzusida fe'lning orttirma nisbati, uning yasalishi va imlosi yuzasidan grammatik ma'lumot berilishi ko'zda tutilgan bo'lib, ushbu nazariy ma'lumotlar 3 soatga quyidagicha taqsimlangan: 1-darsda orttirma nisbatning qanday qo'shimchalar bilan yasalishi; 2-darsda *-dir, -tir* qo'shimchalarining imlosi; 3-darsda esa *k, q* tovushlari bilan boshlanadigan qo'shimchalarning fe'l asosiga qo'shilishi va imlosi qisqa ta'riflar vositasida misollar bilan illyustrativ tarzda taqdim etiladi va qisqa ta'riflardan so'ng ushbu shakllarni amaliy qo'llash mashqlar yordamida mustahkamlanadi.

**III. O'quv-biluv topshiriqlarining uchinchi bosqichi** nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirishga qaratilgan leksik-grammatik mashqlar bilan ishlash. Ushbu turkumdagi mashqlar o'quvchilarda grammatik vositalar, so'zlar va jummalarni nutqda og'zaki qo'llash va to'g'ri yozish ko'nikma-malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga yordam beradigan **retseptiv** (passiv, ya'ni matnda ajratib ko'rsatilgan grammatik hodisa, shakl yoki vositaning gap-



da qo‘llanishini tushunib olish), **reproduktiv** (qisman faol, ya‘ni mavjud shaklni hosil qilish, vositani o‘z o‘rniga to‘g‘ri qo‘yish) **produktiv** (o‘rganilgan grammatik shakl yoki vositani turli vaziyatlarda erkin qo‘llash) mashqlardan foydalanish ko‘zda tutiladi. Bunda **produktiv** mashqlar sirasiga suhbat va savol-javob topshiriqlarini, ijodiy va yarim ijodiy mashqlarni kiritish mumkin. Quyida ushbu mashq turlaridan namunalar keltiramiz.

### **Retseptiv mashqlardan namunalar**

**1-mashq.** Matni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e‘tibor bering.

### **Bilim – xazina**

Bizning oilamizda turli kasb egalari bor. Dadam **quruvchilik** sohasida ishlaydilar. Onam esa **zardo‘zlik** bilan shug‘ullanadilar. Katta akam **duradgorchilik** kasbini tanlagan. Opam **o‘qituvchilik** kasbiga o‘qiyaptilar. Meni esa **tarjimonlik** sohasi qiziqtiradi...

**(6-sinf, 3-mavzu)**

**1-mashq.** Matni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan fe‘llarning shakliga e‘tibor bering va qaysi nisbatda qo‘llanganini ayting.

### **Hosil bayramida**

O‘quvchilar yakshanba kuni “Hosil bayrami” ko‘rgazmasiga **borishdi**. Hosil bayramida chet ellik tadbirkor mehmonlar ham **ishtirok etishdi**. Ular rastalarga terib qo‘yilgan turli meva va sabzavotlarni ko‘rib **hayratlanishdi**. Darhaqiqat, dehqonlarimiz tomonidan **yetishtirilgan** oltindek uzumlar, shaftoli, olma, anorlar-u noyob noklarni ko‘rib ko‘zingiz **qamashadi**. Bir chekkaga uyib qo‘yilgan qovun-tarvuzlardan **taralayotgan** hid dimog‘ga yoqimli **uriladi**. Barcha mehmonlar ularga tasannolar **aytishib**, zavq bilan mevalardan **tatib ko‘rishdi**. Biz Vatanimizda shunday ne‘matlar borligidan **faxrlandik**.

**(8-sinf, 3-mavzu)**

### **Reproduktiv mashqlardan namunalar**

**3-mashq.** Nuqtalar o‘rniga mos qo‘shimchalarni qo‘yib yozing, so‘ng ular ishtirokida gaplar tuzing.

*uy ... voqea*

*ertalab ... kechqurun ...*

*ko'ngil ... gaplar  
maktab ... darslar  
kitob ... qoidalar*

*katta ... kichik ...  
o'quvchilar ... o'qituvchilar ...  
boshi ... oxiri ...*

(7-sinf, 3-mavzu)

**3-mashq.** Nuqtalar o'rniga kerakli jummalarni qo'yib matnni kengaytirib yozing.

Milliy teatr – ... .. oila. Ustozlar ... .. mehribon edilar. Aktyorlik madaniyati... .. tushunchalarini ilk bor shu yerda egaladik. Menda teatrga, ... .. uyg'ongan. Hamma aktyorning ham orzusi – ... .. yaratishdir. Iste'dod qudrati... .. namoyon bo'ladi.

**Matnni kengaytirish uchun so'z va so'z birikmalari:** *bosh qahramon timsolini; ota-onaday; boshqalarga ibrat ko'rsatish fazilati haqidagi; katta; ijodga mehr oila muhitida; kasbga muhabbat bilan.*

(10-sinf, 11-mavzu)

### **Produktiv mashqlardan namunalar**

**3-mashq.** Sog'lom turmush tarziga mos va zid odatlarni o'zaro qiyoslang. Har ikkisidan kelib chiqadigan oqibatlarni quyidagi ikki ustunga ajratib yozib chiqing.

**Sog'lom turmush**

**Nosog'lom turmush**

(6-sinf, 15-mavzu)

**5-topshiriq.** Berilgan birikmalar yordamida savollarga javob bering.

#### **1. Qanday insonlar xalq orasida obro'ga ega bo'ladi?**

- yolg'on gapirma;
- kamtar bo'lsa;
- bergan va'dasining ustidan chiqsa;
- qo'pol va manman bo'lmasa.

#### **2. Qanday o'quvchilarni hurmat qiladilar va yaxshi ko'radilar?**

- kattalarni hurmat qilsa;
- bilim olishga intilsa;

- topshiriqlarni vaqtida bajarsa;
- o‘rtoqlariga yordam bersa.

*Siz bular qatoriga yana nimalarni qo‘shgan bo‘lar edingiz?*

**(11-sinf, 1-mavzu)**

Biroq “O‘zbek tili” darsliklarida matn yuzasidan beriladigan aksariyat topshiriqlar: matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering, ona tilingizga tarjima qiling kabilardan iborat bo‘lib, ayrim mavzulardagina:

- berilgan so‘zlardan so‘z birikmalari yoki gaplar tuzish;
- gaplar yoki maqollarning ikkinchi qismini topib to‘ldirish;
- gaplarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirib, bog‘lanishli matn tuzish kabi topshiriqlar uchraydi, biroq ular darsliklarda bosqichli ketma-ketlikda berilmagan. Odatda, u yoki bu mavzuda ushbu mashq turlaridan faqat ayrimlarigina berilgan, xolos. Chunonchi, matn tuzishga oid tizimli topshiriqlar deyarli yo‘q darajada.

**6-mashq.** 1-qatorda berilgan so‘zlarni tobe so‘z sifatida ishtirok etirib, so‘z birikmalari tuzing.

Xalqaro, suveren, teng, yuqori, ichki, tashqi, ijtimoiy-madaniy, umume’tirof etilgan, iqtisodiy, qonunchilik, dahlsiz.

Respublika, munosabatlar, palatasi, ishlar, huquqli, siyosat, palata, aloqalar, huquqlilik, makon.

**(10-sinf, 1-mavzu)**

**3-mashq.** Juftlab berilgan sodda gaplarni mos bog‘lovchilar bilan bog‘lab, qo‘shma gaplar tuzing.

1. Qushlar pastlab uchdi. Yomg‘ir yog‘adi. 3. Qo‘shning tinch. Sen tinch.

2. Yo‘llar loy bo‘lib ketdi. Yomg‘ir yog‘di. 4. Qor yog‘di. Havo sovib ketdi.

**(8-sinf, 10-mavzu)**

**3-mashq.** Berilgan so‘zlarni to‘g‘ri joylashtirib maqollar hosil qiling.

1. Yaxshi, ham, hechdan, kech, ko‘ra.
2. Ko‘p, yaxshiroq, indamay, ko‘ra, o‘tirganing, gapirgandan.
3. Yaxshiga, qoch, yondash, yomondan.

5. Bug‘doy, bo‘lmasin, shirin, noning, so‘zing bo‘lsin.  
(10-sinf, 2-mavzu)

**3-topshiriq.** Berilgan so‘zlarni mazmunan bog‘lab, 4 ta maqol tuzing.

Chaman	sevmoq	vatan	boshlamoq	ona
bulbul	ostona	imon	omon	somon
inson	yurt	bo‘lmoq	rang-ro‘yi	sevmoq

(8-sinf, 1-mavzu)

**4-mashq.** Berilgan gaplarni izchillikda bog‘lab, bog‘lanishli matnga aylantiring.

### Mirzo Ulug‘bek

1. Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek 1394-yilning 22-martida Sultoniya shahrida tug‘ilgan. 2. Ko‘p mamlakat va shaharlarni ko‘rgan. Temur vafotidan keyin hokimiyat Ulug‘bekning otasi Shohrux qo‘liga o‘tdi. Shohrux Xurosonda hukmronlik qiladi. 3. Ulug‘bek “Bibixonim” masjidi, “Go‘ri Amir” maqbarasi, “Shohizinda” majmuasining qurilishini tamomladi. 4. Movarounahrni o‘g‘li Ulug‘bekka topshiradi. U vaqtda Mirzo Ulug‘bek 15 yoshda edi. 5. Ulug‘bek yoshlik yillarida bobosi Amir Temur bilan ko‘p yurtlarga yurishlarda qatnashgan. 6. U ko‘p yerlarda bog‘lar yaratdi. 7. Ulug‘bek keyinchalik Samarqandda rasadxona qurdirdi. 8. 1417–1420-yillarda ajoyib madrasa qurdirdi.

(11-sinf, 4-mavzu)

Shuningdek, asar muallifi haqidagi ma‘lumotlarni noizchilikda berib, ulardan bog‘li matn tuzish topshirig‘ini berish ham mumkin. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarni mustaqil o‘ylashga va berilgan ma‘lumotlar uzviyiligini topib, bog‘liq matn shakliga keltirish uchun mantiqiy fikrlashga undaydi. Masalan:

**1-topshiriq.** Berilgan ma'lumotlarni tartib bilan joylashtirib, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning hayoti va ijodiy faoliyati haqida so'zlab bering.

1. O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi.

2. Ijodiy faoliyati talabalik yillaridan boshlangan. Uning birinchi she'riy to'plami "Mitti yulduz" 1965-yilda chop etilgan.

3. 1941-yil Qashqadaryo viloyati Koson tumanida tug'ilgan.

4. Iste'dodli tarjimon. Dantening "Ilohiy komediya"sini o'zbek tiliga yuksak mahorat bilan tarjima qilgan.

6. U o'z she'rlari bilan jamoatchilik orasida mashhur bo'lib ketgan.

7. O'zbekiston Qahramoni, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti sovrindori, Kaliforniya (AQSh) Fan, Ta'lim, Sanoat va San'at xalqaro akademiyasining haqiqiy a'zosi.

8. 1963-yilda Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetini tugatgan.

9. U dostonshunos va dramaturg sifatida ham qalam tebratgan. "Jannatga yo'l" dostoni va "Sohibqiron" she'riy dramasi juda katta shuhrat qozongan.

**IV. O'quv-biluv topshiriqlarining to'rtinchi bosqichi.** Ushbu bosqich suhbatlar va savol-javoblarga oid topshiriqlardan iborat bo'lib, ikkinchi til ta'limida dialog – suhbat metodidan foydalanish, rolli ijro qilish orqali o'quvchilarni muloqot yuritishga olib chiqish, ya'ni ularning amaliy nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun "O'zbek tili" darsligida dialog va poliloglardan iborat suhbat matnlaridan foydalanish, savollarga javob berish yoki, aksincha, matnga, berilgan javoblarga savollar qo'yish topshiriqlari tez-tez beriladi. Har bir mavzu tarkibida berilgan suhbat matnlarini rolli ijro qildirish orqali shu mavzuda o'tilgan grammatik ma'lumotlarni nutqda amaliy qo'llash nutqiy ko'nikmalari rivojlantirib boriladi. Masalan:

**2-topshiriq.** Berilgan savollar asosida o'zaro suhbatlashing. Fe'llar qaysi nisbat shaklida qo'llanyotganini tushuntiring.

– Dam olish kuni o'quvchilar qayerga borishdi?

- .....
- U yerga yana kimlar kelishdi?
- .....
- Chet ellik mehmonlar nimalardan hayratga tushishdi?
- .....
- Ular nimalarni tatib ko‘rishdi?
- .....
- O‘quvchilar nimadan faxrlanishdi?
- .....

**(8-sinf, 3-mavzu)**

**4-topshiriq.** Suhbat matnini rolli o‘qing va davom ettiring.

**O‘qituvchi:** Yaqinda maktabimizda “Tabiatni asrang“ mavzu-sida tadbir o‘tkaziladi.

**Bahrom:** Ekologiya barcha tirik mavjudotning umumiy uyi, ya’ni tabiat haqidagi fandir.

**Alisher:** Ekologiya insonlarning tabiatga, atrof-muhitga munosabatini ham o‘rganadi.

**O‘qituvchi:** Ayting-chi, havoning inson salomatligiga ta’siri qanday?

**Aziza:** Abu Ali Ibn Sinoning fikricha, salomatlikni saqlashda toza havoning ahamiyati katta. Shuning uchun atrof-muhitning tozaligiga e’tibor berib turish kerak.

**O‘qituvchi:** Ekologiyani buzuvchi omillar nima?

**Nodira:** ...

**(6-sinf, 6-mavzu)**

**3-topshiriq.** O‘qing, berilgan savolga javob bering.

### **Sog‘lom turmush tarzi sirlari**

Sog‘lom bo‘lish uchun:

- har kuni jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish;
- me’yorida ovqatlanish;
- vaqtida o‘qish va vaqtida dam olish;
- kechqurun yuz-qo‘llar va tishlarimni yuvib yotish;
- o‘rin-joy va kiyimlarimni orasta saqlash;
- yorug‘lik yaxshi tushadigan joyda va to‘g‘ri o‘tirgan holda o‘qish;

– kompyuter, televizor, telefon kabi vositalardan kamroq foydalanishni odat qilish kerak.

*Ayting-chi, siz bu odatlardan qaysilariga rioya qilasiz?*

**(8-sinf, 11-mavzu)**

**8-topshiriq.** Suhbat matnini o‘qing va o‘zaro davom ettiring.

**O‘qituvchi:** Olamdagi sirlar, g‘aroyibotlar haqida qayerdan eshitgansiz?

- Men sirli voqealar haqida ertaklarda o‘qiganman.
- Men esa buvim aytib bergan ertaklaridan eshitganman.
- Men sarguzasht va fantastik asarlardan o‘qiganman.
- Men esa filmlarda ko‘rganman.

**O‘qituvchi:** Siz bu voqealarga ishonasizmi? Olamdagi sirlar, g‘aroyibotlar haqiqatmi? Ularning yechimi bormi?

– Mening o‘ylashimcha, inson hamma narsaning yechimini topdi.

Ertaklarda inson o‘z orzu-umidlarini aks ettiriladi. Izlansa, intilsa, albatta maqsadga yetishishi ifodalangan.

– “Ertaklar – kelajakka yetaklar”, deb bejiz aytishmaydi. Haqiqatan ham, film, ertaklarda tasvirlangan tilsimlarning ko‘pi bugun ro‘yobga chiqdi-ku! Masalan, uchar gilamlar – samolyotlar, g‘orlardagi boyliklar – yer osti boyliklari.

– Men ham olamdagi sirlar hali yechilmagan, kashf etilmagan haqiqatlar deb o‘ylayman. Masalan, qadimiy me‘moriy obidalarimizdagi hashamlar, ularning shuncha asrdan beri rangi ketmayotgani barchani hayratga solib kelyapti. Bir kun kelib, buning siri ham topiladi, chunki ularni ham inson yaratgan. Bu tilsimlarni faqat ilm olish, o‘qish, o‘rganish orqali yechish mumkin.

**(8-sinf, 12-mavzu)**

**4-topshiriq.** Suhbat matnini o‘qing va davom ettiring.

– Bolalar, ertadan yozgi ta‘til boshlanadi. Kim qayerda dam olmoqchi?

– Men qishloqqa tog‘amlarnikiga ketaman. U yerda tog‘am bilan yaylovda qo‘y-qo‘zilarga qaraymiz. Keng yaylovda qo‘y-qo‘zilarni “qurey-qurey” deb haydash menga juda yoqadi.

– Biz keyingi haftadan tog‘ga dam olishga ketyapmiz. U yerda katta soy bor, mazza qilib cho‘milaman.

– Biznikida qurilish ketyapti. Men ta’tilning birinchi oyida uy ishlariga yordam beraman. Ishlar tugagandan so‘ng dala hovlimizga ketamiz.

– Men esa ...

(8-sinf, 12-mavzu)

Dialoglar va poliloglarda ko‘pincha suhbatni davom ettirish topshirig‘ining berilishi o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Suhbatni maqsadli tashkil ettirish uchun ayrim hollarda esa matn ostida suhbatni qaysi yo‘nalishda davom ettirish bo‘yicha qo‘shimcha topshiriqlar ham berilishi mumkin. Masalan:

**4-topshiriq.** Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing va davom ettiring.

– Nozima, senga qaysi fan ko‘proq yoqdi?

– Kimyogar bo‘lishga qiziqib qoldim. Menga kimyo xonasi va o‘qituvchimiz o‘tkazadigan tajribalar juda yoqyapti.

– Menga esa o‘zbek tili o‘qituvchisi yoqib qoldi. Juda chiroyli gapirar ekanlar. Ayniqsa, o‘zbekcha she’rlarni shunday chiroyli o‘qiydilar, men ham o‘zbek tilida she’rlar yozgim kelib ketdi.

– Komila, bilasanmi, bu yil o‘zimni xuddi katta bo‘lib qolgandek his qilyapman.

– Ha, katta bo‘lish yaxshi. Biroq endi ko‘p o‘qishimiz, hamma fanlarni o‘zlashtirish uchun har bir darsga o‘z vaqtida tayyorlanishimiz kerak.

– .....

*Sizga qaysi fanlar yoqyapti? Kelajakda kim bo‘lishni, qaysi kasbni egallashni aniqlab oldingizmi?*

(7-sinf, 10-mavzu)

**V. O‘quv-biluv topshiriqlarining beshinchi bosqichi.** Ushbu bosqichda darslikda berilgan **adabiy o‘qish materiallari** – she’rlarni ifodali o‘qishlari va yod olishlari orqali o‘quvchilarning lug‘aviy zahirasini boyitish, rivoyat, hikoya, qissa, romanlardan parchalar mazmunini so‘zlab berishlari orqali o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi bog‘lanishli nutq kompetensiyalarini rivojlantirish, qahramonlarni tavsiflash, ularga o‘z munosabatini bildirish kabi ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarning bajarilishi ta’minlanadi.



O‘quvchilarni nutqiy mavzuga mos o‘zbek bolalar shoirlari va yozuvchilarining ijodlaridan namunalar: kichik-kichik hikoyalar, she’rlari, rivoyatlar, masallar va ertaklar bilan tanishtirish orqali o‘quvchilarga milliy qadriyatlarimizni singdirish, ayni paytda ularning so‘z boyligini oshirish, turli mavzularda erkin muloqot yuritishga o‘rgatishda adabiy o‘qish materiallarining ahamiyati nihoyatda katta. Badiiy matnlardan faqat adabiy o‘qish materiallaridagina emas, mashq tarkibida ham foydalanish mumkin. Albatta, to‘qima gaplarga qaraganda badiiy asardan olingan parcha ustida ishlash biroz murakkab, biroq yuqori sinflarda bunday topshiriqlarni bemalol berish mumkin. Masalan, 8-sinfda kuz mavzusida O‘lmas Umarbekov xotiralaridan berilgan parcha keltirilib, kuz qanday tasvirlangani so‘raladi.

**2-topshiriq.** O‘lmas Umarbekov xotiralaridan berilgan parcha keltirilib, kuz qanday tasvirlanganini ayting.

Har yili kuzda xazonrezgi paytida daraxtzorlarni aylanib yuraman. Bugun ham shunday bo‘ldi, uyimiz ro‘parasidagi daraxtzorga o‘tdim. Kech kuz bo‘lsa ham, havo ochiq edi. Quyosh charaqlab turardi. Birdan tevarak-atrof qorong‘ilashdi, osmonni parcha-parcha qora bulutlar qoplay boshladi. Ko‘p o‘tmay yomg‘ir yog‘a boshladi. Kuzda ob-havo shu tarzda: dam ochilib ketadi, dam yomg‘ir yog‘ib yuboradi.

**(8-sinf, 2-mavzu)**

Shuningdek, mavzu bo‘yicha grammatik shakllarning amalda qo‘llanishini ko‘rsatishda ham badiiy asar yoki she’riy asarlardan parchalarni misol sifatida keltirish maqsadli bo‘ladi. Bu ayni vaqtda o‘quvchilarga badiiy uslub xususiyatlarini, o‘zbek tilining boy badiiy imkoniyatlarini, bunda grammatik vositalarning o‘rnini ko‘rsatib berishga xizmat qiladi. Masalan, 8-sinfda fe‘l nisbatlari o‘tilgan 2-mavzuda quyidagi mashq topshirig‘i berilgan:

**2-mashq.** Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Nurga to‘ldi dara, to‘ldi soy,  
Nur yog‘...(-in, -l, -il)di qorong‘i jarga.

2. Yaltiraydi, doim tovla...(-n, -l, -in)ar,  
Oy nuriga cho‘miluvchi tosh.
3. Dalalarda boshla...(-n, -in, -l)adi ish,  
Boshla...(-n, -in, -l)adi ijod va tashvish.

(8-sinf, 2-mavzu)

**Uyga beriladigan vazifalar** ham o‘quvchilar egallagan bilimlarni tekshirib ko‘rish, shuningdek, o‘quvchilarda mustaqil tanqidiy ijodiy fikrlash qobiliyatlarining rivojlanganlik hamda o‘rganilgan grammatik vositalarni to‘g‘ri qo‘llagan holda fikrini bog‘lanishli ifodalash ko‘nikma, malakalarining shakllanganlik darajalarini aniqlash maqsadida beriladi. Shundan kelib chiqqan holda, o‘zbek tilidan berilgan uy vazifalarida:

- mavzuga doir gap va jumlar tuzish;
- berilgan gaplar, maqol yoki matnni ona tiliga tarjima qilish;
- mavzuga doir kichik matn tuzish;
- o‘qilgan asar mazmunini so‘zlab berish;
- o‘qilgan asar qahramonini tavsiflash;
- maqol mazmunini izohlash;
- she‘rni yoddan aytib berish;
- ma‘lumotlar to‘plash va ularni bayon etish;
- ijodiy matn (insho) yozish kabi topshiriqlar berilgan.

Quyida maktab darsliklarida berilgan uy vazifalaridan namunalar keltiramiz.

**Uyga vazifa.** Ushbu jadvalni Alisher Navoiy haqidagi ma‘lumotlar bilan to‘ldiring:

Alisher Navoiy nomi bilan ataladigan joylar	Alisher Navoiy nomi bilan ataladigan muassasalar	Alisher Navoiyga atab o‘rnatilgan haykallar
...	...	...

(10-sinf, 13-mavzu)

**Uyga vazifa.** “Geografiya”, “Ximiya”, “Zoologiya” fanlaridan olgan bilimlaringiz asosida tabiiy boyliklar, ularning foydali tomonlari haqida kichik insho yozing.

**Uyga vazifa.** Dam olish kunida quyida berilgan ish turlaridan qaysilarini bajarishingiz, oyingiz yoki dadangizga qanday yordam berishingiz haqida matn tuzing:

- uylarni yig‘ishtirdim;
- hovli va ko‘chani supurdim;
- ko‘chamizdagi ariqlarni tozalashga qarashdim;
- ovqat pishirishga va kir yuvishga yordam berdim;
- buvam bilan buvimlarni ko‘rib keldim;
- buvimning uylarini yig‘ishtirib keldim;
- dadam bilan ro‘zg‘or uchun bozor qilib kelishga qarashdim;
- ukamga qarab turdim.

(11-sinf, 1-mavzu)

“O‘zbek tili” darsliklarida **uyga beriladigan vazifalar** asosan ijodiy mashqlardan iborat bo‘lib, ularda maqol mazmunini sharhlash, biron-bir mavzu, sarlavha asosida yoki ulardan birini tanlab, shu asosda matn yaratish topshirig‘i qo‘yiladi. Quyida shunday topshiriqlardan namunalar beramiz:

**Uyga vazifa.** Maqollardan birini sarlavha sifatida tanlab, shu mavzuda matn tuzing.

Non – ona yerning odamzodga in’omi.

Non – ne’matlarning sultoni.

Nonning ushog‘i ham non.

**Uyga vazifa.** Berilgan maqollarning ma’nolarini izohlang va ularni bir-biriga bog‘lab matn tuzing.

1. Til – dilning kaliti.
2. Tiling bilan ko‘nglingni bir tut. (*Alisher Navoiy*)
3. Yaxshi so‘z – jon ozig‘i, yomon so‘z – jon qozig‘i.

“O‘zbek tili” darsliklarida matn yarating, ijodiy matn tuzing, kichik insho yozing kabi topshiriqlar berilgan va ularning aksariyati uyga vazifa sifatida berilgan. O‘zbek tilini o‘rganuvchilarni o‘z fikrini va ijodiy bog‘lanishli ifodalashga o‘rgatib borish maqsadida 8-sinfdan boshlab ijodiy insho yozishga o‘rgatib borish maqsadga muvofiq. Darslik o‘quvchilar uchun asosiy qo‘l-

lanma bo‘lgani bois, bunday metodik yo‘l-yo‘riqlarning berilishi, bizningcha, samarali natija beradi. Shundan kelib chiqib, 8-sinf darsligida uyga vazifa sifatida ijodiy insho yozish topshirig‘i topshirilganda, insho namunasi ham qo‘shib berilgan.

### **Insho namunasi:**

#### **Mening orzum**

*Bizning mamlakatimiz yer osti va yer usti tabiiy boyliklariga boy o‘lka. Daryolar, ko‘llar, suv havzalari, o‘rmonlar, hayvonot dunyosi yer usti boyliklari hisoblanadi. Ushbu boyliklarni asrab-avaylash, ekologik toza saqlash ulardan oziqlanayotgan o‘simliklar, qushlar, baliqlarning ham asrab qolinishiga yordam beradi. Keyingi yillarda respublikamizda baliqchilik rivojlanmoqda. Baliq nihoyatda foydali bo‘lib, unda insonning sog‘lig‘i uchun zarur bo‘lgan fosfor ko‘p. Fosfor miyamizning ishlash faoliyatini, ko‘rish a‘zolarimizni yaxshilanishiga yordam beradi. Mening otam baliqchilik bilan shug‘ullanadilar. Men ham kelajakda baliqchilik sanoati sohasida tadbirkorlik faoliyatini olib bormoqchiman.*

**(8-sinf, 12-mavzu)**

O‘zbek tili mashg‘ulotlarida mashq va topshiriqlarning qayd etilgan turlarini shu tarzda bosqichli ketma-ketlikda bajartirib borish, o‘quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini shakllantirib borishga yordam beradi. Bu o‘zbek tili o‘qituvchilaridan dars jarayonida ko‘p qirrali faoliyat olib borishni, o‘quv-biluv topshiriqlarining yuqorida qayd etilgan 8 bosqichidan samarali foydalanishni taqozo etadi.

### **11.3. O‘zbek tili darslarida adabiy o‘qish materiallari ustida ishlash**

Adabiy o‘qish materiallari o‘quvchilar uchun autentik material vazifasini o‘taydi va o‘quvchilar tanishgan nazariy materiallar, leksik-grammatik materiallarning amalda qo‘llanishiga, olgan taassurotlarini umumlashtirishga, mustaqil fikrlashga, ijobiy va salbiy qahramonlarga munosabat bildirishga, ulardan xulosa chiqarishga o‘rgatadi. O‘qigan hikoya, ertaklarni qayta so‘zlab

berish, sheʼrlarni yod olish oʻquvchilarning nutqini boyitadi, soʻz boyligini oshiradi. Tilning boy imkoniyatlarini koʻrsatish orqali oʻzbek tiliga qiziqishni kuchaytiradi. Shu tarzda oʻquvchilarda ushbu mavzu boʻyicha oʻz fikrlarini mustaqil ifoda eta olish koʻnikmalarini hosil qilish koʻzda tutiladi ularda oʻzbek tili va adabiyotiga mehr-muhabbat tuygʻularini uygʻotish koʻzda tutiladi.

Quyida sinflarda adabiy oʻqish uchun berilgan materiallarni – topishmoqlar, tez aytishlar, maqollar, sheʼrlar, ertaklar, rivoyatlar, hikoyalarni sinfda ovoz chiqarib ifodali oʻqish yoki rolli oʻqish yohud ichida oʻqib mazmunini gapirib berish tarzida tashkil etish maqsadli boʻladi. Xususan, 6–11-sinflarda “Oʻzbek tili” fanidan har bir mavzu doirasida oxirgi dars adabiy oʻqishga bagʻishlangan boʻlib, bu yuzasidan berilgan oʻquv materiallari: sheʼrlar, hikoyalar, rivoyatlardan parchalar oʻquvchilarning tinglab tushunish, oʻqish va soʻzlash koʻnikma-malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Adabiy oʻqish materiallari darsning nutqiy mavzusiga ham, grammatik mavzuga ham muvofiq tarzda tanlanishi maqsadga muvofiq.

Yuqori sinflarga chiqqan sari adabiy oʻqish uchun berilgan materiallar uchun yirikroq asarlar – qissa, roman va dostonlardan parchalar tanlanadi. Bunda, avvalo, lugʻat ustida ishlashni toʻgʻri tashkil etish: yangi soʻzlarning asl, birlamchi maʼnosini va kontekstdan kelib chiqadigan koʻchma maʼnosini lugʻat yordamida izohlash va ularni faollashtirish uchun 3–4 marta qaytartirish, soʻng asar mazmunini yordamchi savollar yordamida oʻquvchilarga gapirtirish, bu jarayonda oʻquvchilarni yoʻl-yoʻlakay asar qahramonlarining xulq-atvori, qilgan ishlari yoki peyzaj tasviriga munosabat bildirib ketishga yoʻnaltirib borish kerak boʻladi. Bu nafaqat oʻquvchilarning lugʻat boyligini oshirish, ularning ifodali oʻqish va bogʻlanishli monologik nutq koʻnikmalarini rivojlantirish kabi taʼlimiy maqsadlarni, balki oʻquvchini mustaqil fikrlash, munosabat bildirish, tanqidiy baho berish, kichik narsalardan katta xulosalar chiqarishga kabi intellektual layoqatlarini shakllantirish, tarbiyaviy maqsadlarni ham koʻzda tutadi.

Shuningdek, taʼlim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning yuqori sinflari uchun oʻzbek tilidan oʻquv dasturiga sinfdan tashqari oʻqish boʻyicha alohida nazorat turining kiritilishi va har chorak davomida oʻquvchilarning bitta yirik epik

asar – o‘zbek romani yoki qissasini mustaqil o‘qib, mazmunini so‘zlab berishlari, rejalashtirilishi, o‘quvchilar lug‘at zahirasi boyishi, o‘quvchilarning tinglab tushunish, o‘qish va so‘zlash ko‘nikma-malakalarini rivojlantirishga, ayniqsa, og‘zaki bog‘lanishli monologik nutqining rivojlanishiga katta yordam beradi.

Adabiy o‘qish materiallari sinonimik vositalar va so‘zlarning grammatik shakllarining amaliy qo‘llanishini ko‘rsatibgina qolmay, balki tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Shu bois adabiy o‘qish materiallari bo‘yicha asarni o‘qish va mazmunini so‘zlab berish topshirig‘idan tashqari berilgan savollar, matnning topshiriqlari ham beriladi. Dars jarayonida ushbu berilgan savol va topshiriqlar asosida hamda o‘quvchilarning matn mazmunidan chiqargan xulosalari bo‘yicha o‘quvchilar bilan suhbatlar tashkil etish kerak bo‘ladi. Shuningdek, o‘qituvchilar yana qo‘shimcha savollar va topshiriqlar berib, matn mazmuni bo‘yicha chuqurroq ishlashni tashkil etishlari ham mumkin.

O‘zbek tili ta‘limida adabiy o‘qish materiallarining berib borilishi rusiyzabon o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, mavzuga doir faol leksik-grammatik minimumni mustahkamlash va ayni paytda, nafaol leksik-grammatik minimum zahirasi to‘plab borishga yordam beradi. Haqiqatan ham, adabiy o‘qish materiallari tili o‘rganilayotgan mamlakat, til sohiblarining hayoti, madaniy-ma‘naviy qarashlari, milliy xususiyatlari bilan tanishish imkoniyatini beruvchi, o‘quvchilarda umuminsoniy ma‘naviy qadriyatlarini shakllantirish vositasi hamdir. Shu bois jahon ilmiy jamoatchiligida ikkinchi til ta‘limida sotsiolingvistik omillarning ahamiyatiga e‘tibor kuchayib borayotganligi tendensiyasini kuzatish mumkin<sup>80</sup>.

Afsuski, adabiy o‘qish materiallari umumiy o‘rta ta‘lim bosqichidan so‘ng keyingi bosqichlar o‘quv dasturiga kiritilmagan. Bu hol nafaqat uzluksizlikning ta‘minlanmasligiga, balki o‘quvchi-talabalarning ma‘naviy qadriyatlarimiz bilan yaqindan tanishish imkoniyati ham biroz cheklanishiga olib kelmoqda. Aynan yuqori ta‘lim bosqichlarida adabiy o‘qishni kuchaytirish, o‘quvchi-talabalarni adabiy asarlarni asliyati mustaqil o‘qishlarini tashkil etish til o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. O‘zbek tili

<sup>80</sup> Гусева А. В. Формирование социокультурной компетенции в процессе обучения иноязычному общению. Дис. ... канд. пед. наук. – Москва: МГЛУ, 2002.

daralarida adabiy o‘qish materiallari o‘quvchi-talabalarda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi:

– o‘quvchilar nutqiga faol leksik-grammatik minimum bilan bir qatorda nofaol minimumni ham kiritib borish va shu orqali talabalarning so‘z boyligini oshirish;

– o‘qilgan adabiy asarlarni qayta hikoyalash orqali rusiyzabon talabalarning og‘zaki nutqini rivojlantirish;

– asarlardan parchalarni ifodali o‘qitish, she‘rlarni yod aytirish orqali rusiyzabon talabalarning o‘zbekcha talaffuzini yaxshilash;

– asar matnidan mavzuga oid nutqiy konstruksiyalarni aniqlash va tahlil qilish orqali egallangan bilimlarni mustahkamlash va ularning amaliy qo‘llanishini o‘rgatish;

– o‘zbek tilining boy leksik va uslubiy imkoniyatlarini ko‘rsatish orqali rusiyzabon talabalarni o‘zbek tiliga qiziqitirish;

– o‘zbek xalqining boy madaniy-adabiy merosi, buyuk namoyandalari bilan yaqindan tanishtirish;

– o‘qilgan asarlardagi qahramonlarga tavsif berish orqali o‘zbek xalqiga xos xususiyatlari, boy tariximiz, xalqimizning yuqori madaniy saviyasi, milliy-ma‘naviy qadriyatlarini, urf-odatlarini bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi<sup>81</sup>.

“O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 5850-sonli Farmon ijrosini ta‘minlash maqsadida ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda adabiy mutolaa darslari uchun alohida soat ajratildi va 5–9-sinflar darsliklariga ham 10–11-sinflardagi kabi har bir mavzuga adabiy o‘qish uchun tanlab olingan asar bilan birga uning muallifi haqidagi ma‘lumotlarni berish o‘quv dasturi rejasiga kiritildi. Adabiy o‘qish darslarini alohida soatlarda o‘tilishi ushbu asar bo‘yicha qator topshiriqlar, lug‘at ustida ishlash, o‘quvchilarni asar mazmuni va uning muallifi haqidagi ma‘lumotlar bilan kengroq tanishtirishga imkoniyat beradi.

Qayd etilgan samarali natijalarga erishish, avvalo, adabiy o‘qish bo‘yicha beriladigan materiallarni bosqichma-bosqich rivojlantirib borishni taqozo qiladi. Chunonchi, quyi ta‘lim bosqichida adabiy o‘qish uchun topishmoqlar, maqollar, masallar,

<sup>81</sup> Мухитдинова Х.С. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг лингвометодик асосларини такомиллаштириш: Пед.фан. док. ... дис. – Тошкент, 2011. – 294–296-б.

she'r va ertaklardan foydalanilsa, o'rta umumta'lim sinflarida ri-voyatlar, o'zbek yozuvchilari va shoirlarining kichik hikoya va she'rlaridan foydalanish, keyingi bosqichlarda esa qissa, roman va dostonlardan parchalar berib borish va asarning qolgan qismini mustaqil o'qish uchun uy o'qishi sifatida topshirish, ya'ni yuqori ta'lim bosqichlariga chiqqan sari adabiy o'qish materiallarini ham kengaytirib va murakkablashtirib borish kerak bo'ladi.

Ma'lumki, o'zbek tili darslari o'quv rejasiga binoan barcha ta'lim bosqichlarida haftada faqat bir marta 2 soatgina o'tilishi rejalashtirilgan. Bu adabiy o'qish materiallaridan dars jarayonida keng foydalanish imkonini bermaydi, albatta. Biroq oliy ta'lim-da talabalarning mustaqil ishlariga katta e'tibor berilishini ko'zda tutish va asarning davomini talabalarga mustaqil o'qish uchun topshirish, asarni qayta hikoya qilish va u yuzasidan berilgan boshqa topshiriqlarni darsdan tashqari vaqtlarda qabul qilish mumkin. Bu rusiyzabon talabalarning hafta davomida o'zbek tili bilan mustaqil tarzda muntazam shug'ullanib borishiga ham omil bo'ladi.

Odatda, adabiy o'qish uchun berilgan hikoyalar, qissalarning boshi dars jarayonida o'qitiladi va davomini o'qib kelish uy va-zifasi sifatida topshiriladi. Bunday vaziyatlarda, albatta, keyingi darsda o'quvchilarning matnga munosabati, matn mazmunidan ol-gan xulosalari haqida ularning fikrlarini so'rashi lozim. Darsliklar-da adabiy o'qish materiallari bo'yicha berilgan matnosti savol va topshiriqlari o'quvchilarning fikrini kerakli tomonga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Bunday topshiriqlar berilmagan hollarda o'qituvchining o'zi ham shunday yo'llanma savollar tuzib, nafaqat o'tilgan grammatik shakllar va vositalarni, balki hikoya mazmuni va g'oyasini ham o'quvchilar ongiga singdirishga harakat qilishi kerak. Bu ishlar ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarda mavzu bo'yicha berilgan leksik-grammatik bilimlarni amalda qo'llay olish, mavzuning tarbiyaviy tomonlarni o'zlashtirgan hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, o'z munosabatini to'g'ri ifodalash kabi tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga olib keladi.

Adabiy o'qish materiallari bilan ishlashga oid topshiriqlarni 3 bosqichga bo'lish mumkin: lug'at ustida ishlash, matn oldi va matn osti topshiriqlari. Matn bilan tanishishdan avval adabiy o'qish uchun tanlangan asar muallifning ijodiy faoliyati, hayot



yo‘li bilan tanishish hamda asarni qay tarzda o‘qish bo‘yicha topshiriqlar berilishi rejalashtiriladi. Matn osti topshiriqlari esa asar mazmunini qayta hikoyalash, g‘oyasini so‘zlab berish, qahramonlariga, tasvirlarga munosabat bildirish kabi mustaqil ijodiy topshiriqlardan iborat bo‘ladi. Bunda she‘riy asarlarga ko‘proq ifodali o‘qish, yod olish va yoddan aytish topshiriqlari, nasriy asarlarga mazmunini hikoya qilib berish, davomini o‘qib kelish, asar mazmuniga munosabat bildirish kabi topshiriqlar va savollar beriladi. Ko‘p hollarda munosabat bildirish matnning xulosa qismida o‘quvchini mustaqil fikrlashga yo‘naltiruvchi savol sifatida beriladi. Adabiy o‘qish (mutolaa) darslarida shu tarzda izchillikda davom etadigan kamida 5–6 ta topshiriqlar ustida ishlash ko‘zda tutiladi. Bunda topshiriqlarni quyidagi tartibda berish maqsadli bo‘ladi:

1. Muallif haqida qisqa ma‘lumot berish;
2. Shu muallif ijodidan nutq mavzusiga mos asarni (yoki asardan olingan parchani) ifodali o‘qish (bu jarayon yakka tartibda, hamkorikda yoki rolli shaklda amalga oshirilishi mumkin.);
3. Notanish so‘zlar lug‘ati ustida ishlash;
4. Asar mazmunini so‘zlab berish;
5. Asar matnidagi mavzuga mos grammatik shakllarning qo‘llanishini tushuntirish;
6. Ajratib ko‘rsatilgan ayrim satrlar mazmuni bo‘yicha o‘z mustaqil fikrini bildirish;
7. Asarning davomini uyda to‘liq o‘qish, she‘rlarni yod olish.

Aytish joizki, asar muallifi haqidagi ma‘lumotlarni hamisha ham bir qolipda berish shart emas. Muallifning tarjimai holidan olingan o‘zi haqidagi fikrlarini keltirish orqali ham o‘quvchilarda uning shaxsiyati haqida tasavvur hosil qildirish mumkin. Adabiy o‘qish materiallari bo‘yicha berilgan topshiriqlarda asar muallifi, asar mazmuni bilan bog‘liq qo‘shimcha ma‘lumotlar bilan tanishishni mustaqil ish sifatida topshirishni tavsiya etish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiy o‘qish uchun nutq mavzusiga mos, tarbiyaviy, ma‘rifiy ahamiyatga ega materiallar tanlanishi kerak. Har bir asar matni bilan tanishishdan avval albatta notanish so‘zlar lug‘ati ustida ishlash, shuningdek, shu mavzuda o‘tilgan grammatik shakllar va vositalarni topish va qo‘llanishini izohlash bo‘yicha ham topshiriq-

larni bajartirish maqsadga muvofiq. Adabiy o‘qish darslari har bir mavzuning oxirgi mashg‘uloti hisoblanadi va o‘tilgan mavzuga doir leksik-grammatik minimumni autentik materiallar tarkibida turli hayotiy vaziyatlarda nutqda qo‘llanishini ko‘rish imkonini taqdim etadi. Adabiy o‘qish darslarini samarali tashkil etish ushbu materiallar bo‘yicha qo‘yiladigan topshiriqlarga bog‘liq bo‘lib, ular taqdim qilinayotgan matnni ifodali o‘qish va mazmunini so‘zlab berishdan tashqari asar goyasiga munosabat bildirish, ko‘chma ma‘noli so‘zlar, tasviriy vositalarni tahlil qilishga doir topshiriqlarni ham qamrab olishi darkor. Quyida ayrim savol va topshiriqlardan namunalar keltiramiz.

### **Shirin qanday qiz?**

Shirin maktabdan keldi. Qarasa, uyda hech kim yo‘q. Dadasi ishda. Oyisi ham hali ishdan kelmabdi. U xonaga kirib, kiyimlarini almashtirib chiqdi.

– Nima ish qilsam ekan-a? – dedi zerikib o‘ziga o‘zi. Hamma yoqda ukasining o‘yinchoqlari: ayiqpolvon, fil, bir quloqli quyon sochilib yotardi.

– Uylarni yig‘ishtirib, tozalab chiqsammikan? – xayolidan o‘tkazdi Shirin. Ammo shu payt qorni ochganligini payqadi. Oshxonaga kirib, nonga saryog‘ surib yeya boshladi. Termosdagi issiq choydan piyolaga quyib, murabbo bilan ichar ekan, rakovinadagi bir to‘p yuviqsiz idish-tovoqlarga ko‘zi tushdi. Ertalab o‘zi choy ichgach, “Maktabga kech qolaman”, – deb yuvmasdan qoldirib ketgan edi.

– Hozir choyimni ichib bo‘lgach, oshxonani tartibga keltirib qo‘yaman, – deb o‘yladi.

– Yoki... yaxshisi, biror ovqat qilib tursammikin-a! – dedi bir ozdan keyin ikkilanib. – Oyim ham ishdan kelib, rosa sevinardilar.

U balkondan kartoshka olib chiqib, archishni o‘ylagandi, qarasa, toza idish yo‘q...

– Yo‘q, avval idish-tovoqlarni yuvib, uylarni tozalab, keyin ovqatga unnayman, – degan qarorga keldi nihoyat Shirin. U choyini ichib bo‘lgach, qorni to‘yib, erinibgina o‘rnidan turdi.

Endi unga uy tozalash ham, idish-tovoqlarni yuvish ham yoqmay qolgandi.

– E-e, – dedi yana o‘ziga – o‘zi. – Ovqat qacho-on pishadi!

Oyim o‘zlari kelsalar, tezroq va shirinroq qiladilar. O‘shanda yuvarman idishlarni ham, – deb o‘yladi.

Shirin nima qilishini bilmay, mehmonxonaga kirdi. Shu payt ko‘zi uy to‘rida turgan televizorga tushdi.

– Topdim, – dedi sevinib Shirin. – Yaxshisi, multfilm ko‘rib turaman.

U televizorning qulog‘ini burab, uning ro‘parasidagi kresloga o‘zini tashladi.

*(Yoqutxon Rahimova)*

*Sizningcha, Shirin to‘g‘ri ish qildimi? Siz uning o‘rnida bo‘lganingizda nima qilgan bo‘lardingiz?*

**(7-sinf, 6-mavzu)**

Lug‘at ustida ishlanib, hikoya mazmuni bilan tanishilgach, o‘quvchilarning Shiringa munosabatlari so‘raladi. Bunda hikoyani rolli o‘qitishni tashkil etish ham mumkin. O‘quvchilar Shiringa baho beradilar.

**7-topshiriq.** Hikoyani o‘qing. Suhbatni o‘qishda yuklamalarning ma‘nosi va aytilish ohangiga e‘tibor bering.

### **Attang**

A‘zamjon o‘n uch yoshga to‘ldi. Uning uyiga sinfdoshlari kelishdi. Oyisi ularni xursand bo‘lib kutib oldi va ichkariga taklif qildi. Yomg‘ir yog‘gani uchun hovli loy edi. Botir “Yuringlar”, – deb yo‘l boshladi va yo‘lkadan yurmay, hovlining o‘rtasidan yurib ketdi. Boshqa bolalar uning orqasidan borishmadi, yo‘lkadan yurishdi. Botir loy tuflisi bilan ayvonga chiqdi. Oyisi bolalarni mehmon qildi. Bolalar o‘yin-kulgu qilib, kechga yaqin tarqalishdi. O‘rtoqlari ketishgach, A‘zamjon oyisiga maqtanib dedi:

– Oyi, o‘rtoqlarim sizga yoqdimi? Hammasi yaxshi-a? Ashula aytishga ham, raqs tushishga ham usta.

– Ha, o‘rtoqlaring yaxshi bolalar ekan. Aytgandek, anavi bolaning ismi nima?

– Qaysi, she‘r o‘qigan bolami?

– Yo‘q, hovlining o‘rtasidan yurgan bola-chi?

– Ha, umi? – A‘zamjon sekingina hovlining o‘rtasidagi oyoq izlariga qarab qo‘ydi.

Tufli izlari tekis hovlida juda xunuk ko‘rinar edi.

– Uning ismi Botir. U ham yaxshi o‘rtog‘im. A‘lochi!

– Yaxshi, – dedi oyisi. – Attang, o‘rtog‘ing darsini yaxshi bilar ekan-ku, yo‘lkadan yurish kerakligini bilmas ekan-da... (M.Murodov)

*Ko‘chada yurish qoidalarini bilasizmi? Hovlida yurish qoidalarini ham bo‘ladimi? Hikoyaga, uning sarlavhasiga va Botirning qilgan ishiga o‘z munosabatingizni bildiring.*

(7-sinf, 6-mavzu)

Ushbu savollar orqali o‘quvchilar ko‘chada yurish qoidalarini yodga tushiradilar, ularga odobli, madaniyatli inson bo‘lib yetishish uchun faqat yaxshi o‘qishning o‘zi yetarli emasligini, jamiyatda axloq-odob, yurish-turishning eng nozik jihatlariga ham e‘tibor qaratish kerakligini tushunib yetishga, mustaqil fikrlashga undaydi. Ayni vaqtda hikoya grammatik mavzuni mustahkamlashga ham qaratilgan bo‘lib, hikoyani o‘qishda yuklamalarning ma‘nosi va aytilish ohangiga ham alohida e‘tibor qaratish kerak bo‘ladi.

## Noahillik oqibati

(rivoyat)

Bir ovchi to‘r qo‘yib, qarg‘a, chug‘urchuq, kaptar va boshqa har xil qushlarni tutib oldi. To‘rga tushgan qushlar hadeb bir-birlariga:

– Sochilgan donga aldanib, qo‘lga tushdik. Endi qanday qilib qutulish yo‘lini o‘ylaylik, – der edilar. So‘ng ular o‘zaro tillashib:

– Kelinglar, hammamiz baravar qanot qoqib uchib ko‘raylik. Ehtimol, to‘rni ko‘tarib, qutulib ketarmiz, – deyishdi.

Darhaqiqat, qushlar baravariga qanot qoqib, to‘rdan qutulib, uchib ketishdi.

Ovchi qarasa, qushlar to‘rdan xalos bo‘lib uchib ketishyapti. U qushlarning ortidan quvib ketibdi. Ovchi chopib ketayotib: “To‘rga tushgan qushlar har xil-ku! Ular, albatta, janjallashib qolishadi. Janjallashdimi – tez ucha olishmaydi, to‘r ularni pastga tortadi”, deb o‘ylabdi. Xuddi shunday bo‘libdi ham.

Qarg‘alar qag‘illashib: – Hech kim bizdek harakat qilmayapti. Sizlar sekin harakat qilyapsizlar, – deyishibdi. Qarg‘alarning so‘zini eshitgan kaptarlarning jahli chiqib: – Bas endi, qarg‘alar!

Maqtanchoqlikni qo‘yinglar! Biz sizdan kam harakat qilmayapmiz! – deyishibdi. Janjalga boshqa qushlar ham aralashibdilar.

Do‘stlik buzilgach, ish yaxshi yurishmabdi. Qushlar janjallashganlari uchun arang qanot qoqishardi. Shunday qilib ular pastlay boshlashibdi va oxir-oqibat to‘rga o‘ralib yerga qaytib tushishibdi.

**Savol va topshiriqlar:**

1. Qushlar qanday qilib ovchining to‘ridan qutulmoqchi bo‘lishdi?
2. Ularga nima xalal berdi?
3. Bu voqea boshqacha tugashi ham mumkin edimi?
4. O‘z fikringizni yozing, bunda *agar, chunki, shuning uchun* bog‘lovchilaridan foydalaning.

**(8-sinf, 10-mavzu)**

Yuqori sinflarda adabiy o‘qish darslari uchun alohida soatlar ajratilgan bo‘lib, bu adabiy asar matni ustida ancha kengroq ishlash: o‘quvchilarning nafaqat lug‘at boyligi va og‘zaki gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki adabiy asar g‘oyasi va mazmuni ustida tizimli topshiriqlar asosida ish olib borish orqali o‘quvchilar bilan tarbiyaviy-ma‘rifiy ishlar olib borish imkoniyatini ham beradi. She‘r matni bilan tanishishda quyidagi kabi matn oldi va matn osti tizimli topshiriqlardan foydalanish namunasini keltiramiz:

**1-topshiriq.** She‘rni rolli o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

**Savollarga javoblar**

– Til nimaga berilgan,

Qizlar va bolalarga?

– Tongda salom bergani,  
Ota bilan onaga.  
Hafa bo‘lib gohida,  
Qovog‘ini uyganda,  
Shu payt shirin so‘z kerak,  
Qalbga malham bo‘lgandek.

– Qo‘l nimaga berilgan?

– Yerga don-dun sochgani,  
Erta bahor kelganda,

Bogʻ jamolin ochgani.  
Turli hunar oʻrganib,  
Turfa kasbni bilishga.  
Yiqilganni turgʻazib,  
Savob ishlar qilishga.

– Quloq nega berilgan?

– Yaxshi gapni uqishga.  
Ota bilan onaning  
Soʻzin yodda tutishga.  
Donolar nasihatini,  
Ilib olsa qulogʻing,  
Ishing kelib oʻngidan,  
Chopqir boʻlar oyogʻing.

– Aql nega berilgan?

– Halol mehnat qilgani,  
Nafsig qul boʻlmasdan,  
Poklikka intilgani.

*Xolmurod Safarov*

**1-topshiriq.** Notanish soʻzlar lugʻati ustida ishlang.

**2-topshiriq.** Tana aʼzolarining faoliyati va xizmati haqida oʻz fikringizni ayting.

**3-topshiriq.** “*Nafsig qul boʻlmasdan, Poklikka intilgan?*” satrlari qanday maʼnoni bildiradi?

**4-topshiriq.** Sheʼr mazmunidan kelib chiqib, rolli oʻyin tashkil qiling.

Adabiy oʻqish materiallari ustida ishlashni boshlashdan avval asar muallifining hayoti va ijodi bilan tanishtirish, adibga hayot yoʻlini toʻgʻri tanlashga sabab boʻlgan omillarni tahlil qildirish, shundan keyingina asarni oʻqishga kirishish oʻquvchilarni maqsadga toʻgʻri yoʻnaltirishga xizmat qiladi.

### **6-sinf “Tabiatni asrang” mavzusi uchun**

**1-topshiriq.** Shoir Tolib Yoʻldoshning oʻzi haqida bergan maʼlumotlari asosida uning faoliyati haqida soʻzlab bering.

Men 1919-yili Toshkentda tugʻilganman. Maktabda, pedbi-  
lim yurtida, keyinchalik Toshkent davlat universitetining til va  
adabiyot fakultetida tahsil olganman. Universitetni bitirib, avval

Qo‘qonda muallim bo‘lib, so‘ngra “Tong yulduzi” bolalar gazetasida adabiy xodim bo‘lib ishlaganman. Hayotimning 60 yildan ortig‘ini she‘riyatga bag‘ishladim. Shu kungacha 40 dan ortiq kitobim chiqqan bo‘lsa, yarmi bolalarga atalgan to‘plamlardir. Birinchi kitobim “Chol bilan bo‘ri” deb atalgan. 1972–2000 yillarda chop etilgan “Baxtiyorlar qo‘shig‘i”, “Gul haqi”, “Yoz elchisi”, “Toychog‘ligim”, “Umid g‘unchasi”, “Do‘mboqchalar”, “Bizning uyda”, “Quyosh bilan suhbat”, “Boboyong‘oq”, deb nomlangan she‘riy to‘plamlarimda bolalarimizning beg‘ubor hayoti, orzu-umidlari, axloq-odoblarini tarannum etganman.

**2-topshiriq.** Berilgan matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan gaplar mazmuniga o‘z munosabatingizni bildiring.

### O‘zim haqimda

... Onam juda savodxon ayol edi. Onamning otasi Rizo buvam onamni shaharning nomdor otinlari qo‘lida o‘qitgan, oqibatda **onam yoshligidanoq “bulbul otin” deb nom chiqargan edi.** O‘zi ham maktab ochib, yozda qishloqda, qishda shaharda bolalarni o‘qitar, ko‘proq qizlarga savod o‘rgatar edi.

Hukumatimiz adabiyot sohasidagi xizmatlarimni e‘tiborga olib, 1989-yilda meni “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoni, 1998-yilda esa “El-yurt hurmati” ordeni bilan mukofotladi. Men bundan g‘oyat minnatdorman. **Haqiqiy shoir xalqiga mukofotlar uchun xizmat qilmaydi, albatta. Ammo xizmatning munosib baholansa, boshing osmonga yetar ekan.**

*Siz Tolib Yo‘ldoshning haqiqiy inson bo‘lib yetishishining sabablari nimada deb, o‘ylaysiz?*

**3-topshiriq.** She‘rni ifodali o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

### Yerning tili

Bobomlarcha yerning ham,  
Tili bor – so‘zlar emish.  
Yer so‘zlasa el-yurtning,  
Baxtini ko‘zlar emish.  
Men hech ko‘rgan emasman,  
Ishonmadim sira ham.

Poyoni yo‘q bog‘-chaman,  
Mehrini dilga yoqaman.  
Tap-taqir cho‘l bo‘lsin, sen  
Parvarish et, gullaydi.  
“Yerni boqsang, boqadi”,  
U kuningga yaraydi.

<p>Bobom derlar uqtirib:          – Yer tili bor chinakam.          Hali yer-la so‘zlashish,          Yoshsan, kelmas qo‘lingdan.          Yer tilini o‘rgansang,          Chechak unar yo‘lingdan.          Uni ko‘r, derlar bobom!          Havas bilan boqaman.</p>	<p>Yerning gapirgani shu,          Gapirtirgan biz, bolam.          Mehnat qilsa, el barcha,          Gapirar butun olam.          – To‘g‘ri, bobojon, – deymam          Bellaridan quchoqlab,          Bobomlardek bo‘lishga          Men ham o‘zimni chog‘lab.</p> <p style="text-align: right;"><i>Tolib Yo‘ldosh</i></p>
--	--

### 9-sinf “Vatan sarhadlari” mavzusi uchun

**1-topshiriq.** Shoir Rustam Nazarning tarjimai holi haqidagi ma’lumotlarni o‘qing va so‘zlab bering.

Rustam Nazar Jumanazarov 1949-yil 8-sentyabrda Xorazm viloyatining Hazorasptumanidagi Otaliq qishlog‘ida ishchi oilasida tug‘ilgan. Otasi Jumanazar Avaz o‘g‘li adabiyot va musiqaga ixlosi baland, shoirtabiat kishi edi. Rustam maktabni tugatib, Respublika rus tili va adabiyoti pedagogika institutida o‘qidi. So‘ngra “Hazorasptnoma” tuman gazetasida ishlay boshladi. Uning bolalarga atalgan she‘rlari ona tabiat, xalqimiz va hur Vatanimizni sevishga, ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylashga undaydi. Bugungi kungacha uning “Yashasin quyoshli kun”, “Rangli favvora”, “Mo‘jiza” kabi she‘riy to‘plamlari bosilib chiqqan. U O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi.

**2-topshiriq.** Shoir Rustam Nazarning quyidagi fikri bilan tanishish va unga munosabat bildiring.

“Bolalar shoiri bo‘lish uchun ijodkorda alohida qobiliyat bo‘lishi kerak, deb hisoblayman... Mening ijodiy shiorim shunga asoslanadi, yozgan she‘rlarimni o‘qiganda bolalar katta, kattalar esa bola bo‘lib qolsin...”

Shunisi hayratlanarliki, Rustam Nazar she‘rlarini o‘qigan kattalar haqiqatan ham o‘zlarini boladek, bolalar bo‘lsa, katta bo‘lib qolgandek his etadilar...

*Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz?*

**3-topshiriq.** She‘rni ifodali o‘qing, ajratib ko‘rsatilgan satrlar mazmunini izohlang.



## VATAN TUYG'USI

Nedir Vatan tuyg'usi? – Emas mavhum tushuncha. Ma'nosini anglaymiz, No'noqmasmiz biz uncha! Muallimning qo'lida Gazeta-yu kitoblar. – Yurtni sevmoq imondan! – Deb qiladi xitoblar. Misollarni keltirgay Goh hadis, goh Qur'ondan. So'zlar buyuk zotlarning Dildagi surondan.	Har ibora – hikmatli, Har ibora – murakkab. Ba'zan mag'zin chaqolmay G'ulu tushar yurakka. Kimdir aytgan mashhur gap Darsda kelmas xotirga – O'xshamaymiz yurtparvar Va fidoyi botirga! Nedir Vatan tuyg'usi? – Xayollarga tolamiz. O'zgalarning fikrini Aytib maqto'v olamiz!... <i>Rustam Nazar</i>
--	---

**4-topshiriq.** Notanish so'zlar lug'ati ustida ishleng.

**5-topshiriq.** Siz o'zingizda Vatan tuyg'usini his etganmisiz? She'rdan ajratib ko'rsatilgan satrlardagi fikrga o'z munosabatingizni bildiring.

**6-topshiriq.** She'rni yod oling.

Ko'rinadiki, adabiy o'qishni tashkil etishda tizimli topshiriqlardan foydalanish, ya'ni adabiy o'qish uchun berilgan asar haqida muayyan ma'lumotlar berish orqali mazkur asarni o'qishga tayyorlash, lug'at ustida ishlash orqali asarni tushunib qabul qilish, asar bo'yicha berilgan matn osti savol va topshiriqlarga e'tibor qaratish asarning mohiyatini anglash, undan xulosa chiqarish, ilgari surilgan g'oyaga shaxsiy munosabat bildirish, ushbu aytilganlarni o'zbek tilida ifodalash malakasini shakllantirib borishga yordam beradi. Bunda asardan bevosita parchalar keltirish orqali, asar qahramonlarining harakatlariga baho berishga o'rgatish ko'zda tutiladi. Quyida oliy ta'lim bosqichi rus guruhlarida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani ustida mustaqil ishlarni tashkil etishda tizimlashtirilgan topshiriqlardan foydalanish namunasini keltiramiz<sup>828</sup>:

---

<sup>828</sup> Салишева З. Ўзбек тили машгулотларида талабалар монологик нутқини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш (рус гуруҳларида): Пед. фан.... фалсафа доктори (PhD) дис. –Тошкент, 2019. – 59–61-б.

## Adabiy o‘qish materiallari bo‘yicha tizimlashtirilgan topshiriqlar

Topshiriqlar sharti	Topshiriqlar mazmuni
Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidan Yusufbek hoji, Mirzakarimboy qutidor, Kumush, Oftob oyim, O‘zbek oyim, Zaynab, Xushro‘y obrazlari tasvirlangan parchalarni diqqat bilan o‘qing. Ularda tasvirlangan obrazlar qiyofalari va xarakterlarini o‘zaro qiyoslang. Berilgan topshiriqlarni bajaring. Har bir matndan obrazlar xarakteriga mos keladigan ta’riflarni ajratib daftaringizga yozing.	
Quyidagi gap orqali Zaynabning fe’l-atvoriga baho bering.	Zaynab egachisining aksicha o‘z yaqinlaridan “pismiqlar”, deb ism olgan, onasi bo‘lsa achchig‘i chiqqanda “ming‘aymas o‘lgur”, deb uni qarg‘ar edi.
Berilgan gap orqali Xushro‘yning fe’l-atvoriga baho bering.	Xushro‘y uch oy ichida tomir yoyib qolgan bir oilani ildizi bilan yulib tashlab tinchiydir.
Berilgan sifatlashlardan foydalanib Zaynabning surat va siymosini ifodalang. Uni Kumush bilan solishtiring.	Chala dumbul tabiatli, “jonsiz haykal”, “eriga o‘tkir, shaddod, qotma, oq tanli, loppo, harakati yengil, lafzi tez, qisqa bo‘y, go‘shtdor, o‘nta so‘zga arang bitta javob qaytaradigan”.
Zaynab – Kumushning qotili. Himoyachi sifatida uni oqlashga harakat qiling.	
Berilgan iboralarning sinonim va antonimlarini aniqlang.	Eriga o‘tkir, soyasiga salom bermoq, ost-ust qilmoq, ikki qo‘lini burniga tiqib qarab qolmoq.
Berilgan gap orqali Oftob oyimning fe’l-atvoriga baho bering va ta’riflang.	Yuzidan muloyimlik, eriga itoat, to‘g‘irilik ma’nolari tomib turg‘on bu xotin qutidorning rafiqasi – Oftob oyim.
O‘zbek oyim va Oftob oyimning fe’l-atvorini taqqoslang.	
Kishi hamma vaqt go‘zallikka, yaxshilikka intiladi, shuning uchun badiiy asarlardagi bosh qahramon ko‘pincha go‘zal botir, barkamol inson sifatida tasavvur etiladi. Hamma vaqt ham tashqi va ichki go‘zallik o‘zaro mos keladimi? Fikringizni misollar bilan asoslang.	

Bunday topshiriqlar o‘quvchi-talabalarni asar mazmuni va mohiyatini chuqurroq tahlil qilish, asar personajlarining xatti-harakatlarini obyektiv baholash kabi tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Qayd etilgan samarali natijalarga erishish, avvalo, adabiy o‘qish bo‘yicha beriladigan materiallarni ham bosqichma-bosqich murakkablashtirib borishni taqozo qiladi. Jumladan, quyi ta‘lim bosqichida adabiy o‘qish uchun topishmoqlar, maqollar, masallar, she‘r va ertaklardan foydalanilsa, o‘rta umumta‘lim sinflarida rivoyatlar, o‘zbek yozuvchilari va shoirlarining kichik hikoya va she‘rlaridan foydalanish, yuqori bosqichlarda esa qissa, roman va dostonlardan parchalar berib borish va asarning qolgan qismini mustaqil o‘qish uchun uy o‘qishi sifatida topshirish, ya‘ni yuqori ta‘lim bosqichlariga chiqqan sari adabiy o‘qish materiallarini ham kengaytirib va murakkablashtirib borish kerak bo‘ladi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Til ta‘limi mashg‘ulotlarida mashq va topshiriqlar qanday vazifani bajaradi?
2. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda mashq va topshiriqlarni tuzishda qanday tamoyillarga asoslanish kerak?
3. O‘zga tillarni o‘rganishda bajariladigan mashqlarni qanday turlarga bo‘lish mumkin?
4. Interferentiv xatoliklarni bartaraf etishga qaratilgan mashqlar nimaga asoslanib tuziladi?
5. Ikkinchi til ta‘limida tarjima mashqlarining o‘rni va ahamiyati qanday?
6. Matn ustida ishlashga oid mashq va topshiriqlar qaysi til ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi?
7. Matn tuzishga o‘rgatish qanday mashq va topshiriqlar xizmat qiladi?
8. O‘zbek tili ta‘limida o‘quv materiallari qaysi konsentrlarga jamlab berilishi maqsadli bo‘ladi?
9. “O‘zbek tili” darsliklaridan retseptiv, reproduktiv va produktiv mashqlar turlariga misollar keltiring.
10. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida o‘quv-biluv topshiriqlarini qanday bosqichli ketma-ketlikda bajarilishi ko‘zda tutilgan?
11. O‘zbek tili ta‘limida rasmlar va illyustratsiyalar bilan ishlashni qanday tashkil etish samarali bo‘ladi?
12. Ikkinchi tilga o‘qitish metodikasida nazariy grammatik ma‘lumotlarni mustahkamlash uchun qanday mashqlar ustida ishlanadi?

13. O'quvchi-talabalarning og'zaki nutq ko'nikmasini shakllantirishda mashq va topshiriqlarning qanday turlaridan foydalaniladi?
14. Qanday mashqlar o'quvchi-talabalarning mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi?
15. Adabiy o'qish materiallari yuzasidan berilgan topshiriqlar o'quvchi-talabalarda qanday ko'nikmalarni rivojlantirishi ko'zda tutiladi?
16. Mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savol va topshiriqlar o'quvchi-talabalarda qanday layoqatlarni aniqlashga qaratiladi?

### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению, 2-ое издание. – Москва: Просвещение, 1991. – С. 18–40.
2. Хусанов Н., Шокирова С., Шайхова К. Ўзбек тили (иктисодий йўналишдаги олий ўқув юртлари учун қўлланма). – Тошкент, 1999. – 112-б.
3. Asilova G.A. O'zbek tili (oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishi rus guruhlariga uchun darslik). – Toshkent: Yosh kuch, 2010.
4. Зиёдова Т. Матн яратиш технологияси (она тили таълими мисолида). – Тошкент: Фан нашриёти, 2008.
5. Гусева А. В. Формирование социокультурной компетенции в процессе обучения иноязычному общению. Дис. ... канд. пед. наук. – Москва: МГЛУ, 2002.
6. Мухитдинова Х.С. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг лингвометодик асосларини такомиллаштириш: Пед.фан. док. ... дис. – Тошкент, 2011. – 294–296-бетлар.
7. Салишева З. Ўзбек тили машғулотларида талабалар монологик нутқи-ни ривожлантириш методикасини такомиллаштириш (рус гуруҳларида): Пед. фан.... фалс. докт. (PhD) дис. – Тошкент, 2019. –100–101-бетлар.
8. Muxitdinova X.S. O'zbek tilini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari (monografiya) – Toshkent: Vneshinvest, 2021.
9. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz majburiy ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari, 2017-yil 10-aprel.
10. "O'zbek tili" fani o'quv dasturi (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun). – Toshkent, RTM. – 2017.
11. Muxitdinova X., Avlakulov Ya., Nuriddinova D. O'zbek tili (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 6-sinfi uchun darslik). – T.: Mitti yulduz, 2017.
12. Muxitdinova X., Avlakulov Ya., Nuriddinova D. O'zbek tili (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 7-sinfi uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2017.

13. Muxitdinova X.S. O‘zbek tili ((ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 8-sinfi uchun darslik). – T.: O‘qituvchi, 2019.
14. Muxitdinova X., Muhammadjonova G., Tolipova F., Eshchonova R. O‘zbek tili (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 10-sinfi uchun darslik). – T.: Davr, 2018.
15. Muxitdinova X., Muhammadjonova G., Tolipova F., Eshchonova R. O‘zbek tili (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 11-sinfi uchun darslik). – T.: Davr, 2019.

## **12-MAVZU. O‘ZBEK TILI TA’LIMIDA INNOVATSION PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH**

### **REJA:**

1. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarini qo‘llash.
2. O‘zbek tilini hamkorlik asosida va tabaqalashtirib o‘qitishni tashkil etish.
3. An’anaviy va nasofaviy ta’lim shakllarida axborot texnologiyalaridan foydalanish.

**Tayanch tushunchalar:** ta’lim texnologiyasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, ta’limiy o‘yinlar, rolli o‘yinlar, grafik organayzerlar, hamkorlikda ishlash metodlari, muzey-darslar, sayohat-darslar, teatr-darslar, tabaqalashtirilgan guruhlar, axborot texnologiyalari, autentik video materiallar, elektron darsliklar, distant ta’lim, aralash ta’lim.

### **12.1. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash**

Respublikamizda ta’lim sohasida amalga oshirilgan tub islohotlar nafaqat darsliklardagi mashqlarning topshiriqlarini tubdan o‘zgartirishni, balki o‘quvchi va talabalarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yangi pedagogik texnologiyalarni darslarga tadbiiq etish zaruratini ham yuzaga keltirdi. “Ta’lim texnologiyasi” tushunchasi “ta’lim metodikasi” tushunchasiga nisbatan kengroq tushuncha bo‘lib, u ta’lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmunini anglatadi. Bunda ta’lim jarayoni avvaldan loyihalashtirilgan yaxlit tizim asosida, bosqichma-bos-

qich amalga oshiriladi, aniq maqsadga erishish yoʻlida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda taʼlim jarayonini yuqori darajada boshqarish ifodalanadi. “Texnologiya” yunoncha soʻz boʻlib, “techne” - mahorat, sanʼat hamda “logos” – tushuncha, taʼlimot soʻzlarining birikmasidan, “taʼlim texnologiyasi” tushunchasi esa lugʻaviy jihatdan (inglizcha “an educational technology”) taʼlim jarayonini sanʼat darajasida tashkil etish borasida maʼlumotlar beruvchi taʼlimot maʼnosini anglatadi<sup>83</sup>.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar majmuaviy uzviy bogʻliqlikdagi tizim boʻlib, uning asosiy vazifasi oʻquvchi shaxsini rivojlantirish orqali taʼlim maqsadiga erishishni taʼminlashdan iborat. Bunda taʼlim maqsadlarining belgilanishi, yaʼni taʼlim ***kimga va nima maqsadda?*** berilishi, mazmunni tanlash va ishlab chiqish, yaʼni ***nimani?*** berish, taʼlim jarayonlarini ***qay tarzda?*** tashkil qilish, taʼlim metodi va vositalarini aniq belgilab olish, yaʼni ***qanday vositalar yordamida*** taʼlim berish, shuningdek, oʻqituvchilar malakasi darajasi, yaʼni ***kim?*** taʼlim berishi, erishilgan natijalarni ***qanday yoʻl bilan?*** baholash metodlari markaziy oʻrinni egallaydi.

Pedagogik texnologiya turlarini tanlash shakllanayotgan bilim, koʻnikma va malakalar, tashkil etilayotgan darslarning shakli, qoʻllanilayotgan metodlar va metodik usullarning xususiyatiga bogʻliq. Maʼlumki, taʼlim jarayoni ikki tomonlama xarakterga ega boʻlib, oʻqituvchi va oʻquvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi oʻqituvchi taʼlim jarayonining toʻgʻri tashkil etilishi, taʼlim maqsadlarining toʻgʻri amalga oshirilishi va taʼlim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo bu, taʼlim jarayoni oʻqituvchining toʻliq hukmronligi ostida amalga oshadigan jarayon, degan notoʻgʻri fikrning tugʻilishiga asos boʻla olmaydi. Taʼlim jarayoni oʻquvchilarning fan asoslarini oʻzlashtirishlariga oid mexanizmgina boʻlib qolmasdan, balki shaxsning umumiy ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmazlik lozim. Hozirgi davr talabi oʻqituvchi va oʻquvchilarning oʻzaro hamkorlik munosabati yordamida ijobiy natijaga erishishdir. Hamkorlik xarakteriga koʻra metodlar:

---

<sup>83</sup> Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М.. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Т.: Фан, 2006. – 13-б.

– o‘qituvchining avtoritar faolligiga asoslanadigan nofaol;  
– o‘qituvchi bilan o‘quvchi-talabalar hamkorligidan tashkil topadigan faol;

– o‘quvchi-talabalarning o‘zaro va o‘qituvchi bilan hamkorligidan iborat interfaol turlarga bo‘linadi<sup>84</sup>.

O‘qituvchi bilan o‘quvchilarning o‘quv faoliyatidagi muhitning to‘g‘ri uyushtirilishi o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi, ularni butun kuch va g‘ayratini sarflashga undaydi. Ijodiy topshiriqlar hamkorlikda bajarilgandagina bilimlarni o‘zlashtirish samarali bo‘ladi. O‘quvchilarning ta‘limga qay darajada ixlos qo‘yishi o‘qituvchining mana shu hamkorlikni yaratish mahoratiga bog‘liq. Pedagogik ijodkorlikni faqatgina yangilikka, tajribalar o‘tkazishga intilish, deb tushunmaslik kerak.

Buyuk allomimiz Abu Ali ibn Sino ta‘lim-tarbiya masalalariga doir asarlarida o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlariga katta e‘tibor qaratgan. Buyuk olim o‘qituvchini tanlash masalasiga alohida ahamiyat beradi. Ibn Sino yosh avlod va uning tarbiyachisi o‘rtasidagi munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun o‘qituvchi quyidagi talablarga rioya qilishi lozimligini ko‘rsatgan edi:

- bolalar bilan muomala qilishda bosiq bo‘lish;
- ta‘limning o‘quvchilar tomonidan qanday o‘zlashtirib olinayotganligiga alohida e‘tibor berish;
- ta‘lim jarayonida turli metod va usullardan foydalanish;
- o‘quvchining xotirasi va intellektual qobiliyatlarini bilish;
- o‘quvchilarni turli usullar vositasida o‘qishga qiziqitirish;
- bayon qilinadigan masalaning mohiyatini chuqur tushunishi, o‘z fikrlarini adabiy tilda qisqa va aniq ifodalash;
- ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning yoshi va aqliy darajasiga mos so‘zlarni tanlash;
- har bir so‘z harakat va mimika bilan tasdiqlanishi, bolalarda hissiyot uyg‘otadigan bo‘lishi zarur.

Ma‘lumki, ta‘lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo‘llanilayotgan **metodlar** samaradorligiga ham bog‘liqdir. “Metod” so‘zi yunoncha “tadqiqot”, “usul”, “maqsadga erishish yo‘li” ma‘nolariga ega bo‘lib, umumiy tarzda muayyan darajada yo‘lga qo‘yilgan faoliyat ko‘rinishi, maqsadga erishish usuli ma‘nosini anglatadi. Interfaol metodlar, ya‘ni bi-

<sup>84</sup> Толипов Ў.К., Ўша манба. – 54-б.

limlarni o'rgatish hamda o'rganishda ta'lim beruvchi hamda ta'lim oluvchilarning mazkur jarayondagi faolliklari, qiziqish va ijodkorliklari ularning ahamiyati, uni tashkil qilish, takomillashtirish, nazariy va amaliy jihatlarni o'rganish masalalariga qadim zamonlardan boshlab hozirgacha davrlarda buyuk mutafakkirlar, ustozlar o'z shogirdlari bilan mashg'ulotlarda hamda pedagog olimlar nazariy tadqiqotlarida, pedagoglar o'z amaliy faoliyatlarida jiddiy e'tibor berib kelmoqdalar. "O'zbek tili" darsliklariga vaziyatli topshiriqlar, o'z-o'zini tekshirish testlarining kiritilishi, fanlararo aloqalarning aks ettirilgani yangi pedagogik texnologiyalarning amaliy qo'llana boshlanganini ko'rsatadi. Bulardan tashqari bugungi kunda darsliklarga fan xususiyatdan kelib chiqadigan turli interfaol metodlar ham keng tatbiq etilmoqda.

**Interfaol metodlar** ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar bo'lib, ular qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida markazda turadigan ushbu yondashuvning samarali tomonlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim oluvchining tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlanishi;
- ta'lim oluvchini kerakli darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarining ham e'tiborga olinishi;
- o'qish tezligini o'quvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- olingan axborotni amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga keng sharoit yaratilishi.

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari o'quvchi-talabalarning egallayotgan bilimlari mustahkam bo'lishiga, ularning qo'shimcha adabiyot o'qib, mustaqil izlanishlariga, lingvistik materialni o'zlari qiyosiy tahlil qila olishlari va ular asosida xulosa chiqarishga o'rgatadi. Shu bois ta'lim metodlariga jiddiy e'tibor berish hozirgi kun talablariga aylandi. Odatda, darsning ta'limiy maqsadiga bir emas, bir necha metodlardan foydalanish evaziga erishiladi. Buning uchun o'qituvchi o'zi tanlagan metodning avval darsda berilishi ko'zda tutilgan bilimlar, talabalarga egallashi kerak bo'lgan malakalarga qanchalik mosligini, so'ngra kuzatishlar asosida ushbu metodning dars jarayonidagi samaradorlik darajasini aniqlaydi. Agar samaradorlik darajasi pasaysa yoki o'sish kuzatilmasa, darrov metodni o'zgartirish lozim bo'ladi. Chunonchi, yangi mavzu bayoni bosqichida muammoli vaziyat hosil qilish




uchun “Aqliy hujum”, “Tanqidiy tafakkur”, “Klaster” metodlaridan, zaruriyat tug‘ilganda an’anaviy tushuntirish metodidan ham foydalanish mumkin.

Har bir darsni turli va eng yaxshi saralangan o‘qitish metodlarini qo‘llagan holda tashkil etish, o‘quvchi-talabalarning mustaqil aqliy faoliyatini faollashtirishga, talabalarning nazariy bilimlarni to‘liq o‘zlashtirishlariga yordam beradi, o‘z kasbiga qiziqishi ortib borishiga olib keladi. Bu darslarda berilayotgan ilmiy-nazariy bilimlar yordamida talabada mustaqil fikr hosil bo‘lishiga sharoit yaratiladi. Aksincha, bir xil metodning qo‘llanaverishi yoki metodning noto‘g‘ri tanlanishi esa talabadagi qiziqishni so‘ndiradi, uning aqliy faoliyatini susaytiradi. Bu o‘rinda shuni alohida qayd qilib o‘tish kerakki, o‘qituvchi interfaol usullarni qancha ko‘p bilsa, o‘z faoliyatida faqat yagona bir metodning o‘zi bilan chegaralanib qolmaydi, pedagogda ularni bir-biriga qiyoslab, darsning ta’limiy maqsadlariga muvofiq‘ini tanlab dars o‘tish imkoniyati paydo bo‘ladi. Demak, o‘qituvchi bir emas, bir necha pedagogik usullarni yaxshi bilishi va zaruriyat tug‘iganda ularni o‘zaro qiyoslab, darsning turli bosqichlarida almashtirib qo‘llashi maqsadga muvofiq. Xususan, quyi sinflarda ta’limiy didaktik o‘yinlardan foydalanish muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, o‘yin dunyoni va o‘zlikni anglashda, o‘quvchilarning qiziqishlarini, ijodiy tafakkurini o‘stirishda asosiy vosita hisoblanadi. Quyida ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlarda o‘zbek tilini o‘qitishda qo‘llanishi samarali natija beradigan pedagogik metodlar, ulardan foydalanishdagi o‘ziga xos jihatlar haqida to‘xtalib o‘tamiz.


**“Klaster” metodi.** Klaster “g‘uncha”, “bog‘lam” degan ma’noni bildirib, o‘quvchilarga ixtiyoriy mavzular xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalarni o‘rtasida aloqalar, uzviylikni aniqlash, izchillikni tushunish imkoniyatini beruvchi, bilganlarini tizimlashtirishga yordam beruvchi metod bo‘lib, bu usul o‘quvchiga berilgan mavzu bo‘yicha erkin, ochiq o‘ylash va fikrlarini bemalol bayon etish uchun sharoit yaratadi. “Klaster” metodidan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu

metodni boshlang'ich sinflardan tortib to oliy ta'limgacha barcha bosqichlarda o'tkazilishi mumkin.

“Klaster” usuli ko'pincha yangi mavzuni boshlashdan avval o'quvchini darsga qiziqtirib, shu mavzu bo'yicha avval egallagan bilimlarini aniqlash maqsadida yoki o'tilgan mavzuni so'rash uchun o'tkaziladi. Masalan, ma'lumki, har bir sinfdan 1-dars Vatan, istiqlol mavzuiga bag'ishlanadi. Shundan kelib chiqib, o'quvchilar ushbu so'zni yadro sifatida doira o'rtasiga joylashtirib, shu tushunchaga aloqador so'zlarni yozib chiqadilar. Masalan:




Buyuk siymolarimiz, mashhur insonlar haqidagi mavzularni boshlashdan avval klaster metodidan foydalanish samarali bo'ladi. Masalan:



(7-sinf, 16-mavzu uchun)

Klaster metodini mavzu oxirida quyidagi shaklda o'tkazish ham mumkin:



(8-sinf, 16-mavzu uchun)

**“Zanjir” metodi.** Bu metodni adabiy o‘qish bo‘yicha berilgan she‘riy matnni o‘qishda qo‘llash tavsiya qilinadi. Uygaz vazifa qilib topshirilgan she‘rlar barcha o‘quvchilar tomonidan yod olinmaydi. O‘qituvchi dars davomida she‘rni barcha o‘quvchilardan so‘rab ham ulgurmaydi, shuning uchun berilgan she‘r “zanjir” usulida so‘ralsa, o‘quvchi sinfda do‘stlari oldida uyalib qolmaslik uchun ham she‘rni yod olishga majbur boladi. Bu usulda nasriy matnni o‘qishni tashkil etish ham mumkin. Har bir o‘quvchi bittadan misra yoki gap o‘qib, keyingi o‘quvchi tartib bilan davom ettiradi. Shu yo‘sinda she‘r yoki matn har bir o‘quvchi ishtirokida yod aytiladi yoki o‘qib chiqiladi.

**“Muomalani biling” o‘yini.** Quyi sinflarda “O‘zbek tili” darslarida muomala odobiga oid ma‘lumotlar berib boriladi. Ushbu ma‘lumotlarni mustahkamlash jarayonida mazkur o‘yindan foydalanish mumkin.

1-o‘quvchi. *Xush kelibsiz.*

2-o‘quvchi. *Yaxshi keldingizmi.*

3-o‘quvchi. *Rahmat.*

4-o‘quvchi. *Minnatdorman.*

5-o‘quvchi. *Sizga yaxshi kayfiyat tilayman.*

6-o‘quvchi. *Omad sizga yor bo‘lsin va hokazo.*

Bu o‘yinni 2 guruhga bo‘linib o‘tkazish yaxshi natija beradi. Bunda guruh ishtirokchilari navbatma-navbat bir-birlariga murojaat qiladilar. Ushbu o‘yinni boshqacharoq tashkil etish ham mumkin. O‘quvchilar 2 guruhga bo‘linadi. 1-guruh o‘quvchilari muomala odobiga oid so‘z va birikmalarni aytadi, 2-guruh vakili esa shu gaplarning aytilish joyini aytib berishlari kerak.

**“Kim ko‘p so‘z biladi” o‘yini** ham o‘quvchilarning lug‘at boyligini o‘stirishga katta yordam beradi. Buning uchun sinf 2 guruhga bo‘linadi va har bir guruh uchun alohida topshiriq beriladi. 1-guruh o‘quvchilariga ikki tomoni bir xil unli bilan yoziladigan, ikkinchi guruhga esa ikki tomoniga bir xil undosh yoziladigan so‘zlarni doskaga yozish topshiriladi. Masalan: 1-guruh *ikki, alla* kabi. 2-guruh *qiziq, katak* kabi. Har bir guruh o‘quvchilari birma-bir chiqib so‘zlarni yozadilar. So‘z topolmay to‘xtagan guruh yutqazgan hisoblanadi.

**“Rasmlarni to‘g‘ri joylashtirish” metodi.** “O‘zbek tili” darsliklarida adabiy o‘qish uchun turli she‘rlar, hikoyalar, ertaklar ham

berib boriladi. Ushbu ertak va hikoyalar o‘qib bo‘lingach, ularni takrorlash uchun ushbu metoddan foydalanish yaxshi natija beradi. Buning uchun shu ertaklar asosidagi rasmlarni har xil qilib doskaga terib qo‘yiladi. O‘quvchilar rasmlarni mavzuni mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiladigan shaklda qayta terib chiqadilar va ertak mazmunini qisqacha so‘zlab beradilar.

**“Kuch birlikda” metodini** o‘tkazish uchun doska ikkiga bo‘linib, har bir guruh uchun alohida mavzu yozib qo‘yiladi. (Masalan, *“Gulzorda”* yoki *“Maktabimiz bog‘i”* kabi). Bunda har bir guruh a‘zosi gap tuzib mavzu bo‘yicha matn tuzishga o‘z hissasini qo‘shishi lozim. O‘n daqiqada qaysi guruh tez, chiroyli va mazmunli matn tuzsa, shu guruhga rag‘bat kartochkasi beriladi so‘ngra tuzilgan matn doskaga yozdiriladi, yo‘l qo‘yilgan xatolar 2-guruh tomonidan tekshiriladi va to‘g‘rilanadi.

**“So‘nggi axborot” metodini** darsning boshlanish bosqichida o‘tkazib turish yaxshi natija beradi. O‘quvchilar hafta ichida o‘zlari eshitgan, ko‘rgan yangiliklari xususida so‘zlab beradilar. Bu ish turi o‘quvchilar bog‘lanishli nutq malakalarini rivojlantirishga, so‘z so‘rash, so‘zga chiqish, bir-birining fikrini davom ettirish, o‘zini xuddi suxandonlar, jurnalistlar kabi tutish odobini o‘rganishga yordam beradi. Bu o‘yin o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishga, ularni yangiliklarni o‘zbek tilida eshitish, ularni birinchi bo‘lib so‘zlab berishga intilish, chiroyli va bexato gapirishni o‘rgatishga sabab bo‘ladi.

**Boshqotirmalar bilan ishlash** ham o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda, o‘quvchilarni jonlantirish, ijodiy va mustaqil fikrlashga o‘rgatishda juda muhim. Kuchliroq guruhlarda o‘quvchilarning o‘zlariga boshqotirma tuzishni topshirish ham mumkin. O‘quvchilar bunday ish turlari va topshiriqlarni juda katta qiziqish bilan bajaradilar.

**“Zakovat yoki zukkolar” o‘yini.** Bu metod o‘quvchilarda tezkor fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to‘g‘ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko‘ra har bir savolga berilgan to‘g‘ri javob uchun turli ballar belgilanadi. Ballarning belgilanishi o‘quvchilarning shaxsiy imkoniyatlari to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishlarini ta‘minlaydi.

**“Qarama-qarshi munosabat” usuli** o‘zlashtirilgan bilimlarni tahlil qilish asosida ikkinchi darajali ma’lumotlarni ajratish imkonini beradi. Bu usulni ko‘pincha mashqlarda berilgan bog‘lamali matnlar yoki adabiy o‘qish materiallari asosida o‘tkazish yaxshi natija beradi.

Bunda matnning umumiy mazmuni va tayanch tushunchalar aniqlanadi:

- ular izchillik asosida ketma-ketlikda qayd etiladi;
- shaxsiy yondashuv asosida muhim va u qadar muhim bo‘lmagan tushunchalarga va 2 ustunga ajratib yoziladi, guruhlanadi;
- har bir guruhlar fikri asosida shaxsiy yondashuvlar muhokama qilinadi;
- jamoaning umumiy fikriga ko‘ra yakuniy xulosani ifoda etuvchi jadval tuziladi.

Jadvalni quyidagicha tuzish maqsadga muvofiq:

№	Muhim tushunchalar	№	Muhim bo‘lmagan tushunchalar
1.		1.	
2.		2.	
3.		3.	
4.		4.	
5.		5.	
...		...	

Bu usul o‘quvchilarni matnni sinchiklab o‘qishlariga, iloji boricha ko‘proq ma’lumot berishlariga, matndagi asosiy va qo‘shimcha ma’lumotlarni ajrata olishlariga yordam beradi. Bu o‘quvchilarning yozma nutqlarini o‘stirishga ham yordam beradi.

**“Muz yorar” metodini** odatda birinchi darsda o‘tkazish maqsadga muvofiq. Bu usuldan o‘ziga notanish sinfga kirganda, o‘quvchilar bilan yaxshi tanishib olishda foydalanish tavsiya etiladi. Buning uchun bir varaq qog‘oz olib, 4 qismga bo‘linadi va quyidagi yozuvlarni yozib o‘quvchilarga tarqatiladi.

Ismim	Yutuqlarim
Kamchiliklarim	Qiziqishlarim

Kataklar o‘quvchilar tomonidan to‘ldiriladi va birma-bir o‘qib beriladi. Bu usul o‘quvchilarning yozma hamda og‘zaki nutqini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.


**“Besh daqiqalik esse”.** Yozma topshiriqning ushbu turi tinglovchilarning mavzuga doir o‘z mustaqil fikrlarini ifodalay olishga yordam berish va o‘qituvchiga o‘z tinglovchilari o‘quv materialini bilan tanishganda qaysi jihatlariga ko‘proq e‘tibor berishlari xususida fikrlash imkonini beradi.

**“Charxpalak” metodida** o‘quvchilar guruhlarda hamkorlikda ishlaydilar. Sinf o‘quvchilari uch guruhga bo‘linib, har bir guruhga 3 ta vatman qog‘ozi, uch xil rangdagi qalam yoki market va uch xil muammoli savol beriladi. Har bir guruh belgilangan vaqt ichida varaqlarini bir-birlari bilan almashib o‘z fikrlarini yozadilar. Varaqlar 3 marta yoki 4 marta almashtiriladi. Vaqt tugagach, har bir guruhning o‘z varag‘i o‘zida to‘xtashi kerak. So‘ng rangli marketlarning yozilishiga qarab har bir guruh qancha fikr yoza olganligi aniqlanib, o‘quvchilar baholanadi, rag‘batlantiriladi. Bu usul orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashlariga, ularning yozma nutqini rivojlantirishga, bir-birining fikrini to‘ldirishga, bir vaqtning butun sinfnig bilimini tekshirishga imkon yaratiladi.

**“Kim ko‘p biladi” metodi** fanlararo bog‘lanishni rivojlantirishga yordam beradigan ish usulidir. Boshqa tilni o‘zlashtirishda o‘lkashunoslik materiallari bilan ishlash o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishga, o‘quvchilarga o‘zi yashaydigan zamanga hurmat, ularni yaxshi bilish, qadrlash tuyg‘ularini singdirishga yordam beradi. Masalan, ushbu metod bo‘yicha quyidagicha topshiriqlarni berish mumkin. 3ta qatorning har biriga quyidagi 3tadan topshiriq asosida jadvalni to‘ldirish topshiriladi:

- 1-qator: 1-O‘zbekiston hududidagi vodiylar;  
2-O‘zbekiston hududidagi qo‘hna shaharlar;*
- 2-qator: 3-O‘zbekiston hududidagi daryolar;  
4-O‘zbekiston hududidagi tog‘lar;*
- 3-qator: 5-O‘zbekiston hududidagi ko‘xna obidalar;  
6-O‘zbekiston hududidagi viloyatlar.*

Ushbu topshiriqni bajarishda turli rangli flepchatkalaridan foydalanish ham mumkin. O‘quvchilarga tarqatilgan flepchatkalarga viloyat va uning markazi nomini qisqa qilib yozadilar, so‘ngra o‘z flepchatkalarini har bir viloyatning xaritada joylashish o‘rni bo‘yicha doskaga yopishtirib chiqadilar. Shu tarzda doskada O‘zbekiston xaritasining maketini yuzaga keltiriladi:



**(8-sinf, 1-mavzu)**

Bu metod o'quvchilarni topqirlikka o'rgatadi, ularda Vatanimiz haqidagi ma'lumotlarni yaxshi bilib olishga intilish yuzaga keltiradi. Darsning jonli, qiziqarli bo'lishiga olib keladi. Bu metodni o'yin shaklida ham tashkil etish mumkin. Masalan: “*Kim ko'p biladi?*” o'yini. Guruhlarga bo'lining va tashkil qiling. O'yin topshirig'iga ko'ra har bir guruh o'z viloyati, shahri, tumanidagi yangi inshootlar haqida ma'lumotlar berishi kerak.

**“Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” (B.B.B.) metodi.** Ushbu metod o'quvchilarga muayyan mavzular bo'yicha o'z bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo'llash jarayonida o'quvchilar bilan ayrim guruhda yoki butun sinf bilan ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Bunda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarib bo'lgach, mashg'ulot yakunida o'z fikrlarni quyidagicha umumlashtiradi:

<b>Bilaman</b>	<b>Bilishni xohlayman</b>	<b>Bilib oldim</b>

Bu jadvalni doskaga chizib qo'yish va o'quvchilar tomonidan to'ldirtirib borish kerak, shunda natija juda samarali bo'ladi. Bu metodni nazariy-grammatik bilimlarni mustahkamlashda qo'llash, metoddan foydalanish uchun quyidagi tayyorgarlik bosqichi amalga oshirish samarali natija beradi:

– o‘quvchilarning o‘rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo‘yicha tushunchalarga egalik darajalarini aniqlash;

– o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarni boyitishga bo‘lgan ehtiyojlarini o‘rganish;

– o‘quvchilar mavzuga oid ma‘lumotlar bilan batafsil tanishtirish.

Shundan so‘ng metod quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

– o‘quvchilarning yangi mavzu bo‘yicha tushunchalari darajasi o‘rganiladi va o‘quvchilar tomonidan qayd etilgan tushunchalar jadvalning 1-bandiga yozilib boriladi;

– o‘quvchilarning yangi mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo‘lgan ehtiyojlari o‘rganiladi va qayd etilgan tushunchalar jadvalning 2-bandiga yozib qo‘yiladi;

– o‘qituvchi yangi mavzuga oid umumiy ma‘lumotlar bilan o‘quvchilarni xabardor qiladi;

– o‘quvchilar o‘zlashtirgan yangi tushunchalar aniqlanadi va ular jadvalning 3-bandiga yozib qo‘yiladi.

Mashg‘ulot yakunida jadvalning barcha bandlari to‘latiladi. Bu metod orqali o‘quvchilar o‘zlari va o‘rtoqlarining bilim darajalari, xohish-istaklari, intilish-qiziqishlari haqida ma‘lumotga ega bo‘ladilar. Aksariyat hollarda bu metodni uy vazifasi sifatida qo‘llash yaxshi natija beradi. Masalan:

*Berilgan jadvalni to‘ldiring va o‘zbek yozuvchilarining qaysi asarlarini o‘qiganingiz yoki o‘qimoqchiligingizni qayd eting.*

O‘qigan edim	O‘qib chiqdim	O‘qimoqchiman

**Rolli o‘yinlar** o‘quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatlarini tashkil etishda nihoyatda ahamiyatlidir. Ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan, xususan, rusiyzabon maktablarda o‘zbek tili darslarini o‘tishda boshlang‘ich sinflarda adabiy o‘qish, suhbat matnlaridagi dialoglarni o‘qishda ushbu metoddan qisman foydalanilsa, umumta‘lim o‘rta sinflarida, ayniqsa kasb-hunar kollejarida dars mavzusiga bog‘langan holda kengroq foydalanish samarali natija beradi. Biroq yuqorida aytganimizdek, darslarni to‘liq o‘yinga aylantirib yubormaslik kerak, bu o‘quvchilar fikrini asosiy mavzudan chalg‘itadi. Ammo yuqori sinflarda va o‘rta maxsus ta‘lim oliy ta‘lim bosqichida rolli o‘yinlarga ko‘proq vaqt ajratish, hatto bir



darsni to'liq ajratish ham mumkin. O'qituvchi rolli o'yin uchun tanlangan mavzu, undan ko'zda tutilayotgan maqsad haqida o'quvchilarga oldindan ma'lumot berishi, o'yin ssenariysini tuzish yuzasidan ham guruh yetakchilariga qisman maslahatlar berib, ularni maqsadga to'g'ri yo'naltirishga yordam berishi zarur.

Rolli o'yinlar faqat o'yindagina iborat bo'lib qolmasligi, unda albatta, o'quvchi-talabalarning o'zbek tili darslarida egallagan nutqiy malakalari, imlo savodxonligi, o'zbekcha nutqiy etiket muomala odobi va nutqiy madaniyat, shuningdek, o'quvchi-talabalarning dunyoqarashi, sohaviy bilimlari haqidagi ma'lumotlari aks etishi va o'quvchilar shular nuqtayi nazardan baholanishi o'ta muhim. Shundagina ular pedagogik va ta'limiy maqsadlarga xizmat qiladi, o'quvchilarga ushbu fan tufayli ko'plab, amaliy malakalarni egallay olayotganini ko'rsatadi, natijada o'quvchilarda fanga qiziqish, o'tilayotgan mavzularni tushunib qabul qilishga intilish hissi hosil bo'ladi.

**“6 x 6” metodida** har birida 6 tadan o'quvchi bo'lgan 2 ta guruhga bo'linadi va har biriga alohida matn ustida ishlash topshiriladi. Mazkur metodni qo'llashdan maqsad o'quvchilar tomonidan mavzuni puxta o'zlashtirish bilan birga ularni faollikka undash, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Berilgan vaqt ichida (10 daqiqa) guruh a'zolari ham o'rganuvchi, ham munozara qatnashchisi, ham o'rgatuvchi sifatida quyidagicha faoliyat olib boradi:

– guruh a'zolari tomonidan o'zlariga berilgan matnni o'qib o'zlashtirish;

– bir guruh a'zolari o'zlari o'qib o'zlashtirgan matn mazmunini 2-guruh a'zolariga so'zlab berishi;

– guruhlardan vakillar navbatma-navbat doska oldiga chiqib, 2-guruhdan eshitgan matn mazmunini so'zlab berishi.

Qaysi guruh matnni to'liqroq so'zlab bersa, shu guruh yuqori ball oladi.

**“Vaziyatli topshiriqlar” metodi.** Mazkur metodni qo'llashdan maqsad o'quvchilar tomonidan ma'lum vaziyatlarda mantiqiy jihatdan to'g'ri fikrlash va o'z fikrini boshqalarga uqtira bilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

**PMQ texnologiyasi.** Ushbu texnologiya o'quvchi-talabalarni mustaqil fikrlashga va berilgan topshiriqni 3 jihat bo'yicha tahlil

qilishga o‘rgatadi: plyus, manfiy, qiziqarli. Masalan, oliy ta’lim bosqichida ushbu texnologiya asosida 4 ta ta’lim bosqichining **oson (+), qiyin (-) va qiziqarli** jihatlarini aytib berishni vazifa qilib topshirish mumkin. Masalan:

*Maktabgacha ta’limning oson tomonlari:* .....

*Bolalar bilan ishlashning qiyin jihatlari:* .....

*Qiziqarli taraflari:* .....

**Grafik organayzerlar** – o‘quv jarayonida qo‘yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar majmui bo‘lib, ta’lim jarayonida tinglovchilarning faolligi va mustaqilligini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Grafik organayzerlar tinglovchilarning mustaqil bilishga intilishlari uchun eng zarur bo‘lgan qiziqish va ehtiyojni yuzaga keltiradi. Ularning eng keng qo‘llanadigan shakllari “Konseptual jadval”, “T-chizma” va “Ikki qismli kundalik” kabilardir. Masalan:

*Mamlakatimizda mavjud bo‘lgan tabiiy boyliklar haqida to‘plagan ma’lumotlaringiz asosida jadvalni to‘ldiring.*

Yer usti boyliklari	Yer osti boyliklari
...	...

(8-sinf, 16-mavzu)

**T-chizma** munozara vaqtida qo‘shaloq javoblar (ha/yo‘q, tarafdor/qarshi) yoki taqqoslash, zid javoblarni yozish uchun universal grafik organayzer hisoblanadi. Unda bir juft o‘quvchi “tarafdor va qarshi” tamoyiliga asoslanib, T-chizmani tuzishi va besh daqiqa ichida chizmaning chap va o‘ng tomoniga farqli jihat sabablarni izohlagan holda yozishlari kerak. Masalan:

**T texnologiyasi asosida quyidagi tahlillarni bajarung:**

- 1) sof fe’llar va ravishdoshlar o‘rtasidagi farqlarni yozing;
- 2) ravish va ravishdoshning o‘xshash va farqli xususiyatlarini yozing.

(8-sinf, 7-mavzu)

**“Ikki qismli kundalik” metodini** o‘quvchilarga kattaroq matnni uyda, sinfdan tashqari uy o‘qishi topshirig‘i berilganda qo‘llanishi samarali bo‘ladi. Ushbu metodni bajarishda daftarning bo‘sh sahifasi o‘rtasidan tik chiziq tortib 2ga ajratilishi kerak. Qog‘ozning chap tomoniga matnning qaysi qismi ularga eng

ko‘p taassurot qoldirgani yozib boriladi. O‘ng tomoniga esa shu tsitatani yozishga uni nima majbur etgani, ularda qanday fikrlar uyg‘otgani, qanday savollar tug‘ilgani yuzasidan sharhlar yozib borishlari kerak kerak bo‘ladi. Shu tarzda matnni o‘qish jarayonida o‘quvchilar vaqti-vaqti bilan to‘xtab, ikki qismli kundaliklariga shu kabi belgilar qo‘yib borishlari kerak. Shuningdek, bu metoddan o‘quvchilarning yoshiga mos holda quyidagicha topshiriqlarni bajarishda foydalanish ham mumkin:


*“Ikki qismli kundalik” texnologiyasi asosida bajarishingiz kerak bo‘lgan yoki bajarib bo‘lgan ishlaringizni yozing. Tuzgan gaplaringizda .... so‘z shakllaridan foydalaning.*

**(8-sinf, 14-mavzu)**

**“Tushunchalar asosida matn tuzish” metodida** o‘qituvchi yangi mavzuni e‘lon qiladi va mavzuning qisqacha bayonini berganidan so‘ng, mavzuga oid asosiy tushunchalarni aytib turib yozdiradi. O‘quvchilar berilgan tushunchalardan foydalanib mustaqil tarzda matn tuzadilar.

**Venn diagrammasi metodi.** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita yoki uchta o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalarning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi. Buning uchun ishtirokchilar kichik guruhlariga birlashib, ko‘rib chiqilayotgan tushunchaga xos farqli jihatlarini doiralar ichiga yozib boradilar. Bu metodni ayniqsa, grammatik qoidalarni takrorlash va mustahkamlash jarayonida o‘tkazish yaxshi natija beradi. Masalan:

**7-topshiriq.** “VENN” diagrammasi yordamida fe‘lning aniq, majhul va o‘zlik nisbat shakllarini bildiradigan ma‘nolarni qiyoslab tushuntiring.



**(8-sinf, 1-mavzu)**

**3-topshiriq.** “VENN” diagrammasi asosida gaz, suv, elektr qayerlarda ishlatilishini, ularni isrof qilish qanday oqibatlariga olib kelishini yozing.

**(8-sinf, 15-mavzu)**

**6-topshiriq.** “Blits-so‘rovnoma”ni to‘ldiring. Berilgan so‘zlar qaysi buyumlar turiga kirishini “+” ishorasi bilan belgilang.

	Pichoq	tillaqosh	ketmon	Uzuk	zirak	Belkurak
<i>Uy-ro‘zg‘or anjomlari</i>	+					
<i>Zargarlik buyumlari</i>		+		++		

**5-topshiriq.** “Baliq skeleti” texnologiyasini qo‘llab, shaxsiy va umumiy gigiyena qoidalariga nimalar kirishini ko‘rsating.

**(8-sinf, 11-mavzu)**

Shuningdek, tadqiqot ishlarida ham mazkur yo‘nalishda “O‘qituvchi portreti”, “Men orzu qilgan maktab”, “Minora qurish”, “Bozorcha” kabi mashqlarni, “To‘rt taraf”, “Daraxt”, “Bilimlar daraxti”, “Ishbilarmonlar o‘yini”, “Taqdimot”, “Davra suhbat”, “Muammoli dars”, “Allomalar yig‘ini”, “Tabaqalashtirilgan dars”, “Hamkorlik”, “Yozma bahslar” kabi interaktiv dars usullari ham tavsiya qilinadi.

Ta’limiy o‘yinlar bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yengil-latishga, o‘quvchilarni darsga to‘liq jalb etishga yordam beradi, biroq o‘yinlarni haddan ziyod ko‘paytirib yuborish o‘quvchilarni darsning ta’limiy maqsadlaridan chalg‘itadi, berilayotgan grammatik ma’lumotlarni izchil egallash va bilimlarni puxta o‘zlashtirishga halal beradi. Shu bois har bir o‘qituvchi tanlangan metodlar va tavsiya qilinayotgan didaktik o‘yinlarni grammatik mavzuga bog‘lagan holda, mavzuni mustahkamlash va takrorlash bosqichlarida maqsadli ravishda hamda puxta o‘ylab tuzilgan ta’limiy reja asosida o‘tkazishi samarali bo‘ladi.


## 12.2. O‘zbek tilini hamkorlik asosida tabaqalashtirib o‘qitishni tashkil etish

Til ta’limida, ayniqsa, hamkorlikka asoslangan ta’limning ahamiyati nihoyatda katta. Ushbu metodda muloqotga kirishi qiyin bo‘lgan kamgap o‘quvchilar ham suhbatda ishtirok etishlariga erishilsa, hamkorlik to‘laqonli amalga oshadi. O‘qituvchi hamkorlik jarayonida o‘quvchilarning nutqini o‘stirish bilan birga diagnostik vazifani ham bajaradi, ya’ni o‘quvchilarning so‘z boyligi, qiziqish doirasini aniqlaydi, iqtidorini chamalaydi. Hamkorlikka asoslan-


gan ta'limda o'quvchilar o'zaro fikr almashadilar, muomala qilish malakalari oshadi, har bir o'quvchi o'zi uchun, guruhi uchun javob berishga harakat qiladi, guruh uchun mas'uliyatni his qiladi; har bir o'quvchi rahbarlik rolini bajarishi uchun imkon beriladi hamda o'zaro do'stona munosabat shakllana boradi. Hamkorlikda ishlashda, avvalo, ishtirokchilarning joylashuviga alohida e'tibor qaratish lozim. Ishtirokchilarga "Yuzma-yuz o'tirish imkoni"ni berish maqsadga muvofiq. Juft bo'lib yoki guruh bo'lib ishlaganda o'quvchilar yuzma-yuz, ya'ni bir-birlariga qarab o'tirishlari kerak. Shu holatda o'zaro fikrlashib, bahslashib, qarorlar qabul qilishlari osonlashadi, bir-birini eshitish, tinglash malakalari shakllanadi.

Psixolog olimi V.Karimova ishtirokchilarda mas'uliyat hissini uyg'otish, erkin muloqot olib borish va fikrlarini erkin bayon qilishga imkon beradigan o'quvchilarning quyidagicha joylashuvlarini tavsiya etadi<sup>85</sup>.

#### **“So‘nggi axborot yoki hafta yangiliklari” metodi.**




Ushbu metodni darsning boshlanish bosqichida talabalarni ro'para o'tqazgan holda o'tkazishlari maqsadga muvofiq. Talabalar 2–3 daqiqa davomida hafta ichida o'zlari eshitgan, *ko'rgan* yangiliklari xususida so'zlab beradilar. Bu metod yangiliklarni o'zbek tilida muntazam eshitib borishlari natijasida talabalarda tinglab tushunish ko'nikmalarining hosil bo'lishiga, takrorlar va to'xtamlarsiz ravon gapirishga intilish, hammadan yaxshi so'zlab berishga intilish, bir-birining fikrini davom ettirish orqali ularning o'zbek tilida erkin *monologik gapirishni* o'rganishlariga yordam beradi. Ro'paraga o'tirish, so'zga chiqish jarayonida o'zlarini xuddi boshlovchilar, suxandonlar, jurnalistlar kabi tutishga, o'z nutqlarini uzilishsiz, gap ohangi va orfoepik qoidalarga to'g'ri rioya qilgan holda bog'lanishli ifodalashga harakat qiladilar. Bu talabalarda o'zlariga ishonch, o'zbek tiliga qiziqish paydo bo'lishiga olib keladi.



**“Tanishtirish” metodi.** Mazkur metodni qo'llashdan maqsad talaba tomonidan mavzuni puxta o'zlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash, ularda hamkorlikda ishlash, ma'lum vaziyatlarni boshqa-

<sup>85</sup> Қаранг: Каримова В. Психология. – Т., 2002, 203-б.


rish hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Buning uchun talabalar “Men hamkorlikdaman” joylashuvida o‘tkaziladi va har bir guruhga tarjimai hol matnlari tarqatilib, shaxsini o‘zgartirib qayta hikoya qilish topshirig‘i beriladi. Har bir guruh tarjimai hol matnlaridagi birinchi shaxs nomidan hikoya qilingan matnlarni ism qo‘yib, uchinchi shaxs nomidan hikoya qilish yoki uchinchi shaxs nomidan hikoya qilingan matnni birinchi shaxs nomidan hikoya qilib berishlari tashkillashtiriladi. Bunda o‘zining, aka-ukasi, opa-singlisining yoki biror yozuvchining tarjimai holi bayonidan, shuningdek, badiiy asarlardan olingan parchalardan foydalanish



**“Muharrir” metodi.** Ushbu metodni talabalarni “Biz hamkorlarmiz” vaziyatida to‘rt guruhga bo‘lib joylashtirish samarali natija beradi. Har bir guruhga quyidagi topshiriqlar yozilgan alohida matnlar tarqatiladi:

1. Berilgan matn mazmuniga mos keladigan boshlovchi gapni tanlang;
2. Berilgan matndagi yakunlovchi jumlani o‘zgartiring;
3. Berilgan matndagi jumlar tartibini o‘zgartirgan holda so‘zlab bering;
4. Berilgan matndagi ortiqcha gaplarni aniqlang.

Mazkur topshiriqlarni bajarish uchun har bir guruhga mustaqil o‘qish uchun berilgan asardan parcha tarqatiladi. Talabalar matnni o‘qib chiqishlari, so‘ngra taklif qilingan gaplardan topshiriq mazmuniga ko‘proq mos keladiganini tanlab olishlari kerak bo‘ladi. Topshiriq bajarib bo‘lingach, har bir guruh ichidan bitta vakil chiqib, nima uchun aynan shu gapni tanlaganliklarini izohlab berishi kerak.



**“Intervyu” usuli.** Bunda talabalar juftlikda o‘tqaziladi. Juftlikdagi talabalardan biri jurnalist sifatida savol beradi, ikkinchisi unga batafsil ma‘lumot beradi. So‘ngra ularning o‘rni almashtiriladi. Shu tarzda har bir talaba intervyu beruvchi rolini bajaradi.

**“Taqqimot” metodi.** Buning uchun 2-semestr yakunida har bir talabaga O‘zbekiston viloyatlari bo‘yicha ma‘lumot to‘plash va semestr davomida har bir talaba muayyan viloyatning ma‘muriy-geografik xususiyatlari, mazkur viloyatdagi urf-odatlar bo‘yicha to‘plagan ma‘lumotlarini 15-20 daqiqa vaqt ichida o‘ziga xos usulda taqdim etish topshiriladi. Talaba o‘z taqdimoti boshqa guruhdoshlarinikidan kam bo‘lmasligi uchun o‘zi tuzgan ssenariy asosida va slaydlar, qo‘shimcha materiallar vositasida o‘zi to‘plagan materiallarni notiqlik mahorati bilan namoyish etadi. Taqdimot metodi orqali talabalar 15-20 daqiqalik taqdimoti uchun mustaqil ma‘lumot to‘plash, taqdimot rejasini tuzish, o‘z nutqi uchun materiallarini mustaqil tarzda ketma-ket joylashtirish, nutqini boshlovchi, yakunlovchi gaplarni ajrata olish va eng asosiysi, o‘zbek tilidagi og‘zaki monologik nutqlari bo‘yicha egallagan malakalarini namoyish qiladilar.

**“Zukkolar musobaqasi” metodi.** Ushbu metodni o‘lkashunoslik materiallari asosida tashkil qilish ko‘zda tutiladi. Ushbu musobaqa-darsni samarali tashkil etish uchun guruhlarini bundan avvalgi darsda tuzish va uyda tayyorlanib kelish uchun talabalarga uyga vazifa sifatida quyidagi topshiriqlarni berish maqsadga muvofiq. Guruhlarga har bir topshiriq bo‘yicha o‘zlari tayyorlab kelgan ma‘lumotlarni bayon etish uchun 10 daqiqadan vaqt beriladi. Har bir vazifa hakamlar hay‘ati tomonidan musobaqada guruhlar a‘zolarining to‘liq ishtirokida o‘tkaziladi. Darsni mazkur tarzda tashkil etish talabalarining mustaqil izlanishlari, erkin fikrlashlariga yordam beradi, ularda ijodkorlik paydo qiladi. Har bir guruh a‘zolari g‘oliblik shohsupasiga ko‘tarilish uchun barcha shartlarni bekam-u ko‘st bajarishga harakat qiladi. Har bir guruh a‘zolari bir-birlarini tortishga, ya‘ni passiv talabani ham faollashtirishga intiladilar, bir-birlariga yordam beradilar.

Har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash, ularning dunyoqarashini boyitishda o‘quvchi-talabalar bilan muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish yaxshi samara beradi. Muzeylar yosh avlod ongini o‘stiradigan, tafakkurini o‘zgartiradigan va teranlashtiradigan, dunyoqarashini kengaytiradigan qudratli tarbiya maskanlaridir. Muzeylarga sayohat uyushtirish, ochiq darslar o‘tish darslarining qiziqarli bo‘lishi, talabalarining fikrlash qobiliyatini o‘stirish, mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

**Muzey-dars** zamonaviy darslarning bir turi bo'lib, bunday darslar talabalarda turli xil axborotlar, janr va uslubdagi matnlar bilan ishlash, bahs-munozaralar uyushtirish orqali talabalarning monologik nutqini rivojlantirishga ham yordam beradi. Ma'lumki, muzey ekspozitsiyalarida shoir, yozuvchi hayoti va ijodiga oid eksponatlar, qiziqarli ma'lumotlar o'rin oladi. Shu bois muzeylarda ekskursiya darslarini tashkil qilish talabalarga o'tilgan mavzularni mustahkamlash, ularning bilimlarini boyitib, yanada ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi.

Muzey darslarning asosiy xususiyati bo'lib, bu o'rganilayotgan voqea va hodisalarni o'quvchi-talabalarga faqat mavhum so'zlar orqali emas, balki jonli mushohada yordamida idrok qilishlariga imkon beradi, hodisalarning mohiyati ko'rish asosida bilib olinadi. Muzeyga sayohat uyushtirishni alohida mavzu tanlash va unga tuzilgan puxta reja asosida tashkillashtirishdan boshlash kerak bo'ladi. Bu jarayon, albatta, o'quv mashg'ulotlari tarkibiga kiradi va bunda maqsad umumiy sayohat emas, balki muayyan mavzuning yakuni sifatida mustaqil ijodiy va amaliy topshiriqlarni bajarishdan iborat bo'lishi kerak. Bu loyiha tayyorlash, ijodiy ish yozish, slydlar yaratish, videoroliklar tayyorlash, gid rolli o'yini ishtirokchisi kabi muzey-darslarga qo'yiladigan talablar majmuini tashkil qiladi.

Xususan, rus guruhlarida "O'zbek tili" mashg'ulotlarini o'tishda adabiy o'qishni tashkil etishdan oldin ularni taniqli o'zbek yozuvchilari, shoirlari hayoti va ijodi bilan tanishtirish maqsadida muzeylarga ekskursiya o'tkazish samarali natija beradi. Muzeyga sayohat uyushtirishni alohida mavzu tanlash va unga tuzilgan puxta reja asosida tashkillashtirishdan boshlash kerak bo'ladi. Bu jarayon, albatta, o'quv mashg'ulotlari tarkibiga kiradi va bunda maqsad umumiy sayohat emas, balki muayyan mavzuning yakuni sifatida mustaqil ijodiy va amaliy topshiriqlarni bajarishdan iborat bo'lishi kerak. Bu loyiha tayyorlash, ijodiy ish yozish, slydlar yaratish, videoroliklar tayyorlash, gid rolli o'yini ishtirokchisi kabi muzey-darslarga qo'yiladigan talablar majmuini tashkil qiladi. Bu o'rinda xorijiy mamlakatlar, MDH davlatlarida muzey-darslar hatto o'quv rejasiga kiritilganligini qayd etish mumkin. Jumladan, muzey-darslarni tashkil etish talablari va shakllarini ishlab chiqqan nemis olimi G. Froydental muzey-darslarning samarali shakllari ommaviy, guruhli va individual bo'lishi mumkinligini ta'kidlab:



– **ommaviy shakli** – teatrlashtirilgan sayohatlar, sayllar, kechalar, olimpiada, yozuvchi, shoir va ularning avlodlari bilan uchrashuvlar, anjumanlar, viktorinalar, debat, ma’ruza, muzey va shaharlarga sayohatlar;

– **guruhiy shakli** – to’garaklar, jurnallar nashr qilish, muzeylarga sayohatlar marshrutini tuzish, videofilmlar tayyorlash;

– **individual shakli** – arxiv hujjat materiallari, ma’ruzalar, referatlar, taqdimotlar tayyorlashdan iborat bo’lishini bildirgan [24; 53–59-b.].

Qayd etish joizki, rus guruhlarida o’zbek tilidan bilim darajasi turlicha bo’lgan talabalar tahsil oladilar va bu ta’lim jarayonini ancha qiyinlashtiradi. Mustaqil ishlar talabalarga ularning bilim darajasiga mos topshiriqlar berish, bilim darajasi past talabalar bilan ko’proq shug’ullanish va ularni boshqa talabalarga yetkazib olish imkoniyatini ham beradi.

**Sayohat-darslar** muzey-darslardan farqli ravishda ko’p hollarda gid-ekskursovodsiz tabiiy va virtual shakllarda tashkil etilishi mumkin. Sayohat-darsni tashkil etishdan oldin o’qituvchi har bir talabaga alohida yozuvchi va shoirlar hayoti va ijodi haqida so’zlab berish, asarlari haqida gapirish, she’rlar yodlab kelish kabi topshiriqlarni beradi. Talabalarni oldindan tayyorlash sayohat darsining natijaviyligini ta’minlaydi. Talabalar sayohat-dars jarayonida oldindan berilgan topshiriqlar bo’yicha adiblar hayot yo’li va boy ijodi haqida ma’lumotlar berishadi, ijodlaridan namunalar keltirishadi.

Huddi shu kabi **teatr-darslar** ham nafaqat tarbiyaviy, balki ta’limiy jihatdan ham nihoyatda samaraliligi bilan ajralib turadi. Keyingi vaqtlarda avvallari darsdan tashqari mashg’ulot sifatida o’tkaziladigan ushbu ish turlari dars maqomini olmoqda. Teatr-darslarining boshqa darslardan farqi talabalar professional ijrochilar bilan yaqindan tanishadilar, ularni katta sahnada ko’rib, ijrolarini eshitadilar. Teatr-darslarda talabalar qahramonlar nutqida o’zbek tilining jozibasini, adabiy tildagi ifoda shakllarini eshitganlari uchun ta’siri kuchli bo’ladi.

Aynan aktyorlar nutqi orqali monologik nutqning qo’llanilishi va xususiyatlari (ifodaviyligi, ta’sirchanligi, mantiqiyligi, sofligi, izchilligi) bilan tanishadilar, tilga bo’lgan qiziqishlari ortadi. Uy topshirig’i sifatida o’ziga yoqqan personajning monologik nut-

qini tahlil qilish, muzey-dars va teatr-darslarni sayohat-darslaridan oldin tashkil qilish talabalarni o'zlari gid rolini bajarishga ham tayyorlaydi. Bunday darslar har semestrda 1–2 martadan tashkil etilsa, darsning bir xil tarzda ketishidan qutqaradi, talabalarning o'zbek tiliga qiziqishini yanada kuchaytiradi, kommunikativ kompetensiyasini o'stirishga yordam beradi, talabalarning faolligi va ijodkorligini oshiradi (118–120).

### **Tabaqalashtirilgan guruhlarda ishlash.**

Bunda o'quvchilarni guruhlariga ajratishda ularni til bilish darajasiga ko'ra tabaqalashtirilgan A va B guruhlariga ajratish, A guruhiga til tajribasi bor o'quvchilarni kiritib, ular bilan o'zbek tili ta'limini 1-yo'nalishda olib borish, B guruhida – til tajribasi mavjud bo'lmagan o'quvchilar bilan esa ta'limni 2- yo'nalishda tashkil etish maqsadli bo'ladi. Har bir guruhga mos mashq va topshiriqlar berish orqali o'zbek tilini muayyan darajada biladigan o'quvchilar bilan ham, o'zbek tilini yaxshi bilmaydigan o'quvchilar uchun ham samarali bo'ladi.

Tillarni o'qitishning bunday tabaqalash shaklida ham hamkorlik shakli, ham o'quvchilar bilan individual, yakkama-yakka ishlash shakli orqali B guruhdagi yaxshi yutuqlarga erishgan va til ko'nikmalari rivojlana boshlagan o'quvchilarni A guruhga o'tkazish imkonini beradi. Til o'qitishni tabaqalashtirilgan guruhlarda tashkil etishda:

- talabalar yosh psixologiyasi, dunyoqarashi hamda madaniy muvofiqligi;
- til materiallarining talabalari bilim darajasiga muvofiqligi;
- til materiallarini til tajribasi mavjud va mavjud bo'lmagan o'quvchilar bilan ishlashga mos holda tuzilishiga alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, darslarda bunday interfaol usullardan foydalanish talabani mustaqil izlanishga, ularning ijodkorlik faoliyatining rivojlanishiga, eng muhimi, darslarda berilayotgan grammatik va leksik materiallarni amalda tatbiq etishga harakat qilishga yordam beradi. Bu kabi darslar o'qituvchidan tashkilotchilik, xolislik va hushyorlik bilan talabalarni boshqarib turishni talab qiladi, chunki darslarni bir xil usulda o'tish talabalardagi qiziqishni so'ndiradi, darslarning zerikarli bo'lishiga olib keladi.

### 12.3. O‘zbek tilini an’anaviy va masofaviy o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish

Bugungi kunda jamiyatda axborot texnologiyalari va chet tillarni bilish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, chet tilni bilish internet global tarmog‘i materiallaridan samarali foydalanish, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari va multimedia o‘qitish vositalari bilan ishlash imkoniyatini beradi. Jumladan, o‘quv audio va videomateriallar ularni yaratish va ishlov berish vositalari bilan ishlashni bilishi va ulardan foydalana olishi; ochiq ta‘lim manbalari, masofaviy, virtual, yuzma-yuz va distant ta‘lim integratsiyasi, chet tilidagi onlayn muhokamalar va offlayn til o‘rganish, elektron kitoblar, elektron manbalar, elektron kurslarni va onlayn-perezentatsiyalarni yaratish kabilar bugungi kunda barcha ta‘lim bosqichlarida zaruratga aylangan.

Xususan, oliy ta‘lim muassasalarida “MOODLE” (Modular Object Oriented Dynamic Learning Environment) elektron ta‘lim platformasi, “LMS” (Learning Management System) bevosita ta‘lim jarayonini boshqarish, “CMS” (Content Management System) ta‘lim manbasini boshqarish tizimlari asosida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va multimedia vositalaridan keng foydalanish joriy etilgan. Respublikamiz ta‘lim muassasalarining “ZiyoNet” axborot tarmog‘i bilan uzviy bog‘langanligi ham professor-o‘qituvchilar va talabalarga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Axborot texnologiyalari vositasida talabalar bilan turli masofaviy ko‘rinishlarda, jumladan, MOODLE tizimi, telegram kanallari va boshqa tizimlar orqali muloqotga kirishish orqali online ta‘limning yo‘lga qo‘yilishi, o‘z navbatida, masofaviy ta‘lim mazmunini o‘quv materiallari bilan boyitish ehtiyojini keltirib chiqardi. Videodarslarni tayyorlashda o‘ziga xos talablar qo‘yiladi:

- videodars sifatli ko‘rinish va ovozga ega bo‘lishi;
- darsni ko‘tarinki ruhda, qiziqarli bo‘lishini ta‘minlash maqsadida mavzuga oid turli rasm va qo‘shiqlardan foydalanish;
- dars jarayonida Power Point slaydlaridan (agar imkoni bo‘lmasa, ko‘rgazmali materiallardan) foydalanish;
- ma‘lum bir qoida yoki til konstruksiyasiga bag‘ishlangan qisqa metrajli dars o‘tish ham mumkin.

Video va videoroliklar uchun material tanlashdan oldin, chet tilini o'quvchi-talabalarning tilini bilish darajasi ko'zda tutilishi lozim. An'anaviy sinf-dars shakliga qiyos qilganda mobil ta'lim qator afzalliklarini namoyon qiladi. Mobil ta'lim ta'limni hayot va ish bilan uzviy olib borish imkonini beradi va o'qish bu faqat maktab, universitet yoki boshqa statsionar muassasada ta'lim olish degan tushunchani inkor qiladi.

Odatda mobil ta'lim uchun quyidagi qurilmalar qo'llaniladi: mobil telefonlar; shaxsiy audio qurilmalar, masalan, MP3 / MP4 pleerlari; yengil ko'chma kompyuterlar, masalan, planshet kompyuterlar, netbuklar va h.k. Mobil ta'lim qurilmalar turlari kun sayin ko'payib bormoqda: raqamli diktofonlar, elektron kitoblar va lug'atlar, shuningdek, imkoniyatlari cheklangan talabalar-ga yordamchi texnologiyalar. Qurilmalar ko'p funksiyali bo'lib, audio va video materiallarni tinglash va ko'rish, o'qish, yozish, axborot-ma'lumot olish, hisob-kitoblarni bajarish kabi vazifalarni bajaradi. Odatda o'smirlar mobil telefonlar va shaxsiy mediapleerlardan, katta yoshdagi talabalar shaxsiy kompyuterlar, smartfonlar va noutbuklardan foydalanishadi.

Mobil ta'lim ko'pincha talabalarga audio materiallar taqdim qilish, matn almashish, so'rovlarda qatnashish, konspektlarni ko'rish imkoniyatini beradi va yangi aloqa vositalari bilan hamkorlikni ta'minlaydi, o'quv mashg'ulotida va darsdan tashqari mashg'ulotlar orasida, tanaffusda, yo'lda o'rganish uchun qulay bo'lib, muayyan masofadan turib yangi ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatini beradi.

Distant ta'lim imkoniyatiga ko'ra, elektron ta'lim resursi, elektron darslik vositasida til ta'limini tashkil etishda talabalar uy vazifalarini interfaol tizimda uylarida yoki kompyuterdan foydalanish imkoni bo'lgan joyda bajaradilar. So'ngra bajarilgan vazifani yozib olish vositasiga ko'chirib oladilar va natijalarni o'qituvchi tomonidan ko'rib baholanishi uchun ta'lim muassasasining yuqorida qayd etilgan ta'lim platformalariga joylashtiradilar. Ularga o'qituvchi tomonidan tekshirilib, topshiriqning bajarilishi bo'yicha tegishli ko'rsatmalar beriladi. Talabalar uy vazifalarini ham masofaviy ta'lim sharoitida bajarishlari mumkin. Bu esa talabalarga har bir bajarilgan vazifani o'qituvchi yordamisiz baholash va o'ziga baho berish imkoniyati, til tuzilishi bo'yicha bilimlar va asosiy

nutq ko'nikmalarini interfaol tizimda o'qituvchi yordamisiz olish imkoniyatini beradi. O'z navbatida o'qituvchiga auditoriyada mu-loqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat turlari bilan shug'ullanish imkonini beradi.

Har bir bajarilgan mashg'ulot baholash yo'li bilan rag'batlantiriladi, talabalar materialni maksimal ballarda o'zlashtirishga harakat qiladilar, talaba olingan natijalardan qoniqish hosil qil-maguncha mashg'ulotni takroran bajaraverishi mumkin. Bunda o'qituvchilar o'zlariga suratlar, grafiklar, rasmlar, autentik video-fimlardan iborat elektron tarqatma materialni ishlab chiqish; dars-liklardan olingan mavjud materiallarni elektron versiyaga aylanti-rish; bilimlarni masofadan turib internet yoki mahalliy tarmoq yor-damida baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Dasturiy mahsulot boshqa fanlar bo'yicha huddi shunday distant elektron interfaol darslik ishlab chiqish uchun imkoniyatlar beradi.

Matnli topshiriqlarning kashf qilinishi didaktik materialni yet-kazib berishda yangi davrni boshlab berdi. Jumladan, agar elek-tron darsliklarning poligrafik turi uchun didaktik materialni yet-kazishning bunday shakli juda beso'naqay, matn hajmining had-dan tashqari ortib ketgani bois axborot qidirishni sekinlashtirgan bo'lsa, ya'ni interfaollik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, unda kompyuter texnologiyalarining paydo bo'lishi bilan material yetkazishning bunday shakli elektron darsliklarning yangi turida mustaqil ishlarni onlayn o'z o'rnini mustahkam egallab oldi.

Distant ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari-ning ushbu imkoniyatlaridan unumli foydalanish taqozo etiladi:

#### **DISTANT TA'LIM SHAROITIDA ELEKTRON VOSITALAR**

**O'QUV VIDEOFILMLAR**

**MUSIQIY  
VIDEOFILMLAR**

**BADIIY VA HUJJATLI  
FILMLAR**

**REKLAMALAR**

**MULTFILMLAR**

**VIRTUAL  
VIDEO-SAYOHATLAR**

**TV YANGILIKLARI**

**TV SHOULARINING VIDEO  
YOZUVLARI**

Audio-video materialni Power Point tizimida amalga oshirish texnik afzalliklarini e'tirof etish joiz. Bunda o'qituvchi ortiqcha

vaqt va kuch sarflamasdan jarayonni bir necha marotaba amalga oshirishi mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchi namoyish taxtani (doskani) doimiy ravishda bezatishdan qutiladi. Elektron taqdimotlar ko'rinishida namoyish etilgan material tovush jo'rli va video tasvirlar hamda animatsiya effektlari hisobiga talabalarning o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. O'qituvchi esa autentik holda taqdim etilayotgan audio yoki video til materiallarida talabalar ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan elementlarni taqdim etib borishga erishadi.

Multimediyaviy taqdimot bugungi kunda eng zamonaviy axborot taqdim etish vositasi bo'lib, bu dasturiy mahsulot matnli materiallar, fotosuratlar, suratlar, slayd-shoular, tovushli bezak va suxandon jo'rli, videolavhalar va animatsiya va grafikadan iborat bo'lishi mumkin. O'quv jarayonida multimediya taqdimotlarini ishlab chiqish uchun Microsoft Office to'plamining Power Point standart ilovasi ishlatiladi. Biroq Power Pointdan foydalanishda, agar pedagog uning resurslaridan o'quv rejasiga muvofiq savodxonlik bilan qo'llashni bilsagina, eski darslar rejalaridan yangidan foydalanish imkonini beradi va talabalar motivatsiyasini oshirishi mumkin.

Talabalar kompyuter texnologiyalarini yaxshi tushunishlariga qaramay, ularga Power Point taqdimotni tayyorlash bilan bog'liq asosiy jihatlar haqida ma'lumot berib o'tish zarur. Har qanday taqdimot uchun slaydlarini tayyorlashdan avval quyidagilarni aniqlab olish lozim bo'ladi:

- taqdimotning maqsadi, uning mavzusi, slaydlarning taxminiy soni;
- slaydlarning mazmuni;
- har bir slaydning grafik bezagi;
- bayonning savodlilik darajasi;
- axborotni qanday qilib bo'lsa ham imkon qadar ta'sirchan taqdim etish.

Shuni qayd etish kerakki, talabalarga o'quv materiali va ko'zda tutilgan dars maqsadini to'laligicha va jozibador tarzda yetkazib berishda taqdimotning sifati katta ahamiyatga ega.

Axborot texnologiyalari an'anaviy darslarda ham, masofaviy ta'limda ham autentik video materiallar bilan ishlashga keng imkoniyatlar yaratadi. **Autentik video materiallar** – bu til sohiblari uchun mo'ljallangan, odamlarning har qanday faoliyati bilan

bog‘liq va hayot muhitida aloqa vositasi sifatida tilning va jamiyat hayotining barcha sohalariga oid lingvistik va ekstralingvistik ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan, videomateriallarning vizual va ovozli kombinatsiyasi bo‘lib, ular multimedia ishlanmalari uchun boy material hisoblanadi. Qayd etganimizdek, bunday materiallardan oflayn sharoitida ham, onlayn ta’limda ham foydalanish mumkin, biroq autentik videomateriallardan foydalanish samaradorligi mashg‘ulotni maqsadli tashkil etilishiga bog‘liq.

So‘nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalar (kompyuter, televedenie, radio, kserokopiya, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta’lim jarayonini tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, o‘zbek tilni o‘qitishda aynan autentik video materiallardan foydalanishga qaratilgan quyidagi metodlarni qo‘llash mumkin:

**“Kinotopishmoq” metodi.** O‘quvchilarga televizor orqali autentik video materiallar – ayrim filmlardan parchalar ko‘rsatiladi. O‘quvchilar ushbu parcha qaysi filmdan olinganligi, film mazmunini qisqacha so‘zlab berishlari, aktyorlar, adib haqida ma’lumot berishlari kerak. Taqdim qilinadigan film o‘zbekfilm namunalaridan biri bo‘lishi va u o‘zbek tilida namoyish qilinishi shart. Bu boshqa millat vakillarining ushbu filmlarni o‘zbek tilida tomosha qilishga qiziqish uyg‘otish, O‘zbekiston san’ati va adabiyoti namoyondalari bilan tanishib borishlariga motivatsiya bo‘lib xizmat qiladi.

**“Videotopishmoq” metodi.** Ushbu metoddan foydalanish uchun:

- o‘quvchilar e’tiboriga o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydilar;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etadilar;
- o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradilar va mavzuni xulosalaydilar.

**“Dublaj” metodi.** Ushbu metoddan foydalanishda ham videolavhalar yoki kinofilmlardan parchalar taqdim qilinadi. Birinchi taqdimotdan so‘ng ushbu taqdimlar ovozsiz holatda beriladi va talabalardan ularni ovozlashtirib berish so‘raladi. Buni amalga oshirish talabalar birinchi taqdimotni diqqat bilan kuzatishlar, per-

sonajlarning soʻzlarini, gap ohangini eslab qolishlari va asliyatdagidek takrorlab berishlari kerak boʻladi. Talabalarga yozib olish imkoniyati beriladi.

**“SMS yozish” metodi.** Bugungi kunda bunday yozishmalar oʻqish-yozishni biladigan har bir insonning ham shaxsiy, ham xizmat yozishmalari sirasida tezkor va oson muloqot vositasi hisoblanadi va keng ommaviylashgan. Biroq shaxsiy xatlarda, hatto telegrammlar orqali ommaga qarata yozilayotgan ochiq xatlarda ham savodli yozilgan xatlarning deyarli uchramasligini, ularda imloviy-uslubiy xatolarning, jonli soʻzlashuv nutqi bilan adabiy til meʼyorlarini farqlamaslik, yozma nutq qoidalarini bilmaslik yoki ularga mutlaqo rioya qilmaslik holatlarining nihoyatda koʻp. Ushbu metod oʻquvchilarga bir-birini va oʻz-oʻzini nazorat qilish va xatolarga eʼtiborliroq boʻlishga oʻrgatadi.

**5-mashq.** Bir-biringizga “SMS” xatlar yozing. Imloda yoʻl qoʻygan xatolaringizni quyidagi jadvalda aks ettiring.

SMS muallifi	Bosh harflar imlosi	Tinish belgilaridagi xatolar	Gap tuzilishidagi xatolar	Soʻz qoʻllashdagi xatolar	Qoʻshimcha qoʻllashdagi xatolar

**(8-sinf, 14-mavzu)**

Elektron darsliklarni mustaqil taʼlim sharoitida toʻliq va anʼanaviy dars mobaynida qisman uygʻunlashgan tarzda olib borilishi taʼlim olishning intensivlashishiga olib keladi. Natijada, bugungi kunda har bir pedagog oldiga qoʻyilayotgan talablar, yaʼni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tadbqiq qilish imkoniyati yaratiladi. Turli interfaol usullardan foydalanish, talabalarni dars jarayonida faol ishtirokchiga aylanishlariga olib keladi.

**Savol va topshiriqlar:**

1. “Taʼlim texnologiyasi” va “taʼlim metodikasi” tushunchalari maʼno-larini tushuntiring.
2. Hamkorlik texnologiyasining asosida nima yotadi?
3. Hamkorlikning faol, nofaol va interfaol turlari haqida maʼlumot bering.
4. Til taʼlimida qoʻllanadigan interfaol taʼlim metodlari haqida soʻzlab bering.



5. Rolli o‘yinlar vositasida qanday ko‘nikma-malakalar shakllantiriladi?
6. Grafik organayzerlar darsning qaysi bosqichida va qanaday kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida qo‘llanadi?
7. Tillarni o‘rgatishda axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyotning amaliy ahamiyati haqida so‘zlab bering.
8. An‘anaviy onlayn mashg‘ulotlarda til ta‘limi darslarini axborot texnologiyalari yordamida tashkil etish usullari haqida ma‘lumot bering.
9. Masofaviy ta‘limda tillarni o‘rganishda axborot texnologiyalarini qo‘llashning didaktik jihatlarini qanaday?
10. Distant ta‘lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarining quyidagi imkoniyatlari haqida so‘zlab bering.
11. Autentik video materiallar va ularning til ta‘limidagi o‘rni haqida so‘zlang.
12. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar turlari va ularni tashkil etishning didaktik jihatlarini haqida ma‘lumot bering.
13. Muzei-darslarning shakllari va ularni samarali tashkil etishning metodik jihatlarini haqida so‘zlang.

#### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M.. Pedagogik texnologiyalarning tabiiy asoslari. - T.: Fan, 2006. - 13-b.
2. Karimova V. Psixologiya. – T., 2002, 203-b.
3. Muxitdinova X.S. O‘zbek tilini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari (monografiya). – T.: VNESHINVEST, 2021.
4. Юсупова Г.А. Бўлажак педагогларнинг лингвистик компетенцияларини шакллантиришда аралаш таълимдан фойдаланиш методикаси (ўзбек тили машғулоти учун “Саводхон” электрон-таълим ресурслари мисолида): Ped. fan. ...fals. dokt. (PhD). – 2020.
5. Салишева З. Ўзбек тили машғулотида талабалар монологик нутқини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш (рус гуруҳларида): Пед. фан.... фалсафа доктори (PhD) дис. – Тошкент, 2019. – 59–61-б.
6. 6-sinfda o‘zbek tili darslari (o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma) Tuzuvchilar: Muxitdinova X., Avlakulov YA., Nuriddinova D. – Toshkent: Mitti yulduz, 2013.
7. 7-sinfda o‘zbek tili darslari (O‘qituvchi kitobi). Tuzuvchi: Muxitdinova X.S. –Toshkent: O‘qituvchi, 2013.
8. 8-sinfda o‘zbek tili darslari (O‘qituvchi kitobi).Tuzuvchi: Muxitdinova X.S. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006.
9. O‘zbek tili (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma, 10-sinf ). Tuzuvchilar: Tolipova F., Aydarova F. – Toshkent: Zamin-nashr, 2020.
10. Amaldagi “O‘zbek tili ” darsliklari.

## 13-MAVZU. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASH

### REJA:

1. O‘zbek tilini o‘qitishda vaziyatli topshiriqlardan foydalanish.
2. O‘zbek tilini o‘qitishda keys texnologiyalardan foydalanish.

**Tayanch tushunchalar:** kompetensiyalarni shakllantirish, ijodiy mashqlar, yarim ijodiy mashqlar, to‘liq ijodiy mashqlar, vaziyatli topshiriqlar, fanlararo aloqa, muammoli ta’lim, hamkorlikka asoslangan ta’lim, individual ta’lim, keys texnologiyalari.

### 13.1. O‘zbek tilini o‘qitishda vaziyatli topshiriqlardan foydalanish

Yangi avlod darsliklariga qo‘yilayotgan asosiy talablardan biri – o‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni turli vaziyatlarda amaliy qo‘llashga doir kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Shundan kelib chiqib, amaldagi “O‘zbek tili” darsliklariga kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan quyidagi turdagi mashq va topshiriqlar kiritilgan:

- mustaqil fikrini, o‘z munosabatini bildirishga qaratilgan mashqlar;
- yarim ijodiy va ijodiy mashqlar;
- vaziyatli topshiriqlar;
- fanlararo aloqalarga yo‘naltirilgan topshiriqlar;
- o‘tilganlarni umumlashtirish va avvalgi ma’lumotlardan farqli jihatlarini aniqlash;
- o‘zini o‘zi tekshirishga qaratilgan topshiriqlar.

Yuqorida ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o‘quv-biluv topshiriqlaridan bosqichli ketma-ketlikda foydalanish haqida fikr yuritgan edik. Ushbu o‘quv-biluv topshiriqlarining **oltinchi bosqichida** egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni turli vaziyatlarda amaliy qo‘llashga doir kompetensiyalarni shakllantirish, shu jarayonda o‘quvchilarning mustaqil fikrini rivojlantirish, muammoli masalalarga o‘z qarashlari asosida muayyan fikr bildirdish, yechim berish ko‘nikmalarini shakllantirish ko‘zda tutilgan bo‘lib, darsliklarda o‘quvchilarning **mustaqil fikr, munosabatini bildirishga** qaratilgan quyidagi kabi topshiriqlar berilgan:

**4-topshiriq.** Haqiqiy do‘stga berilgan ta’riflarni o‘qing. Sizda shu xususiyatlarning qaysisi bor bo‘lsa, ularni belgilab boring.

Haqiqiy do‘st:

- bilganini sendan sir tutmaydi;
- g‘amli va shodon kunlarda o‘zgarmaydi;
- o‘zgalar g‘iybatiga ishonib munosabatini o‘zgartirmaydi;
- arzimas aybga xafa bo‘lib, arazlab yurmaydi;
- aybsiz do‘st qidirmaydi;
- do‘stidan narsa ayamaydi;
- do‘sti o‘zidan o‘zib ketsa quvonadi;
- do‘stining boshiga kulfat kelsa, yonidan ketmaydi.

(7-sinf, 3-mavzu)

**3-topshiriq.** Matnlarni o‘qing. Har biriga o‘z munosabatingizni bildirgan holda berilgan savollarga javob bering.

1. Nozima avtobusda o‘tirib ketayotgan edi. Bekatdan bir kishi avtobusga chiqdi. Nozima u kishiga joy berdi va o‘zi o‘rtog‘i Munisaning yoniga borib turdi. Shunda Munisa sekingina Nozimadan so‘radi: “Nimaga joy berding, o‘qituvchingmi?”

*Ayting-chi, Munisa kimlarga joy berish kerak deb o‘ylar ekan?*

2. Behzod hashamatli sirk binosi oldiga kelgandagina chiptani uyda unutib qoldirganini bildi. U shosha-pisha yana iziga qaytdi. Avval metroga, so‘ng avtobusga chiqib, uyiga borib keldi. Ayting-chi, bu parishonxotirlik Behzodga qanchaga tushdi?

*Sizningcha, parishonxotirlik nimaning oqibati?*

(7-sinf, 5-mavzu)

Darsliklarda ijodiy mashqlarni bajarishga keng o‘rin berilgan bo‘lib, ularni topshiriq mazmunidan kelib chiqib, **yarim ijodiy mashqlar va to‘liq ijodiy mashqlarga** bo‘lish mumkin. Yarim ijodiy mashqlarga maqol yoki hikmatlarning ikkinchi qismini topib yozish, berilgan matnni yoki suhbatni davom ettirishga qaratilgan mashqlarni, to‘liq ijodiy mashqlarga esa berilgan sarlavha, rasm asosida matn tuzish bo‘yicha mashq va topshiriqlarni kiritish mumkin. Amaldagi maktab darsliklarida quyidagi kabi yarim ijodiy mashqlarni kuzatish mumkin:

**4-mashq.** Nuqtalar o‘rniga o‘z shahringiz yoki qishlog‘ingizning nomini yozib, matnlarni davom ettiring.

Men ... shahridanman. Shahrimiz ... tumani markazi hisoblanadi. U unchalik katta emas, lekin ozoda va ko'rkam. Bizning shahrimizda katta do'konlar, shifoxonalar va maktablar bor. Shahrimizda ...

Men ... qishlog'idanman. Bizning qishlog'imiz tog' etagida joylashgan. Uning tabiati go'zal, havosi toza. Qishlog'imizdan katta soy ham o'tadi. Bizning uyimiz ...

(7-sinf, 1-mavzu)

**4-mashq.** Birinchi ustundagi maqollarning davomini ikkinchi ustundan topib yozing. Ularda nimalar targ'ib qilingan?

Bilmaganin so'rab o'rgangan olim,	kulfat seni chetlab o'tadi.
Boshqalarga yordam bersang,	olam seniki.
Yaxshi so'z eshitmoqchi bo'lsang,	hech kimga dushmanlik qilma.
Qatra-qatra yig'ilib, daryo bo'lur	Yomonning yomonligi tegar tor yerda.
Olim bo'lsang,	yomon gap aytma.
Agar do'stim ko'p bo'lsin desang,	orlanib so'ramagan o'ziga zolim.
Yaxshining yaxshiligi tegar har yerda,	oz-ozdan o'rganib, dono bo'lur.

(11-sinf, 2-mavzu)

**5-mashq.** Publitsistik maqolani o'qing va berilgan savollar asosida suhbatlashing.

### Xalq ustalariga e'tibor

O'zbekistonda hunarmandchilik qadimiy an'analarga ega va asrlar davomida taraqqiy etib kelmoqda. Xalq ustalari tomonidan ishlangan me'moriy obidalar, hunarmandchilik buyumlari shakli va naqshlarining mukammalligi bilan hamon dunyo ahlini lol qoldirib kelmoqda.

Mustaqillikka erishilgach, xalq ustalariga katta e'tibor berila boshlandi. Moddiy meroslar va qadimiy an'analarni asrab-avaylash, hunarmandlarga yordam ko'rsatish yuzasidan qarorlar qabul qilindi. Qator xalq ustalari O'zbekiston Badiiy akademiyasi a'zolari etib saylandi, "O'zbekiston xalq ustasi" unvoni ta'sis etildi, "Hunarmand" xalq ustalari uyushmasi tashkil etildi. Zargar Fasihiddin Dadamuhamedov, ganchkor usta Mahmud Usmonovlar birinchilardan bo'lib mazkur unvonga sazovor bo'lgan hunarmandlardir.

*Siz shunday ustalardan kimlarni bilasiz? Xalq ustalarining nomlari bilan ataladigan qaysi ko‘chalarni bilasiz?*

**(8-sinf, 9-mavzu)**

**To‘liq ijodiy mashqlar** matni mustaqil yaratishga qaratilgan bo‘lib, odatda, mustaqil ish sifatida yoki uyga vazifa sifatida beriladi. Bunda o‘quvchiga mavzuga mos rasm, sarlavha, maqol kabi tayanch nuqtalar asosida matn yaratish topshirig‘i qo‘yiladi. Yuqoriroq sinflarda o‘quvchiga tanlash imkoniyatini yaratish uchun, bir nechta mavzu sarlavhasi yoki maqollar berish maqsadli bo‘ladi. Shuningdek, adabiy o‘qish materiallari yoki nutqiy mavzu bo‘yicha berilgan matnlarga munosabatni bildirishga qaratilgan topshiriqlarni ham ijodiy mashqlar turiga kiritish mumkin. Bunday mashqlar o‘quvchida ijodkorlik, mustaqil fikr bildirish, tanqidiy baholash qobiliyatlarini va o‘quvchining og‘zaki va yozma bog‘lanishli monologik nutqini rivojlantirishga zamin yaratadi.

O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirish, mavzu asosida egallagan ta‘limiy va tarbiyaviy bilimlarni muayyan vaziyatda amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishda **vaziyatli topshiriqlarning** o‘rni nihoyatda katta. Vaziyatli topshiriqlarda o‘quvchining yosh xususiyatiga mos holda ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik muammolar, atrof-muhitga, tabiatga munosabat, muomala-muloqot yuritish, axloq-odob me‘yorlariga rioya qilishda uchraydigan ayrim muammolar berilib, o‘quvchini loqayd bo‘lmaslikka undaydi, ularning shaxsiy munosabatini shakllantiradi, etikasini tarbiyalaydi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishga, ya‘ni ijtimoiylashuviga olib keladi. Jumladan, darsliklarda quyidagi kabi vaziyatli topshiriqlar berilgan:

**2-topshiriq.** Vaziyatli test topshiriqlarini o‘qing va ularga javob bering.

1. Siz koridorda o‘tib ketyapsiz, hech kim yo‘q xonada chiroq yonib turibdi. Siz qanday yo‘l tutasiz?

A. *E‘tibor bermaysiz.*

B. *Chiroqni o‘chirasiz.*

D. *Shu sinf o‘quvchilarini ogohlantirasiz.*

2. Ba‘zilar jumrakdan suv oqizib qo‘yadilar yoki jo‘mrakni burab qo‘yishni unutadilar. Natijada suv oqib yotaveradi. Shunda siz qanday yo‘l tutasiz?

*A. Bir mengagina kerakmi.*

*B. Jo 'mrakni kim ochgan bo 'lsa, o 'sha yopsin.*

*D. Darrov jo 'mrakni yopaman.*

(7-sinf, 14-mavzu)

Ayrim hollarda vaziyatli topshiriqlarga variantli javoblar, keys usullarida berilgan javob variantlari ham kiritilganki, bular o'quvchilarni mushohada qilishga undaydi, ularning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Masalan:

1. Yo'lda opa-uka – Lola va Anvar borishardi. Ulardan oldinda esa bir kampir borardi. Kampir yo'lda karmonchasini tushirib qo'ydi. Anvar buni ko'rib qoldi va engashib karmonni oldi-da, yugurib kampirga olib bordi:

– Buvi, karmonchangizni oling, – dedi.

Kampir karmonni olib cho'ntagiga soldi va yo'lida davom etdi. Anvar orqasiga qaytdi va opasiga: “Nega u rahmat demadi?” – dedi.

(“G'uncha”dan)

*Bolalar, kampir nega Anvarga rahmat demadi? To'g'ri javob qaysi?*

1. Kampir keksa bo'lgani va yaxshi gapira olmagani uchun.
2. Kattalar kichiklarga rahmat demaydilar.
3. Halollik – barchaning burchi. Anvar o'z burchini bajardi, shuning uchun unga rahmat aytish shart emas.

2. Saxiy bir podshoh bor edi. Uning bir quli bor bo'lib, u podshohga sirdqidildan xizmat qilar edi. Bir kuni podshoh bazm beribdi. Ovqat tortish vaqtida favqulodda xizmatchining oyog'iga tosh tushib ketibdi va xizmatchi issiq ovqatni podshohning boshiga to'kib yuboribdi. Odamlar:

– Podshoh endi uni o'ldiradi. U og'ir gunoh qildi, – deb o'ylashibdi.

Podshoh esa shunday ish tutibdi....

(“Hayrat-ul abrор”dan)

*Siznigcha, podshoh qaysi usulni tutgan?*

1. Qulining hafaligini, o'ta hijolat chekayotganini ko'rib, uni kechiribdi.

2. Hammaning ko‘zi oldida mulzam bo‘lgani uchun, qulni o‘limga buyuribdi.

3. “Xijolatning o‘zi uni o‘ldirib bo‘ldi. Hech kim o‘lgan o‘likni qaytadan o‘ldirmagan” – deb uni afv etibdi.

(7-sinf, 5-mavzu)

Ta’limga kompetensiyaviy yondashuv **fanlararo aloqalarni yo‘lga qo‘yishni**, dars jarayonida nafaqat avval o‘zlashtirilgan bilimlarni, balki shu sinfda parallel o‘qitilayotgan boshqa fanlar orqali olayotgan bilimlarini ham bevosita amaliy tatbiq etib borish ko‘nikma-malalalarini shakllantirib borishni taqozo etadi. Fanlararo aloqalarga yo‘naltirilgan topshiriqlar mavzu doirasida boshqa fanlardan o‘zlashtirilgan bilimlardan amaliy foydalanishga qaratiladi. Bunday topshiriqlar:

– boshqa fanlardan egallangan bilimlarni mustahkamlash;

– ulardan turli vaziyatlarda amaliy foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;

– o‘rganilgan so‘z shakllari va jummalarni shu vaziyatlarda erkin qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirib borishga xizmat qiladi.

Ko‘p hollarda tajribali va ijodkor o‘qituvchilar ish faoliyatlarida bunday topshiriqlarni qo‘llab keladilar. Barcha o‘qituvchilarni shu metodni faol qo‘llashga jalb etish, shuningdek, o‘quvchining o‘zini ham o‘qiyotgan fanlari orqali olayotgan bilimlaridan hayotiy vaziyatlarda qachon, qanday vaziyatlarda foydalanishi mumkinligini anglab yetishi, zarur o‘rinlarda ularni mustaqil qaror qabul qila olishi uchun bunday topshiriqlarni darsliklarga ham kiritib borish maqsadli bo‘ladi. Chunki darslik o‘quvchining ish quroli, uni shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladigan yo‘llanma kitob. O‘qituvchining vazifasi esa o‘quvchini shu darslikni o‘qishga va bilimlarni uqib olishga yo‘naltirishdir. Jumladan, kompetensiyaviy yondashuv asosida modernizatsiyalashgan “O‘zbek tili” tili darsliklarida quyidagi kabi topshiriqlar berib borilmoqda:

**6-topshiriq.** Berilgan jadvalni davom ettiring va bir kunda qancha suv ishlatishingizni aniqlang.

Ish turi	Men qancha suv ishlataman?	Bir kunda bu ishni necha marta bajaraman?	Bir haftada qancha suv sarflanadi?
Tishimni yuvaman	2 litr	2	$2 \times 2 \times 7 = 28$ litr

(7-sinf, 14-mavzu)

**3-mashq.** Oziq-ovqat sifatida ishlatiladigan o‘simliklarga namuna-dagidek ta’rif bering.

N a m u n a: *Bu – sabzi. U palov osh pishirish uchun albatta kerak bo‘ladi.*

Sabzi, isiriq, qalampir, kartoshka, rivoch, ukrop, pomidor, karam, lavlagi, baqlajon, piyoz, kashnich, sholg‘om, turp, zira, yalpiz, rayhon.

**(7-sinf, 7-mavzu)**

Demak, mavzular bo‘yicha berilgan matnlar ustida ishlashda, uyuq vazifa berishda fanlararo aloqaga oid topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarda shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, 8-sinfda “Ona yurt manzaralari” mavzusida o‘quvchilarga kuz faslida tabiatda yuz beradigan o‘zgarishlar, tabiat hodisalari haqida berilgan matnni quyidagi topshiriqlar yordamida “Zoologiya” fani bilan bog‘lash o‘quvchilarni shu fandan olgan bilimlaridan foydalanib, tabiat hodisalarini kuzatishga va ulardan ayrim xulosalar chiqarishga undaydi. Uyuq vazifani ham ushbu topshiriqqa bog‘lab berish o‘quvchilarning o‘z shaxsiy kuzatishlari natijalarini umumlashtirishga o‘rgatadi. Masalan:

**4-topshiriq.** Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

Siz suv ustida uchib yurgan tumshug‘i oq, qanotlari jigarrang qushchani ko‘rgan bo‘lsangiz kerak. Bu suv chumchug‘idir. Bu qushcha suv ustida to‘satdan paydo bo‘lib, oqimga qarshi suza boshlaydi. So‘ng birdan yo‘q bo‘lib qoladi. Bu payt u suv ostida ham suzib borayotgan bo‘ladi. Qushcha suv ostida oqimga qarshi suzadi va o‘ziga yemish qidiradi. Ham suvda suzadigan, ham osmonda ucha oladigan qushlar tabiat mo‘jizasi, albatta.

**Savollar:**

1. Siz tabiat hodisalarini, qushlarning uchishi, sayrashini kuzatganmisiz?
2. “Zoologiya” fanida qushlarning hayoti haqida nimalarni o‘rganganingiz haqida so‘zlab bering.

**Uyuq vazifa.** Tabiat hodisalarini kuzating. Berilgan fikrni davom ettirgan holda, “Kuz taassurotlari“ mavzusida matn tuzing.

**(8-sinf, 2-mavzu)**



Atrofimizni qurshab olgan tabiatdagi barcha narsalar va jon-zotlar tabiiy boyliklar hisoblanadi. Ularga daryolar, ko‘llar, dengizlar, o‘rmonlar, hayvonot dunyosi kiradi. Biz ushbu boyliklarni asrab-avaylasak, ulardan samarali foydalansak, ular yurtimizning ravnaqi uchun xizmat qiladi. Olimlarning fikriga qaraganda, ...

**Uyga vazifa.** “Geografiya“ fanidan olgan bilimlaringiz asosida O‘zbekiston yer osti boyliklari haqida ma’lumot tayyorlang.

**(8-sinf, 16-mavzu)**

**5-topshiriq.** Hovlingiz, ko‘changiz yoki tomorqangizda qanday daraxtlar bor? Ularni parvarishlash ishlarida siz qanday ko‘mak berasiz?

**Uyga vazifa.** Sevgan asaringizdan olgan taassurotlaringiz asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Asar va muallifning nomi	Ijobiy qahramonlardan nimalarni o‘rgandingiz?	Salbiy qahramonlardan qanday saboqlar oldingiz?
...	...	...

**(8-sinf, 7-mavzu)**

Kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar tizimli ravishda bosqichma-bosqich olib borilishi maqsadga muvofiq. Jumladan, 8-sinfda 3-mavzudagi 4–5-topshiriqlarni mantiqiy ketma-ketlikda bajarilishi talab etiladi:

**4-topshiriq.** Matni o‘qing. Matnda berilgan savollarga o‘ylab javob bering.

Bizni bozorlardagi to‘kin-sochinlik, dasturxonimizdagi qutbaraka nihoyatda quvontiradi. Biroq bularning orqasida qanday mashaqqatli mehnat turganini, qancha kasb egalari xizmati tufayli bunga erishganimizni barchamiz ham bilmaymiz. Bitta mevali daraxt necha yilda hosilga kirishini, uni ekish va parvarishlab o‘stirish uchun bog‘bon necha yil mehnat qilishini bilasizmi? Yoki poliz mahsulotlarini yetishtirish uchun dehqon jazirama yozda va sovuq izg‘irinli kunlarda qanday ter to‘kishini-chi?

Ana shu mehnatlarni tasavvur qilish, his qilish, bu ne‘matlarni qadrlashni, ulov qilmay ishlatishni ham o‘rgatadi.

**5-topshiriq.** “Botanika” fanidan olgan bilimlaringizni eslang va quyidagi jadvalni to‘ldiring. So‘ngra ushbu mevalarning foydali xususiyatlari haqida ma’lumot to‘plab, jadvalni to‘ldiring.

<b>Mevali daraxtlar</b>	Olma daraxti	Gilos daraxti	Anor daraxti	Shaftoli daraxti	Xurmo daraxti
<b>Necha yilda hosilga kiradi?</b>					

**(8-sinf, 3-mavzu)**

Kompetensiyaviy yondashuv asosida modernizatsiyalashgan “O‘zbek tili” darsliklariga bu kabi topshiriqlarning kiritilishi o‘quvchilarda turli fanlar orqali egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini turli hayotiy vaziyatlarda amaliy qo‘llash layoqatlarini shakllantirishga imkon yaratadi. Buning uchun mashq va topshiriqlarni biri ikkinchisini to‘ldirib boradigan bosqichli ketma-ketlikda joylashtirish va ularni o‘quvchilarga bajartirishda ham shu uzviylikka rioya qilish kerak bo‘ladi. Mashq va topshiriqlarni bularni e‘tiborga olmasdan tarqoq holda bajartirish kutilgan natijaga olib kelmaydi. Jumladan, 8-sinfda “Bug‘doy – rizq-ro‘zimiz” mavzusida 3-topshiriqda quyidagi she‘r va she‘r mazmunini aks ettiradigan syujetli rasmlar berilgan. Ushbu syujetli rasmlar asosida o‘quvchilar bug‘doydan un, undan non tayyorlash jarayoni bilan tanishadilar. Bug‘doy yetishtirish jarayoni, bug‘doydan un, undan xamir tayyorlash, non yasash va tandirda non yopish jarayonlari, g‘allakor dehqon, nonvoy mehnati haqida suhbatlashish she‘r mazmunini yaxshiroq tushunib olishga va nonning qanday mashaqqatli mehnat natijasi ekanligi, shuning uchun uning uvog‘ini ham qadrlash kerak ekanligini chuqur anglab yetishga yordam beradi.



**(8-sinf, 4- mavzu)**

Shuningdek, 2-darsda berilgan g‘alla yetishtiruvchi dehqon, nonvoylik kasblari haqidagi matnlar bilan tanishish, 4–5-topshiriqlar hamda 3-darsdagi 7–8-topshiriqlarda berilgan matnlar va savollar ham o‘quvchilarning nonni e‘zozlash va turli kasblarning hayotiy ahamiyatini anglab yetishga qaratilgan.

## 2. Mavzuni mustahkamlash bo'yicha savol va topshiriqlar.

Bunday topshiriqlar har bir mavzu oxirida beriladi va mavzudagi matnlar mazmuni va grammatik ma'lumotlardagi eng muhim jihatlar bo'yicha o'quvchilar egallagan bilim va ko'nikmalarni aniqlashga xizmat qiladi. Mazkur savol va topshiriqlar nutqiy mavzu yuzasidan berilgan matnlar mazmuni va ularda ilgari surilgan g'oyalar o'quvchilar ongiga qanchalik singdirilgani, o'quvchilar shu mavzu doirasida qaysi grammatik shakllar va vositalar bo'yicha bilimlar egallaganliklari, ushbu bilimlarni qo'llash ko'nikmalari qanchalik shakllanganini aniqlashga qaratilgan. Shuningdek, ayrim mavzular bo'yicha **o'zini o'zi nazorat qilish va baholashga qaratilgan testlar** ham berilgan. Test topshiriqlari odatda mavzu oxirida beriladi va ular turli tipda (sodda, murakkabroq) bo'lishi mumkin. Quyida darsliklarda berilgan savol va topshiriqlardan namunalar keltiramiz.

**5-topshiriq.** O'z-o'zingizni tekshiring va test javoblarini ayting. Berilgan asarlar o'zbek adiblaridan qaysi biri tomonidan yozilgan?

1.	“O'tkan kunlar”	A.	O'tkir Hoshimov
2.	“Navoiy”	B.	O'lmas Umarbekov
3.	“Ikki eshik orasi”	C.	Tohir Malik
4.	“Odam bo'lish qiyin”	D.	Muso Toshmuhammad Oybek
5.	“Shaytanat”	E.	Abdulla Qodiriy
6.	“Yulduzli tunlar”	F.	Abdulla Qahhor

**6-mashq.** Savollarga berilgan javoblardan mosini toping va nuqtalar o'rniga mos bog'lovchilarni qo'yib gaplarni ko'chiring.

1.	Kimnlarni yaxshi do'st deb hisoblash mumkin?	A.	Har bir gapingizni tasdiqlab turadigan insonlar laganbardor insonlardir, ..... ular haqiqiy do'st bo'la olmaydi.
2.	Har kuni yoningizda yuradigan insonni do'st deyish mumkinmi?	B.	Kamchiligimizni ko'rsatgan ... to'g'ri yo'lga boshlagan insonlar haqiqiy do'stlar hisoblanadi.
3.	Qanday insonlar do'stlikning qadriga yetadilar?	C.	Ko'pchilikning o'rtasida izza qilmaydigan ... kamchiligini o'ziga aytgan insonlar chinakam do'st bo'ladi.
4.	Sizni tanqid qilgan odam bilan do'st tutina olasizmi?	D.	Og'ir kuniingizda ham yoningizda turgan chinakam do'st hisoblanadi, .... chin dildan yordam beradigan samimiy insonlardir.

5.	Har bir gapingizni tasdiqlab, sizning yoningizni olib turgan insonlar haqiqiy do'st bo'la oladimi?	E.	Kamtar, samimiy, rostgo'y odamlar haqiqiy do'st bo'la oladilar, maqtanchoq, yolg'onchi, takabbur, laganbardor insonlar ... do'stlikning qadriga yetmayadilar
----	--	----	--

(8-sinf, 10-mavzu)

**6-topshiriq.** Nuqtalar o'rniga mos bog'lovchilarni qo'yib, savollarga mos javoblarni toping. Namuna: 1–D

1.	Kimlarni yaxshi do'st deb hisoblash mumkin?	A.	Har bir gapingizni tasdiqlab turadigan insonlar laganbardor insonlardir, ... ular haqiqiy do'st bo'la olmaydilar.
2.	Har kuni yoningizda yuradigan insonni do'st de-yish mumkinmi?	B.	Kamchiligimizni ko'rsatgan ... to'g'ri yo'lga boshlagan insonlar haqiqiy do'stlar hisoblanadi.
3.	Qanday insonlar do'stlikning qadriga yetadilar?	C.	Ko'pchilikning o'rtasida izza qilmaydigan ... kamchiligini o'ziga aytgan insonlar chinakam do'st bo'ladi.
4.	Sizni tanqid qilgan odam bilan do'st tutina olasizmi?	D.	Qiyinalganingizda yoningizda turgan inson chinakam do'st hisoblanadi, ... ular xolis ko'maklashadigan samimiy insonlardir.

(8-sinf, 14-mavzu)

Ko'rinadiki, amaldagi “O‘zbek tili” darsliklarida o‘quvchilarning egallangan bilim, ko‘nikma, malakalarni turli nutqiy va hayotiy vaziyatlarda amaliy qo‘llash layoqatlarini shakllantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar mavjud. Biroq ushbu topshiriqlarni bajartirishda dars jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, o‘quvchilarni fikrlashga, bahs-munozara yuritishga undashda o‘qituvchinig roli katta bo‘lib, o‘qituvchi topshiriqlar maqsadini to‘g‘ri anglagan holda darsni maqsadli tashkil etsagina samarali natijalarga erishiladi.

### 13.2. O‘zbek tilini o‘qitishda keys texnologiyalardan foydalanish

Respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim-tarbiya jarayonining sifat jihatidan tamomila yangi darajaga ko'tarishni taqozo etmoqda. Xususan, kompetensiyaviy yondashuvda har bir fan bo'yicha bilim berish jarayonida egalla-

gan bilimlarning real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish, muammoli vaziyatlardan chiqib keta oladigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Shundan kelib chiqib, til ta’limi darslarida ham hamkorlikda o‘qitish va interfaol ta’lim usullariga, dars jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, ta’lim jarayonida muammoli ta’lim, o‘quvchi-talabalarni ijodiy faoliyatga yo‘naltirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor ajratilmoqda.

Ma’lumki, ta’lim jarayonini ta’lim sub’yektlarining o‘zaro muloqoti, hamkorligiga asoslangan holda tashkil etish nafaqat o‘quvchi-talabalarni faollashtirishga, balki ularni mustaqil fikrlashga ham undaydi. Bunda ayniqsa “Case-study” uslubidan foydalanish va turli muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarning yechimini topishga o‘rgatishning ahamiyat katta. Keyslardan foydalangan holda o‘quvchi-talabalarda aniq ko‘nikmalarni shakllantirish texnikasi bo‘lib, bunda o‘quvchi-talabalardan vaziyatni tahlil qilish, muammoning mohiyatini ko‘rib chiqish, mumkin bo‘lgan variantlarni taklif etish va ulardan eng maqbulini tanlash so‘raladi. “Case-study” uslubida tavsiflangan aniq vaziyatda muammoni tahlil qilish, taxminlarni shakllantirish, yechimlarni topish yo‘llarini izlash, taxminlarni aniqlashtirish va aniq qadamlarni loyihalashtirish imkonini beradi. Mazkur uslub quyidagilarni ta’minlashga xizmat qiladi:

- o‘rganilgan o‘quv mavzusi, kursi bo‘yicha egallangan bilimlarni mustahkamlash;
- muammolarni tahlil qilish va qarorlarni yakka tartibda va guruhli qabul qilish ko‘nikmalarini egallash;
- ijodiy va mantiqiy fikrlash, nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirish;
- qarorlarni mustaqil qabul qilishga tayyorlash;
- mas’ullik, mustaqillik, kommunikativlik va empatiya, refleksiyani shakllantirish;
- ma’lumotlarini o‘zlashtirish sifatini tekshirish.

Keysda vaziyat tavsifi va axborot ta’minoti har xil hajmda bo‘lishi mumkin (bir varaqdan bir nechta yuz varaqqacha); tahlil uchun taklif etilayotgan vaziyatlar tavsifida detallashtirish darajasi ham turlicha bo‘lishi, axborot ko‘pligi darajasi ham o‘zgarishi

mumkin – tahlilga aloqasi bo‘lmagan ma’lumotlar ham bo‘lishi mumkin. Keys uslubida o‘rtaga qo‘yilgan aniq muammoli vaziyatni tahlil qilish va hal etish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi. Quyida taniqli olim A.Abduqodirov tomonidan tavsiya etilgan mazkur uslub yo‘riqnomasini keltiramiz<sup>861</sup>.

### **Amaliy vaziyatni bosqichma-bosqich tahlil qilish va hal etish yo‘riqnomasi**

<b>Bosqichlar</b>	<b>Tavsiyalar</b>
1. Keys va uning axborot ta‘minoti bilan tanishish.	Avvalo keys bilan tanishish: keysda mavjud vaziyat maqsadlari, qoidalari va tahlilini baholash mezonlari, keys to‘g‘risida va undagi axborot haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun uning mavjud axborot ta‘minoti bilan. O‘qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang.
2. Vaziyat bilan tanishish.	Ma’lumotlarni yana bir bor diqqat bilan o‘qib chiqing. Siz uchun muhim bo‘lgan satrlarni belgilang. Vaziyat tavsifida berilgan dalillarni sanab o‘ting va qaysisi ma’lum va qaysisi aniqlashtirilishi lozimligini aniqlang.
3. Asosiy muammo va kichik muammolarni aniqlash.	Vaziyatni tavsiflashga harakat qiling. Mohiyatini va ikki darajalilarni aniqlang. Asosiy muammo nimadan iborat? Taqdim etilgan vaziyatda yana qanday muammolarni ko‘rsatishingiz mumkin? Asosiy muammo va unga bo‘ysinuvchi kichik muammolardan iborat xulosalarni shakllantiring.
4. Muammo tahlili.	Ushbu muammoga aloqadar barcha dalillarni belgilab qo‘ying (vaziyatdagi hammasi unga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq emas). Savolga javob bering: Uni mazkur sharoitda echish mumkinmi? Muammo qay darajada hal etilishi mumkinligini aniqlang.
5. Ko‘rib chiqilayotgan vaziyatning kuchli va o‘jiz tomonlari tahlili.	SWOT-tahlil o‘tkazing.
6. Muqobil qarorlarni shakllantirish.	Mazkur holatda qabul qilinishi mumkin bo‘lgan muammoning barcha yechimlarini yozing. Aniqlangan muammoni yechishda qanday ahloqiy, huquqiy va ma’naviy qiyinchiliklar paydo bo‘ladi? Muqobil javoblarni shakllantirish, tahlil qilish va tanlashda o‘tilgan o‘quv materiallarni iloji boricha keng qo‘llash zarur.

<sup>861</sup> Abduqodirov A. A. “Педагогика” va “Психология” фанларидан кейслар ва улардан фойдаланиш услуги. – Тошкент: Фан ва технология, 2015.

7. Amaliy vaziyatlarni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha qarorlarni tayyorlash.	Qaroringizni amalga oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ro'yxatini ishlab chiqing. Diqqat: ko'pgina ohirgi qarorlar ularni amalda qo'llash mumkin emasligi uchun muvaffaqiyatsiz bo'ladi.
8. Taqdimotni tayyorlash.	Ish natijalari (agar echim shaxsiy bo'lsa) yoki og'zaki ravishda komanda nomidan bo'lsa (ishlashning guruhli shakli qo'llanilganda) (guruh ishtirokchilari o'rtasida vazifalarni taqsimlab plakatlarini tayyorlash) yozma ravishda taqdim etilishi mumkin.
9. O'tkazilgan tahlillar natijalari taqdimoti.	Taqdimot qoidalaridan qodilaridan foydalaning, uning "sirlarini" unutmang.
10. O'qituvchi ishtirokida chiqishlarni muhokama qilish va o'tkazilgan tahlilga yakun yasash.	Yakuniy xulosa berish.

O'zbekistonga "Case-study" uslubi ta'lim jarayoniga tatbiq etishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqqan taniqli olim A.A.Abdudodirov guruhda keys ustida ishlash bo'yicha quyidagi uslubiy tavsiyalarni tavsiya etadi:

1. Kichik guruhlar tarkibi shakllantiriladi.
2. Barcha guruhlariga tanishib chiqish uchun bitta matn va unda belgilab qo'yilgan muammoli vaziyat tarqatiladi.
3. Har bir jamoa o'z sardorini saylab oladi. Sardor "Aqliy hujum" vaqtida o'rta tashlangan fikrlarni to'playdi, guruh a'zolarini maqbul yechimlarga yo'llab turish vazifasini bajarishi kerak.
4. Muhokama ketma-ketligini quyidagicha tashkil etish mumkin:
  - keysdan olingan axborotni muhokama qilish;
  - muammoni muhokama qilish;
  - muammoning yechimi bo'yicha takliflarni muhokama qilish;
  - oxirgi yechimni qabul qilish;
  - qisqa asoslangan javob tayyorlash.
5. Guruh a'zolari quyidagilarga rioya qilishi tavsiya etiladi:
  - g'oyalar aytish va muhokamada faol qatnashish;
  - boshqa ishtirokchilarning fikrlarini chidam bilan eshitish;

– boshqalarning fikrlari bayonini bo‘lib tashlamaslik va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga harakat qilmaslik;

– o‘z fikrini aniq shakllantirib aytish.

“Case-study” uslubi o‘quvchi-talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi, shu bois bu ish uslubini o‘zbek tilini o‘qitishda ayniqsa adabiy o‘qish darslari jarayonida tashkil etib turish maqsadli bo‘ladi. Quyida “O‘zbek tili” mashg‘ulotalarida foydalanish mumkin bo‘lgan ayrim keyslardan namunalarni ko‘rib chiqamiz:

**1-KEYS.** Berilgan matnni o‘qing va birgalikda muhokama qilib, keysning javobini toping.

Sohibqiron Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug‘bek bolaligidan boshlab zakovatli va farosatli bo‘lib o‘sdi. U ko‘p bilimlarni chuqur egallagan va bilim bergan ustozlarini benihoya hurmat qiluvchi inson edi. Ayni vaqtda ustozlari ham uni sevguvchi edilar. Rivoyat qilishlaricha, Mirzo Ulug‘bek yosh bolalik paytida Amir Temur Rumdan chaqirib keltirgan bir donishmanddan saboq olgan. Donishmandning bir odati bo‘lib, saboq berish vaqtida boshini engashtirib, yerga qarab o‘tirar ekan. Agar shogirdi biror jumlaning yanglish o‘qisa yoki biror xatoga yo‘l qo‘ysa, boshini ko‘tarib, unga qarab qo‘yar ekan.

Bir kuni Mirzo Ulug‘bek ustozining oldida bir kitob o‘qiyotgan edi. U: “Uddasidan chiqmagan narsangizni nega va‘da qilaysiz?” degan jumlaning o‘qigach, ustozining boshini ko‘tarib, unga bir qarab qo‘yibdi. Ulug‘bek Mirzo: “Ehtimol, yanglish o‘qigan bo‘lsam kerak”, – deb jumlaning diqqat bilan qaytadan o‘qibdi. Ammo ustozining bu gal ham boshini ko‘tarib, unga qarab qo‘yibdi.

#### **Keys bo‘yicha savollar:**

1. Nima uchun Mirzo Ulug‘bekning ustozining unga qarab qo‘ydi, biroq hech narsa demadi?

2. Donishmandning Mirzo Ulug‘bekka qarab qo‘yishi biror gapga bog‘liq bo‘ldimi va u qanday ma‘noga ishora qiladi?

3. Sizningcha, Mirzo Ulug‘bek bunga qanday munosabat bildirgan?

#### **Javoblar:**

1. Donishmandning Mirzo Ulug‘bekka qarab qo‘yishi hech qanday gapga bog‘liq emas va hech qanday ma‘noni bildirmaydi.



2. Donishmandning Mirzo Ulug‘bekka qarab qo‘yishi “Uddasidan chiqmagan narsangizni nega va‘da qilasiz?” degan jumlagaga bog‘liq. Demak, kimdir nimanidir va‘da qilgan va o‘z va‘dasining ustidan chiqmagan.

3. Mirzo Ulug‘bek bolaligidan juda aqlli, ziyrak bo‘lgani uchun ustoziga unga bejiz qarab qo‘ymaganligini, bu “Uddasidan chiqmagan narsangizni nega va‘da qilasiz?” degan gapga taalluqlilini darhol fahmlagan va bu haqda sohibqironiga aytgan.

### **Keysning yechimi:**

Mirzo Ulug‘bek saboqdan keyin bobosi yoniga kelib:

– Bobojon, ustozimga biror narsa va‘da qilgan bo‘lsangiz, darhol va‘dangizga vafo qiling, – deb bo‘lgan voqeani Amir Temurga aytib beribdi. Amir Temur nabirasining hikoyasini eshitib:

– Ustozing mendan Rumda qolib ketgan kutubxonasini olib kelishga odam yuborishimni so‘ragan va “Bu kitoblar menga emas, nabirangizga kerakdir”, – deb iltimos qilgan edi. Men odam yuborishga va‘da qilgan edim, ammo yodimdan ko‘tarilib ketibdi, – debdi. So‘ng shu zahotiy oq rumlik donishmandga bergan va‘dasini darhol bajo keltirish uchun farmon beribdi.

Demak, 3-javob haqiqatga yaqin.

**2-KEYS.** Quyidagi maqol yuzasidan bildirilgan fikrlarga o‘z munosabatingizni bildiring.

Respublika Ta‘lim markazida darsliklar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishlardan birida vazirlikdan tashrif buyurgan mutasaddi rahbarlardan biri darsliklarning saviyasi, xatoliklar xususida so‘zga chiqib, o‘zbek tili fani bo‘yicha chop etilgan darsliklardan birida “Ustoz – otangdek ulug‘” maqoli “Ustoz – otangdan ulug‘” deb xato berilganini ko‘rsatib, mualliflar va metodistlarni aybladi. Yig‘ilganlar ushbu maqolning har ikki shakli ham ishlatilishi va har ikkisida ham o‘ziga xos haqiqat borligini aytib, qizg‘in bahs boshlanib ketdi.

*Sizningcha, mutasaddi rahbarning ayblovini to‘g‘rimi? Siz ushbu maqolni qanday izohlaysiz?*

### **Javoblar:**

1. Bu maqol atrofida munozara bo‘lishi tabiiy, chunki nutqda maqolning har ikki varianti qo‘llanadi. Buning uchun mualliflar va metodistlarni ayblash noo‘rin.

2. Ushbu maqol aslida “Ustoz – otangdek ulugʻ” shaklida yuzaga kelgan. Biroq ustozlarning farzandlarimizga kasb-kor, ilm berishdagi tengsiz xizmatlari eʼtiborga olinib, keyingi vaqtlarda “Ustoz – otangdan ulugʻ” shaklida qoʻllanmoqda.

3. Aytishlaricha, shu savol bilan donishmandga murojaat qilganlarida u shunday javob bergan ekan: “Ota-onang seni dunyoga keltiradi, yerda yurishni oʻrgatadi, yemak yedirib voyaga etkazadi. Ustozing esa senga ilm va hunar berib, shuhratingni olamga taratadi, yaʼni seni yerdan osmonga olib chiqadi. Demak, albatta, yaxshi ustoz otangdan ham ulugʻ boʻladi.”

4. Dunyoda yaxshi ota-ona, yaxshi ustoz boʻlganidek, farzandlarining taqdiriga befarq boʻlgan yomon ota-ona, yaxshi saboq bera olmaydigan malakasiz ustozlar ham bor, albatta. Biroq eng malakasiz ustoz ham bolalarimizga nimanidir beradi.

### **Keysning javobi:**

Har bir tilda soʻz va iboralar vaqt oʻtishi bilan maʼno kengayishi, torayishi, koʻchishi usullari orqali yangi maʼnolarni ifodalashi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mazkur maqolning mazmun-mohiyati ham davr bilan hamnafas holda oʻzgarishga uchragan va bugungi kunda “Ustoz – otangdan ulugʻ” shaklidagi qoʻllanishini xato, deb hisoblab boʻlmaydi. Demak, bu oʻrinda mutasaddi rahbarning ayblovini toʻgʻri, deb boʻlmaydi.

**3-KEYS.** Joy nomlari boʻyicha berilgan keysni oʻqing. Aniq vaziyatlar boʻyicha berilgan savollarga javob bering va keysning toʻgʻri echimini toping.

Toshkentning “Eski shahar” mavzesida ilgari kichik-kichik mahallalar juda koʻp boʻlgan. Mahalla markazini guzar deb, mahallaning nomi esa shu yerda yashagan tabarruk shaxslar, mahalla ahli shugʻullanadigan kasb-hunarlariga bogʻliq holda nomlangan. Chunonchi, Oʻqchi, Koʻmirchi, Chaqar, Qoratosh, Sarchopon, Koʻkcha, Suzgata (Suzukota), Shofayz (Shofayziota) kabi. Jumladan, Samarqand darbozagacha boʻlgan yoʻnalishida joylashgan “Sarchopon” mahallasining nomlanishi xususida shu mahallaning bir fuqarosi quyidagicha fikrlarni bildirgan:

Sarchopon mahallasi nomi mening buvamning sharafiga qoʻyilgan. Buvam juda mahoratli tikuvchi boʻlganlar va sara chopon, toʻnlar tikkanlar. Ular tikkan chopon, toʻnlar bozorlarda juda

qimmat sotilgan. Men ko'p marta shaharning turli dahalaridan odamlar dadamga buyurtma berish uchun kelishganining guvohi bo'lganman.

### **Keys bo'yicha savollar:**

1. Sizningcha, "sarchopon" so'zining etimologiyasi yuzasidan keltirilgan bu faktik dalil haqiqatga yaqinmi?
2. So'zlarning kelib chiqishini asoslashda xalq etimologiyasi-ning o'rni qanchalik muhimligini misollar yorlamida asoslang.
3. Ilmiy etimologiya nimalarga asoslanadi?

### **Keysning echimi:**

1. "Sarchopon" so'zining etimologiyasi yuzasidan keltirilgan ushbu xalq etimologiyasi haqiqatga yaqin deyish mumkin, chunki so'zlovchi o'zi guvoh bo'lgan dalillarni keltiryapti.
2. Ilmiy etimologiya ilmiy asoslangan dalillarga asoslanadi. Ilmiy etimologiyaga ko'ra, "sarchopon" so'zi XVIII asr yozma manbalarida uchraydi. Yuqorida keltirilgan asosnoma esa XX asrda yashovchi insonning shaxsiy fikri. Demak, yuqoridagi fikr asosli emas.

Keysning yechimi 2-javobda berilgan.

Ma'lumki, adabiy asarlar kompozitsiyasida bir nechta tugunlar bo'ladi. Shunday holatlarda ham muammoli vaziyat yaratish va keys topshiriqlarini qo'yish orqali o'quvchi-talabalarni mustaqil fikrlashga, tugunning maqbul yechimini o'zlari topishga undash samarali natija beradi. Masalan, Guldursin afsonasi kompozitsiyasi asosida bir nechta joyda keys tuzish mumkin.

**4-KEYS.** "Xalq etimologiyasi va ilmiy etimologiya" mavzusi bo'yicha berilgan keysni o'qing. Aniq vaziyatlar bo'yicha berilgan savollarga javob bering va keysning to'g'ri yechimini toping.

Guldursun bir zamonlar Guliston deb atalgan ekan. Bu joy yer-suvi mo'l, gullab-yashnagan, boy shahar ekan. Shaharni qari bir podshoh so'rar, uning Guldursun nomli go'zal qizi bor ekan. Kunlardan bir kuni shaharning boshiga kulfat tushibdi: sahrodan kelgan bosqinchi qalmaq galalari o'z yo'lida uchragan hamma narsani bosib-yanchib, nihoyat shaharga yaqinlashibdi. Qalmaq qullab-yashnagan dala va bog'larni yer bilan yakson etib, so'ng shaharni qamal etibdi. Aholi shaharni mardonavor mudofaa qilib-

di, xalq qarshiligini yengishga dushmanning kuchi yetmabdi. Shu tariqa oylar o'tibdi, baxtga qarshi yanada xavfliroq dushman-ochlik bosqinchlarga yordamga kelibdi. Oziq-ovqat jamg'armalari tugab, odamlar ko'chalarda o'la boshlabdi. Saflari siyraklashib qolgan shahar himoyachilari qurollarini qo'llarida zo'rg'a ushlab turar ekanlar.

**Keys bo'yicha savol:**

Mabodo, siz shahar hokimi o'rmda bo'lsangiz, shu vaziyatda qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?

**Javoblar:**

**1-javob.** Agar men shahar hokimi bo'lsam, butun xalqni dushmanga qarshi jangga otlantirar va dushmanni yengib chiqar edim.

**2-javob.** Agar men shahar hokimi bo'lsam, xalqim qirilib ketmasligi uchun dushmanga taslim bo'lar edim.

**3-javob.** Agar hokim aqlli bo'lsa, donishmand, mo'ysafidlarni to'plab, ulardan maslahat so'ragan bo'lar edi.

**To'g'ri javob:** 3-vaziyatdagi javobda bayon qilingan.

Shahar hokimi chindan ham juda aqlli ekan. U o'zining amaldor va lashkarboshilarini, shahar donishmandlarini maslahatga chaqiribdi. Ular orasida bir keksa odam so'nggi najot chorasini sinab ko'rishni taklif qilibdi. Bu – juda ayyorona reja ekan. Uning maslahatiga ko'ra qamalda qolgan gulistonliklar bir necha ho'kiz ichidan eng semizini maxfiy yo'l bilan saroyga keltirib, uni podshoh omboridagi oxirgi bug'doy bilan to'ydirishibdi va shahardan tashqariga chiqarib yuborishibdi.

**Keys bo'yicha savol:**

Sizingcha, donishmand o'ylagan ayyorona reja nima va u biror natija beradimi?

**Javoblar:**

**1- javob** Ha, albatta, axir u donishmand-ku.

**2- javob.** Ho'kizga bo'mba joylab chiqarishgan bo'lsa kerak.

**3- javob.** Ho'kizga zaharli o'tlar yedirib chiqarishgan bo'lsa kerak.

**4-javob.** Ho'kizning semizligini ko'rib, dushman shaharda hali oziq-ovqat zaxirasi ko'p ekan, deb o'yilashi uchun.

**To'g'ri javob:** 4- javob vaziyat yechimiga ancha yaqin.

Faqat qamaldagilar emas, balki qamal qilganlar ham ochlikdan azob chekishayotgan ekan. Qalmiqlar bir necha oy davomida nimani yeyish mumkin bo‘lsa, hammasini yeb bitirgan ekan. Ularning qarorgohida qamaldan voz kechish to‘g‘risida gap-so‘zlar boshlanibdi. Och qalmiqlar ho‘kizni tutib olib so‘yishibdi, shunda ular ho‘kizning oshqozonida sara bug‘doyga to‘la ekanligini ko‘rishib, sarosimaga tushibdi. “Agar ular molni shunchalik boqsa, g‘amlagan oziq-ovqati behisob ekan-da?” – deb baqirishibdi jangchilar. – Qamal qilishdan foyda yo‘q, shaharni olib bo‘lmaydi, ochlikdan qirilib ketmasdan jo‘nab qolaylik”.

Qalmiqlarning lashkarboshisi ham shu fikrga kelib, qaytishga hozirlik ko‘ra boshlabdi. Biroq hokimning qizi malika Guldursun dushman lashkarboshisi - qalmiq podshohning yosh va xushqomat o‘g‘lini devordan kuzatib yurib. Sevib qolgan ekan. Qizning qalbida o‘z xalqning dushmanlari yo‘lboshchisiga nisbatan cheksiz ehtiros alanga olibdi. Qiz qamaldagilarning hiylasi ish berganini, yuk ortilgan tuyalarning bo‘kira boshlagani, qalmiqlarning o‘tovlari birin-ketin yo‘qolayotganini ko‘rib, bir necha soatdan keyin ularning bu yerda qolmasligiga, ular bilan birga go‘zal shahzoda ham abadiy ketishiga ko‘zi yetgach, o‘z kanizagidan qalmiq bahodiriga xat berib yuboribdi. Xatda qiz yigitga bo‘lgan muhabbatini izhor qilib, gulistonliklarning sirini ochib beribdi. “Yana bir kun kut, – deb yozibdi u. – Shaharning o‘zi senga taslim bo‘ladi”.

Xabarni o‘qigach, dushmanlar tuyalardan yuklarini tushirishibdi, tunda qarorgohda yana son-sanoqsiz gulxanlar yonibdi. Er-tasiga esa Guliston shahri talanib yondirilibdi, aholining bir qismi qirib tashlanibdi, qolganlarini esa qul qilib olib ketilibdi. Sotqin malika Guldursunni esa shahzoda oldiga keltirishibdi.

**Keys bo‘yicha savol:**

Sizningcha, dushman lashkarboshisi malikani qanday qabul qilgan va nima uchun bu joy bugungi Guldursun xarobalari deb ataladi?

**Javoblar:**

**1-javob.** Albatta, Guldursunga uylanadi, chunki u shahzodaga yordam berdi.

**2-javob.** Shahzoda Guldursunni sotqinligi uchun o‘z kanizagiga aylantiradi.

**3-javob.** Shahar yondirilgani uchun undan faqat xarobalar qolgan.

**4-javob.** Shahzoda Guldursunni sotqinligi uchun o'ldirtiradi, Guliston shahri malika tufayli xarobaga aylangani uchun Guldursun xarobalari, deb ataladi.

**To'g'ri javob:** 4-javobda berilgan.

Biroq shahzoda Guldursundan nafratlanibdi va unga qarab shunday debdi: "Vatani dushmaniga bo'lgan nomunosib ehtirosi tufayli xalqiga va o'z otasiga xiyonat qilgan ekan, menga vafo qilarmidi? Uni yovvoyi otlar dumiga bog'lang, toki bundan keyin hech kimga xiyonat qilolmasin". Ot dumiga bog'langan Guldursunning tanasi parcha-parcha bo'lib, cho'l-u biyobonlarda qolib ketibdi. Xon qizining qoni to'kilgan bu yer xarobaga aylanib, endi Guliston emas, Guldursun deb atala boshlandi.

Ushbu keyslarni maktab ta'limi, o'rta mahsus ta'lim va oliy ta'lim bosqichlarida guruhlarining til ko'nikmalari darajalaridan va nutq mavzusi, adabiy o'qish materiallari mavzularga muvofiqlik darajalaridan kelib chiqqan holda foydalanish mumkin. Bu o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro hamkorligini kuchaytirishga, til tajribasi kamroq o'quvchi-talabalarga o'z guruhdoshlari bilan ishlash jarayonida til bilimini hato qilib qo'yishdan cho'chi-may va tortinmay erkin holda namoyish eta olish uchun katta imkoniyat beradi. Tilda ifodalash ko'nikmasi pastroq darajada, biroq mustaqil fikrlashi ancha kengroq bo'lgan o'quvchi-talabalarda tilga e'tibor ancha ortishiga va o'z do'stlariga etib olish uchun motivatsiya beradi.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. "Ta'lim texnologiyasi" va "ta'lim metodikasi" tushunchalari ma'no-larini tushuntiring.
2. Hamkorlik texnologiyasining asosida nima yotadi?
3. Hamkorlikning faol, nofaol va interfaol turlari haqida ma'lumot bering.
4. Til ta'limida qo'llanadigan interfaol ta'lim metodlari haqida ma'lumot bering.
5. Rolli o'yinlar vositasida qanday ko'nikma-malakalar shakllantirildi?
6. Grafik organayzerlar darsning qaysi bosqichida va qanday layoqatlarni shakllantirish maqsadida qo'llanadi?
7. Tillarni o'rgatishda axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyotning amaliy ahamiyati haqida so'zlab bering.

8. An'anaviy mashg'ulotlarda til ta'limi darslarini axborot texnologiyalari yordamida tashkil etish haqida ma'lumot bering.
9. Distant ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining imkoniyatlari haqida so'zlab bering.
10. Autentik video materiallarning til ta'limidagi o'rni haqida so'zlang.
11. Til ta'lim darslarida vaziyatli topshiriqlardan qanday maqsadlarda foydalaniladi?
12. O'zbek tili ta'limida fanlararo aloqaga oid topshiriqlardan darsning qaysi bosqichida foydalanish yaxshi samara beradi?
13. Ikkinchi til ta'limida keys texnologiyalarini qo'llashning samarali jihatlari haqida so'zlab bering.

### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологиянинг татбикий асослари – Т.: Фан, 2006. – 13-б.
2. Abduqodirov A.A. “Педагогика” ва “Психология” фанларидан кейслар ва улардан фойдаланиш услубиёти. – Тошкент: Фан ва технология, 2015.
3. Muxitdinova X.S. O'zbek tilini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari (Monografiya). – T.: VNESHINVEST, 2021.
4. Салишева З. Ўзбек тили машғулотларида талабалар монологик нутқини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш (рус гуруҳларида): Пед. фан.... фалсафа доктори (PhD) дис. – Тошкент, 2019. – 59–61-б.
5. 6-sinfda o'zbek tili darslari (o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma) Tuzuvchilar: Muxitdinova X., Avlakulov YA., Nuriddinova D. – Toshkent: Mitti yulduz, 2013
6. 7-sinfda o'zbek tili darslari (o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma). Tuzuvchi: Muxitdinova X. – Toshkent: O'qituvchi, 2013.
7. 8-sinfda o'zbek tili darslari (o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma). Tuzuvchi: Muxitdinova X. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
8. O'zbek tili (o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma, 10-sinf). Tuzuvchi: Tolipova F., Aydarova F. – Toshkent: Zamin-nashr, 2020.
9. Amaldagi “O'zbek tili” darsliklari.

## 14-MAVZU. O‘ZBEK TILIDAN EGALLANGAN BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARNI BAHOLASH MEZONLARI VA TARTIBI

### REJA:

1. O‘zbek tilidan egallangan bilimlarni baholash mezonlari.
2. O‘zbek tilidan o‘quvchi-talabalar egallangan til ko‘nikmalarini baholash mezonlari va tartibi.

**Tayanch tushunchalar:** lingvistik bilimlarni aniqlash, til ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlash, yozuvning shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlari, diktant, bayon, insho yozish va matn yaratishni baholash mezonlari, tinglab tushunish ko‘nikmasini baholash mezonlari, gapirish ko‘nikmasini baholash mezonlari, o‘qish ko‘nikmasini baholash mezonlari, til ko‘nikmalarini baholash tartibi, o‘zbek tilidan o‘quvchi-talabalar bilim, ko‘nikma, malakalarini aniqlash varaqasi.

### 14.1. O‘zbek tilidan egallangan bilimlarni baholash mezonlari

Davlat ta’lim standartlari har bir fan, soha bo‘yicha qabul qilingan davlat tomonidan kafolatlangan pirovard natijalarni qayd etuvchi me’yoriy hujjat bo‘lib, u o‘quvchilarning umumta’lim fanlari bo‘yicha tayyorgarligining zarur va yetarlicha darajasini hamda ta’lim muassasalari bitiruvchilariga nisbatan qo‘yiladigan malaka talablarini, o‘quv yuklamasining zaruriy hajmi, ta’lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibi va mexanizmini belgilaydigan hamda o‘quv reja va dasturlar, darsliklar, qo‘llanmalarni ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladigan muhim me’yoriy hujjatdir. Har bir fan o‘qituvchisi ta’lim bosqichining qaysi bo‘g‘ini, qaysi bosqichida ishlamasin, ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan talablarni, ya’ni o‘zidan oldingi bosqichdan qanday kompetensiyaviy darajadagi o‘quvchini qabul qilib olishi va uni qay darajaga yetkazishi kerakligini yaxshi bilishi va ushbu talablarning to‘liq amalga oshishi uchun mas’uldir.

Respublikamizda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar, ta’limda natijaviylik, egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni hayotiy vaziyatlarda, kasbiy-sohaviy faoliyatda qo‘llash layoqatini shakllantirish ehtiyoji barcha fanlar bo‘yicha davlat ta’lim stan-



dartlarini qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Tahlillar “O‘zbek tili” darsliklarida asosan tayyor matn ustida ishlashga e‘tibor qaratilayotgani, tayanch so‘zlar va nutqiy qurilmalar vositasida o‘quvchilarda bog‘lanishli nutq ko‘nikmalarini hosil qilish, o‘z fikrini turli vaziyatlarda mustaqil ifodalash, nutqida sintaktik-sinonimik vositalardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlar kam berilganini, o‘quvchilarni *so‘zlardan – so‘z birikmalari – so‘z birikmalaridan – gaplar – gaplardan bog‘lanishli matn yaratishga olib chiqadigan mashq va topshiriqlar tizimi shakllantirilmaganligini*, demak, oliy ta‘limgacha bo‘lgan ta‘lim bosqichlarida rusiyzabon o‘quvchilarni bog‘lanishli nutqqa o‘rgatish ko‘nikma-malakalarini shakllantirish talab darajasida emasligini ko‘rsatdi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi va oliy ta‘lim bosqichi uchun “O‘zbek tili” darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarda, asosan, tayyor matn ustida ishlashga qaratilgan topshiriqlar berilgan bo‘lib, ularda o‘quvchi-talabalarning bog‘lanishli nutq ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning monologik nutqini rivojlantirish yuzasidan mashq va topshiriqlar berilishi rejalashtirilmagan.

Turli ta‘lim bosqichlarida o‘zbek tilidan o‘quv qo‘llanmalar, darsliklarda aksariyat mashqlar nutqiy mavzu va matnlar mazmunidan kelib chiquvchi topshiriqlardan iboratligi, mashqlarda izchillik yetishmasligini, bosqichdan bosqichga o‘sib boruvchi rivojlantiruvchi tamoyilga amal qilinmayotganini ta‘kidlash mumkin. Shuni ham aytish joizki, uyga vazifa sifatida berilayotgan topshiriqlarning aksariyat qismi biror mavzuda matn tuzishga qaratilgan. Bu – yaxshi, biroq bunday topshiriq berishdan avval o‘quvchini matn tuzishga o‘rgatish ham kerak. Bu o‘rinda nofilologik yo‘nalishdagi kasb-hunar kollejlari va OTM uchun o‘quv qo‘llanmalar va darsliklarda ham sohaviy atamalar, matn ustida ishlashga oid mashq va topshiriqlar berilgan. Biroq yuqorida qayd qilinganidek, ushbu mashq va topshiriqlarning oddiydan murakkabga qarab izchillikda tizimlashtirilmaganligi, ularning barchasi tayyor matn ustida ishlashga qaratilganligi o‘quvchi-talabalarni mustaqil bog‘lanishli nutq tuza olishi uchun yetarli emas.

Bizningcha, oliy ta‘limda tahsil oluvchi rus guruhleri talarigalari o‘zbek tilidagi nutqni tushunish va savollarga javob be-

rish malakalariga ega bo'lishning o'zi yetarli emas, ular davlat tilida turli mavzularda fikrni bog'lanishli tarzda mustaqil ifodalay olishlari, og'zaki muloqotlar va bahslarda o'z fikrlarini asoslab bera olishlari, ilmiy anjumanlarda ma'ruzalar bilan qatnashishlari, bir so'z bilan aytganda, bog'lanishli monologik nutq malakalariga ega bo'lishlari taqozo etiladi. Xususan, ta'limning keyingi – yuqori bosqichlarida o'zbek tili ta'limi jarayonida rus guruhleri talabalarining davlat tilida monologik nutqni egallashlari ularning mustaqil ish faoliyatlari uchun nihoyatda zarur. O'quv materiallarining hajmi, murakkabligi darajasidan kelib chiqib, rus guruhleri talabalarining quyi bosqichlarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalari asosida o'zbek tilida bog'lanishli fikr ifodalash va monologik nutqini o'stirishga qaratilgan ishlarni aynan oliy ta'lim muassasalarida rivojlantirish zarur deb o'ylaymiz.

Til muhiti mavjud bolgan sharoitda ta'lim maqsadlaridan kelib chiqqan holda so'zlar va so'z shakllarini ham jonli muloqotga xos tarzda, ham yozilganidek talaffuz qilishni o'rgatish zaruratidan kelib chiqib, o'zbekcha to'g'ri talaffuzga doir egallanadigan BKM-lari quyidagilardan iborat etib belgilash maqsadga muvofiq:

**Bilimlar:** o'zbek tilidagi nutq tovushlari; ularning soni va nomlarini; o'zbek tiliga xos tovushlami; o'rganilayotgan ba'zi so'zlar, so'z shakllari misolida ayrim orfoepiya me'yorlarini bilish.

**Ko'nikmalar:** o'zbek tilidagi nutq tovushlarini, ayniqsa, rus tilidan qisman farqli yoki o'zbek tiliga xos tovushlari namunaga taqlidan to'g'ri talaffuz qila olish, o'tilgan so'z va so'z shakllarini orfoepik me'yorlar asosida talaffuz qilish; o'qituvchining ogohlantirishidan keyin o'z xatosini topa olish va tuzata bilish.

**Malakalar:** o'zbek tilidagi nutq tovushlarini, ayniqsa, rus tilidan qisman farqli yoki o'zbek tiliga xos tovushlami, so'z va so'z shakllarini nutq oqimida to'g'ri talaffuz qilish, orfoepik qoidalariga avtomatik tarzda rioya etish; o'z nutqini talaffuz jihatdan nazorat qila olish, xatoni mustaqil aniqlab tuzata olish<sup>87</sup>.

Ma'lumki, nutqiy faoliyatning to'rtala turini o'rgatish sohasida olib boriladigan ishlarning samaradorligini ta'minlash yo'lida qo'llanadigan metod va usullar birinchi navbatda o'quvchilarda

---

<sup>87</sup> Yo'ldoshev R.A. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini metodikasi.–T.: O'zPFTI, 2015. – 14–15-bttlar.

mustaqil ravishda gap tuzishga doir bilim, ko'nikma va malakalami shakllantirishga erishilgan yoki erishilmaganlikka qarab baholanadi va tanlanadi. Samaradorlik o'quvchilarda gap tuzishga doir bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilina boshlaganda, mutlaqo mustaqil ravishda istagan qurilishdagi gaplarni tuzish avtomatlashuv darajasiga yaqinlashtirilganda yuzaga chiqadi.

Nutqiy faoliyatning gapirish (so'zlash), o'qish, nutqni tinglab tushunish, fikrni yozma ifodalash) turlari o'quvchilarning har xil murakkablikdagi gaplar tuzish va ayta bilishlariga bog'liq holdagina rivojlanadi. Agar o'quvchi mustaqil ravishda gap tuzishga doir BKMLami egallasa, nutq samarali o'stiriladi. Muayyan bilimlar asosida mustaqil ravishda gap tuzib aytish uchun nutq tovushlari, so'zlar, so'z shakllarining o'zbekcha to'g'ri talaffuzini tez yodga tushira olish va talaffuz qilish tezligini oshira borish; nutqiy faoliyat turlar talabiga ko'ra o'zbekcha so'zlarni, ulaming nutq vaziyatidagi ma'nosini xotiraga tushirish tezligini oshira borish, ulami grammatik jihatdan shakllantirish; sintagmalaming yuzaga kelishiga qarab talaffuz qilish, bu ishni gap tugal holatga kelgunga qadar davom ettirish zarur bo'ladi. Ushbu bilim va ko'nikmalar nutqiy mashqlar jarayonidagina malaka darajasiga yetkaziladi. Metodist olim R.Yo'ldoshev fikricha, og'zaki nutqda malaka o'zbek tiliga xos nutq tovushlami, so'z va so'z shakllarini nutq oqimida to'g'ri talaffuz qilish, ayrim orfoepiya qoidalariga avtomatik tarzda rioya etish, o'z nutqini nazorat qila olish, xatolarini mustaqil aniqlab tuzatish darajasidir.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida ona tilini o'qitish sohasida bilimlarni baholashda natijaviylikni ta'minlash, o'quvchilar bilim, ko'nikma, malakalarini bir-biriga nisbatan emas, o'z-o'ziga nisbatan o'sish darajasini aniqlash va baholash tizimini ishlab chiqish o'ta dolzarb masala bo'lib, bu ona tili ta'limida optimal tahlil metodikasini yaratishga ham xizmat qiladi.

Afsuski, ta'lim tizimimizda uzoq yillir davomida natijaviylikni ta'minlashga e'tibor qaratilmadi, ta'lim oluvchilar o'rgangan nazariy bilimlari, qoida-ta'riflarni bilish darajasiga ko'ra baholab kelindi, o'quvchi-talabalar amaliyotda qo'llay olish ko'nikma-malakalariga ko'ra baholanmadilar. Yana shuni qayd etish kerakki, 5 baholi tizimda baholash aslida 3 baholi tizimda baholashdan iborat bo'lib qolgan edi. 1 baho hisobga kiritilmasligi, 2 bahoni

yakunda qo'yishga ruxsat berilmasligi oqibatida o'quvchilar faqat 3 baholi tizimda baholanib keldilar. Ushbu baho ham natijaviylik ko'rsatkichlari asosida emas, sinfga nisbatan, hatto ayrim hollarda sinflar kesimiga nisbatan baholanardi. Ya'ni, kuchsiz sinflarda o'qiydigan (masalan, "G", "D", "Ye" sinflarida o'qiydigan o'quvchilarning "5" bahosi "A" sinfidagilarning "4", "3" baholari-ga teng, deb hisoblanardi.

Ma'lumki, ta'lim jarayoni bilim berish jarayonidan iborat bo'lib, bilimlarni egallanganlik darajasi ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasi va mustaqil faoliyat yuritish jarayonida erkin ishlata olish malakasiga ko'ra baholanadi. Til ta'limida bu nutqni o'stirish va erkin so'zlay olish malakalariga ko'ra aniqlanadi. Nutqni o'stirish nutqiy faoliyatning to'rtala turi (so'zlash, o'qish, nutqni tinglab tushunish, yozish)ni o'rgatish asosida amalga oshiriladi. Nutqiy faoliyat turlarini o'rgatishda, albatta, har birining o'ziga xos parametrlari mavjud bo'lib, metodist R. Yo'ldoshev og'zaki bayonda quyidagi parametrlar e'tiborga olinishi kerak deb hisoblaydi:

1) o'quvchilarning so'zlamini to'g'ri talaffuz qilishlariga, yanada ravonroq gapirishlariga erishish, ifodaliligining sayqal topib borishini ta'minlash;

2) so'zlash paytida tez yodga keladigan leksik va grammatik vositalar boyligini izchil oshira borish;

3) mustaqil ravishda tuziladigan gaplarning sintaktik jihatdan rang-baranglashuvini rejali suratda amalga oshirish;

4) monologik shakldagi bayonning og'zaki hikoyalashga monand asta-sekin nurakkablashib borishi, fikrini izchil yoritilishi, shuningdek, mustaqil gaplarning o'zaro bog'lanish vositalari jihatidan boyib borishini ta'minlash;

5) dialog shaklidagi o'zaro so'zlashuvning qolip-gaplar hisobiga boyib, kommunikativ layoqat darajasining ortib borishiga erishish<sup>88</sup>.

Har bir parametr alohida o'rganiladigan ta'limiy birlik sifatida ajratilib, darsdan-darsga, sinfdan sinfga qarab rejalashtiriladi. Masalan, ikki, uch, to'rt va undan ortiq so'zlarni sintagmaga bir-lashtirib, orasida to'xtamsiz aytishni o'rgatish shunday birliklar sirasiga kiradigan parametr sanaladi. Xuddi shuningdek, gapirish

<sup>88</sup> Yo'ldoshev R.A. O'sha manba.

sur'atini oshirish darslarining ham ajratilishi og'zaki nutq o'stirish maqsadiga ega bo'ladi.

O'quvchilarning so'zlarmi to'g'ri talaffuz qilishlariga erishish uchun birinchi navbatda o'zbek tilidagi nutq tovushlari talaffuzini puxta o'rgatish, so'ngra so'zlar talaffuzi, so'z urg'usi ustida mun-tazam ish olib borish talab etiladi. Gapirishdagi ravonlik esa gap-da so'zlarni sintagmalarga to'g'ri birlashtira olish, bir sintagmaga kiruvchi so'zlarni ular orasida to'xtam qilmagan holda bir so'zday ayta bilish orqali ta'minlanadi, shu yo'llar bilan gapirish sur'ati til egalarining gapirish sur'atiga yaqinlashtiriladi. So'zlashdagi ifo-dalilik gaplar orqali ifoda maqsadlarini tegishli ohang yordamida bildirish mashqlarini taqozo qiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, na nutqni tinglab tushunish, na matn-ni o'qish va na fikrni yozma ifodalash davlat tilini o'rganish yo'li-da gapirishni o'rganishchalik ko'p mashq qilishni talab etmaydi. Chunki ravon so'zlash uchun nutqiy mashqlarning uzluksizligini va mo'l-ko'lligini ta'minlagan holda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'zni tez eslash, to'g'ri tanlash, uni grammatik vositalar bilan shakllantirish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, oxir-oqibatda o'quvchining so'zlash ko'nikmalarini ushbu jarayonda faqat fikr ifodalash haqidagina o'ylaydigan darajaga yetkazish ke-rak bo'ladi. Og'zaki nutq o'stirish mashqlariga qancha ko'p vaqt ajratilsa, og'zaki nutqiy ko'nikma va malakalar sifati shuncha yuqorilashadi. Yashash joyida qo'ni-qo'shnilari, o'rtoqlari bilan muloqot orqali o'zbek tilida gaplashishni o'rganib olgan rus bola-larining nutqi sifat jihatdan yanada yaxshilanadi.

## **14.2. O'zbek tilidan o'quvchi-talabalar egallangan til ko'nikmalarini baholash mezonlari va tartibi**

Tilga oid qoidalarni amaliy qo'llash ko'nikmalari o'z fikrlarini muayyan vaziyatda erkin ifodalash uchun o'rganilgan bilimlardan foydalana olish malakalariga qarab o'sib boradi. Nutqiy malaka nutqiy harakatlarni ongli ravishda boshqara olish qobiliyati bo'lib, u nutq faoliyatining yuqori darajasi hisoblanadi. Nutq faoliyati-ning har bir turi bo'yicha ko'nikmalarning shakllanganlik daraja-sini aniqlash, ularning malaka darajasiga o'sish darajasini aniqlash har bir yo'nalish bo'yicha parametrlarni belgilab chiqish va shular asosida baholash mezonlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Yozuvni shakllantirish va yozma nutq o‘stirish, odatda, quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borishni taqozo qiladi:

1) harflarni yozishni o‘rgatish;

2) so‘zlar va qo‘shimchalarni to‘g‘ri yozish uchun imlo qoidalarini o‘zlashtirish;

3) ta‘limiy va nazorat yozma ishlarini (diktant, savollarga javob berish, bayon, insho) o‘tkazish;

3) matn tuzishni o‘rganish.

Biroq ushbu parametrlar o‘ta darajada umumiy bo‘lib, yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ularning har biri ustida yana quyidagi ishlarni olib borish talab etiladi:

1. *Harflarni yozish bo‘yicha:*

– harflarning katta va kichik shakllarini to‘g‘ri yozish;

– diakritik elementlarni o‘z o‘rnida qo‘llab yozish;

– harflarni husnixat talablari asosida yozish;

– chet tillaridagi harflar bilan almashtirmay yozish va h.z.

2. *Imlo qoidalarini o‘zlashtirish bo‘yicha:*

– bo‘g‘inga ajratish va bo‘g‘in ko‘chirishni bilish;

– so‘zlar va so‘z shakllarini to‘g‘ri yozish;

– so‘zlardagi tovush o‘zgarishlarini imlo qoidalari asosida yozish;

– tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llay olish;

– so‘zlarga qo‘shimchalarni to‘g‘ri qo‘shib yozish;

– atoqli va qisqartma otlarni imlo qoidalari asosida yozish;

– so‘zlarni ajratib va qo‘shib yozishni bilish va h.z.

3. *Diktant, bayon, insho yozish bo‘yicha:*

– o‘qilgan matnni bexato va husnixat talabalari asosida yozish;

– tinish belgilari va bo‘g‘in ko‘chirish qoidalarini to‘g‘ri qo‘llash;

– ajratib va qo‘shib yoziladigan so‘zlar, juft so‘zlarni, atoqli otlarni imlo qoidalari asosida yozish;

– so‘zlar va harflarni husnixat talablari asosida yozish;

– atoqli va qisqartma otlarni imlo qoidalari asosida yozish;

– matn mazmunini mavzu asosida to‘g‘ri bayon qila olish;

– matn tarkibidagi gaplar mantiqli va izchil bog‘lay olish;

– matnda mavzuga ijodiy yondasha olish va adabiy materiallardan o‘rinli foydalanish;

– matnni savodxonlik va husnixat talablari asosida tuza olish kabi.

#### 4. Matn tuzish bo'yicha:

- terma gaplardan bog'lanishli matn tuza olish;
- berilgan tasvir, rasm, mavzu asosida matn tuza olish;
- matn tarkibidagi gaplarni o'zaro uzviylikda bog'lay olish;
- matn qismlarini izchillikda va mantiqiy bog'liqlikda joylashtira olish;
- matndagi asosiy fikrni qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldira olish;
- matnni qisqartirish, kengaytirish, xulosalashni bilish;
- matnga sarlavha qo'yish, reja tuzish kabi.

O'zbek tili darslarida, odatda, matn ustida ishlashda matnni o'qitish, ona tiliga tarjima qildirish, mazmunini so'zlatish yoki matndagi gaplardan foydalanib savollar tuzish va savollarga javob qaytarish tarzidagi topshiriqlar bajartiriladi. Xususan, matnni tarjima qilish ancha vaqtni olgani uchun ko'p hollarda dars oldiga qo'yilgan maqsaddan chiqib ketishga olib keladi.

Ayrim holatlardagina o'qituvchi o'quvchilardan matn mazmunini qayta hikoya qilishni talab etadilar. Shunday topshiriq berganlarida esa yoshlar matndagi gaplarni yod ola boshlaydilar, bir necha gapni eslab qolgach, ko'pincha matn tarkibidagi so'zlarni ayta boshlaydilar. Guruhdagi o'zbek tilini biladigan o'quvchilargina qurilishi tanish, murakkab bo'lmagan gaplarni ixchamlab ayta olishlari, qiyinlarini esa darslikka bir qarab olib yoddan gapirishga harakat qiladilar. Bunday qayta hikoya qilishda so'zlash real voqelikdan uzilib qoladi va natijada bola nima to'g'risida gapirish kerakligini ko'z oldiga keltira olmaydi.

Demak, yod olish asosida ravon so'zlanmagan qayta hikoyalashda, birinchidan, matn mazmunini tinglovchiga yetkazish maqsadi bolmaydi, ikkinchidan, "qayta hikoyalash" jonli so'zlashuvdan yiroqligicha qoladi. Bunday qayta hikoyalash nutqiy mashq tusini olmaydi, og'zaki nutq o'stirish ehtiyojlariga mutlaqo javob bermaydi. Bunday mashqlar o'quvchilarni qiziqitirmaydi, qanoatlantirmaydi, ularni yangi marralarni egallash sari ruhlantirmaydi, aksincha, toliqtiradi, oxir-oqibatda ularning til o'rganishga bo'lgan hafsalasini pir qiladi. Matn asosida og'zaki nutq o'stirish o'ta qiyin talimiy jarayon ekanligini yuqorida aytilganlardan ham bilsa bo'ladi.

Bugungi kungacha rusiyzabon o'quvchilarning o'zbek tilidagi yozma nutqigina baholab kelingan. Og'zaki so'zlashuv nut-

qi, o‘qish va tinglab tushunish ko‘nikmalarini baholash mezonlari ishlab chiqilmagan. Ta’limda natijaviylikni aniqlash uchun har bir sinfdagi o‘quvchilarning tinglab tushunish, gapirish, o‘qish ko‘nikmalarini ham alohida baholash borish kerak bo‘ladi. Quyida tinglab tushunish, gapirish va o‘qish bo‘yicha o‘quvchilar egallagan ko‘nikmalarni baholash mezonlarini tavsiya etamiz.

**Tinglab tushunish ko‘nikmasi bo‘yicha o‘quvchilar egallashi kerak bo‘lgan ko‘nikmalar:**

– spetsifik nutq tovushlarini va so‘zlarni eshitilganidek talaffuz qilish;

- aytilgan so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini tushunish;
- eshittirilgan axborot, gap, matn mazmunini tushuna olish;
- berilgan savollar va javoblar mazmunini tushuna olish;
- tinglangan voqea syujetini tushuna olish.

**Tinglab tushunish ko‘nikmasini baholash mezonlari**

T/r	Bilim, ko‘nikma, malakalar bo‘yicha egallangan kompetensiyalar	Baholash	
		Yuqori daraja	Quyi daraja
1.	Eshittirilgan axborot, gap yoki matn mazmunini, so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini tushunsa, tinglangan voqea syujetini, dialog va polilogik suhbatlar mazmunini to‘liq tushunsa.	5	
2.	Eshittirilgan axborot, gap yoki matn mazmunini, so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini tushunsa, tinglangan voqea syujetini, dialog va polilogik suhbatlarning asosiy mazmunini tushunsa.		5-
3.	Eshittirilgan axborot, gap yoki matn mazmunini, so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini tushunsa, tinglangan voqea syujetini, dialog va polilogik suhbatlarning umumiy mazmunini tushunsa.	4	
4.	Eshittirilgan axborot, gap yoki matnning asosiy mazmunini, so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini tushunsa, tinglangan voqea syujetini, dialog va polilogik suhbatlar mazmunini qisman tushunsa.		4-
5.	Eshittirilgan axborot, gap yoki matnning umumiy mazmunini tushunsa, so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini tushunsa, biroq tinglangan voqea syujetini, dialog va polilogik suhbatlar mazmunini yaxshi tushunmasa.	3	



6.	Eshittirilgan axborot, gap yoki matnning mazmunini yaxshi tushunmasa, soʻz va soʻz birikmalarining maʼnosini tushunsa, biroq tinglangan voqea syujetini, dialog va polilogik suhbatlar mazmunini yaxshi tushunmasa.		3-
7.	Eshittirilgan axborot, gap yoki matnning mazmunini tushunmasa, soʻz va soʻz birikmalarining maʼnosini tushunsa, biroq tinglangan voqea syujetini, dialog va polilogik suhbatlar mazmunini tushunmasa.	2	
8.	Eshittirilgan axborot, gap yoki matnning mazmunini ham, soʻz va soʻz birikmalarining maʼnosini ham tushunmasa, tinglangan voqea syujetini, dialog va polilogik suhbatlar mazmunini ham umuman tushunmasa.		2- (1)

2. Gapirish boʻyicha oʻquvchilar egallashi kerak boʻlgan koʻnikmalar:

– oʻrganilgan soʻzlar, grammatik shakllar va iboralarni gap tarkibida toʻgʻri qoʻllay olish;

– soʻzlarni ortiqcha toʻxtamlarsiz erkin bogʻlab gapirsa;

– berilgan savollarga mos javob bera olish;

– matn mazmuni boʻyicha savol-javob qila olish;

– dialoglarga qoʻshilish va suhbatni davom ettira olish;

– matnni davom ettirish, unga munosabat bildira olish;

– matn shaxsini yoki zamonini oʻzgartirib soʻzlab bera olish;

– matn mazmunini qisqartirib yoki kengaytirib soʻzlab bera olish;

– matnni xulosalay olish;

– matnga sarlavha qoʻyish yoki sarlavha asosida matn tuza olish;

– matn qismlarini bir-biriga bogʻlay olish;

– berilgan gaplarni izchillikda joylashtirib, bogʻlanishli matn tuza olish;

– matnni oʻz soʻzlari bilan hikoya qilib bera olish;

– berilgan tasvir, rasm, mavzu asosida matn tuza olish;

– mavzuni izchil, mantiqiy bogʻliq bayon qila olish.

## Gapirish ko‘nikmasini baholash mezonlari

T/r	Bilim, ko‘nikma, malakalar bo‘yicha egallangan kompetensiyalar	Baholash	
		Yuqori daraja	Quyi daraja
1.	Gapirish jarayonida orfoepik me‘yorlar, tovush o‘zgarishlariga to‘liq rioya qilsa, so‘zlarni qo‘llashda tavnologiyaga yo‘l qo‘ymasa, jummalarni to‘xtamlarsiz erkin bog‘lab gapirsa.	5	
2.	Gap tarkibidagi so‘zlar va spetsifik nutq tovushlarini orfoepik me‘yorlar asosida to‘g‘ri talaffuz qilsa, so‘zlarni ortiqcha tavnologiyasiz va to‘xtamlarsiz erkin bog‘lab gapirsa.		5-
3.	Gapirish jarayonida orfoepik me‘yorlar qisman buzilsa, so‘zlarni qo‘llashda ayrim tavnologik xatolarga, jummalarni bog‘lashda ham ortiqcha to‘xtamlarga yo‘l qo‘ysa.	4	
4.	Gapirish jarayonida gap tarkibidagi so‘zlar va spetsifik nutq tovushlari talaffuzida xatolarga yo‘l qo‘ysa, so‘zlarni qo‘llashda ayrim tavnologik xatolari, jummalarni bog‘lashda ham ortiqcha to‘xtamlari mavjud bo‘lsa.		4-
5.	Gapirish jarayonida spetsifik nutq tovushlari talaffuzida, tovush o‘zgarishlarida xatolar ko‘p uchrasa, so‘z boyligi yetishmasligi tufayli tavnologik xatolari ko‘p bo‘lsa, jummalarni bog‘lashda ham ortiqcha to‘xtamlar ko‘p bo‘lsa.	3	
6.	Gapirish jarayonida orfoepik talaffuz me‘yorlarni qo‘pol ravishda buzsa, spetsifik nutq tovushlari, tovush o‘zgarishlari talaffuzida xatolarga yo‘l qo‘ysa, so‘z boyligi qashshoq, tavnologik xatolari ko‘p bo‘lsa, jummalarni bog‘lashda ham to‘xtamlar ko‘p bo‘lsa.		3-
7.	O‘zbek tilida orfoepik talaffuz me‘yorlariga rioya qilmasa, spetsifik nutq tovushlari, tovush o‘zgarishlari talaffuzini qo‘pol ravishda buzsa, so‘z boyligi qashshoq bo‘lsa, jummalarni bog‘lay olmasa.	2	
8.	O‘zbek tili orfoepik talaffuz me‘yorlarini, spetsifik nutq tovushlari talaffuzini bilmasa, so‘z boyligi qashshoq bo‘lsa, jummalarni bog‘lay olmasa.		2- (1)

### 3. O‘qish ko‘nikmasi bo‘yicha o‘quvchilar egallashi kerak bo‘lgan ko‘nikmalar:

– so‘zlarni spetsifik nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilgan holda o‘qiy olish;

- so‘zlarni urg‘uni to‘g‘ri qo‘ygan holda o‘qiy olish;
- so‘zlardagi orfoepik tovush o‘zgarishlarini bilish va to‘g‘ri o‘qish;
- gaplarni sintagmalarga to‘g‘ri ajratgan holda o‘qiy olish;
- gaplar urg‘usi va ohangini bilish va mos shaklda o‘qiy olish;
- dialogni rolli o‘qiy olish;
- poliloglarda 3-shaxs sifatida ishtirok eta olish;
- she‘rni ifodali o‘qiy olish;
- matnni o‘rnatilgan vaqt tezligida o‘qiy olish va h.z.

### **O‘qish ko‘nikmasini baholash mezonlari**

T/r	Bilim, ko‘nikma, malakalar bo‘yicha egallangan kompetensiyalar	Baholash	
		Yuqori daraja	Quyi daraja
1.	So‘zlardagi spetsifik nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilib va urg‘uni to‘g‘ri qo‘yib o‘qisa, orfoepik tovush o‘zgarishlarini to‘g‘ri anglab va gaplarni sintagmalarga to‘g‘ri ajratib o‘qisa, matnni o‘rnatilgan vaqt tezligida va ifodali o‘qisa.	5	
2.	So‘zlardagi spetsifik nutq tovushlarini, orfoepik tovush o‘zgarishlarini to‘g‘ri talaffuz qilsa va urg‘uni to‘g‘ri qo‘yib va yetarli tezlikda ifodali o‘qisa, biroq gaplarni sintagmalarga ajratishda bir-ikki joyda xatoga yo‘l qo‘ysa.		5-
3.	So‘zlardagi spetsifik nutq tovushlarini, orfoepik tovush o‘zgarishlarini to‘g‘ri talaffuz qilsa va urg‘uni to‘g‘ri qo‘yib ifodali o‘qisa, biroq gaplarni sintagmalarga ajratishda xatolarga yo‘l qo‘ysa.	4	
4.	So‘zlardagi spetsifik nutq tovushlarini, orfoepik tovush o‘zgarishlarini to‘g‘ri talaffuz qilsa, biroq urg‘uni to‘g‘ri qo‘yib ifodali o‘qishda va gaplarni sintagmalarga ajratishda xatolarga yo‘l qo‘ysa.		4-
5.	So‘zlardagi spetsifik nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilsa, biroq tovush o‘zgarishlarida orfoepik qoidalarga to‘liq rioya qilmasa, urg‘uni to‘g‘ri qo‘yib ifodali o‘qishda va gaplarni sintagmalarga ajratishda xatolarga yo‘l qo‘ysa.	3	
6.	So‘zlardagi spetsifik nutq tovushlari talaffuzida xatolarga yo‘l qo‘ysa, tovush o‘zgarishlaridagi orfoepik qoidalarga rioya qilmasa, urg‘uni to‘g‘ri qo‘yib ifodali o‘qishda va gaplarni sintagmalarga ajratishda xatolari ko‘p bo‘lsa.		3-

7.	Soʻzlardagi spetsifik nutq tovushlarining talaffuzini, tovush oʻzgarishlarining orfoepik qoidalarini yaxshi bilmasa, urgʻuni qoʻyish, gaplarni sintagmalarga ajratishda xatolari koʻp boʻlsa, matni ifodali oʻqiy olmasa.	2	
8.	Soʻzlardagi spetsifik nutq tovushlarini talaffuz qila olmasa, tovush oʻzgarishlarining orfoepik qoidalarini bilmasa, urgʻularni toʻgʻri qoʻya olmasa, gaplarni sintagmalarga ajrata olmasa, matni oʻqiy olmasa.		2-

Diktantni baholashda quyidagi mezonlar belgilanihi maqsadga muvofiq:

### Diktantni baholash mezonlari

T/r	Bilim, koʻnikma, malakalar boʻyicha egallangan kompetensiyalar	Baholash	
		Yuqori daraja	Quyi daraja
1.	Mutlaqo xatosiz va husnixat talablari asosida yozilgan va bitta tinish belgida xatosi boʻlsa.	5	
2.	Husnixat talablari asosida yozilgan va bitta tinish belgida xatosi boʻlsa.		5-
3.	Diktant matnida 1 ta imlo va 1 ta tinish belgida xatosi boʻlsa.	4	
4.	Diktant matnida 1ta imlo va tinish belgisida 2 ta xatosi boʻlsa.		4-
5.	2ta imlo hamda 2 ta yoki 3ta tinish belgida xatosi boʻlsa, bunda imlo xatolar soni 2 tadan oshmasa.	3	
6.	Diktant matnida 3 ta imlo va 3 ta tinish belgida xatosi boʻlsa.		3-
7.	Diktant matnida imlod va tinish belgilarida 4 tagacha xatosi boʻlsa.	2	
8.	Imlo va tinish belgilarida 8 tagacha xatosi boʻlsa.		2-

Diktant yozma nutqni va egallangan bilim, koʻnikma, malakalarni nazorat qilishning eng oson va tezkor usuli hisoblanadi, shuning uchun, odatda, yakuniy nazorat sifatida ham oʻtkaziladi. Shu bois uni baholashda quyilagi umumiy qoidalarga rioya qilinishi kerak boʻladi:

1. Diktantdagi xatolar turlicha koʻrinishda boʻlishiga qaramay, baholashda imlo xatolar miqdori asosiy chegara sanaladi.

2. Agar diktantda oʻquvchi tomonidan kiritilgan tuzatishlar miqdori 3 tadan ortiq boʻlsa, baho 1 balga pasayadi.

3. Agar diktantda 2 va undan ortiq tuzatish bo'lsa, ishga maksimal ball qo'yilmaydi.

4. Agar yozma ish (diktant, matn yaratish) mutlaqo xatosiz yozilgan, ammo husnixati talabga javob bermasa, natija 2 balga pasayadi.

### Bayon, insho yozish va matn yartishni baholash mezonlari

T/r	Bilim, ko'nikma, malakalar bo'yicha egallangan Kompetensiyalar	Baholash	
		Yuqori daraja	Quyi daraja
1.	Matn mazmuni mavzu asosida to'g'ri bayon qilingan bo'lsa, mantiqli va izchil bo'lsa, so'z boyligi, ifoda qurilishi va uslubi adabiy til talablariga mos bo'lib, mavzuga ijodiy yondashilgan bo'lsa, matnda adabiy materiallardan o'rinli foydalangan bo'lsa, savodxonlikda qo'pol bo'lmagan 1 ta imlo va ikkita tinish belgida xatosi bo'lsa, uslubiy xato bo'lmasa hamda husnixat talablari asosida yozilgan bo'lsa.	5	
2.	Fikr bayonida izchillik ta'minlangan, husnixat talablari asosida yozilgan, biroq so'z tanlashda va ifoda qurilishida qisman har xillik bo'lsa, matnda adabiy materiallardan foydalangan bo'lsa, savodxonlikda 2 ta imlo, 2 ta tinish belgida va ikkita uslubiy xato bo'lsa.		5-
3.	Husnixat talablari asosida yozilgan, biroq fikr bayonida izchillik biroz yetishmasa, so'z tanlashda va ifoda qurilishida har xillik bo'lsa, mustaqil va ijodiy fikrlashda biroz kamchiliklar kuzatilsa, adabiy materiallardan qisman foydalangan bo'lsa, savodxonlikda 4 imlo, 4 tinish belgida va uchta uslubiy xato bo'lsa.	4	
4.	Mavzuni yoritishda ijodkorlik yetarli bo'lmasa, voqealar izohida mantiqiylik, izchillik bo'lsa, so'z boyligi, matnda adabiy materiallar o'ransiz qo'llangan bo'lsa; savodxonlikda 5 ta imlo, 5 ta tinish belgi, 3 taga uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan va husnixat talablari qisman buzilgan bo'lsa.		4-
5.	Fikr bayoni va qurilishida izchillik yetishmasa, so'z boyligi yetarli bo'lmasa, takror fikrlar mavjud bo'lsa, matnda adabiy materiallardan yetarli foydalanmagan bo'lsa; savodxonlikda husnixat talablari qisman buzilgan bo'lsa, husnixat talablari qisman buzilgan, 7 ta imlo, 7 ta tinish belgida, 4 ta uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	3	

6.	Fikr bayoni va qurilishida buzilishlar bo'lsa, fikrlar bir-biriga bog'lanmasa, so'z boyligi qashshoq, matnda adabiy materiallardan foydalanmagan bo'lsa, savodxonlikda husnixat talablari buzilgan, 8 ta imlo, 8 ta tinish belgida, 5 ta uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.		3-
7.	Fikr bayoni va qurilishida izchillik ta'minlanmagan bo'lsa, takrorlar, g'aliz fikrlar uchrasa, matnda adabiy materiallardan foydalanmagan bo'lsa, so'z boyligida nuqsonlar kuzatilsa; savodxonlikda 9 ta imlo, 9 ta tinish belgida, 6ta uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan, husnixat talablariga rioya qilinmagan bo'lsa.	2	
8.	Fikr bayoni va qurilishida qo'pol buzilishlar bo'lsa, fikrlar bir-biriga bog'lanmasa, matnda adabiy materiallardan umuman foydalanmagan bo'lsa, matn yakunlanmagan bo'lsa; savodxonlikda 10 ta imlo, 10 ta tinish belgida, 7ta uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan, husnixat talablari asosida yozilmagan bo'lsa.		2- (1)

**Izoh:** Ba'zan o'quvchining yozma ishidagi xatolar miqdori yuqoridagi mezonga mos kelmasligi mumkin. Bunday hollarda 2 ta ishoraviy xatoni 1 ta imlo xato o'rnida, 2 yoki 3 ta imlo xatoni 1 ta uslubiy xato sifatida baholash mumkin. Xatolarning (uslubiy, imlo, ishora) har birining soni jami 10 tadan oshsa o'quvchiga 1 baho qo'yiladi.

Yozish kompetensiyasini shakllantirib va rivojlantirib borish uchun yakuniy yozma ishlardan so'ng albatta xatolar ustida ishlash darslarini tashkil etish va har bir o'quvchiga xatolarining sonini tushuntirish, qilgan xatolarining to'g'ri shaklini ish daftariga kamida 5–10 martadan ko'chirtirish maqsadli bo'ladi. Shuningdek, choraklar oralig'ida albatta lug'at diktanti, saylanma diktant, izohli diktant kabi ta'limiy diktantlar o'tkazib turish kerak. Keyingi yillarda bu kabi yozma ishlarning kam o'tkazilayotgani, yo'l qo'yilgan xatolar ustida ishlanmayotgani savodxonlik darajasini nihoyatda pasaytirib yubordi. Yozma ishlarda so'zlarni qisqartirib yozish, harflarni chap tomonga yonboshlatib o'zi xohlaganidek yozishga mutlaqo ruxsat bermaslik kerak.

Ushbu mezonlar asosida baholashni tashkil etish o'qituvchiga har bir o'quvchidagi til ko'nikmalarining o'sib borish darajasini to'liq tahlil qilib borish, muayyan vaqtdan keyin bo'lgan o'zgarishlarni aniq bilib borish, qaysi ko'nikmaning qaysi parametrlari

ustida ishlashni kuchaytirish kerakligini rejalashtirish imkonini beradi. Buning uchun o'qituvchi har bir sinf uchun har bir o'quvchiga alohida sahifa ajratiladigan alohida qayd varaqalarini (dafari yoki elektron jurnal bo'lishi ham mumkin) yuritishi va har bir mavzuda o'quvchini egallagan til ko'nikmalari bo'yicha baholab borishi kerak bo'ladi.

Qayd daftarini quyidagicha sahifalash mumkin:

**“O‘zbek tili” fanidan 8-A sinfi uchun o‘quvchilar  
BKMLarini aniqlash varaqasi**

**O‘qituvchi:** \_\_\_\_\_

O'quvchining ismi-sharifi	Mavzu va sana	Tinglab tushunish	Gapi-rish	Yozish	O'qish	Lisoniy bilimi	Umu-miy
Muhamedov Bahodir	Hosil bayrami	3	4-	4	5	4	4
_____	_____	—	—	—	—	—	—

Til ko'nikmalarini nutq faoliyati turlari bo'yicha baholashni tashkil etish uchun barcha fanlar uchun odatdagidek umumiy sinf jurnali emas, har bir sinfda o'qitiladigan fanlar uchun alohida fan jurnalini yuritishni taqazo etadi. Unda har bir o'quvchi uchun ayrim sahifa ajratilishi, yil boshidan yil oxirigacha mavzular kesimida o'quvchi egallagan bilim, ko'nikmalarni alohida-alohida baholab borilishi tavsiya qilinadi. Baholashning unday shakli o'quvchilar tomonidan egallangan ko'nikmalarni mavzular kesimida aniq yoritib borishga shart-sharoit yaratadi, har bir o'quvchi nutqidagi zaif tomonlarni ko'rsatib beradi. Ayni vaqtda o'qituvchi uchun o'quvchining bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirishning keyingi bosqichlarida qaysi jihatlarga e'tibor berishi zarurati ni ko'rsatib turuvchi dalil yo'riq noma vazifasini bajaradi.

**Savol va topshiriqlar:**

1. Ta'lim bosqichlarida til ko'nikmalarining egallanganlik darajasi qanday baholanadi?
2. Yozma nutqni shakllantirishning asosiy parametrlarini nimalar tashkil etadi?

3. Yozuv ko'nikmasining shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlari haqida ma'lumot bering.
4. Diktant turlari va ularni baholash mezonlari haqida so'zlab bering.
5. Bayon yozish qanday tashkil etiladi va qaysi parametrlar asosida baholanadi?
6. Insho qanday ko'nikmalarni shakllantiradi va ular qanday baholanishi kerak?
7. Ikkinchi til ta'limida matn yaratishning o'rni va baholash mezonlari haqida so'zlab bering.
8. Tinglab tushunish bo'yicha o'quvchilar egallashi kerak bo'lgan ko'nikmalar va ularni baholash mezonlari haqida so'zlab bering.
9. O'qish ko'nikmasi bo'yicha o'quvchilar qanday ko'nikmalarni egallashi kerak va ular qanday baholanishi maqsadga muvofiq?
10. Sizningcha, til ta'limida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni ta'limda natijaviylik asosida baholash qanday tashkil etilishi kerak?

#### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Лапидус Б. А. К вопросу о сущности процесса обучения иноязычной устной речи и типологии упражнений // ИЯШ. № 4. – 2006. – С. 112–122.
2. Yo'ldoshev R. A. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitish metodikasi. – T.: O'zPFTI, 2015. – 39-b.
3. Мухитдинова Х.С. Формирование навыков правильного чтения при обучении второму языку (на примере узбекского языка) / Мат-лы международной научно-практической конференции “Актуальные проблемы филологии и лингводидактики” 29 октября 2020 г. – Душанбе, 2020. – С. 375–378.
4. Мухитдинова Х.С. Ўзбек тилини ўзга тиллар вакилларига ўқитишда орфоэпик талаффуз меъёрларини шакллантириш / ЎзХИА республика илмий-амалий конференцияси материаллари, 2020 йил, 19 октябрь. – Тошкент, Ўз ХИА, 2020. – 118–122-б.
5. Muxitdinova X.S. O'zbek tilini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari (monografiya). – T.: VNESHINVEST, 2021.



## XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, oʻzga tilli guruhlarda oʻzbek tilini oʻqitishni samarali tashkil etish oʻziga xos yondashuvlar, metodlar va usullardan foydalanish zarurligini koʻrsatadi. Oʻzbek tilini ona tili va ikkinchi til sifatida oʻqitish mezonlari bir-biri bilan mutanosib boʻla olmaydi. Ona tili darslarida oʻquvchilarga taqdim etiladigan oʻquv materiallari oʻzbek tilini grammatik kategoriyalar izchilligi tamoyilida tushuntirishga yoʻnaltirib tanlansa, taʼlim boshqa tillarda olib boriladigan maktablardagi oʻzbek tili fani esa oʻquvchilarni shu tilda soʻzlashga, aytilayotgan soʻzlar va jummalarni tinglab tushunishga, yaʼni nutqqa olib chiqishga qaratiladi. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, “Oʻzbek tili” darsliklarida oʻquvchilarga taqdim etiladigan bilimlarini nutq faoliyatining turlari boʻyicha amaliy koʻnikmalarni rivojlantirishga yoʻnaltirib tanlanishi kerak boʻladi. Biroq oʻzbek tilining aglutinativ tuzilishli til ekanligi, ayni vaqtda nazariy grammatik maʼlumotlar izchilligini ham taqozo etadi. Shu bois oʻzbek tilini oʻqitish metodikasining dolzarb masalalaridan biri – nutqiy materiallar va grammatik bilimlar uzviyligi va uzluksizligini taʼminlash orqali oʻquv-biluv materiallarini oʻquvchilar ongiga oson va puxta singdirish orqali ularda amaliy nutq koʻnikmalarini shakllantirishga yoʻnaltirilgan mexanizmni ishlab chiqish, nutqiy koʻnikmalarni shakllantirishning ixcham, kompakt modellarini yaratishdir. Bu hozirgi zamon didaktikasining muhim masalalaridan biri boʻlgan oʻquv-biluv materiallarini tanlash va strukturalashtirishni, yaʼni taʼlim bosqichlarida beriladigan nutqiy va grammatik materiallarning minimumini aniqlash, mashq va topshiriqlar turlarini tanlash va ularni bosqichli ketma-ketlikda tarkiblashni talab etadi. Mazkur oʻquv-biluv topshiriqlarini bosqichli ketma-ketlikda bajartirish orqaligina oʻquvchilarda nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni tarkib topdirishga, ular orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga erishish mumkin boʻladi. “Oʻzbek tili”ni oʻqitishda taʼlim samaradorligiga erishish mazkur fan oʻqituvchilaridan oʻquv-biluv topshiriqlarining ushbu bosqichli ketma-ketligini taʼminlashdan iborat koʻp qirrali faoliyatni, yuqori darajadagi metodik layoqatni ham talab etadi. Biz boʻlajak oʻqituvchilarga oʻz nazariy bilimlarini muntazam oshirib borishni, tadqiqotchilarga ikkinchi til taʼlimining lingvodidaktik asoslarini chuqur egallab, oʻzbek tilini oʻqitishning zamonaviy metodlarini ishlab chiqish boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borishlarini talab qolamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonova M., Abbosova G. Nutq o‘stirish bo‘yicha qo‘l-lanma (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari bo‘yicha). – Toshkent, 1998.

2. Абдукодиров А. А. “Педагогика” ва “Психология” фанларидан кейслар ва улардан фойдаланиш услубиёти. – Тошкент: Фан ва технология, 2015.

3. Акромова Л.Ю. Обучение письменной речи на базе научного текста по специальности в группах одаренных студентов медицинских вузов. АКД. – Тошкент, 2001.

4. Алиева И.М. Отсутствие языковой среды как фактор, обуславливающий методические принципы обучения иностранному языку. – Баку, 2008. – С.135–136-б.

5. Андриянова В. И., Стыркас И. Н., Тумпаров Р. Р., Рахматова Ф. К. Рус тили. Академик лицейларнинг ўзбек гуруҳлари учун // Ўрта махсус, касб-хунар таълимнинг умумтаълим фанлари давлат таълими стандартлари ва ўқув дастурлари. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 258–315. [http://festival.1september.ru/2004–2005/index.php.numb\\_artic=213394](http://festival.1september.ru/2004–2005/index.php.numb_artic=213394);

6. Алимova Ш., Зоитова О., Умарова Н. Ўзбек тили (техника университетининг русийзабон талабалари учун). – Тошкент: ТДТУ, 2004.

7. Асилова Г.А. Божхона ва солиқ йўналишлари талабаларининг давлат тилида касбий мулоқот юритиш компетенциясини ривожлантириш (рус гуруҳларида): Пед. фан.докт. (DSc) ..... дис. – Тошкент, 2017.

8. Asilova G.A. O‘zbek tili (oliy ta‘lim bakalavriyat yo‘nalishi rus gu-ruhlari uchun darslik). – Toshkent: Yosh kuch, 2010.

9. Ахмедова Г. Ўзбек тили дарсларида ўқувчилар нутқини ясама сўзлар билан бойитишнинг методик асослари (таълим рус тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Пед. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2006. –164-б.

10. Бекниязова Н. Бошланғич синфлар она тили дарсларида ўқувчиларга матн яратишни ўргатиш методикаси (таълим ўзбек ва қорақалпоқ тилларида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Монография. – Тошкент, 2012.

11. Бим И.Л. Теория и практика обучения немецкому языку в средней школе: проблемы и перспективы. – Москва: Просвещение, 1988. – С. 20.

12. Зиёдова Т. Матн яратиш технологияси. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 2005.

13. Дадажоновна Н.М. Ўзбек тили таълими жараёнида олий ўқув юртлирининг нофилологик ихтисосликларида ўқийдиган талабаларнинг нутки устида ишлаш методикаси: Пед. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1996.

14. Джусупов М. Лингвотипологические, социолингвистические и лингводидактические проблемы обучения неродному языку // Филология масалалари. – Тошкент, 2002. – № 1–2. – С.214.

15. Зимняя И. А. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке. – Москва: МГУ, 1998. –144–145.

16. Зимняя И.Н. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования / Ж. Высшее образование сегодня, №5. – Москва, 2003.– С. 34–42.

17. Жўраев М. Ўзбек тилини давлат тили сифатида ўргатиш методикасининг шаклланиши (олий ўқув юртлирида давлат тили таълими мисолида): Пед. фан. ном. ... дис. авт-ти. – Тошкент, 2005.

18. Ирискулов М.Т. Тил ва адабиёт таълим журнали муҳарририга берган интервьюси// Тил ва адабиёт таълими. №1. – Тошкент, 2017. – Б. 27.

19. Йўлдошев Р. Гап тузиш жараён сифатида // Тил ва адабиёт таълимида янги педагогик технологиялар. II қисм. – Тошкент, 2006. – Б. 46–47.

20. Йўлдошев Р. Ўзбек тили таълими мазмунини белгилашда мавзувийликнинг ўрни ҳақида // Йигирма биринчи асрда ўзбек тили таълими масалалари: Ўзбек тили доимий IX анжумани материаллари. –Тошкент, 2007. – Б. 180–181.

21. Йўлдошев Р. Узлуксиз ўзбек тили таълимида функционал-семантик ёндашувнинг татбиқиға доир // Узлуксиз таълим. – Тошкент: 2008. – 5-сон. – Б. 20–24.

22. Yoʻldoshev R.A. Oʻzbek tili darslarida oʻquvchilarning ogʻzaki nutqini ularni koʻp gapirtirish orqali oʻstirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar. – 2012. – 200-b.

23. Yoʻldoshev R.A. Taʼlim rus tilida olib boriladigan maktablarda oʻzbek tilini metodikasi. – Тошкент: OʻzPFTI, 2015.

24. Кадырова Ф.Р. Лингводидактические основы обучения детей дошкольного возраста второму языку (на материале русского и узбекского языков): Дис. ... док. пед. наук. – Ташкент: 2006. – С. 95.

25. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутки маданияти. – Тошкент: Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 69–70-б.

26. Маҳмудов Н. Тил таълими ва стилистика // Ж. Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2009. – 1-сон. – 3–4-б.

27. Маҳмудов Н., Тўхлиев Б. Ўзбек тилини ўрганамиз. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991.

28. Маҳмудова З., Усмонова Г. Ўзбек тили (рус гуруҳлари учун ўқув қўлланма). – Тошкент: ТДИУ, 2002.

29. Мирзаев И., Болтабоев М. Ўзбек тили (олий ўқув юртлари рус гуруҳлари учун дарслик). – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.

30. Мирқосимова М., Алимова Ш., Зоитова О., Умарова Н. Ўзбек тили (техника университетининг русийзабон талабалари учун). – Тошкент: ТДТУ, 2004.

31. Мисирова Ў. Ўлкашунослик материалларини ўрганишда узвийлик ва узлуксизлик // Тил ва адабиёт таълимида янги педагогик технологиялар. 2-қисм. – Тошкент, 2006. – 59–61-б.

32. Мустафоева Ҳ. Т. Инглиз тили грамматикасини ижтимоий-гуманитар йўналишдаги талабаларга ўргатишнинг лингвометодик хусусиятлари: Пед. фан. ном... дис. – Самарқанд, 2003. – 139-б.

33. Мухитдинова Х.С. Ўзбек тилини ўқитишда узлуксизликни таъминлашнинг илмий-методик асослари (монография, 14 б.т.). – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2008.

34. Мухитдинова Х.С. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг лингвометодик асосларини такомиллаштириш: Пед. фан. док. ... дис. – Тошкент, 2011.

35. Мухитдинова Х.С. Взаимосвязь и семантические свойства слова и их учет при обучении узбекскому языку как второму / А. Арабаев атындагы Кыргыз мамлакаттик университетининг Жарчысы. №1 (2). – Бишкек, 2011. – С. 263–265.

36. Muxitdinova X.S., Salisheva Z.I., Po'latova X.S. O'zbek tili (oliy o'quv yurtlari rusiyazabon guruhlari uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 288-b.

37. Muxitdinova X., Madjidova R., Shokirova S. O'zbek tili (iqtisodiy yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlarning rus guruhlari uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2013. – 222-b.

38. Muxitdinova X., Avlakulov Ya., Nuriddinova D. O'zbek tili (ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 6-sinfi uchun darslik) – Toshkent: Mitti yulduz, 2017.

39. Muxitdinova X., Avlakulov Ya., Nuriddinova D. 6-sinfda o'zbek tili darslari (ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 6-sinf darsligi uchun metodik qo'llanma, 8,5 b.t.). – Toshkent: Mitti yulduz, 2013.

40. Muxitdinova X., Avlakulov Ya., Nuriddinova D. O'zbek tili (ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 7-sinfi uchun darslik) – Toshkent: O'qituvchi, 2017.

41. Muxitdinova X.S. 7-sinfda o‘zbek tili darslari (ta’lim rus va qar-dosh tillarda olib boriladigan maktablarning 7-sinf darsligi uchun meto-dik qo‘llanma, 10,0 b.t.). – Toshkent: O‘qituvchi, 2013.

42. Muxitdinova X.S. O‘zbek tili ta’limida til materiallarini uzviylik asosida taqsimlash masalasi / Ж. “Til va adabiyot ta’limi”. – Toshkent, 2014. – 1-son. – 5–6-b.

43. Мухитдинова Х.С. Ўзбек тили таълими стандартлари талаб-лари ва уларни такомиллаштиришга доир мулоҳазалар / Роман-гер-ман тилшунослиги долзарб масалалари (республика илмий-амалий анжумани материаллари, 2016 йил 30 апрель. – Тошкент, 2016. – 46–51-б.

44. Мухитдинова Х.С. “Ўзбек тили” фанидан юқори синф ўқув-чиларида шакллантириладиган компетенциялар ва уларни баҳолаш меъёрлари / ЎзДЖТУ “Истиқлол ва тил” тўплами (11-қисм). – Тош-кент, 2018. – 3–13-б.

45. Muxitdinova X. O‘zbek tili (ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 8-sinfi uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

46. Мухитдинова Х.С. Тил таълимининг компетенциявий дара-жаларини такомиллаштириш ва сертификатлаштириш масалалари / “Ўзбекистонда педагогика фани ва унинг истиқболлари “мав-зусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари, Тошкент, 25 апрель 2019 йил. – 180-182-б.

47. Мухитдинова Х.С. Ўзбек тилини иккинчи тил сифатида ўқи-тишда ўқув-билув материаллари билан ишлаш. – ЎзДЖТУ, Fled.Uz (электрон журнал), 2020.

48. Muxitdinova X.S. O‘zbek tili ta’limining milliy konsepsiyasi: mavjud muammolar, istiqboldagi vazifalar / Международная научно-практическая конференция: Языки и литературы в поликультурном пространстве: современное состояние и перспективы развития, 2020, 25 ноябрь. – Уфа, 2020. – 317–324-б.

49. Мухитдинова Х.С. Формирование навыков правильного чте-ния при обучении второму языку (на примере узбекского языка) / Материалы международной научно-практической конференции “Актуальные проблемы филологии и лингводидактики” 29 октября 2020 г. – Душанбе, 2020. – С. 375–378.

50. Мухитдинова Х.С. Ўзбек тилини ўзга тиллар вакилларига ўқитишда орфоэпик талаффуз меъёрларини шакллантириш / Ўзбе-кстон халқаро ислом академияси республика илмий-амалий конференцияси материаллари, 2020 йил, 19 октябрь. – Тошкент, Ўз ХИА, 2020. – 118–122-б.

51. Muxitdinova X.S. O‘zbek tilini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari (monografiya). – T.: VNESHINVEST, 2021.

52. Новохатская О.Д. Обучение русскому языку как неродному. – Москва, 2005.

53. Ниёзметова Р.Н. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий ва методик асослари (рус гурухлари мисолида): Пед. фан. док. ... дис. – Тошкент, 2007.

54. Лapidус Б. А. К вопросу о сущности процесса обучения иноязычной устной речи и типологии упражнений // ИЯШ. № 4. – 2006. – С. 112–122.

55. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. 2-е издание. – Москва: Просвещение, 1991. – 5-б.

56. Расулов Р., Усмонова М., Миразизов М. Ўзбек тили (Олий ўқув юртлари рус гурухлари талабалари учун дарслик). – Тошкент: ТДПУ, 2003.

57. Раупхўжаева М. Ўзбек тили ўқув фанидан ЎММ яратишда нутқ ўстириш мавзуларидаги узвийлик // Узлуксиз таълим жараёнини ўқув методик мажмуалар билан таъминлаш муаммолари: Респ. илм.-амал. конф.мат.-ллари. – Тошкент, 2001. – Б. 228–230.

58. Rafiyev A. O‘zbek tili (ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlar uchun uzviylashtirilgan dastur). – Toshkent: RTM, 2004.

59. Rafiyev A. va b. O‘zbek tili (ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 5-sinfi uchun darslik). – Toshkent, O‘qituvchi, 2015.

60. Rafiyev A. O‘zbek tili (ta‘lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 9-sinfi uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2006. –144-b.

61. Rafiyev A., Niyozmetova R. O‘zbek tili (kasb-hunar kollejlari-ning rus guruhlari uchun o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2006. –160-b.

62. Rasulov R. Mirazizov A. (O‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi muassasalarining ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlari uchun o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 239-b.

63. РТМда ўтказилган амалий семинар-тренинг материаллари // 2006–2007 йиллар бўйича ҳисобот-протоколлар материаллари. – Тошкент: РТМ, 2007.

64. Салишева З. Ўзбек тили машғулотида талабалар монологик нутқини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш (рус гурухларида): Пед. фан.... фалсафа доктори (PhD) дис. – Тошкент, 2019. – 59–61-б.

65. Толипова Р. ва б. Умумтаълим мактаблари учун ўзбек тилидан такомиллаштирилган ва модернизация қилинган ўқув дас-тури. – Тошкент: РТМ, 2004.

66. Толипова Р. XXI асрда тил ўқитиш истиқболлари ҳақида // XXI асрда ўзбек тили таълими масалалари: Ўзбек тили доимий 9-анжумани мат-ллари. – Toshkent, 2007. – 192–193-б.

67. Tolipova R., Ubaydullayeva N. O‘zbek tili (ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarning 4-sinfi uchun darslik). – Toshkent: Sharq, 2005.–143-b.

68. Tolipova R., Qosimxo‘jayeva D., Yo‘ldosheva H. O‘zbek tili (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 5-sinfi uchun darslik). – Toshkent: Sharq, 2005. – 191-b.

69. Tolipova R., Yo‘ldosheva H., Shomirzayeva M., Qosimxo‘jayeva D. O‘zbek tili (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 6-sinfi uchun darslik). – Toshkent: Sharq, 2005. – 157-b.

70. Tolipova R., Is‘hoqova M. O‘zbek tili (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 3-sinfi uchun darslik). – Toshkent: O‘zbekiston, 2007. – 144-b.

71. Tolipova R., Ikromova N. O‘zbek tili (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 2-sinfi uchun darslik). – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 78-b.

72. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологиянинг татбикий асослари – Т.: Фан, 2006. – 13-б.

73. Turdiyeva K., Ahmedova D. O‘zbek tili (oliy hamshiralik ishi ta’lim yo‘nalishi rus guruhleri talabalari uchun darslik). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.

74. Turdiyeva K., Ahmedova D. O‘zbek tili (tibbiyot institutlarining rus guruhleri talabalari uchun darslik). – Toshkent: Musiqa, 2007.

75. Turdiyeva K., Ahmedova D. O‘zbek tili (oliy hamshiralik ishi ta’lim yo‘nalishi rus guruhleri talabalari uchun darslik). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.

76. То‘хлиев В., Shamsiyeva M., Ziyodova T. – O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2006.

77. Умарова Н. Талабалар ўзбекча ёзма нутқини ўстиришда замонавий технологиялардан фойдаланиш методикаси (техника олий ўқув юртларининг русийзабон гуруҳларида): Пед. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2007.

78. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Ўзбек тили (таълим бошқа тилларда олиб бориладиган мактаблар учун) // Таълим тараққиёти. ЎзР Халқ таълими вазирлигининг ахборотномаси, 1-махсус сон. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 262–302-б.

79. Усова А.В., Беликов В.А. Как овладеть рациональными умениями и навыками учебного труда: Методические рекомендации

для учащихся старших классов средней школы. – Магнитогорск, 1990. – Ч.1–30 с. – Ч. 2. – 40 с.

80. Қодиров М. Ўзбек тилидан программа (дорилфунунлар факультетларининг рус гуруҳлари учун). –Тошкент, 1990. –19 б.

81. Қорахўжаева М.. Нофилологик гуруҳ талабалари касбий нутқини феъл асосида шакллантириш методикаси: Пед. фан. ном. ... дисс. – Т., 2002. – 33-б.

82. Қурбонова Г.Н. Тиббиёт институтларининг рус гуруҳларида “Ўзбек тили” фанини ўқитиш жараёнида талабаларнинг ихтисосий нутқи устида ишлаш методикаси. Номз. дисс. – Toshkent, 2000.

83. Общевропейские компетенции владения иностранным языком: изучение, обучение, оценка. – М.: Изд-во МГЛУ (русская версия), 2003. – С. 256.

84. Олий таълим: Меъёрий ҳужжатлар тўплами. 2-қисм. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 731-б.

85. Олий таълим: Меъёрий ҳужжатлар тўплами. 2-қисм. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 66–70-б.

86. “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risida”gi 343-sonli Qarori, 2000-yil 16-avgust.

87. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus, Xalq ta’limi vazirliklarining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qitiladigan umumta’lim fanlari hamda oliy ta’limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash to’g’risida”gi 6/2 4/1-sonli qo‘shma hay’at majlisi Qarori, 2010-yil 1-iyul.

88. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2-jild. – Toshkent: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 582.

89. O‘zbek tili: Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfli uchun darslik / X. Muxitdinova, G. Muxamedjanova, F. Talipova, R.Eshbayeva. – Toshkent: Davr nashriyoti, 2017. – 192-b.

90. O‘zbek tili: /Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfli uchun darslik //X. Muxitdinova, G. Muxamedjanova, F. Talipova, R.Eshbayeva. – Toshkent: Davr nashriyoti, 2018. – 192-b.

91. “O‘zbek tili” fani o‘quv dasturi (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun). – Toshkent, RTM. – 2017. 93. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 3-жилд. – Toshkent, Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2007. – 568-б.

92. Ўзбек тили ўқитиш методикаси (Фахри Камол таҳрири остида) – Тошкент: 1952.



93. “O‘zbek tili” fani o‘quv dasturi (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun). – Toshkent, RTM. – 2017.

94. O‘zbek tili fani bo‘yicha uzluksiz majburiy ta’lim tizimida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar / O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz majburiy ta’lim tizimining Davlat ta’lim standartlari, 2017-yil 10-aprel.

95. O‘zbek tili: Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik /A.Rafiyev, G.Muhammadjonova, T.Toshpo‘latov. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 80-b.

96. O‘zbek tili: Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik / A. Rafiyev, G. Muhammadjonova, G. Ziyamuhamedova. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. – 144-b.

97. O‘zbek tili: Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik /A. Rafiyev, G. Muhammadjonova. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 128-b.

98. Шокиров Ў., Алимжанова М. Ўзбек тили. 2-нашри. – Тошкент: ТАЙИ, 2004.

99. Шчерба Л. В. Преподавание иностранных языков в средней школе // Общие вопросы методики. / Под ред. Рахманова И.В. Изд. 2-е. – Москва: 1974. – 38-б.

100. Xojiyev A., Muxitdinova X. O‘zbekcha-ruscha lug‘at. – Toshkent: O‘qituvchi. – 2018.

101. Ҳолиқбердиев К. Ўқишлар рус тилида олиб бориладиган мактабларда ўзбек тилидан дастлабки таълим: Пед. фан. ном. ... дис. – Тошкент: 1971.

102. Хусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий методик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. – Toshkent, 2006.

## MUNDARIJA

<b>1-mavzu. O‘zbek tilini o‘qitishning maqsad va vazifalari</b> .....	3
<b>2-mavzu. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari</b> .....	11
2.1. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishning asosiy tamoyillari .....	12
2.2. O‘zbek tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar .....	16
2.3. O‘zbek tili ta’limiga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish .....	24
<b>3-mavzu. O‘zbek tili ta’limida uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash</b> .....	30
3.1. O‘zbek tilini uzluksiz ta’lim bosqichlarida o‘qitish .....	30
3.2. O‘zbek tili ta’limida til materiallari va nutq ko‘nikmalari uzviyligini ta’minlash .....	35
3.3. O‘zbek tilini o‘qitishda nutq mavzulari va grammatik qoidalar uzviyligini ta’minlash .....	41
<b>4-mavzu. O‘zbek tili fanining o‘quv-uslubiy ta’minoti</b> .....	49
4.1. Davlat ta’lim standartlari talablari va o‘zbek tilidan belgilangan DTS darajalari .....	49
4.2. Tayanch o‘quv reja va o‘quv dasturi, uning tarkibiy qismlari va mazmuni .....	57
4.3. O‘zbek tilidan yaratiladigan bosma va elektron adabiyotlar, ularga qo‘yiladigan talablar .....	59
<b>5-mavzu. Umumiy o‘rta ta’lim bosqichida o‘zbek tilini o‘qitishning metodik mazmuni</b> .....	65
5.1. Boshlang‘ich sinflarda o‘zbek tilini o‘qitish bosqichlari va mazmuni .....	65
5.2. 5-9-sinflarda o‘zbek tilini o‘qitish mazmuni va tamoyillari ....	74
5.3. 10-11-sinflarda o‘zbek tilini o‘qitish mazmuni va tamoyillari .....	86
<b>6-mavzu. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida o‘zbek tili mashg‘ulotlarining mazmuni</b> .....	93
6.1. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida o‘zbek tilini o‘qitish mazmuni va tamoyillari .....	93
6.2. Kasb-hunar kollejlarda o‘zbek tilini kasbiy-sohaviy yo‘naltirib o‘qitishning metodik mazmuni .....	96
<b>7-mavzu. Oliy ta’limda o‘zbek tilini o‘qitishning metodik mazmuni</b> .....	106
7.1. O‘zbek tili fanidan OTMLar uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratish tamoyillari .....	107

7.2. Oliy ta'limning filologik va nofilologik yo'nalishlarida o'zbek tilidan BKMlarning tadrijiy o'sishi .....	110
7.3. Oliy ta'limda o'zbek tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ijodiy ishlarini tashkil etish .....	118
<b>8-mavzu. O'zbek tili ta'limida lingvistik kompetensiyani shakllantirish .....</b>	<b>123</b>
8.1. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda grammatik materiallarni tanlash va taqsimlash tamoyillari .....	123
8.2. Lingvistik kompetensiyani shakllantirishda grammatik qoidalar va leksik-grammatik mashqlar bilan ishlash .....	136
8.3. Grammatik ko'nikmalarni mustahkamlashga qaratilgan leksik-grammatik mashqlar .....	142
<b>9-mavzu. O'zbek tilini o'qitishda tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini shakllantirish .....</b>	<b>149</b>
9.1. O'zbek tilini o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari .....	149
9.2. Monologik va dialogik nutq shakllarida gapirish ko'nikmasini shakllantirish .....	159
<b>10-mavzu. O'zbek tilini o'qitishda o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish .....</b>	<b>171</b>
10.1. O'qish ko'nikmasining turlari va ularni shakllantirishning metodik jihatlari .....	172
10.2. O'zbek tilida yozish ko'nikmasini shakllantirish .....	177
<b>11-mavzu. O'zbek tili mashg'ulotlarida mashq va topshiriqlar bilan ishlash metodikasi .....</b>	<b>186</b>
11.1. Ikkinchi til ta'limida mashq va topshiriqlar turlari .....	186
11.2. O'zbek tili darslarida o'quv-biluv topshiriqlari bilan bosqichli ketma-ketlikda ishlash .....	197
11.3. O'zbek tili darslarida adabiy o'qish materiallari ustida ishlash .....	212
<b>12-mavzu. O'zbek tili ta'limida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash .....</b>	<b>229</b>
12.1. O'zbek tili mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash .....	229
12.2. O'zbek tilini hamkorlik asosida va tabaqalashtirib o'qitishni tashkil etish .....	244
12.3. O'zbek tilini an'anaviy va masofaviy o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish .....	251
<b>13-mavzu. O'zbek tilini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash .....</b>	<b>258</b>

13.1. O‘zbek tilini o‘qitishda vaziyatli topshiriqlardan foydalanish .....	258
13.2. O‘zbek tilini o‘qitishda keys texnologiyalardan foydalanish .....	268
<b>14-mavzu. O‘zbek tilidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni baholash mezonlari va tartibi .....</b>	<b>280</b>
14.1. O‘zbek tilidan egallangan bilimlarni baholash mezonlari ...	280
14.2. O‘zbek tilidan o‘quvchi-talabalar egallangan til ko‘nikmalarini baholash mezonlari va tartibi .....	285
Xulosa .....	297
Foydalanilgan adabiyotlar .....	298

Qaydlar uchun

---

Qaydlar uchun

---

*O'quv nashri*

**Muxitdinova Xadicha Sobirovna**

**O'ZBEK TILINI  
IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISH  
METODIKASI**

Muharrir *Go'zal Matyoqubova*

Badiiy muharrir *Dilmurod Jalilov*

Musahhihlar: *Adolat Mustafoyeva, Ahror Abdumannonov*

Kompyuterda sahifalovchi *Nigora Sharipova*

Nashr. lits. AI № 290.04.11.2016  
Bosishga 2023-yil 23-yanvarda ruxsat etildi.  
Bichimi 84x108 <sup>1</sup>/<sub>32</sub> Times New Roman garniturası.  
Ofset bosma. 0,0 shartli bosma toboq. 00 nashr tobog‘i.  
Adadi 1000 nusxa. raqamli buyurtma.  
Bahosi shartnoma asosida.

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
100128. Toshkent. Labzak ko‘chasi, 86.

*Telefon: (371) 241-35-47, 241-48-62, 241-83-29*

*Faks: (371) 241-82-69*

**www.gglit.uz**

**info@gglit.uz.**